

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

QOBILJON ISAYEV



UYG'UN
TA'LIM

STARTAP
G'OYASIDAN
MILLIONLIK
AMALIYOTGACHA

TOSHKENT – 2025

UO'K: 65.01
KBK 65.290-2
S 69

Q.A. Isayev. Startap g'oyasidan millionlik amaliyotgacha. – T.:
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025, 484 bet.

ISBN 978-9910-779-55-8

«Startap g'oyasidan millionlik amaliyotgacha» kitobi biznes egalari, tadbirkorlar, o'quvchi va talaba-yoshlarga mo'ljallangan bo'lib, startap fenomeni, biznes madaniyati, muvaffaqiyatli rivojlanish va yuqori daromadga erishish yo'llari borasida dolzarb savollarga javob tariqasida yaratilgan.

Muallif va jamoasining tadqiqiy izlanishlari, jahon startap olamini ko'p yillik kuzatishlari asosida nashrga tayyorlangan ushbu kitob startap borasida o'zbek tilidagi kamyob manbadir.

UO'K: 65.01
KBK 65.290-2

Mas'ul muharrir:

To'lqin Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Sherzod Mustafakulov – Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Baxtiyor Islamov – G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali professori, iqtisodiyot fanlari doktori;

Ismailova Nilufar - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlar nomzodi, professor;

Behzod Hoshimov – Nyu York universiteti professori, kolumnist;

Hasan Mamasidov – Mfaktor loyihasining muallifi, tadbirkor.

ISBN 978-9910-779-55-8

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025.

Muqaddima

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion g'oya va startap loyihalarni tezkor joriy etish mamlakatimizning ushbu sohalardagi dinamik rivojlanishida muhimdir. Shu o'rinda bugun biznes egalari, tadbirkorlar va yoshlarga startap fenomeni haqida nimalar ma'lum, degan haqli savol tug'iladi. Haqiqatan ham qanday biznes madaniyatiga ega bo'lish kerak, kuchli raqobat muhitida qanday harakatlanish lozim, muvaffaqiyatli va yuqori daromadli startap loyihalari xususida nimalarni bilish zarur?

Muallif va jamoasining tahlil va tadqiqiy izlanishlari asnosida yaratilgan "Startap g'oyasidan millionlik amaliyotgacha" kitobi jamiyatimizdagi ana shunday dolzarb savollarga javob bo'la oladi.

XIII bob va II ilovadan iborat kitob startap so'zining mazmunidan tortib noyob yoki yangi xizmatni ishlab chiqishgacha, yangilikka asoslangan biznes tuzilmasini yaratishdan to rivojlanishning dastlabki bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tish va rentabellikka erishishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qadamma-qadam o'rganishga mo'ljallangan. Kelajakka chorlov ruhida yozilgan kitob ayniqsa, innovatsion g'oyalarga ega talaba-yoshlarga o'z faoliyatlariga ishonch uyg'otish, startaplar global bozoriga o'zining tovar, ish va xizmatlarini taklif etish va chiqishida dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Kitobda biznes-modelini kengaytirishni ko'zlagan, yuqori tavakkalchilikka asoslangan startaplarning turlari, yaratilish jarayonidagi eng muhim jihatlar va loyihalarni moliyalashtirish uchun investorlar izlash usullari xalqaro tajribalar, hayotiy misollar asosida keng yoritilgan. Ushbu bir manba orqali mashhur loyihalar,

Tinimsiz izlanishlar asosida kitob o'quvchi-yoshlarga ijobiy motivatsiya bag'ishlash xususiyatini kasb etgan. Negativ odamlardan saqlanish, taniqli tadbirkorlarning biznes treninglarini kuzatish, podkastlar tinglash, onlayn olamdagi eng yaxshi yangiliklardan xabardor bo'lish kabi muhim tavsiyalarga ham ega bo'lish mumkin.

Mazkur kitobda startaplar bo'yicha yozilgan eng sara xorijiy adabiyot va manbalardan foydalanilgan bo'lib, zarur o'rinlarda ma'lumotlar bevosita tarjima asosida aks ettirilgan. Bu kabi adabiyotlar o'zbek tilida sanoqli bo'lganligi bois, tabiiyki, kamchiliklardan holi emas. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, risolada uchragan xatoliklar, ayrim tushuncha va kategoriyalarning asl mohiyati siz o'ylagandek ravon bayon etilmagan bo'lsa, muallif tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik sifatida baholab, uni quyidagi manzilga jo'natishingizni iltimos qilamiz: qobiliy.isaev@gmail.com. Siz o'quvchilar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar kitobning keyingi nashrlarini tayyorlashda xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Muallif mazkur darslikning dunyo yuzini ko'rishida yaqindan ko'maklashgan, jumladan, materiallarni yig'ish va texnik ishlarni bajarishda ishtirok etgan talabalarga, qimmatli vaqtini ayamadan zaruriy taklif va tavsiyalarini bergan barcha ustozlarga, taqrizchilarga o'zining samimiy minnatdorчилигинi bildiradi.

I
B
O
B

Startupning bazis tushunchalari

Startup qanday ma'noga ega?

Startup tushunchasi

Startup – bu o'z foydasini kutib yotgan nazariya va amaliyot o'rtasidagi biznes g'oya bo'lib, u muammo va yechimlar chegarasini belgilovchi tizim hisoblanadi. Buni eshitgan ko'pchilik tadbirkorlar bundan ajablanishadi. Bu so'zlar ularning tushunchalarida bir-biriga mutlaqo ziddek tuyuladi. Startupning dastlabki bosqichida tadbirkorlar an'anaviy boshqaruv amaliyotlaridan qochishga harakat qilishadi, chunki ular bu boshqaruv shakli ijodiy yondashuvni cheklaydi va byurokratiyaga sabab bo'ladi degan xavotirda bo'lishadi.

Startup – iborasi dastlab ingliz kompaniyasi tomonidan qo'llanilgan. Startup, so'zma-so'z aytilganda «Start up», ya'ni biron-bir faoliyatni boshlash ma'nosiga ega hamda ilgari hech qachon qo'llanilmagan g'oyaga nisbatan ishlatiladi.

Startup bu operatsion faoliyatning qisqa tarixiga ega bo'lgan kompaniyadir. Ushbu atama birinchi marta 1976-yilning avgust oyida «Forbes» jurnalida va 1977-yilning sentabr oyidagi «Business Week» xalqaro forumida qo'llanilgan. Ushbu tushuncha 1990-yillarda tilda qolib ketdi va dot-com iqtisodiy pufagi paydo bo'lishi paytida keng tarqaldi. G'oyani ifodalaydigan va rivojlanish uchun moddiy va boshqa qadriyatlarni talab qiladigan loyiha startupning bugungi kundagi asosiy elementiga aylandi. Iste'molchi

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

xulq-atvorini o'rganish metodologiyasini yaratuvchisi bo'lgan amerikalik tadbirkor Stiven Blank startaplarni takrorlanadigan va kengaytiriladigan biznes modelini topish uchun mavjud bo'lgan vaqtinchalik tuzilmalar deb ta'riflagan edi. «Tejamkor startap» («Lean Startup») kitobining muallifi va tadbirkorlikka nisbatan interaktiv yondashuv mafkurachisi Erik Ris ta'kidlashicha, startapni yuqori darajadagi sharoitda yangi mahsulot yoki xizmat yaratadigan tashkilot deb atash mumkin. Tadbirkor, venchur kapitalisti va taniqli biznes koordinatori hamda biznes kombinatori Pol Grem esa tez o'sishni startaplarning asosiy xarakteristikasi deb hisoblaydi (asosiy o'sish ko'rsatkich bo'yicha haftasiga 4%-7%). Mazkur o'sish tendensiyasi bo'yicha mulohazalar PayPal asoschilaridan biri va Facebook ning birinchi sarmoyadori Piter Tiyel tomonidan ham ma'qullangan. Agar startap to'xtab qolsa, u zombi kompaniyasiga aylanadi degan fikrni barcha startap olamida faol bo'lgan biznes vakillari ilgari suradilar.

Startap – bu biznesning istalgan turi, undagi farq bozorda avval foydalanilmagan uslubda (qonun bilan taqiqlanmagan) tovarlar yoki xizmatlar taqdim etishda ifodalanadi. Birgina gap bilan aytadigan bo'lsak, **STARTAP** bu qandaydir yangi g'oya, texnologiya yoki jarayonga asoslangan innovatsion biznes loyihasidir.

«Startap» yoki «startap kompaniya» tushunchasi bu – yangi ishga tushirilgan, rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yurgan hamda bozorga asta-sekinlik bilan kirib borayotgan biznesni anglatadi. Startap kompaniya yoki startap bo'lish uchun biror-bir g'oya ustida ish olib borib mazkur biznesni rivojlantirishga aytiladi.

Startap bu noyob mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqish va uni bozorga chiqarish uchun bir yoki bir nechta tadbirkor tomonidan tashkil etilgan yosh kompaniya hisoblanadi. O'zining tabiatiga ko'ra, odatdagi startap asoschilar yoki ularning do'stlari va oilalari tomonidan dastlabki mablag' hisobidan amalga oshiriladigan operatsiyasiga aylanadi.

Ko'rib turganingizdek, startap uchun beriladigan ta'riflarning chegarasi mavjud emas, chunki u har bir muvaffaqiyatli tadbirkorning o'z tajribasi hamda faoliyati davomida yig'iladigan bilimlar hisobiga vujudga keladi. Ammo Startapning maqsadi va vazifalari deyarli bir xil. Ushbu tushunchalar bilan kitobimizning kelgusi sahifalarida tanishishingiz mumkin.

Startap bu inqilobiy yangilikka asoslangan biznes tuzilmasi va uning maqsadi o'ta noaniq bo'lgan sharoitda yangi mahsulot yoki xizmatni taqdim etish orqali aniq bir muammoni hal qilishdir. Ko'pgina tadbirkorlar va taniqli biznesmenlar startapni aniq maqsadli auditoriyaning tanqidiy og'riq nuqtalarini hal qiladigan innovatsion g'oyaga asoslangan alohida biznes madaniyati va biznesni rivojlantirish mentaliteti deb ta'riflaydilar.

Startapning paydo bo'lish tarixi

Bir asr oldin amerikalik talabalar **Hewlett-Packard** start-up deb nomlangan kichik kompaniya tuzadilar. Avvaliga ular hatto o'z korxonalarining kelajagi katta ekanligiga shubha qilishgan edi. Hozirgi kunga kelib ushbu kompaniya dunyodagi eng mashhur korporatsiyaga aylanadi. Bu – HP (kompyuter va shunga o'xshash texnikalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan) korporatsiyasi edi.

Tarixdagi eng mashhur muvaffaqiyatli startaplar: **Microsoft, Youtube, Google, Apple, Wikipediya, Facebook**. Ushbu startaplar o'ziga xosligi tufayli dunyo miqyosida shuhrat qozongan, uning yaratilishi zamirida juda katta qudratli jamoaviy kelishuv hamda mashaqqatli mehnat turganligini odamlar ta'kidlashadi. Aslida esa bunday emas. Planetamiz gigantlarining barchasi kichik qadamlar bilan boshlagan. Ularning har birini yaratish ortida o'z loyihasini amalga oshirishga intilgan hamfikrlardan iborat kichik bir guruh

jamlangan. Hattoki ushbu gigant startaplarning asoschilari ham o'zlari yaratgan g'oyasini dunyo tan olinishiga ishonishmagan.

Startap mazmuni va mohiyati

Startapning asl mohiyati yangi boshlangan yoxud ishga tushirish bosqichida bo'lgan loyihadir. Startapning asl mazmuni esa biznes g'oyasining mavjudligidir. Shu bilan birga, yangi loyihani amalga oshirish, targ'ib qilish hamda yanada rivojlantirish uchun moliyaviy manbalarga muhtojligi tushuniladi. Boshlang'ich yoki yuqori darajadagi faoliyat sohasidan qat'i nazar, ushbu konsepsiyaga mos keladigan har qanday biznes tashabbusi va g'oyasi startapning asl mazmuni va mohiyati hisoblanadi.

Ba'zi hollarda shunday bo'ladiki, ba'zi kompaniyalar o'zlarining hali amalga oshirilmagan loyiha va g'oyalarini startap deb atashadi, aslida esa startap mohiyati kelajakdagi mahsulotning innovatsionligi, insonlarning muammolariga yechim bo'lishida va kelajakni o'zgartira olishi ekanligini afsuski yoddan chiqarib qo'yishadi.

Startap bu hali rentabellikka erishmagan har qanday biznes

Biroq, yaqinda matbuot va hatto ba'zi biznes-trening ustozlaridan tashkil topgan guruh startapning innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan biznes ekanligi haqida yana bir bor eslatib o'tdilar, chunki u baribir qachondir investorlardan kapitalni jalb qilishi kerak edi-da. Ko'pchilik odamlar turli xil platformalarda o'z biznesini boshlash uchun pul izlashmoqda. Bu qonun-qoidalarning barchasi biznes olamiga yangi qadam qo'yayotgan tadbirkor uchun juda

chalkash vaziyat bo'lishi mumkin. Startapning aniq ta'rifini tushunish uchun biz startap raqobatlashadigan bozor infratuzilmasini bilishimiz kerak bo'ladi.

Aksariyat startaplar to'rtta asosiy turga bo'linadi.

Yangi bozor startapi

Mavjud bozor startapi

Faol dominant o'yinchiga ega bo'lgan mavjud bozor

Ishga tushirilgan klonlash startapi

Yangi bozor startapi

Bozorda yangi startap deb ataladigan yana bir startap turi mavjud bo'lib, unda yangi bozorda foydalanuvchilar va raqobatchilar vaqtincha mavjud bo'lmaydi. Shu sababdan sizda mavjud bo'lgan yangi innovatsion g'oya bo'lgan taqdirda ham uni hech kim o'g'iray olmaydi. Biznesning yangi toifasini yakka o'zingiz yangitdan yaratish uchun ko'plab muammolarga dosh berishingiz lozim bo'ladi. Siz kompaniyangiz tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot haqida bozor maydonida e'lon qilishingiz hamda foydalanuvchilar aynan sizning mahsulotingizni sotib olishni xohlab qolishi uchun bor imkoniyatni ishga solishingiz zarur bo'ladi, bu kabi qiyinchiliklar sizning yuksalish yo'lingizda muhim ahamiyatga ega ekanligini bilib olish va tushunishingiz lozim. Mijozlarning barchasini kompleks jalb qilish qiymati juda yuqori va murakkab. Garchi ko'plab startaperlar mahsulotining yangicha toifasini yaratishga urinayotgan bo'lsalarda, ularning kamchiligi shundaki,

mavjud resurslardan foydalanish o'rniga mutloq yangilik kiritishga urinish oqibatida mijozlarni jalb qilishni ancha qiyinlashtiradi. Siz ko'chaga chiqib shunchaki odamlarga to'g'ridan to'g'ri savollar bera olmaysiz, masalan: «Mening mahsulotlarimdagi ushbu xususiyatni ko'rishni xohlaysizmi?» kabi.

Mijozlaringiz o'z kunlarini qanday o'tkazishini bilib olishingiz yoki ularni qiynayotgan muammolarni yechish uchun ular qancha energiya sarflashlari haqida xabardor bo'lishingiz lozim. Agar siz ularning muammolariga qarshi taqdim etgan yechimingizni ular uchun haqiqatan ham muqobil yechim bo'lsa, mijozlaringizning shaxsiy dunyosida qanday ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishini oldindan aytib berishingiz kerak bo'ladi. Yangi bozorda siz duch kelishingiz mumkin bo'lgan eng katta muammo bu mijozlarni qanday qilib jalb qilishni aniqlashdir. Sizning bozor uchun taklif qilgan mahsulotingiz ommaga notanish bo'lganligi sababli bozor sizning taklifingizni qabul qilgunga qadar daromadingiz bir necha yil ichida siz kutgan natijaga erishishi uchun biroz muddat kutib qolishingiz mumkin. Agar siz mehnatkash va omadli bo'lsangiz, sizning bozordagi qadr-qiyimatingiz keskin oshadi, buning oqibatida siz daromadi yuqori bo'lgan muvaffaqiyatli startaperga aylanasiz. Umid qilamizki, ushbu keskin ijobiy burilish bozorda o'z o'ringizni topish jarayonidagi mablag'ingiz tugamasdan oldin sodir bo'ladi. Amaldagi va yangi bozorlar o'rtasidagi farqni tushunish juda muhim. Mavjud bozorda biznesni boshlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kapital talablari bilan yangi bozorda talab qilinadigan vaqt bir-biridan juda farq qiladi.

Mavjud bozor startapi

Mavjud bozor startapi nima? Mavjud bozorda sizning mahsulotingiz yoki xizmat turingizdan foydalanadigan mijozlar naqd bo'ladi. Siz ishtirok etayotgan bozorda raqobatchilar mavjud bo'ladi. Mavjud bozor turida sizning eng asosiy bajaradigan vazifangiz raqobatchilarning bozordagi ulush kanalini o'zingizga jalb qilish maqsadida mukammal mahsulot turlarini taklif qilishingizdir. Siz bozordagi urush maydonida mavjudligingiz sababli, o'z faoliyatingizning birinchi kunlaridanoq savdo kanallaringiz uchun marketing materiallarini va strategiyalarini ishlab chiqishingiz kerak bo'ladi. Eng katta muammo shundaki, siz o'zingizning segmentingizdagi yagona biznes egasi emasligingiz. Agar reklama va insonlarning ishonchini qozonish borasida yaxshi natija ko'rsata olsangiz, demak, marra sizniki!

Faol dominant o'yinchiga ega bo'lgan mavjud bozor

Mavjud bozorda faol yoki dominant o'yinchi bo'lsa, uning sizga qarshi yo'naltirgan hujumi mahsulotingizni joni omon qolishi, mavhum bo'lib qolishi bog'liq bo'lgan xarajat va budget sarfi taxminan to'rt baravarga oshib ketishi mumkin degan aksioma mavjud. Yaxshisi kichik startapdan boshlang va arzon alternatalarni taklif qiling. Ko'proq funksional, ammo arzonroq bo'lgan muqobil yechim yaratish uchun taklifingiz imkoniyatlarini qisqartirish yoxud cheklash orqali siz arzon narxdagi mahsulot yetkazib beruvchiga aylanishingiz mumkin. Ehtimol, siz bozorning amaldagi yetakchisining mijozlar bazasining kichik segmenti haqida juda ko'p narsalarni bilarsiz, lekin bozor buni e'tiborsiz qoldiradi. Masalan, haydovchi ayollar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Agar avtomobillarni ta'mirlash ustaxonasi

ayollarga tegishli avtoulavlarga xizmat ko'rsatishga e'tiborini qaratsa va xizmat to'liq bo'lishi mumkin. Mavjud bozorni yetakchidan yutib olish uchun savdo va marketing bilan segmentga ixtisoslashgan bo'lsa, ona-bola maydonchasi, ya'ni ayollar uchun alohida kutish joyini joriy qiling, ana shunda ayol haydovchilarning bolalari onasi mashinasining moyi yoki shinalari almashtirilgunga qadar kutish maydonchasida o'ynab turadi. Bu albatta xavfsiz va innovatsion yechim, chunki onalar bolalaridan muntazam ravishda xavotirda bo'lishadi, siz esa bu xavotirni izlanuvchanligingiz tufayli xotirjamlikka aylantirasiz.

Ishga tushirilgan klonlash startapi

Startapning yana bir turi mavjud bo'lib, bu boshqa mamlakatda ishlatiladigan biznes modelini klonlash usulidir (nusxa ko'chirish). Bozorda o'ziga xoslik uchun mukofot yo'qligini unutmang. Ko'plab teleko'rsatuvlar (amerikaliklarning analoglari), kliplar, Barbie qo'g'irchoqlarining analoglari bu klonlarni yaratishga ilhom beradigan mahsulotlar, hattoki ba'zi biznes vakillari uchun juda foydali startaplardir.

Innovatsion yangilik

Agar kimdir o'z mahsuloti yoki xizmati orqali o'z mijozlariga yangi qiymat turini joriy qilsa, bu startap deb hisoblanadi. Biroq, innovatsion yangiliklar faqat mahsulot yoki xizmat bilan cheklanmaydi. Ko'plab startaplarda innovatsion yondashuv umuman yo'q. Biroq, ular:

- Internetga ega bo'lganligimiz sababli (mobil ilovalar va boshqa onlayn vositalar) mavjud bo'lgan turli xil innovatsion kanallar orqali mahsulotni yetkazib berish;

- mavjud mahsulot va xizmatlarni yig'uvchi kompaniyalarga aylanish;

- mavjud mahsulot va xizmatlarni yangi bozorlarga yo'naltirish.

Shu kabi masalalar mavjud bo'lganligi sababli mutloq startap g'oyasi bilan to'yintirilmagan mahsulotlar ham yuqoridagi omillarga tayangan holda bozorda o'z mavqeyini ushlab turishi mumkin bo'ladi.

Noaniqlik

Innovatsion mahsulot yoki xizmat yaratish jarayoni har doim xavfli jarayon hisoblangan. Startapning istiqbolli taqdiriga ta'sir qiluvchi ko'plab ichki va tashqi omillar mavjud.

Boshlang'ich korxonalarining aksariyati gipotezalar asosida qurilganligi sababli startapning omon qolish istiqbollari har doim noaniqlikicha qoladi. Startap har doim xavf va noaniqliklar bilan bog'liq va ular bilan o'ralgandir. Hech qanday buyuk kompaniya yo'qki, bu kabi qiyinchiliklarni chetlab o'tgan.

Startap loyihalari noaniqligi haqida muhokama qilayotganda, doimo Ilon Maskning so'zlari yodingizga tushishi kerak: *«Biznesni boshlash juda qiyin. Bu tubsizlikka qarash va stakanni chayqashga o'xshaydi»*.

Muammolar yechimi

Innovatsiyalar tug'ilish konteksti startapni kichik biznesdan ajratib turadigan omildir. Startap hozirgi vaziyatni o'zgartirish, maqsadga erishish yo'lini yaxshilash yoki aniq bir muammoni hal qilish uchun mo'ljallangan majburiyat tufayli tug'iladi. Startapning asl maqsadi har doim muammoni hal qilish orqali dunyoga yaxshi ta'sir ko'rsatishning innovatsion usulini topishdir.

Murakkab muammolarni hal qilgan muvaffaqiyatli startaplarga misollar:

Uber startap g'oyasi qoniqarsiz taksining xizmat ko'rsatishdagi muammosi va mijoz uzoq vaqt mashinani kutish oqibatida kelib chiqqan holda tug'ilgan. Ular har bir mayda detaligacha yuqori standartga o'tkazdilar, oddiygina taksiga qo'ng'iroq qilish va to'lovni osonlashtirish jarayonini hamda kutish vaqtini sezilarli darajada qisqartirdilar.

Yana bir misol **AirBnB**. Ushbu xizmat hal qilgan muammo bu mehmonxonalarning qimmat narxi va mehmonxonada tunab qolganda, sayohatda bo'lgan shaharning haqiqiylik kayfiyati yo'qligi. Kompaniya a'zolari mehmonxonaga tashrif buyurgan har bir mijozni o'zlarining mahalliy aholisi kabi qabul qilish orqali turar joyga sarf bo'ladigan xarajatni tejash uchun imkoniyat yaratdilar. Bu misollardan shunday xulosaga kelamizki, eng yaxshi startap g'oyasi insonlarni qiynayotgan muammoga, ya'ni og'riqli nuqtaga rotatsiya qilishdir.

Startup rentabelligi

Qoida tariqasida boshlang'ich startaplarda dastlabki bosqichlarda xarajatlar daromadlardan oshib ketadi, chunki faol rivojlanish strategiyasini amalga oshirish, mahsulotni sinovdan o'tkazish va marketing kompaniyalari mazkur xarajatlar oshib ketishiga olib keladi. Ular doimiy ravishda xarajat talab qilib turadilar.

Bu ko'pincha tashqi moliyalashtirish amaliyotini ham talab qiladi. Kerakli mablag'ni bir necha usul bilan olish mumkin:

- banklardan yoki kredit uyushmalaridan boshlang'ich biznes uchun an'anaviy kredit berish;
- mahalliy banklarda davlat tomonidan kichik biznesni kreditlash dasturlari;

- notijorat tashkilotlari yoki mahalliy hokimiyat organlarining grantlari;
- biznes-inkubatorlar va akseleratorlar (ham kapital, ham foydali maslahatlar berishi mumkin);
- do'stlar va oila a'zolari;
- venchur moliyalashtirish (pul yordami evaziga siz boshqaruvning bir qismini topshirasiz va kompaniyada ulush olasiz).

Startapning asosiy maqsadi

Startapning asosiy maqsadi pul ishlashdir. Kompaniya qurishning dastlabki bosqichida siz qanday biznesni qurmoqchi ekanligingizni hal qilishingiz kerak. Kompaniya siz ilgari qurmoqchi bo'lgan biznes rivojlanib mo'may daromadga kirgandan keyin sotmoqchi bo'lgan biznes bo'lishi ham mumkin yoki siz o'zingizning naqd sigiringizga aylanadigan kompaniya qurishingiz ham mumkin. Biznesni rivojlantirishning boshida maqsadlardan xabardor bo'lish ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatiga bog'liq. Startapning ikkinchi asosiy maqsadi – professional jamoani jalb qilish. Sizga pul ishlashda davom etadigan pul inkubatorini yaratish. Biznesni rivojlantirishning dastlabki bosqichida kerakli tizimlar hali mavjud bo'lmaydi, shuning uchun ko'p narsa kompaniyada ishlaydigan odamlarga bog'liq. Agar biznes avval boshqa loyihalarda ham ishtirok etgan guruh bilan boshlansa, bu eng yaxshi natijalarni beradi. Ammo bu holatda ham qo'shimcha ravishda mutaxassislarni jalb qilish zarur bo'ladi. Odatda bunday odamlar o'z ishi uchun ko'p pul oladi yoki «g'oya uchun» ishlaydi, kelajakda bundan ham ko'proq pulga sotiladigan biznesni egallab olishga umid qiladi.

Keling, Tejamkor startapning eng real bo'lgan maqsadlarini ko'rib chiqamiz:

1-maqсад. Minimal hayotiy mahsulot

Maqsad: Iloji boricha tezroq amalga oshishi zarur.

Minimal hayotiy mahsulot bu siz ishlab chiqarayotgan mahsulotning eng dastlabki versiyasidir. O'zingizning xizmatigizni birinchi takrorlanishini yaratib, siz o'z vaqtida foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini qabul qilishingiz va ushbu ma'lumotlarga asoslanib mahsulotni takomillashtirishingiz mumkin. Sizning MVPingiz juda sodda bo'lishi kerak, ammo yetarli darajada funksional bo'lishi ham zarur, shunda siz teskari aloqa asosida kelajakda aynan qaysi sohada ishlashingiz kerakligini tushunishingiz mumkin bo'ladi.

“Aksariyat startaplar muvaffaqiyatsizlik bilan yakun topadi, ularning mahsulot sifati yomonligi uchun emas, asl sababi bu mahsulot hech kimga kerak emasligida».

Erik Ris

MVP (Minimal Viable Product) – qiymati minimal darajadagi mahsulot.

Maksimal darajada ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan mahsulotning minimal darajadagi narxiga aytiladi. Odatda, MVP faqat bitta funksiyaga ega, uning maqsadi ma'lum bir iste'molchi muammosini maksimal darajada hal qilish. MVP-ni rivojlantirishning eng qiyin tomoni bu narx va sifatning optimal nisbatini topishdadir.

MVPning asosiy maqsadi

Mahsulot xarajatlari gipotezalarini minimal darajada sinab ko'rish.

- Yechim yaratish uchun ma'lumotlar oqimini maksimal darajada tezlashtirish.

- Rivojlanish vaqtini tejash.
- Mahsulotni tez va hamyonbop tarzda yetkazib berish orqali iste'molchining kamida bir turdagi muammosiga yechim yaratib berish.

Har bir mahsulot versiyasi MVP tizimida bo'lishi kerak.



2-maqсад. Yopiq beta-sinovi

Yopiq beta-sinovi – bu mahsulotning bozorga, ommaviy iste'molchiga taqdim etilishidan oldin ularning kamchiliklarini bartaraf etish uchun uning ishlash tizimidagi xatolarning maksimal sonini aniqlash maqsadida mahsulotning tayyor versiyasidan (odatda dasturiy ta'minot yoki apparat) intensiv foydalanish. Ya'ni mahsulotdan tajriba quyunchasi tariqasida foydalanish.

MVPni yaratganingizdan so'ng siz xaridorlarning fikr-mulohazalarini eshitishga e'tiboringizni qaratishingiz kerak. Buning eng yaxshi usullaridan biri cheklangan miqdordagi foydalanuvchilarga mahsulotingizning beta-versiyasiga kirishni taklif qilishdir. Ushbu mahsulot sizning biznes maqsadlaringiz ro'yxatida ikkinchi bo'lishi kerak. Sizdan beta-testda ishtirok etish uchun taklifnoma olgan mijozlar siz e'tiboringizni qaratishingiz kerak bo'lgan guruhingizdir – xatolar va mahsulotdagi xatolarni qayta ishlab chiqishda siz ularning fikriga tayanasiz.

3-maqсад. Asosiy xodim

Siz MVPni ishlab chiqdingiz, uning beta-versiyasini (qayta ko'rib chiqilgan yoki takomillashgan versiya) sinab ko'rdingiz va mahsulotingizdagi birinchi kamchiliklarni bartaraf etishni boshladingiz. Ushbu bosqichda siz asosiy xodimni – kompaniyangizni keyingi bosqichga ko'tarishi mumkin bo'lgan mutaxassisni tanib olishingiz kerak. Mijozlar sizning xizmatigingizga muhtojligini hattoki mahsulot va bozor talablariga javob beradigan darajaga erishganligini tasdiqladingiz kerak – malakali kadrlar yordamiga murojaat qilish vaqti keldi.

4-maqсад. Qayta loyihalash/takrorlash

Beta-test haqida fikr-mulohazalarni olganingizdan so'ng qo'yiladigan keyingi qadam. Biznesdagi hayotingiz davomida quyidagi siklni boshqarishingiz kerak: tashqi va ichki rivojlanish, teskari aloqa, urinishlarni takrorlash, qayta loyihalash, tafakkur etish va yana takrorlash. Ammo, sizning biznes maqsadlaringiz haqida gap ketganda, birinchi mahsulot o'zgarishi yopiq-beta ishtirokchilaridan fikr-mulohazalarni olgandan so'ng darhol yuz berishi kerak.

Ushbu bosqichda siz o'zingizga quyidagi savollarni berishingiz kerak:

1. Mijozlar duch keladigan eng katta muammo nima?
2. Qanday muammolarga biz qayta-qayta yana duch kelamiz?
3. Mendan to'g'ridan to'g'ri tarzda yoki shikoyatlar shamasi ostida nima so'rashmoqda?

5-maqсад. Ochiq beta-versiyasi

Ochiq beta-versiyasiga oid juda ham ko'p tushunchalar mavjud, ulardan eng ko'p uchraydigani mahsulotni

takomillashtirish uchun qanday takliflar borligini bozorning ochiq maydonida raqobatchilarning ko'zlariga tik qaragan holda mijozlardan so'rovnoma o'tkazishdir. Mahsulotingiz foydalanishga yaroqli va jamoat foydalanishga tayyor bo'lganda qilishingiz kerak bo'lgan vazifalar.

Xizmatizingizning ochiq beta-versiyasida ishga tushirishga tayyormisiz? Ushbu qadam yopiq beta-test bosqichidan o'tgandan so'ng amalga oshiriladi. Siz o'zingizning potensialingizga ishongan holda PR va Marketing-kompaniyalarga xarajat qilishga tayyorgarlik ko'rgan hamda sizning texnologiyalaringiz bir necha minglab yangi foydalanuvchilar bilan ishlashga qodir ekanligiga ishonch hosil qilganingizdan so'ng ushbu test turiga o'tish lozim.

6-maqsad. Asosiy voqelik

Ikki yil davomida ochiq beta-versiyasini muntazam qo'llash.

Mahsulot ochiq beta-versiyasida ishga tushirilgandan so'ng siz 4-maqsadda aytib o'tilganidek, rivojlanish sikliga amal qilishingiz kerak bo'ladi. Bu kabi strategiyalarni ishga tushirganingizdan so'ng ikki yil ichida o'zingizning biznes maqsadlaringizdan kamida bittasi uchun muhim marralarga yoki startapning rentabelligiga yo'naltirilgan bosqichgacha ko'tarilishingiz kerak bo'ladi.

7-maqsad. Investitsiyaning birinchi raundi

Mahsulotingizni sarmoyaga loyqligini isbotlay olish bosqichi.

Agar investorlar sizning biznesingiz uchun sarmoya kiritishini istasangiz eng avvalo kuchli dalillarni keltirib ularni ishonchli ma'lumotlar bilan to'yintirishingiz kerak. Darhaqiqat, siz yuqorida sanab o'tilgan biznes maqsadlarining har birini muvaffaqiyatli bajarganingizdan mamnun bo'lmaguningizga

qadar biznesni yo'lga qo'yish uchun dasmiya sarmoyasini so'ramasligingiz kerak. Bu startaplarni boshqarishda duch kelinadigan eng og'riqli muammo hisoblanadi.

Geoff Ralston startaplar loyihalarni moliyalashtirish to'g'risidagi maqolasida quyidagi fikrni bildirgan:

"Investorlar biznesning sarmoyasi uchun chekka yoziladigan summalarni mutaxassislar jamoasi o'z qarashlarini amalga oshira olishiga va ular tasvirlab bergan imkoniyatlari yetarli darajada real hamda foydali ekanligiga ishonch hosil qilgandagina yozadilar. Agar startap asoschilari o'zlarini loyihalarining barcha tafsilotlarini shu tarzda taqdim etishga tayyor bo'lsalar, sarmoyaga chanqoq biznes vakillari mablag' olishga muvaffaq bo'ladilar."

Ma'lumotlar bazasiga monand biznes qiling!

Startup mazmuni va mohiyatini anglash uchun quyidagi omillar bo'lishi lozim:

1. Taklif etilayotgan mahsulot yangi bo'lishi maqsadga muvofiq, ya'ni mahsulot yangicha dizaynda va sotib oluvchi shaxsning ongida bunday mahsulot turi avval mavjud emasligiga ishontirish lozim. Ishga tushirilgan loyiha innovatsion g'oyani targ'ib qilishi yoki eskisining takomillashtirilgan modelini o'z ichiga olishi kerak. Ushbu funksiya tufayli ko'plab startap loyihalar belgilangan sxema bo'yicha ishlaydigan va innovatsiyalarni joriy qiladigan yirik kompaniyalar bilan raqobatlasha oladi. Biznes g'oyaning bozordagi qiymati va dolzarbligi haqida ham yetarlicha fikr yuritish lozim. Har qanday biznes rejada qandaydir maqsadlar, manfaatlar va g'oyalar mavjud. Bu biznes g'oyasi iste'molchilar auditoriyasini bunga qiziqтира oladimi yoki yo'qmi degan savolga zudlik bilan javob bera olishi kerak.

Demak, startap g'oyasi qimmatli va istiqbolli bo'lishi kerak. Faqat ushbu omillar mavjud bo'lgan holatdagina startap g'oyasi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu sababli, internetda jamoat mulki tarkibida mavjud bo'lgan standart biznes g'oyalar albatta startap uchun mos emas. Startap g'oyasidan boshlab toki katta biznes uchun qo'yilgan qadamlarning aksariyati yosh ijodkorlarga tegishlidir. Hech kimga sir emaski, taniqli muvaffaqiyatli g'oya mualliflari o'zlarining startap loyihalarini deyarli talabalik yoshlarida yaratdilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, startap asoschilarining o'rtacha yoshi 30 yoshgacha bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa, kerak, ba'zida yangi boshlagan ishbilarmonlarning g'oyalari «garaj» startapchilari deb nomlangan haqoratli tamg'ani olganlar.

2. Jamoa bilan ishlash. Kamdan kam hollarda ajoyib startap g'oyasi individual kishidan kelib chiqadi. Muvaffaqiyatga erishgan insonlarning barchasi startap ustida ishlaydigan butun bir uyushgan guruh bo'lganlar: jamoani mafkuraviy, ma'naviy va to'g'ri boshqarganlar. Tashabbuskor startap guruhining har bir a'zosi o'z rolini mukammal darajada ijro etgan. Kimdir istiqbolli mahsulotni ishlab chiqarish bilan shug'ullansa, yana kimdir biznes-reja bilan mashg'ul bo'lgan, boshqalari esa iste'molchi auditoriyani, investorlarni, yetkazib beruvchilarni izlaydi. Ularning har biri o'z vazifasini chuqur mas'uliyat bilan anglaydi, ularning tamoyilida faqatgina jamoaviy ish muvaffaqiyatga olib borishi tushunilgan. Guruh bilan ishlashning yana bir yaxshi misoli shuki, loyiha tashabbuskorlarining tavakkalga moyilligi va oldindan tayyorgarlik ko'rishidir. Ko'pincha, startap asoschilari o'zlarining aql-idroklariga hamma narsani, jumladan ruh, kuch-quvvat, g'ayrat va mablag'ni sarflaydilar. Shuning uchun tashabbuskor shaxs o'z rejasini amalga oshirish uchun barchasini xavf ostiga qo'yadi, ya'ni tavakkal qiladi. Shuhratparast ijodkor har

doim tavakkal qilishga tayyor bo'ladi, chunki u o'z g'oya-sining muvaffaqiyatiga qattiq ishonadi.

3. Shaxsiy moliyaviy manbalarning yetishmasligi. Ushbu nuqtani startapning asosiy farqlovchi xususiyati deb atash mumkin. Buning ajablanarli joyi yo'q: o'z g'oyalariga ixlosmand yoshlar ulkan loyihani yaratadilar. Ularda katta xohish, kuch, g'ayrat bor, lekin amalga oshirish uchun mablag' yetishmaydi. Shuning uchun startap loyihalari har doim sarmoyaga muhtoj. Loyihaga pul oqimlarini jalb qilish uchun siz o'z g'oyangiz bilan investorlarni qiziqtirishingiz va ularni sarmoyalashga undashingiz kerak. Investor uchun asosiy dalil – bu foyda olish imkoniyatini isbotlash.

Startapning maqsadi – haqiqiy muammoni hal qilish uchun mo'ljallangan innovatsion yechimni taklif qilish orqali tez unib-o'sish.

Startapni belgilaydigan aniq mezon yo'q. Biroq, ushbu atama ko'pincha innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot yaratadigan kompaniyalarga nisbatan qo'llaniladi. Ular mutloq yangi narsani kashf qilishadi yoki eskisini modernizatsiya (zamonaviylashtirish) qilishadi.

Startapni qanday qilib barpo qilish mumkin?

Ushbu kitobda aytganlarimizga asoslanib, siz startap qayerdan boshlanishi va uning negizida nimalar mavjudligi haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lishingiz mumkin. Shunga qaramay, startapni yaratish va ishga tushirish boshlanadigan asosiy bosqichlardan hali xabardor emassiz.

Startapni yaratish jarayoni 5ta asosiy bosqichdan iborat:

1. Haqiqiy muammoni aniqlash. Muammoni toping, agar u hal etilsa, ma'lum bir bozor segmentining (auditoriya) hayotini sezilarli darajada yaxshilaydi.

2. Bozor tadqiqotlari. Odamlarda bunga qanchalik ehtiyoj borligini va bozorda ushbu muammoni hal qilishning qanchalik yechimi borligini aniqlang.

3. Innovatsion yechim yaratish. Muammoni qandaydir yangilik bilan hal qilish yo'lini toping. Bu texnologiyani qo'llash yoki ish jarayonlarini tashkil etishda yangicha yondashuvlarni qo'llash bilan bo'lishi mumkin.

4. Jamoa tuzish. Sizing fikringizga ishonadigan va uni amalga oshirishda siz bilan ishlashga tayyor bo'lgan sizdanda a'lo fikrlovchi odamlarni toping.

5. Biznes olamiga yangilik kiritish qidiruviga o'ting. Ushbu bosqichda siz o'zingizning mahsulotingizni maqsadli auditoriyaga, o'z g'oyangizni investorlarga sotishga harakat qilishingiz va o'zingizning biznesingizni tez va uzoq muddatli o'sishini ta'minlaydigan biznes modelini qidirishingiz kerak.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sizning g'oyangiz to'satdan foyda keltirish ehtimoldan yiroq emas, balki sizni qo'rqitgan qiyinchiliklarga duch kelmaysiz. Ammo bularning barchasini tinimsiz ishlashni davom ettirish orqali yengib o'tish mumkin.

Startap uchun eng muhim narsa nima?

Startap nafaqat bozorda yangi yosh o'yinchining paydo bo'lishi, balki yangi ehtiyojlarni maksimal darajada qondiruvchi mexanizmdir. Ishga tushirilgan loyihaning

yana bir asosiy xususiyati – bu investorlarning yordami. Barcha bozor talablariga javob bera oladigan startap loyihalari mablag' jalb qilinishiga muhtoj. Hattoki eng ajoyib g'oyani ham sarmoyasiz amalga oshirib bo'lmaydi. Startap loyihalari ma'lum bir talablarga javob berishi kerak. Farzand tug'ilishi bilanoq ota-onaga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi, uni kamolga yetkazish, barcha xarajatlarini qoplashi, zarar yetkazadigan bo'lsa, zararlarni qoplashi kerak bo'ladi. Farzand oyoqqa turishi uchun ota-onaning roli qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, startap loyihalarining qad rostlashi uchun ham investorlar shu darajada muhim hisoblanadi.

G'oyani rivojlantirish va uning amalga oshirilishi bozor auditoriyasini qiziqitira olishi kerak. Hech bir investor o'z mablag'larini xavf ostiga qo'ymaydi va targ'ibotga sarmoya kiritishni rad etmaydi. Sarmoyachilar guruhini qiziqitirish uchun loyihangiz turi tijoratlashtirilgan bo'lishi shart emas. Jamiyat vakillari ularga qiziqish bildirsa, ilmiy-texnikaviy, tadqiqot yoki axborot loyihalari ham mavjud bo'lish huquqiga ega bo'ladi.

Investitsiya – boshlangan loyihaning hayotiyligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunga kelib turli xil investitsiya platformalari yaratilmoqda. Startap loyahasini moliyalashtirish sikli qanday ishlaydi? Aytish kerakki, ikkala tomon, korxonalar ijodkori ham, investor ham muvaffaqiyatidan manfaatdor bo'lishi shart. G'oya muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, hamma foyda ko'radi. Biroq investorning xavfi startap g'oyasi muallifiga solishtirganda ancha yuqori bo'ladi. Ammo foyda xavf bilan mutanosibdir. Agarda loyiha kutilgan natijani bersa investor foydasining moliyaviy ulushi g'oya yaratuvchisining daromadidan sezilarli darajada oshib ketadi. Loyiha tashabbuskorlarining asosiy manfaatlari nafaqat moliyaviy, balki ma'naviy hamdir. Ijodkor o'zining timsolini ko'rish, e'tirof etilishi uchun barcha sa'y-harakatlarini o'z loyigasiga sarflaydi. Ba'zi

hollarda, startap loyiha ishlab chiquvchi uchun sevimliroq mashg'ulot bu g'oyani amalga oshirishdir.

Startap g'oyani amalga oshirish loyiha muallifining harakatlari uchun shunchaki mukofot bo'ladi. Ma'no shuki, hamma startap asoschilari ham moliyaviy manfaat uchun ijod qilmaydilar. Investorlar loyihaga boshqacha nazarda qarashadi. Ular uchun asosiy vazifa o'z kapitalini ko'paytirishdir. Investor sarmoya qilish uchun o'zining potensialiga mos bo'lgan ikkita usulni qo'llab-quvvatlaydi. Biznes rivojlanishi bilan investorning ulushi qiymati sezilarli darajada ko'tariladi yoki investor barqaror passiv daromad olish uchun biznesdagi ulushini saqlab qoladi. Ikkala tomon ham foydaning taqsimlanishi to'g'risida oldindan muzokara olib boradi. Loyihadan tushadigan daromadning asosiy qismini investor ulushi tashkil qilishi tabiiy holatdir, chunki investor o'z mablag'larini moliyalashtirish uchun katta xavf-xatarga rozi bo'ladi va katta tavakkal qiladi. Startap loyihasi asoschisining ulushi odatda foydaning 10 foizigacha bo'ladi. Agar loyiha ulkan muvaffaqiyatga erishadigan bo'lsa, bu kichik foiz ham g'oya muallifiga mo'may daromad taqdim etishi muqarrar.

Kompaniya startapini qay darajada manfaatli va daromadli ekanligini aniqlashning eng yaxshi usuli bu uni startap g'oyasi bo'lmagan korxonalar bilan taqqoslashdir. Bu yerda startapni tashkil etilgan biznesdan ajratib olishga imkon beradigan mezon mavjud.

Startap klassifikatsiyasi

Demak, startapning turlarini ko'zdan kechirib chiqamiz. Ular odatda reklama qilingan mahsulot va bozor segmentining xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi. Bunga monand quyidagi turlar ajratiladi:

Klonlash. Bu turdagi startap xorijda muvaffaqiyatli yaratilgan startap loyihalarning to'liq nusxasini ko'chiradigan startaplar sirasiga kiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar shunday klonlanadi. Xitoy amaliyoti isbotlaganidek ushbu klonlash yondashuvi juda istiqbolli hisoblanadi. Maqsadlari bu qisqa yo'l orqali raqobatchilarni yo'q qilish va ma'lum bir bozor segmentini egallashga qaratilgan loyihalardir. Bunday kompaniyalarning boshqa kompaniyalardan yagona ustunligi bu arzon narx taklifidir.

Xaltadagi mushuk – mutlaqo innovatsion g'oyaga ega loyihalar. Ushbu startaplarning rivojlanish istiqbollari va kelajagi noaniq. Bunday g'oyalarni targ'ib qilish tashabbuschi uchun katta xavf hisoblanadi. Agar loyihaning istiqbollari oldindan aniq ko'ra oladigan investorlar paydo bo'lsa, startap loyihasi katta foydaga ega bo'lishi mumkin. Bu g'oyaning yangiligi va raqobatning qay darajada ekanligiga bog'liq. Shuningdek, startaplarning innovatsion darajasi va texnologik samaradorligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Yuqori texnologiyali innovatsion loyihala. Agar bu kabi loyihalar amalga oshirilsa, ular juda yuqori daromad keltirishi mumkin. Ammo uni ishga tushirish katta moliyaviy sarmoyalarni talab qiladi, shuning uchun unga faqatgina katta sarmoyalar yordam berishi mumkin bo'ladi.

An'anaviy loyihalar. Muvaffaqiyatli biznesni boshlash uchun innovatsion g'oyani asos qilib olish shart emas. Muvaffaqiyatli startaplar oddiy g'oyalar asosida yaratilganiga misollar talaygina. Ularni amalga oshirish oson, shuning uchun loyiha ijodkorida kafolatlangan foyda olish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Startup g'oyalarning rivojlanish bosqichlari

Har bir startup loyihasi quyidagi algoritmgaga muvofiq rivojlanadi:

1. Prognoz qilish. Ushbu keng qamrovli biznes sikli g'oyani qidirishni va uni amalga oshirish usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda tashabbuskorlar jamoasi bozorni tahlil qiladi va olingan ma'lumotlar asosida biznes-reja tuzadi. Texnik topshiriqlar ishlab chiqilgach mahsulot prototipi yaratiladi, shu jarayonlardan muvaffaqiyatli o'tilganlar keyin sinovdan o'tkaziladi. Shu bilan birga, guruh mahsulotga bo'lgan talabni o'rganadi va investorlarni qidiradi. Agar mablag' bilan ta'minlovchi manbalar topilmasa loyiha amalga oshirilmasdan oldin tugaydi. Aksariyat startaplar shu kabi birinchi bosqichda tugaydi.

2. Ishga tushirish. Ushbu bosqichda sarmoyalarni jalb qilish imkoni mavjud bo'lsa, g'oyani rivojlantirish mumkin bo'ladi. Bu yerda mahsulot bozorga realizatsiya qilinadi, shu jarayonda mahsulot raqobat sharoitida o'zining ustunligini isbotlashi kerak bo'ladi. Bozorda mustahkam o'rnini egallagan tengdoshlari bilan raqobatlashish oson emas. Ushbu bosqichga kirish boshlang'ich startaperlar uchun katta xavf hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda sizga professionallik, qat'iyatlilik, ixtirochilik, yaratuvchanlik va ishbilarmonlik yondashuvi kerak bo'ladi. Maqsadli segmentning befarqlik darajasi yuqori bo'lsa, loyiha albatta muvaffaqiyatsiz bo'ladi.

3. O'sish tendensiyasi. Raqobatchilarga qarshi kurashda omon qolgan loyihalar ushbu bosqichga o'tishlari mumkin. Agar mahsulotga barqaror talab mavjud bo'lsa, va u bozorda o'z o'rnini egallashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, biz zararsizlanish nuqtasidan o'tilgan deb hisoblashimiz mumkin bo'ladi. Ushbu bosqichga o'tgan paytdan boshlab investorlar ozgina bo'lsa, ham foyda olishni boshlaydilar.

4. Diversifikatsiya qilish. Agar ishlab chiquvchilar kutilgan maqsadlarga erisha olsalar ular bu bosqichda to'xtamasliklari kerak. Ushbu bosqichda mahsulotni reklama qilish hamda bozorlarga chiqilishini ta'minlaydi. Hech qanday omil avval erishilgan mahsulot pozitsiyasiga tahdid sola olmaydi. Bu bosqichda bozorga taqdim etilgan mahsulot iste'molchilarning nazdida taniqli va sevimli bo'lib olishga yetarli bo'ladi. Natijada unga bo'lgan talab o'z-o'zidan o'sadi, shuning uchun ham daromadlar tendensiyasi oshadi.

Rivojlanish istiqbollari

Startap loyihasining konsepsiyasi o'z-o'zidan innovatsion yondashuv ma'nosini nazarda tutadi. Ammo shunga qaramay, yangi ish boshlagan ishbilarmonlar ko'pincha kichik qadamlardan boshlash o'rniga keng qamrovli tanlovlar to'g'risida o'ylashadi: ular bozordagi xaridorlar turlarini o'rganib segmentlash o'rniga qarama-qarshi yo'l tutadilar. Bugungi kunda tadbirkorlar va investorlarning startaplarga qiziqishi barqaror ravishda oshib bormoqda. Innovatsion mahsulotlar va loyihalarga ega kompaniyalar har doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab innovatsion g'oyalarning atigi 10 foizigina rivojlanadi.

Prognozlarga ko'ra, yaqin kelajakda quyidagi sohalarda talab hajmi katta bo'lishi kutilmoqda:

- moliya sohasidagi xizmatlar;
- atrof-muhitni yaxshilash texnologiyalari;
- tibbiyot texnologiyasi;
- telekommunikatsiya va ommaviy axborot vositalari;
- sog'liqni saqlash loyihalari;
- ijtimoiy tarmoq;
- iste'mol sohasi.

Startup loyihalarni moliyalashtirish uchun investor izlash usuli

Ushbu mavzuni batafsilroq muhokama qilish lozim. Agar startup loyihalarida dolzarblik kabi xususiyatlar mavjud bo'lsa, katta foyda olish imkoniyati tug'iladi. Aynan shu jihatlar sababli o'z kapitallarini yanada ko'paytirishni istagan investorlarning e'tiborini jalb qilishlari mumkin. Startup loyiha asoschisining asosiy bajaradigan vazifasi mahsulot ishlab chiqarishni bevosita nazorat qilish va tashkilotning biznes rahbari sifatida faoliyat yuritishdir. Ko'pchilik startaperlar faqatgina foyda olish bilan cheklanib qolishdan ko'ra ko'proq kompaniyani yanada diversifikatsiya qilishga e'tibor qaratadi. Taxminan qiymati 1 milliard dollar va undan ortiq bo'lgan startaplar «bir pallali startap» deb nomlanadi. Ushbu nom muvaffaqiyatli startapning o'ziga xos ta'rifiga aylanib ulgurgan. Garchi, bir qarashda taxminiy qiymati 1 milliard dollardan yuqori bo'lgan istiqbolli va innovatsion startaplar muvaffaqiyatsizlikka uchraganiga misollar ko'p bo'lishiga qaramay, bu nom ostida juda ko'p loyihalar mavjud va faoliyat olib borishmoqda. Ba'zi startap loyihalarni yirik kompaniyaga aylantirish uchun biznesning joriy xarajatlarini qoplash maqsadida o'zlarining moliyaviy aktivlaridan (shaxsiy yoki qarzga olingan kapitallardan) foydalanadilar. Natijada, investitsiyalarni jalb qilish bosqichida startapning taxminiy qiymati har doim ham dastlabki yillarda olingan haqiqiy daromadga mos kelavermaydi. Shu sababdan, mutaxassislar va investorlar startapning potensial qiymatini hisobga olishadi, chunki investorlar bilan uchrashuvda taqdimotda keltirilgan reallikka emas, balki rejalashtirilgan foyda, prognozlar, tendensiyalar va ko'lamlarni rejalashtirishga asoslangan. Startup g'oyalarning tug'ilishi odatda uning asoschisi tomonidan ixtiro qilingan mahsulot yoki xizmat tushunchasi hisoblanadi.

Shubhasiz, investorlarni faqat kelajagi istiqbolli startap loyihalar qiziqtiradi. Shuning uchun ham startaperlar mablag' olish imkoniyatlarining ko'lamini oshirishga harakat qilishi lozim. Vakolatli biznes-reja tuzish va mahsulotingizning taqdimotini tayyorlash kerak bo'ladi. Investorga taqdim qilinadigan g'oya mutlaqo yangiligi bilan investorlarni o'ziga jalb qilishi va shu bilan birga boshqa loyihalardan ajralib turishi kerak. Ehtimol, investor bir nechta raqobatdosh taqdimotlarni kam vaqt sarflash maqsadida ko'rib chiqishi mumkin. Shu sababli startaperlarning asosiy vazifasi – bu eng yaxshi taassurot qoldirishdir. Taqdimot maksimal darajada qisqa va lo'nda bo'lishi kerak. Investorga loyihaning rentabelligi va eksklyuzivligini sodda hamda vizual tarzda ko'rsatish kerak. Shuni e'tiborga olish kerakki, sarmoyaga ega odamlar o'z pullari va vaqtlarini juda qadrlashadi.

Investor mavzuga doir bazis tushuncha va umumiy bilimga ega bo'lmasligi mumkin, shuni hisobga olgan holda startap loyahasining moddiy qiymati, kelajakda olib keladigan manfaati shu darajada sodda bo'lishi kerakki, uni hatto belgilangan bilimlarga ega bo'lmagan odam uchun ham ravshan bo'lishi kerak. Tushuntirish shu darajada sodda va lo'nda bo'lishi lozim. Faqat loyihaning mohiyatini aniq va turlicha medotlar yoki misollar yordamida tushuntirish kerak bo'ladi. Loyihalar hech qanday lirik chekinishlar, hayotdagi voqealar va balandparvoz gaplarsiz bo'lishi investor uchun birinchi qoidadir. Investorlar qop-qop va'dalar uchun pul to'lamaydilar. Ularni o'z loyihangiz kutilgan natijani berishiga ishontirishingiz kerak. Bu prototiplarni sinash bo'yicha statistika yoki hech bo'lmaganda asosli prognoz bo'lishi kerak.

Yorqin va esda qolarli taqdimot bu kuchli ta'sir kuchiga ega targ'ibotning zarur tarkibiy qismidir. Investitsiyalarni izlash bosqichida loyihada raqobatbardosh tashabbuslarga toqat qilish mumkin emas. Faqat muqobil g'oyalar

mavjudligini inkor etish va o'z mahsulotingizni yagona foydali sarmoya sifatida taklif qilish lozim.

Muvaffaqiyatli startapning tarkibiy qismlari

Muvaffaqiyatli startap loyihasi qay ko'rinishda gavdalanadi? Muvaffaqiyatli startapning aniq belgilari to'g'risida hali hech qanday gipoteza mavjud emas. Iqtisodiyot, ilm-fan yoki texnika bo'lsin, har qanday sohaning o'z qonunlari va muvaffaqiyat mezonlari mavjud. Har qanday muhitda loyihalar dinamikasi: muntazam ravishda o'zgarib, takomillashib, rivojlanib boradi. O'zgarishlar deyarli har kuni sodir bo'lmoqda. Shuning uchun muvaffaqiyatli mahsulotni yaratish uchun siz uzoqni ko'ra bilish hamda strategik fikrlashga ega bo'lishingiz kerak. G'oyangiz o'z bozoriga mos tushadigan mavjud tendensiyalarni prognoz qila oladigan bo'lishi kerak.

Loyihaning muvaffaqiyati to'g'ridan to'g'ri tanlangan mahsulotga, u yo'naltirilgan segmentga va ijodkorlarning izlanuvchan guruhiga bog'liq. Jamoa o'z loyihasiga to'liq vakolatli bo'lishi kerak. Faqatgina professionallik, jamoaviy ish va g'olibona fikrlash muvaffaqiyat martabasiga olib kelishi mumkin.

Reklama qilinadigan mahsulot investorlar uchun ham iste'molchi auditoriya uchun ham yorqin, jozibali bo'lishi kerak. Startap loyihalari oddiy yoki kam funksiyali bo'lishiga mumkin emas. Qo'shimcha mablag' jalb qilish uchun loyihani rag'batlantirish kerak. U axborot ko'magiga va uni targ'ibot qilishga muhtoj. Loyihani ishga tushirishdan avval uni to'liq o'rganish kerak. Mahsulotdagi xatolik va nuqsonlar ko'zdan qochirilmasligi kerak, bu uning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Agar barcha talablar a'lo darajada bajarilsa, har

qanday loyihalar ham to'laqonli va o'zini o'zi ta'minlaydigan startapga aylanish imkoniyatiga ega.

Startup muammolari

Ko'plab startup loyihalari birinchi qadamlarni mablag'siz boshlagan degan fikr mavjudligi startup g'oyasiga ega shaxsning katta xatosidir. Hatto ajoyib g'oyangiz bo'lsa, ham sarmoyasiz loyihani ko'tarish mumkin emas. Agar mutaxassislar jamoaga jalb qilingan bo'lsa-yu, savdo bo'lmasa, ular ertami-kechmi moliyaviy sabablarga ko'ra loyihani tark etishadi, chunki har kim oilani boqishi va kunlik xarajatlarini qoplashi kerak. Oxir-oqibat jamoada nomuta-hassis odamlar paydo bo'la boshlaydi. Jamoa bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikkinchi muammo siz investitsiyalarni optimallashtirishingiz va faqat sizning budjetingiz imkon beradigan mutaxassislarni sotib olsangiz yoki bunga majbur bo'lsangizgina sodir bo'ladi. Bir yil o'tgach, biznes rivojlanib borishi bilan barcha top-menejerlarni almashtirish kerak, chunki, odatda, siz oddiy vositalar bilan yollangan mutaxassislar endi biznesni rivojlantirishning keyingi bosqichida o'z vazifalarini bajara olmaydilar. Ya'ni kuchsiz bo'lib qoladilar, ularning salohiyati katta yutuqlarga olib bora olmaydi. Kompaniya muvaffaqiyatga erishishi uchun, hech bo'lmaganda asosiy shaxsning biznes uchun zarur bo'lgan o'z potentsiali bo'lishi kerak. Startaplar duch keladigan yana bir muammo shundaki, kompaniyada sodir bo'layotgan voqealarni nazorat qilishi, biznesni boshidanoq tashkil qilish, va boshqaruvga oid yana ko'zga ko'ringan-ko'rinmagan sabablari tufayli kompaniya rivojlanmaydi hamda keskin o'sish darajasiga chiqa olmaydigan texnikaga duch keladi. Agar siz keyinchalik sotishni rejalashtirgan startup g'oyalarini qurayotgan bo'lsangiz sizga sotuvchilar

kerak bo'lmaydi. Aksincha, ular kerak, ammo ular katta foyda keltira olmaydi.

Loyihani ishlab chiqishning dastlabki bosqichida startap uchun maqsadni qanday muvaffaqiyatli belgilash kerak? Ya'ni qanday reja tuzish kerak?

Startapni rivojlantirishda strategiyani rejalashtirish aniq harakatlar va real maqsadlarni talab qiladi. Albatta, maqsadlarni belgilash juda qiyin jarayon bo'lib, mahsulot, foydalanuvchilar va ko'rsatkichlarsiz maqsadlarni belgilash yanada qiyinroq hisoblanadi. Rivojlanishning dastlabki bosqichida startap loyihasining maqsadlarini belgilash jarayonning har bir ishtirokchisining roli va vazifasini darhol aniqlashga yordam beradi. Buni har bir ko'rinishda umumiy sabab bo'lgan mexanizm bilan taqqoslash mumkin. Biz sizga boshlang'ich dasturning amalga oshirish vektorini aniq tanlashda yordam beradigan qisqa qo'llanmani e'tiboringizga havola etamiz.

1- qoida: Kichik maqsadlarni aniqlang

Ushbu qoida qiyin emas, faqatgina kichik maqsadlarni belgilashni nazarda tutadi xolos. Kichik maqsadlarga erishish qiyin bo'lishi mumkin, ammo ularga erishilgandan so'ng u aniq va kompleks bo'lishi kerak. Aksariyat tadbirkorlar o'zlarining his-tuyg'ulari va ehtirolari tufayli haqiqiy bo'lmagan vazifalarni belgilaydilar. Ushbu yondashuv noto'g'ri va beparvolikdir. Doimiy ravishda global va real bo'lmagan maqsadlarga qaraganda kichikroq maqsadlarga erishish jarayoni juda yoqimli. Sizga «3 chorak maqsadlar» usulidan foydalanishni tavsiya etamiz. U qanday ishlaydi? Chorak uchun uchta kichik, ammo real maqsadlarni aniqlang,

ularni startup ishtirokchilari orasida taqsimlang. Chorak uchun belgilangan vazifalarning ahamiyati jamoani umumiy natijaga erishishga yo'naltiradi, shuningdek, har kimga ikkinchi darajali vazifalar va loyihalar ustida parallel ishlashga imkon beradi. Startupning maqsadlarini belgilashni bolaning birinchi qadamlari bilan taqqoslash mumkin. Barchamiz xato qilishimiz va qayta urinib ko'rishga qodirmiz, qisqa muddatli kichik vazifalarni bajarish sizga kerakli natijaga tezroq erishishda yordam beradi.

2-qoida: O'jarlik qilishni bas qiling

Agar sizning rejalaringsizdan birontasi ish bermasa, tushkunlikka tushmang. Qaysar bo'lmang, ishlamaydigan eski usullarni qoldiring va yangi maqsadlar qo'ying. Rivojlanishning boshlang'ich bosqichida startup loyihani amalga oshirish uchun 3–6 oy vaqt kerak bo'ladi. Haftalik yig'ilishlarga o'zingiz rahbarlik qiling, jamoa bilan ko'proq muloqot qiling, ularni tanqid qilmang, yordam berishga harakat qiling. Real hayotda, ko'pincha, barcha yorqin startup g'oyalar tushunmovchilik va umidsizlik lahzasida tug'iladi. Tezkor reaksiya jamoaga maqsadni his qilish va unga erishish imkonini beradi. Muntazam olib borilgan yig'ilishlar va jamoa bilan yaqin aloqalar rivojlanishning muhim asosidir. Har qanday dinamika jamoaning natija jihatidan qayerga cho'kib ketganini tushunishga yordam beradi. Agar sizga qisqa muddatli maqsadlarni qo'yish qiyinchilik tug'dirsa, startup rejangizni ko'rib chiqing va loyihangiz qaysi bosqichda ekanligini aniqlang. harakatlar dinamikasi aniq bo'lgandan so'ng, loyihaning muammoli sohasiga e'tibor qaratish osonroq bo'ladi.

3-qoida: OKR¹ tizimi yoki maqsadning natijasi

Murakkab va aniq maqsadlarni qo'yish jamoaning ularga erishishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradi va oshiradi. Masalan, Google o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yishga va taraqqiyotni kuzatishga harakat qilish uchun «maqsadning asosiy natijasi»dan foydalanadi. OKR tizimi rivojlanishning dastlabki bosqichida startap loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishning ma'lum qadamlarni bajarishga javobgardir:

- Asosiy natijaning darajasini o'lchash mumkin. Masalan, 0 dan 10 gacha bo'lgan ballar tizimidan foydalanib.
- Har qanday qo'yilgan katta maqsad, albatta, qiyinchiliklar tug'diradi va siz bunga tayyor bo'lishingiz kerak.
- Kutilayotgan asosiy natijalardan jamoaning har bir a'zosi ma'lumotga ega bo'lishi lozim.
- Qabul qilingan OKRning 60–70% amalga oshishiga vazifalar muntazam va izchil bajarilgandagina erishiladi.
- Baholangan past ball – startapning ma'lum bir sohasidagi muammo haqida signal beradi.
- Maqsadning asosiy natijasi sifati jamoani baholash bilan sinonim emas.
- OKR tizimi umumiy vazifalar ro'yxatining bir qismi bo'lolmaydi.

OKR katta maqsadlarni belgilash orqali startap dasturni amalga oshirish tizimidan foydalanish oddiy maqsadlarni belgilash usulidan tubdan farq qiladi. OKR-tizimi jamoalar va shaxslarga qulaylik zonasidan chiqib ketishga, yuklatilgan vazifalarga jiddiy yondashishga, muvaffaqiyatsizliklardan saboq olishga yordam beradi. Aynan shu yondashuv butun jamoaga diqqatni jamlash va yuqori maqsadlarga erishishga yo'l ochadi. Ushbu metodologiyadan foydalanish

¹ OKR (Objectives and Key Results) – maqsadlar va asosiy natijalar, startap strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'luvchi ishlar jamlanmasi.

riyojlanishning dastlabki bosqichida startap loyihagini amalga oshirish uchun to'g'ri yo'nalishni belgilashga asos bo'ladi.

4- qoida: Maqsadlarni motivatsiya va bajarilgan ishlarni o'lchash bilan bog'lamang.

Vazifalar o'rniga harakatlantiruvchi kuch sifatida natijalardan foydalangan holda, ushbu usullar metrikalar orqali muvaffaqiyatning har bir bosqichida javobgarlikni mukofotlaydi. Masalan, to'g'ri tuzilgan OKR tizimi jamoani birgalikda ishlashga undaydi. Ushbu uslub shaffoflikni, hisobdorlikni va xodimlar vakolatlarini oshiradi. Ammo qat'iylik ba'zi holatlarda sifatsizlikdan iborat bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli, «maqsad va asosiy natija» jamoaga qarshi qaratilgan qurol emas, aksincha, bu muhim bo'lgan ustuvor vazifalarni belgilashda yordam berishini anglash darkor.

5- qoida: Jamoa javobgarligini shakllantirish

Butun jamoa tarkibi aniq vazifalarni bajarish bilan kompaniyaga qanday qiymat keltirishini tushunishi muhimdir. Muayyan guruh a'zolariga ma'lum bir hafta davomida o'rganganlari bilan o'rtoqlashishni tayinlash orqali siz ularni doimiy natijalarga erishishga undashingiz mumkin. Jamoa bilan bo'ladigan haftalik uchrashuvlarda kompaniya faoliyatiga kiritilgan yangilik va erishilgan natijalarni doimiy ravishda tahlil qilib boring. Har bir xodim o'sish tajribalarini boshqalar bilan baham ko'rishini ta'minlang. Ushbu aloqa modeli har bir startap ishtirokchisiga o'z ishi uchun javobgarlikni his qilishga imkon beradi. Agar sustroq ishlashga moyil zaif ijrochilar bo'lsa, bu o'sish strategiyasining

namunasi ularni mahsuldorligini oshirishga undaydi. Startap maqsadlarni belgilash omillarining uzoq muddatli jarayoni bo'lib, bu kompaniyaning turli harakatlanuvchi qismlariga ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni tushunishni talab qiladi. Shuning uchun yaxshi o'ylangan o'sish strategiyasi va maqsadlari muhim ahamiyatga ega. Har xil usullarni sinab ko'rishni davom ettirish, yangi qoidalarni joriy etish va ushbu qoidalar natijalarini tahlil qilish kelajakda har qanday maqsadlarga erishishga va aniq, qulayroq bo'lishini tushunishga imkon beradi.

Kitobimizning shu sahifasigacha startap turlari, uning tushunchalari, mazmun va mohiyati, maqsadlari va boshqa biznes turlaridan farq qiladigan xususiyatlarini o'rganib chiqdik. Aziz o'quvchi, sizning ruxsatingiz bilan endi amaliy ma'lumotlarga o'tsak. Ushbu sahifada biz qanday qilib startap g'oyasi yordamida onlayn biznes yaratishni sakkiz usuli orqali o'rganib chiqamiz. Bu usullar noodatiyligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi, bunga siz kitobni o'qish davomida amin bo'lasiz.

Demak, boshladik!

Yigirmanchi asrning o'rtalarida, shaxsiy biznesni boshlash ko'pchilik odamlar uchun imkonsiz bo'lgan. O'sha damlardagi holat biznes vakillari uchun juda ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, biznes boshlash uchun katta moliyaviy mablag'larni talab qilishdan tortib katta tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan muammolar o'z zahri-qotili bilan investor va korxonalar vakillarini suiqasd qilishgacha olib kelgan. Yigirmanchi asrning oxiriga kelib internet tarmoqlari paydo bo'lishi bilan vaziyat keskin o'zgardi. Internet tarmog'i paydo bo'lishi texnologiyalarning rivojlanish trendini keskin oshirib yubordi, ha shunday do'stim, qo'lingizdagi telefondan toki stolingizdagi notebookkacha bo'lgan oraliqdagi texnologik o'zgarishlarga texnologiya rivoji chambarchas bog'liqdir. Shu

kabi o'zgarishlarning har yili jadal rivojlanishi biznes boshlash uchun qo'yilgan moliyaviy, qonuniy va ijtimoiy baryerlar sonini kamaytirdi. Shunga qaramay, boshlang'ich tadbirkorlar orasida o'z biznesini boshlash uchun katta sarmoyalar yoki loyihani moliyalashtirish istagi bor bo'lgan boy sarmoyadorlar o'zlarining zarur degan fikrlari ular shunday keng shart-sharoitlardan o'zlarini o'zlari orqaga qaytarishmoqda. Aslida, bugungi kunda siz o'zingizning uyingizdagi qulay sharoitda va kamroq budget bilan ham onlayn biznesni boshlashingiz mumkin. Internetda chegaralarning yo'qligi sizga dunyoning turli burchaklaridan mijozlarni topishga va daromadingizni tezda oshirishga imkon beradi.

Xo'sh! Unda nimadan boshlash kerak?

Bu savolga siz quyidagi oltinga teng bo'lgan maslahatlardan javob olishingiz mumkin.

1. Istiqboli bor bo'lgan biznes g'oyasini izlab toping

Xarajatlar: 0 \$

Istiqbolli g'oyani topish uchun Silikon vodiysida yashash, mamlakatning eng yaxshi universitetida o'qish yoki muntazam ravishda biznes-konferensiyalarda qatnashish shart emas. G'oyalar hamma joyda mavjud.

Asosiysi, ularni ilg'ab olishni o'rganishdir.

Yangiliklarga intilayotgan tadbirkorlar orasida uchraydigan eng katta noto'g'ri tushuncha bu g'oya tesha tegmagan va innovatsion bo'lishi kerak deb o'ylashidir. Ko'p odamlar fikricha, o'ziga xoslik muvaffaqiyat kaliti. Ammo real amaliyotda bu kabi fikrlar faoliyatga katta ehtimol bilan foyda keltirmaydi.

«Originallik – bu o'z manbalarini yashirish san'ati».

Franklin Jons.

Muvaffaqiyatli bo'lish uchun mutlaqo yangi narsani ixtiro qilish, yoxud innovatsion g'oya bo'lishi shart emas. Yaxshisi nimadandir kichik qadamlar bilan boshlash muhimroq. Sizdan oldin kimdir allaqachon qilgan narsani yaxshiroq qilish sizni cho'qqilarga ko'tarishi hech gap emas. Bu boshlanayotgan qadamlar g'oya o'g'irligi tufayli emas, balki mavjud imkoniyatdan samarali foydalanish hisoblanadi. Xuddi shu yoki shunga o'xshash g'oyaga ega bo'lgan biznes turi sizni aslo qo'rqitmasligi kerak. Aksincha. Agar kimdir sizning g'oyangizni allaqachon amalga oshirgan bo'lsa, demak, kimdir ehtimol bu bozor g'oyasini o'rgangan, o'z o'rnini topgan, potensialni ko'rgan, biznes-reja tuzgan, jamoani yig'gan va imkoniyatni qo'lga kiritgan hamda bu g'oyaning biron-bir narsaga arziydi deb topgan.

Biznesda birinchi bo'lish muhim emas. Eng yaxshisi biznesda mavjud bo'lish muhim. Undanda muhimrog'i iste'molchilar ko'proq sevadigan narsalarni taqdim qilish. Sizni raqiblardan ko'ra ko'proq qiynaydigan omillar bo'lishi mumkin: dizayn, sifat, qo'llab-quvvatlash, narx, imij, tovar qadriyatlar va boshqalar. Agar mana shu omillar sizning faoliyatingizda, mahsulot yoki xizmatyatingizda bir xil tus olgan bo'lsa, ham, siz har doim o'z-gacha yo'nalishlarda raqobatlasha olasiz.

Ushbu misollar yuqoridagi so'zlarni isbotlaydi:

Google dunyo yuzini ko'rgan paytda u birinchi qidiruv tizimi bo'lmagan. Ushbu kompaniya boshqacha yo'l bilan ishlaganligi uni boshqa qidiruv tizimlari oldida qadr-qiyamatini ziyoda qildi. Vaholanki, undan oldin minglab qidiruv tizimlari bo'lgan, misol uchun, Yahoo! Lekin bugungi kunda Google eng ommabop qidiruv tizimiga aylandi.



Facebook tarmog'i yer yuzida birinchi ijtimoiy tarmoq hisoblanmagan. Whatsup, Viber va Telegram singari tarmoqlari ham birinchi messenger bo'lmaganlar. Ammo bugungi kunda ko'pchiligimizning telefonimizda yuqoridagi ijtimoiy tarmoqlar ilovalari o'rnatilgan, kerak bo'lsa, aksariyat ishlarimiz ularsiz bitmaydi.



Dreus tomonidan yaratilgan Bits birinchi quloqchin emas edi. Bugungi kunda ular eng mashhur va sevimli mahsulot turlari hisoblanadi.



Tesla elektromobil kompaniyasi tarixda birinchilardan bo'lib elektromobillarni ishlab chiqargan kompaniya hisoblanmaydi. Uning asoschisi Ilon Mask buni yaratish uchun shunchaki bor imkoniyatni ishga solgan va bu mahsulot bugungi kunning eng ko'p navbat bilan kutiladigan mahsulot turiga aylandi. Bunday misollar ro'yxati cheksiz davom etishi mumkin.



Siz kashfiyotchi bo'lishingiz shart emas. Odamlarga kerak bo'lgan narsani taqdim etishingiz muhimroq. Buni qolganlarga qaraganda yaxshiroq bajarishingiz kerak. G'oyalar hamma joyda mavjud. Ularni tanib olishni o'rganish muhimdir. G'oyaning istiqbollarini qanday baholash mumkin? Tasavvur qiling, sizda yurak urishini tezlashtiradigan texnologiya ishlab chiqish g'oyangiz bor, u tufayli siz kechalari uxlamaysiz, chunki siz kechasi bilan u g'oyani takomillashtirish haqidagi o'ylarni to'xtata olmaysiz, boshingizdagi ssenariylarni chizishni to'xtata olish uchun o'sha tunni uyqusiz qurbon qilasiz. Sizdan oldin bu fikrni kimdir amalga oshirmaguncha, hamma narsadan voz kechib, imkon qadar tezroq ishni amalga oshirishga harakat qilib qolasiz.

Siz harakatni boshladim, endi hammasi tezlashib ketadi deb o'ylaysizmi?

Yo'q! Bunchalik tez emas.

G'oyani munosib baholash uchun avvalo unga 3 ta savolni berish zarur:

1. G'oyaning muvofiqligi. Texnik tomoni. Sizing vaqtingiz va mablag'ingizni yetarli daraja sarflagan holda sizning g'oyangizni amalga oshirishi mumkinmi?

2. Hayotiylik. Biznes tomoni. Sizing fikringizdagi biznes modelida daromad va foydani kattalashgan holda olib kelishiga ishonch bormi?

3. Jozibadorlik. Bozor sizning mahsulotingizga muhtojmi? Sizing mahsulotingiz muammoni hal qiladimi? Agar shunday bo'lsa, qaysi biri? Ushbu muammoni hal qilish uchun bozorning qaysi segmenti kerak?

Agar sizning g'oyangiz amalga oshirilsa, lekin sizning biznesingiz rentabelligini ta'minlash uchun hech kim mahsulot uchun yetarli narxni to'lashni istamasa, siz boshqa g'oyani izlashingiz kerak bo'ladi. Ammo sizning biznes g'oyangiz barcha uch o'lchovga mos tushadigan bo'lsa, siz izlanishingizni davom ettirishingiz mumkin.

2. G'oyani tasdiqlash

Xarajatlar: 10 \$

Odamlar sizning mahsulotingizni xarid qilishiga ishonch hosil qiling. Odamlar hayratlanishi ularning pul to'lashini anglatmaydi.

Agar kimdir sizning g'oyangizni maqtasa: «Ajoyib! Agar shunday narsa bo'lsa, edi, men albatta sotib olardim», desa

ishonmang, u aslida sotib olishga hali amin bo'lmagan bo'ladi. Shunday qilib, g'oyani tasdiqlashdan maqsad odamlar yaratadigan narsalaringiz uchun haqiqatan ham pul to'lashga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilishdir. Tadbirkorlar orasida eng keng tarqalgan xato – ko'r-ko'rona ishonish, bu tasdiqlash bosqichi bo'lib, u katta mablag' va minglab dollarga tushadigan mustahkam prototipni talab qiladi. Ammo bu haqiqatmi yoki aksimi bilishingiz mumkin.

Prezi, Figma yoki **Draftium** kabi bepul vositalardan foydalangan holda mahsulotingiz, dastur prototipi yoki veb-saytingizning batafsil taqdimotini o'tkazishingiz mumkin.

MVP (minimal hayotiy mahsulot) yaratish uchun ishlab chiquvchilar guruhini yollashga aslo ehtiyojningiz yo'q. Shunga qaramay, fikr-mulohaza olish uchun siz nimanidir ko'rsatishingiz kerak. Chunki odamlar g'oyalarni yomon taraflaridan boshlab eshitadilar. Vizuallarni tayyorlang va odamlar bilan muloqot qilish uchun minbarga chiqing. G'oyalarni tasdiqlashning eng oson usullaridan biri bu qahvaxona eksperimenti.

Bironta mahalliy qahvaxonaga boring, stolga o'tirib, yoningizga «Vaqtingizning 10 daqiqasida sizni qahva bilan mehmon qilaman, mening g'oyam haqida sizning fikringizni bilishga qiziqaman» degan yozuvni qo'ying. Sizga faqat vizual (Taqdimot yoki dastur prototipi) va g'oyangizning mohiyatini qisqacha bayon qilish kifoya qiladi. Odamlarni o'z stolingizga taklif qiling va halol fikr evaziga ular bilan fikringizni o'rtoqlashing. Sizga yuzlab odamlardan intervyu olishning hojati yo'q. 5–10 kishidan qahva taklif qilish orqali intervyu olganingizdan so'ng, ularning javoblaridagi o'xshashliklarni sezasiz va sizning fikringiz qanchalik istiqbolli ekanligini tushunishga, biron-bir yo'nalishni yaratishingizga imkon tug'iladi. Bu jonli aloqa olishning eng oson, eng arzon va tezkor usullaridan biridir. Bundan tashqari, siz ularning g'oyangizga nisbatan kayfiyatini

tushunishingiz mumkin bo'ladi. Buning sababini ham bilib olishingiz ancha oson bo'ladi. Qaysidir kishi mahsulotingizga oid fikringizning u yoki bu jihatini yoqtiradi, agarda yoqtirmaganini aytadigan bo'lsa, undan nima uchun bunday ekanligini so'rang. Sizning respondentingizni shunday deb o'ylashining nima sababi borligini bilib oling. Bu sizga odamlar nimani xohlashi va ushbu ehtiyojlarni qanday qilib eng yaxshi yo'l bilan qondirishingiz mumkinligi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Fikringizni o'zgartirishga yoki takomillashtirishga yordam beradigan ma'lumot to'plang va undan xulosalar chiqaring.

Ko'rib turganingizdek, g'oyaning dastlabki tasdiqlanishi katta mablag' sarflamasdan turib amalga oshirilishi mumkinligini isbotlaydi. Ammo cho'ntagingiz ko'tarsa, kofe bilan birga, sizning respondentlaringizga qo'shimcha shirinliklar olib bergan holatda munosabatda bo'ling.

Odamlar sizning mahsulotingiz uchun pul to'lashga tayyor ekanligi haqidagi haqiqiy tasdiqqa kelsak, u holda siz o'zingizning auditoriyangizni batafsil o'rganib chiqib, mahsulot taqdimoti sifatini oshirgandan so'ng, hali mavjud bo'lmagan mahsulotingizni sotishga harakat qiling. Ya'ni oldindan buyurtma oling.

Buni oddiy ochilish sahifasiga ega saytlar va onlayn reklama (**Google Adworde**, **Facebook Ads**) yordamida amalga oshirish mumkin:

Mahsulot tavsifi bilan ochilish sahifasini yarating.

- Mijozlar jalb qiladigan reklama o'rnating.
- Mahsulotning bir nechta qismli qilib sotishga ko'proq e'tibor qarating.
- Odamlarga «Kechirasiz, bizda texnik muammolar mavjud. Shuning uchun biz hozirda sizning buyurtmangizni bajara olmaymiz. Istasangiz pulingizni qaytarib beramiz» deb javob qaytarishga tayyor bo'ling.

Tabriklaymiz! Bir nechta buyurtmalar sizning mahsulotingizga ma'lum talab mavjudligini ko'rsatadi. Siz o'z fikringizni tasdiqladingiz. Endi mahsulotingizni yarating!

3. O'rganishni o'rganing va o'zingizni eng yaxshi narsalar va bilimlar bilan oziqlantiring

Xarajatlar: 0 \$

Biznes boshlashning eng muhim shartlaridan biri bu doimiy o'qitish tizimiga ega bo'lish. Agar siz ko'p narsalarni bilib olgan taqdiringizda ham biznesga oid olgan bilimlaringizdan ham ko'proq narsani bilmasligingizni anglab yetishingiz biznes olamida yetakchi bo'lishingizga sabab bo'lishi mumkin. Ammo biznesni boshlash va «yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish» uchun o'rganishni davom ettirish biznes boshlash uchun ozgina kech qolishga sabab bo'lishi mumkin. Siz hozir boshlash uchun yetarlicha tayyormisiz? Tez orada bir vaqtning o'zida juda ko'p narsalar bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi, ammo mahorat va bilimdagi mavjud bo'shliqlar bilan harakat qilish va bu bo'shliqlarni bir kun kelib kerakli bilimlar bilan to'ldirishga umid qilib harakat qilmaslikdan ko'ra yaxshiroqdir. Ammo bu qanchalik erish tuyulmasin, siz ham juda ko'p o'rganishingiz kerak.

Faqat **Google**ga so'rovlarni yozish hamda ba'zi mavzular bo'yicha haotik ravishda tarkibni iste'mol qilishni o'rganish bilan ish bitmaydi. To'g'ri ma'lumotni kerakli manbalardan topish, bilimlarni muntazam ravishda singdirish va miyadagi shovqinlarni filtrlash yuksalishga yo'l ochadi. Agar ekspertlarda bilim yetarlicha bo'lmasa, unda kimdan o'rganish kerak? Sizning asl muammoingiz: maqsadlaringizga erishishda yordam beradigan, sizni boshqaradigan va o'rgatadigan odamlar bilan o'zingizni o'rab olmaganingizdir. Darhaqiqat, atrofni o'zgartirish va o'zingizni to'g'ri yo'lga solish uchun hech qanday joyga ko'chib o'tishingizga hojat

yo'q. O'zingizni eng yaxshi narsalar bilan o'rab olishingiz uchun 3 ta oson qadam:

1. Atrofdagi axborot shovqinini miyangizdan chiqarib tashlang.

■ Agar sizning o'zingiz biznesda o'zingizga yordam bermasangiz, har xil keraksiz yangiliklarni ko'rishni to'xtatmasangiz, miyangiz va tanangizga har xil jirkanch yuvindilar to'kib to'ldirishni bas qilmasangiz tez orada fikrlaringiz chalkashib ketadi. Bu odatingiz bilan siz vaqt o'tgan sari har xil psixologik va jismoniy muammolarga duch kela boshlaysiz. Yangiliklar oldin ham bo'lgan va bo'laveradi, ularni ko'rib soniyalaringizni sarflashdan saqlaning.

■ Telefoningizdan ko'p vaqt va joy talab qiladigan dasturlarni olib tashlang.

2. Negativ odamlardan saqlaning.

■ Salbiy odamlar bilan muloqotni to'xtating. Ular sizdagi energiya va motivatsiyani so'rib olishadi.

■ Sizning qiziqishlaringiz mos kelmaydigan odamlar bilan munosabatlarni to'xtating.

3. Taniqli onlayn tadbirkorlarning biznes treninglarini doimiy kuzatish uchun ro'yxatdan o'ting.

■ Podkastlarni tinglang.

■ Ko'proq kitoblar o'qing, qiziqarli vloglar va YouTube kanallarini kuzatib boring.

Ko'rib turganingizdek, atrof-muhitni so'zma-so'z o'zgartirish qobiliyatining yetishmasligi, uni boshqa yo'l bilan o'zgartira olmasligingizni anglatmaydi.

Onlayn olamdagi eng yaxshi narsalar bilan o'zingizni o'rab oling. Mutaxassislarning tajribalaridan iste'molchi sifatida foydalaning va o'z bilimlari hamda tajribalarini baham ko'rish jarayonida ularning fikrlarini tinglang!

Yaxshilardan o'rganing va sizga o'rgatishlariga imkon bering!

4. Bozor tadqiqotlarini o'tkazing

Xarajatlar: 0–100 \$

O'zingizning g'oyangizni elakdan o'tkazganingizdan so'ng hamda biznesni boshlashning nozik tomonlarini bilib olganingizdan so'ng biznes boshlashni kutib o'tirmasligingiz kerak. Boshlash jarayoni qanchalik tez bo'lsa, sizni bozorga tezroq olib kirishga sabab bo'ladi. Ammo bu jarayon siz o'ylaganchalik tez bo'lmasligi mumkin. Biznesni boshlash, mahsulot yoki xizmatni muvaffaqiyatli sotish uchun siz raqobatning barcha murakkabliklaridan xabardor bo'lishingiz va shu bilan birga mijoz nimani xohlashini yaxshiroq tushunishingiz kerak bo'ladi. Buning uchun bozorni batafsil o'rganish va mijozning portretini ishlab chiqish kerak. Ya'ni marketingdan ozgina xabardor bo'lishingiz kerak bo'ladi, yoki marketolog bilan munosabatlar o'rnatishingiz kerak. Menimcha, siz ikkinchi yo'lni tanlaysiz. Ammo ikkinchi yo'l sarf-xarajatni va ko'p vaqtni talab qiladi, eng maqbuli siz marketingni o'zlashtirib olganingiz sizni biznes olamida yuqori cho'qqilarga olib chiqadi.

Ko'plab boshlang'ich tadbirkorlar katta, global va «hamma uchun» kerakli bo'lgan biznesni yaratish uchun intilishadi. Misol uchun ular o'z kompaniyalarini Google va Facebook kabi gigant kompaniyalarga qiyoslab keraksiz xayolparastlik qilishadi. Boshlang'ich tashkilot nazlida «hamma uchun» degan maqsad yoki qaror ko'pincha to'liq muvaffaqiyatsizlikka uchratadi.

E'tiborning yetishmasligi kompaniya imijining yetishmasligiga, tovarlarning yomon joylashuviga va mijozlar auditoriyasiga mahsulotingiz yoki xizmatigingizning asosiy afzalliklarini yetkaza olmasligingizga olib keladi. Bundan tashqari, hatto **Google** yoki **Facebook** kabi gigantlar ham tor, aniq belgilangan auditoriyani nishonga olishdan boshlaganlar. Shuning uchun, veb-sayt dizaynini yaratishdan oldin logotip chizib, shiorlar bilan chiqishdan oldin mahsulotingizni kim uchun yaratayotganingizni aniq bilishingizga ishonch hosil qiling.

Quyidagi savollarga javob bera olish uchun bozor va mijoz auditoriyasi tadqiqotlarini o'tkazing:

■ Mahsulotingiz kim uchun eng katta qiymatga ega bo'ladi?

■ Mahsulotingiz kimning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirishi mumkin?

■ Bu odamlar kimlar?

■ Ularning vazifalari va maqsadlari qanday?

■ Ularning maqsadiga erishishiga nima xalaqit beradi?

■ Nega ular hal qilish mumkin bo'lgan muammolarni boshdan kechirishmoqda?

■ Ularning qo'rquvlari va tajribalari qanday?

■ Ularning hayotga, qadriyatlarga, tamoyillarga va xurofotlarga qarashlari qanday?

Mijozlar auditoriyangiz haqida batafsil ma'lumot beradigan va marketing strategiyangizda yo'naltiruvchi yulduz vazifasini bajaradigan mijoz profilini yarating. Sizing mahsulotingiz va uning barcha tarkibiy qismlari, shuningdek, internetda nashr etiladigan tarkib siz va sizning jamoangiz uchun yaratilganligi balki ular mijozlar auditoriyasining ehtiyojlari uchun yaratilgan bo'lishi kerak.

Mijozlar auditoriyasi xususiyatlarini chuqur anglash va mijozning yuqori sifatli portreti sizning harakatlaringizda izchillikni saqlashga imkon beradi, chunki mijoz portreti yordamida siz har doim sizning

ideal mijozingiz qanday bo'lishi kerakligi haqida tahlil qilishingizga imkon beradi. Sizning qarorlaringiz natijasini mijozingiz aniqlaydi. Uning fikri sizningcha ijobiymi yoki salbiy? Buni qilish kerakmi yoki o'zgartirish kiritish yaxshiroqmi? Bu xususiyat unga foydalimi yoki u ahamiyatsiz deb hisoblaydimi? Mijozli auditoriyangizni tushunmasdan, sizning startapingiz yashab qolishi mumkin emas.

Shunday qilib, boshidanoq potensial mijozlaringiz nimani xohlashini bilishingizga ishonch hosil qiling. Ularga so'raganini taqdim eting.

Bozor tadqiqotlarini tez va arzon narxlarda qanday o'tkazsa bo'ladi?

- Onlayn xizmatlar – shunga o'xshash veb, Google trendlari, kalit so'zlarni rejalashtiruvchilar orqali bo'lishi mumkin.

- Raqobatchilarni yengish uchun josuslik qilishi quroli – Ubersuggest.

- Amazon haqidagi sharhlar, Facebook va Redditdagi munozaralar.

- Facebook reklama qismi yordamida so'rovlar va reklama qilish.

- Mijozlar va pitching bilan yuzma-yuz uchrashuvlar.

5. Veb-sayt yarating

Xarajatlar: 70-100 \$

“Agar siz Internetda mavjud bo'lmasangiz, siz biznes bilan shug'ullana olmaysiz».

Bill Geys

Agar veb-sayingiz bo'lmasa, demak, sizning biznesingiz yo'q.

Siz bugungi kunda butunlay **Amazon**, **eBay**, **Etsy** yoki **Facebook** va **Instagram** ijtimoiy tarmoqlari kabi yirik platformalarda ish olib borishingiz mumkinligi haqida uzoq vaqt bahslashishingiz mumkin. Ammo ular hech qachon o'zlarining saytlarini almashtirmaydilar.

Buning kamida uchta sababi bor:

1. Birovning maydonida biznes barpo etish birovning yeriga don sepishga o'xshaydi. Bir kun kelib siz osongina hosilni yig'ib olmaysiz. Ular platforma qoidalarini o'zgartirishi, ishni murakkablashtirishi yoki hatto umuman o'chirib qo'yishi ham mumkin. Ba'zan **Facebook** yoki **Google** kabi gigantlarga hech narsa tahdid qilmaydiganga o'xshaydi. Ammo, tarix ko'rsatib turibdiki, bu umuman bunday emas.

2. O'zingizning veb-saytingiz o'z uyingizga o'xshaydi. Bu sizning bazangiz, u yerda siz yagona boshqaruvchisiz, xohlagan narsani qilishingiz mumkin. Eng muhimi shundaki, siz xohlagan narsani buyurtma berib qaysidir xakker uni o'chirib qo'yishidan qo'rqmaysiz. Ma'lumotni istalgan formatda joylashtirishingiz va cheklovlarsiz tajriba qilishingizga yo'l ochadi.

3. Sayt sizga tomoshabinlaringiz bilan uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish imkoniyatini beradi.

Agar 10 yil oldin veb-saytga ega bo'lish tadbirkor uchun imtiyoz deb hisoblansa, bugungi kunda bu har qanday biznes vakili uchun javobgarlik va rivojlanish shartlaridan biridir.

Shu yaqin yillarda siz qimmatbaho mutaxassisni qidirib topib veb-sayt yaratib berishi uchun katta mablag' sarflasangiz, bundan ajablanmasa ham bo'lar edi, lekin bugunga kelib siz bunday operatsiyalarni o'zingiz yoki juda arzonroq pulga qildirishingiz mumkin.

Agar sizda yaxshi texnik ko'nikmalar mavjud bo'lsa, yoki sizda veb-saytni ishlab chiqishni o'z zimmasiga oladigan

guruh a'zosi mavjud bo'lsa, unda quyidagi platformalar e'tiborga olinishi kerak:

■ **WordPress.** Dunyo saytlarining 80% Wordpressda qurilgan. Ko'p sonli pullik va bepul mavzular, sayt bilan ishlashni soddalashtirish uchun barcha turdagi plaginlar va boshqarish qulayligi yaratilgan. Aynan shu afzalliklar ushbu internet platformani juda mashhur qiladi. Bloglar, elektron tijorat saytlari, vizitkalar va boshqalar uchun bu platforma javob beradi.

■ **Drupal.** Har qanday g'oyalarni amalga oshirishga imkon beradigan yanada murakkab, ammo eng ko'p qirrali platforma hisoblanadi. Drupal veb-saytini yaratish uchun kuchli texnik ko'nikmalar va bilimlarni talab qiladi. Platforma hamma narsaga mos keladi.

■ **Shopify** platformasi faqat elektron tijorat loyihalari uchun yaratilgan. Siz bu platformada elektron tijorat loyihalariga tegishli har qanday ishni bajarishingiz mumkin bo'ladi.

Agar sizda texnik ko'nikmalingiz bo'lmasa, resurslarni isrof qilishni istamasangiz yoki bundan tashqari birinchi bosqichlarda murakkab veb-sayt yaratishga hojat bo'lmasa, siz bir necha soat ichida veb-sayt yaratishda yordam beradigan konstruktorlardan foydalanishingiz mumkin.

Kodlashni talab qilmaydigan veb-sayt yaratishni oddiy sayrga aylantiruvchi eng yaxshi platformalar:

■ **ClickFunnels.** Ushbu quruvchi sayt sizga oddiy, ammo samarali savdo voronkalarini yaratishda yordam beradi. U yaqinda ishga tushirildi, ammo tezda Internet tadbirkorlar orasida juda mashhur bo'lib ketdi. Tayyor yechimlar yordamida siz o'zingizning mahsulotingizni onlayn sotishda yordam beradigan veb-sayt yaratishingiz mumkin.

■ **LeadPages.** Ushbu ishlab chiqaruvchi sayt shunga o'xshash tuzilishga ega, shuningdek, aloqa ma'lumotlarini

to'playdigan yoki mahsulotingizni sotadigan ochilish sahifalarini yaratishga ixtisoslashgan.

■ **Tilda.** Tezda ommalashib borayotgan nisbatan yangi veb-sayt quruvchisi. Ushbu konstruktorning asosiy xususiyati shundaki, u sizga juda chiroyli yechimlar yaratishga imkon beradi. Shriftlar, tayyor bloklar va uslublar to'plam saytini juda jozibali qilishga xizmat qiladi.

■ **Wix.** Ko'plab andazalar va uslublarga ega klassik drag va drop quruvchisi. Ko'pgina ilovalar va tayyor yechimlar sizga oddiy biznes karta veb-saytini ham o'zingizning biznesingiz uchun to'liq veb-saytni yaratishda ham yordam beradi.

Umuman olganda, veb-sayt tez va arzon narxlarda yaratilishi mumkin. Ammo bu ishlar sizning biznes sayohatingizning boshida amalga oshirilishi kerak. Chunki yaqin orada sayt siz uchun katta biznes imkoniyatlarini ochib beradi. Shoshilinch zarurat bo'lguncha kutmang. Buni muddatidan oldin bajaring.

6. Ijtimoiy tarmoqdan foydalaning. Do'stlar, tanishlar, jamoalar kabilar sizga yordam beradi

Xarajatlar: 0 \$

O'zingizning veb-saytingizni yaratganingizdan so'ng va o'zingizning uy bazangiz o'zingizni qal'angizga aylantirib olganingizdan so'ng endi dunyoga biznesni boshlaganingizni e'lon qilish vaqti keldi.

O'zingizning eng yaqin muhitingizdan boshlang. Sizning startapingiz to'g'risida ko'proq odamlarni bilishi uchun kontaktlaringizdan boshlang. Do'stlaringizga shaxsiy xabarlarini yozishdan yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalaringizga o'zingizning yangi biznesingiz haqida qisqacha ma'lumot beradigan xabar yuborishdan qo'rqmang. Dastlab sizning fikringiz odamlar uchun tushunarsiz yoki hatto kulgili bo'lib tuyulishi mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan

hamma sizni yanada jiddiyroq va hatto hurmat bilan qabul qila boshlaydi. Eng muhimi, o'z xabaringizni katta optimizmlik va ishonch bilan taqdim eting. Onda-sonda bo'ladigan tanqidlar va bema'ni hazillarning bir qismini qabul qilishga tayyor bo'ling. Sizga har doim ham biznesingiz haqida ijobiy fikrlar keltirmaydilar. Bu muvaffaqiyatga erishishi muqarrar bo'lgan biznes uchun sodir bo'ladigan odatiy holat. Bu million dollarlik startap g'oyasi amalga oshirish jarayonning ajralmas qismidir. Vaqt o'tishi bilan bularning barchasi jiddiy munosabatlarga aylanadi. Ozingina vaqtdan so'ng ko'plab «hazilkash va tanqidchilar» oxir-oqibat sizga birgalikda biznes qilish taklifi bilan murojaat qilishadi. Kim biladi, ba'zida ulardan hatto biron ajoyib g'oya chiqib qolishi ham mumkin. Ammo bu haqda hali o'ylashga ancha vaqt bor. Yaqin atrofda ma'lumot tarqatishdan boshlang va do'stlaringizdan repost qilishni va har tomonlama foydali bo'lishi mumkin bo'lganlar bilan ma'lumot almashishni so'rang. Siz zo'rg'a tanigan, bilganlar yoki bir necha yil oldin oxirgi marta uchrashgan odamlar qanchalik siz uchun foydali ekanligiga hayron qolasiz.

7. Tinglovchilar va aloqalar ro'yxatini tuzing

Xarajatlar: 0 \$

Ko'plab tadbirkorlar ushbu bosqichning ahamiyatini past baholaydilar. Har bir inson mahsulot yaratishga shoshiladi va shundan keyingina ushbu mahsulotga qiziqadigan auditoriyani izlay boshlaydi. Bu vaziyatga to'g'ri yondashuv aksincha tarafda yotadi.

Tomoshabin hamma jarayondan ham zarur, undan so'ng esa mahsulot.

Sizning vazifangiz mahsulotingizga muhtoj bo'lgan auditoriyani topish, uni batafsil o'rganish, potensial aloqa nuqtalarini aniqlash, ishonchni mustahkamlash va potensial xaridorlarning aloqalari ro'yxatini tuzishdir. Umuman olganda, sizning taklifingizga qiziqishi mumkin bo'lgan odamlar

bilan aloqalar ro'yxatini to'plashingiz va tayyor bo'lishi bilan oq mahsulotni ishga tushirish to'g'risida ularni xabardor qilishingiz kerak.

Ushbu yondashuvning afzalliklari:

■ Maqsadli auditoriyani yaxshi o'rganib chiqib, taxminlarga asoslanib ish qilishingiz shart emas. Siz odamlar nimani xohlashlarini bilasiz va ularga berasiz. Bu tizim xuddi shunday oson ishlaydi, uni murakkablashtirishga hojat yo'q.

■ Sizning dastlabki izdoshlaringizning fikr-mulohazalari tufayli siz katta xatolardan qochishingizga sharoit yaratiladi.

■ Eng muhimi, ishga tushirilgandan so'ng mahsulotingizni kimga sotish haqida vahima qo'zg'ashingiz shart bo'lmaydi. Sizda allaqachon chiqadigan sanani kutayotgan va mahsulot paydo bo'lishi bilan oq sizning xaridoringiz bo'lishga tayyor muxlislaringiz bor.

Keyingi bir necha hafta yoki oylarni sizning mahsulotingizga qiziqadigan auditoriyani yaratish uchun sarflang.

Buni qanday qilish mumkin?

Siz o'z auditoriyangizni foydali va qiziqarli sifatli tarkib bilan jalb qilishingiz mumkin. Ushbu tarkib sizga tinglovchilarni «quloq solish», o'quvchilaringizni va izdoshlaringizni aloqalar ro'yxatiga aylantirish imkoniyatini berishi kerak. Tarkib biron sababga ega bo'lishi va axborot byulleteniga obuna bo'lish istagini uyg'otishi, yangilanishi va tinglovchilar bilan aloqada bo'lish imkoniyatini berishi kerak.

Tarkib turli shakllarda bo'lishi mumkin: blogdagi maqolalar, Youtube kanalidagi videolar, podkast, Telegram kanal yoki chat, Facebook guruhi yoki sahifasi, Pinterest yoki Instagram sahifalari.

Ushbu formatlarning qaysi biri samaraliroq?

Maqsadli auditoriyangiz uchun qiziqarli va qulay bo'lgan tarmoqlarga e'tibor qaratish lozim. Eng muhimi,

tinglovchilaringizni qulay bo'lmagan joyga «sudrab» borishga urinmang. Mijozlaringiz auditoriyasi vaqt o'tkazadigan joyga boring, ya'ni ijtimoiy tarmoqlarga.

Agar sizning auditoriyangiz o'smirlar bo'lsa, ular katta ehtimol bilan Telegram, Youtube va Instagramda bo'lishadi. Agar siz yetuk auditoriyani maqsad qilib qo'ysangiz, ular Facebook yoki blogingizdagi matnga asoslangan tarkibni yaxshi bilishadi.

Tomoshabinlarni yaratish jarayonining misoli:

■ O'zingizning Facebookdagi sahifangizga qiziqarli va foydali tarkibni qisqa postlar ko'rinishida joylashtirishni boshlang.

■ Sizning mahsulotingizga qiziqadigan odamlarni do'st sifatida qo'shing.

■ Keyinchalik siz o'zingizning veb-saytingizda blog ochasiz, u yerda doimiy ravishda Facebookdagi postlar bilan bir xil mavzulardagi maqolalarni nashr etasiz.

■ Elektron pochta manzili evaziga bepul tarqatadigan magnitini yarating (nazorat ro'yxati yoki PDF formatidagi qo'llanma).

■ Odamlar foydali materiallarni yuklab olishadi va siz nima qilayotganingizga 100% qiziqqan odam bilan bevosita aloqada bo'lasiz.

Biroz vaqt o'tgach, siz o'zingizning mahsulotingizni taklif qilishingiz mumkin bo'lgan obunachilar bazasini yaratishingiz kerak. Obuna bazasini elektron pochta manzillari ro'yxati shaklida shakllantirish yaxshiroq.

Nima uchun elektron pochta orqali? Chunki elektron pochta hali ham eng samarali savdo kanalidir. Elektron pochta manzillari ro'yxati sizning biznesingiz uchun eng qimmatbaho boylik bo'lish ehtimoli katta.

8. Harakat va xarajat qiling

Xarajatlari: 0 \$

Jamoa bilan aloqa bazasini yaratganingizdan so'ng, jamoangizni mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlashni boshlang. Ularga ish faoliyati haqida ko'proq motivatsiya, ma'lumot bering va foydalanuvchiga keltiradigan foydalari haqida gapirib bering, mahsulotga qiziqishlarini oshirishni boshlang. Odatda, elektron pochta marketingida biror narsa konvertatsiya darajasi 5–15% ni tashkil qiladi. Ya'ni, agar sizda 100 kishilik abonent bazasi bo'lsa, odamlarga mahsulotni ishlab chiqarish to'g'risida ogohlantirish yubor-ganingizdan so'ng, 5–15 ta xarid bo'lishini kuzatishingiz mumkin. Ehtimol 1000 ta abonent 50–150 ta yangi mijozga aylanadi.

Agar biz boshqa xabarlar shakllari (kanallar, guruhlar, ijtimoiy tarmoqlardagi mamlakatlar) haqida gapiradigan bo'lsak, mahsulot konvertatsiya bo'lmay qoladi. Shuning uchun, yuzlab do'stlaringiz va izdoshlaringiz sizning mahsulotingizga faqatgina mijoz bo'lishini kutib o'tirmang. Omad kulib boqadigan lahzalarni qidirmang. Kontaktlaringiz ro'yxatida «yetarlicha» odamlar bo'lishini kutmang. Hamma narsaga o'zingiz harakat qilib erishing. Bundan tashqari, «hamma narsani yaxshiroq anglash» yoki «barchasini yana bir bor tekshirish» uchun ishni keyinga qoldirmaslik kerak. Afsuski, bu sizni xatolar qilib qo'yishingizdan xalos qilmaydi. Xatolar insoniyat paydo bo'lgandan beri bo'lgan va bo'ladi.

Birinchi urinishda hamma narsani mukammal qilishga urinmang. Biznesni boshlang, xatolarga yo'l qo'ying, xatolaringizdan o'rganing, takomillashtirish uchun mahsulotingizni va ish jarayonlaringizni yaxshilang. Qanchalik faoliyatingizni boshlashni xohlasangiz ham shoshilmang. Ammo juda kechiktirish ham yaramaydi. Chunki faoliyatingizni kechiktirishingiz sizni rivojlantirmaydi, aksincha ortda qoldiradi. Eng yomoni shundaki, sizning

fikrlaringiz va g'oyalaringiz uchun hech kim sizni eslamaydi. Odamlar faqat ortingizdan qoldirgan harakatlarni eslashadi.

Misol uchun, Tomas Edison chiroqni kashf qilish jarayonida juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan, boshi yorilgan, katta kilovattida tok urgan, bir tomoni ishlamay insult xastaligiga chalinib, to'shakka mixlanib qolgan, u tez yordam mashinasini va aksar kasalxonalarining doimiy mijoziga aylangan. Tarixning ba'zi ma'lumotlarida aytilishicha, Edison chiroqni 3001 galida yoqishga muvaffaq bo'lgan. Endi do'stim menga ayting, har gal ko'chadan uyga kelib chiroqni yoqayotgan paytda siz Edison boshidan o'tkazgan shuncha qiyinchiliklarni eslamaysiz. Siz uni chiroq ixtirochisi sifati taniysiz. Shunday qilib, siz ham ortga chekinmang, harakat qiling. Sizni muvaffaqiyatga olib chiqadigan urinishingiz miqdori umid qilamanki 3001ga yetib bormaydi.

Maslahat: Marafonni o'tkazishga tayyorlaning

Uzoq masofalarga yugurish singari, o'z biznesingizni yuritish ham barqaror yuqori sur'at va chidamlilikni talab qiladi. Siz mahsulotingizni tez fursatda ishlab chiqarish va oson foydaga mashaqqatsiz erishishingizga ishonmang. Ko'p hollarda muvaffaqiyat bir necha oylar davomida olib borilgan mehnat natijasida paydo bo'ladi. Odatda, 12–24 oy ichida biznes rivojlanishining mustahkam darajasiga erishish mumkin. Agar siz tezroq muvaffaqiyatga erishsangiz, demak, siz harakatchan va chaqqonsiz. Shunga qaramay, marafonni o'tkazishga tayyorlaning.

■ Keraksiz xarajatlardan saqlaning. Agar biror narsa sotib olish shart bo'lmasa, uni sotib olmang. Agar uni arzonroq ekvivalent bilan almashtirish mumkin bo'lsa, buni qiling. Pulingizni behuda sarflamang. Ayniqsa, dastlabki bosqichlarda. Keyinchalik bu pul albatta foydali bo'lib qoladi.

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

Bir narsani tushunib oling, boshlang'ich tadbirkor uchun qancha mablag' ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

■ Agar siz mehnat resurslarisiz ishlashingiz mumkin bo'lsa, odamlarni yollamang. Har bir yangi ishchi Sizing kompaniyangiz daromadini va rivojlanish tezligini ko'paytirishi kerak. Agar yangi ishchi sizning biznesingizni rivojlantirishga sezilarli darajada yordam berishi mumkinligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, ishchi yollashni keyinga qoldiring. Hozircha bu ishni o'zingiz bajaring.

■ Bir kechada muvaffaqiyatga erishish uchun emas, balki doimiy taraqqiyotga intiling. Bir necha soat ichida muvaffaqiyat qozonishingiz mumkin bo'lgan tendensiyalar va o'sish xakerlarini ta'qib qilmang. Bu usul ish bermaydi. Vaqt va pulni uzoq vaqt davomida daromad keltiradigan narsaga sarflang.

■ Hammasini mukammallikka yetkazishga urinmang. O'z g'oyalaringizni atrofingizdagilar bilan tez-tez baham ko'ring, fikr-mulohazalar oling va uning asosida yangiliklarni amalga oshiring. Ushbu sikl qancha qisqa bo'lsa, odamlarga kerakli narsani tezroq topasiz.

■ Tinglovchilaringiz bilan munosabatlarni o'rnatish. Sizing auditoriyangiz sizning eng qimmatbaho boyligingizdir, shuning sababli faoliyatingizga qiziquvchilar bilan ishonchli va uzoq muddatli munosabatlarga mablag' sarflang.

Xulosa

O'z biznesingizni rivojlantirishda «qat'iyatlilik», «sabr» va «ishonch» kabi xislatlar sizda mujassam bo'lishi zarur. Siz o'z g'oyangizga sodiq qolib, yuqori natijalarga erishmayotganingizga qaramay, kuniga 16 soat ishlashingiz kerak bo'ladi. Va menga ishonib, bu gaplar inson og'zining bir chekkasidan osongina chiqib ketavergani

bilan yuqoridagi maslahatlarga amal qilish gapirishga qaraganda ancha murakkab. Muvaffaqiyat haqidagi hikoyalarni va muvaffaqiyatli odamlarning tarjimai hollarini o'qiyotganingizda, muvaffaqiyatga ishonish va tushkunlikka tushmaslik odatiy holga o'xshaydi. Amalda esa, bu tadbirkorlar juda ko'p kuch sarflaydi. Shuning uchun, ruhan tayyor bo'ling. Dam olish, uxlash, do'stlar bilan uchrashish va erkinlikni qurbon qilishga tayyor bo'ling. Sizga o'z biznesini barpo qilish uchun kerak bo'ladigan jamiyki yaxshiliklarni tilaymiz. Omad!

II BOB

Faoliyatga bo'lgan ishonch

Xudo «hech kimni» yaratishda vaqtni behuda o'tkazmadi, u yaratgan har bir kishi «kimdir». Ishonamanki, har birimizda Xudoning sovg'asi bor, bu sovg'ani ro'yobga chiqarish uchun faqat ozgina vaqt kerak.

Meri Kay Esh

Insonlardan: "Sizlardan qaysi biringiz millionlab pullarni o'ziga rom bo'lishini xohlaydi?" – deb so'ralgandan so'ng hamma qo'llar yuqoriga ko'tariladi. Zaldagi odamlarning qo'llari o'rmondagi terilib turgan archalarni eslatib yuboradi. Va yana so'raladi: "Sizlardan qaysi biringiz allaqachon multimillioner bo'lib ulgurdingiz?" Qo'llar yoppasiga tushadi. Xuddi butun boshli o'rmon archalari kesib tashlangandek. Yana so'raladi: "Kim bu dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirmoqchi?" Qo'llar o'rmoni vujudga keladi. "Kim ilgari bunga qarshi kurashgan?" Qo'llar tushadi. "Kim o'z biznesi bilan mashhur bo'lishni xohlaydi?" Qo'llar yuqorida. "Kim allaqachon mashhur?" Qo'llar allaqachon pastda bo'ladi. Zaldagilarga bu ajoyib istaklarning barchasi hozir amalga oshishi mumkin emasligini tushuntirganimdan so'ng, qo'limni cho'ntagimga qo'ydim va yuz dollarlik kupyurani chiqardim. Va men aytdim: "Ammo hammamiz buni ko'rib turibmiz va bu haqda gaplashishimiz mumkin. Bu yuz dollarni

kim xohlaydi?” Barchaning qo'llari havoga uchadi. Yana savol beraman: «Kim xohlaydi bu yuz dollarni?”. Qo'llar hali ham ko'tarilgan, odamlar meni tushunarsiz kuzatmoqdalar. Men uchinchi marta so'rayman va xuddi shunday reaksiyani olaman. Men ko'pincha biror kishi o'rnidan turib ushbu qo'limdagi banknotani olmaganicha savol beraveraman va qayta-qayta beraveraman va o'sha kimdir pulni oladi, hammani ko'zlariga birma-bir nazar tashlayman, hamma shok holatida bo'ladi. Nega shok holatida bo'lishadi deb o'ylaysiz? Javobi oddiy, chunki ular orasidan bir kishi hammadan oldin pul ishladi. Yuz dollar egasi o'z joyiga qaytgach, biz ishonch haqida gapira boshlaymiz. Garchi hamma pul uchun qo'llarini baland ko'targan bo'lsa, ham ishonchning yetishmasligi va kibr degan qurt mavjudligi ularni pul ishlashiga to'sqinlik qildi. Qachonki, men shu kabi savollarni bersam ko'pchilik odamlarning xayolidan o'tadigan narsa shuki: “Bu meni omma oldida sharmanda qilish uchun hiyla-nayrang bo'lishi mumkin” yoki “Men uyatchanman, bu pulni jon deb olar edim u uyalamanda”, va eng yomoni “Atigi yuz dollar xolos, agar pulni oladigan bo'lsam, meni sheriklarim nima deb o'ylashi mumkin, shu darajada pulga o'chki hattoki yuz dollarga muhtoj desa kim degan odam bo'laman”, ba'zi qo'rqoqlar: “Boshqa birortasi uni oladi» deb o'tiraveradi. O'ziga bo'lgan ishonchsizlik, stulni stuldan yulib olishga imkon bermaydi, garchi hamma yuz dollar olishni istasa ham.

Ammo kimdir, bu pulga ehtiyoj sezdimi, biznesiga mana shu yuz dollar bo'lsa, ham foyda keltirishiga ishondimi? Savol berilishi bilan u qanday qilib olishni o'ylay boshlaydi. Masalan, u xayolida “Men borib uni olib kelaman” deydi va o'zining ichki qarshiliklariga qaramay, uni olib keladi. Tomoshabinlar orasida havo va faqat yuz dollarlik pul bor. Boshqa hech narsa yo'q, lekin ularning ishonchsizligining kuchi shunchalik buyukki, ular tom ma'noda joyida qimir etolmay qolib ketgan. Shunga o'xshagan boshqa o'tkazib yuborilgan imkoniyatlar qancha ekaniga hayronman, mening

huzurimda o'tkazib yuborilgan bunday 100 dollarlik veksellar va boshqa imkoniyatlarni ular qo'rquv, kibr va ishonchsizlik tufayli muntazam ravishda o'tkazib yuborishadi.

O'zingizni ushbu vaziyatda tasavvur qiling. Men ham boshqalar kabi xohlayman deysiz, qo'lingizni ko'tarib, millioner bo'lishni xohlayotganingizni yoki rejalashtirayotganingizni da'vo qilasiz. Ammo, boshqalar singari, siz ham bu pulni qo'limdan olmas edingiz, bunga qattiq ishonaman. Agar siz stuldan turishga tayyor bo'lmasangiz, yuz dollarlik banknotani olish uchun o'zingizda yetarlicha ishonch bo'lmasa nima deb o'ylaysiz yuz millionlik biznes boshlayman deya olasizmi? Siz bu ishni qilmaysiz!

Bir narsani tushunishga harakat qiling Siz ishonmaydigan narsalarni qila olmaysiz. Agar o'zingiz boshlagan ishingizning porloq kelajagiga ishonmasangiz, o'zingizga muvaffaqiyatni va'da qilmang. Ishni to'xtating! Tafakkur qiling, burnini tagiga yuz dollarlik pul o'z oyoqlari bilan kelsa-yu pulni olmasa. Bu kichik qilingan amalni biznesda qayta qilish ehtimoli juda katta. Insonni o'z oldiga pul kelsa va ola olmasa, unda qanday qilib million dollar ishlaydi. Agar siz biznesda millionlab pul ishlab topmoqchi bo'lsangiz, siz avvalo shu millionlarni boshlab keluvchi o'zi kelar yuz dollarni olishingiz kerak bo'ladi. Ya'ni, muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsangiz, o'zingizga va muvaffaqiyatingizga bo'lgan ishonchsizlikdan xalos bo'lishingiz kerak.

O'zingizga bo'lgan ishonchni qozoning.

Shu kabi so'zlardan so'ng, men bir ajoyib tajriba qilib ko'rmoqchi bo'lganman.

Men tinglovchining ishonchi qay darajada o'zgarganini isbotlashim mumkin. Men yana omma oldida turganicha qo'limni cho'ntagimga solaman va yana yuz dollarlik banknota chiqaraman. Yuqoridagi savolni yarmiga yetib ulgurmasdan banknotalarning yo'q bo'lib qolganini payqamay ham qolaman. Odamlar pulga xuddi qorni ochgan bo'ridek tashlanadilar. O'zingiz o'ylang, odamlarni shu darajada o'zgartirgan narsa nima? Ishonch.

Tabiat chorlovi

Muvaffaqiyatga erishish uchun avval biz buni qila olishimizga ishonishimiz kerak.

Maykl Korda,
yozuvchi

Ikki ajoyib jangchi jangga tayyorlayotgan edi. Ulardan biri ko'ngilli, u shunchaki o'ziga nisbatan va mamlakatiga nisbatan hurmati, muhabbati cheksiz edi. Boshqasi shunchaki jangi uchun pul oladigan baxil bir inson edi. Siz bu jang uchun qaysi biriga pul tikar edingiz?

Har doim ichki holatiga bo'ysunadigan odamga pul tiking. O'z maqsadlariga intilib, qalb amriga amal qilganlarga o'zini yaxshi tuta oladi va yomon kunlarda sizning kompaniyangiz uchun aqli qarorlarni bera oladi. Qalb insondagi eng to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi navigatsiyadir, unga bo'ysunib ish tutadigan insonlar hamisha to'g'ri ish qilishadi. Bunday insonlar boshqalar uchun ham katta motivatsiya bo'ladi. Agar siz yana bir katta loyiha bilan o'z kompaniyangizni boyitishni istasangiz, bunga ishonch bildirmasangiz, chinakam ishtiyoqli raqib g'olib chiqadi va sizni yerga burningizni ishqaydi. Ehtiros qaysarlikni keltirib chiqaradi. Qat'iylik muvaffaqiyatni keltirib chiqaradi.

Siz o'zi nima xohlaysiz yoki qandaydir moliyaviy majburiyat sizni xohlamaydigan ish qilishingizga majbur qiladimi?

Mana shu savolga oydinlik kiritish sizning yo'lingizni aniqlaydi, sizni bir maqsad sari olg'a olib boradi.

Agar inson o'zi sevgan ishni qilsa, u hech qachon ishlamaydi.

Bill Geyts

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

Bu so'zni juda ko'p uchratganmiz to'g'rimi? Lekin bu eng chin haqiqat hisoblanadi. Siz o'zingizning sevgan ishingizni qilishingiz kerak. Inson qachonki biror-bir faoliyatni o'z ichki xohishidan kelib chiqqan holda bajarsa, u yuqori cho'qqilarga istasa-istamasa chiqadi. Chunki inson fe'l-atvoriga mos keluvchi ishni bajarsa yoki o'ziga yoqqan ishni qilsa, u qilishni xohlamaydigan odamga qaraganda 500 barobar samaraliroq bo'lar ekan. Psixologlarning tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, odam biron-bir sevgan narsasini qilsa, shu ishga nisbatan insonda qoniqish, rohatlanish va energiya ishlab chiqish yuqori darajaga chiqar ekan. Shu sababdan, bunday insonlar kechalari o'zi bilmagan holda ishlab tong orttirib qo'yadi yoki ovqat va suvsiz ham uzoq vaqt charchashsiz ishlayveradi. Chunki bu sarf qilinayotgan energiyalarning o'rnini to'ldirib turuvchi boshqa omillar mavjud. Agar siz ham muvaffaqiyatli tadbirkor bo'lmoqchi bo'lsangiz qalbingiz yoqtirgan ishni bajaring!

O'zi sevgan kasbda o'ta katta natijalar ko'rsatgan shaxslar yoki dunyoda gigant kompaniyasiga ega bo'lgan tadbirkorlar bunga yaxshi va amaliy misol bo'la oladi.

Obsidian Launch kompaniyasi asoschisi Mayk Mikalovits yangi startap g'oyalarini amalga oshirmoqchi bo'lgan boshlang'ich darajasidagi tadbirkorlarga shunday xitob qiladi:



Bozoringizda hukmronlik qiladigan kompaniyani yaratish uchun siz avval nimani xohlayotganingizni anglang. Menga anglash uchun yillar kerak bo'ldi. Qachonki, men birinchi bor ish boshlaganimda, men tadbirkorlar qilishi kerak bo'ladigan ishni emas, balki o'zlari qilishni xohlagan ishlarni bajarishni tushunganman. Men kompyuterlarni yaxshi bilardim va ular bilan ishlashni yaxshi ko'rardim, shu sababli ushbu sohada kompaniya yaratdim.

Garchi men kompyuterlar bilan ishlashni yoqtirsam ham, lekin menga kompyuterlarning o'zi yoqmasdi. Bu sevimli mashg'ulotim bo'lmagan, bu ish meni shunchaki kasbim edi xolos. Dastlabki ikkita kompaniya muvaffaqiyatli bo'ldi, bunga sabab yuqori texnologiyalarga ishtiyoqim baland bo'lgani uchungina emas. Men qattiq mehnat qildim, uxlamaganman, biron narsa yeb olish uchun vaqt topa olmaganman va nafas olishga zo'rg'a vaqt topar edim. Ammo menga tadbirkorlik faoliyati manzur keldi. Men kun bo'yi biznes haqida gaplashar, o'ylar edim, barcha jurnallarni o'qir, barcha seminarlarga borib tinmadim va shunga qaramay, bilimga chanqog'imni hech ham qondira olmadi. Ammo men xohlagan narsa burnimni oldida turganini tushunish uchun yillar kerak bo'ldi: Menga kompaniyalar yaratish yoqdi. Men biznes tug'ilishini va u vaqt o'tgan sari unib o'sayotganini ko'rganimda shuni tushungandimki, hayotimning yo'li shu tariqa menga aniq bo'lgandi.

Siz nimani qo'lga kiritayotganingizni aniqlash uchun ko'p yillar sarflashingiz shart emas. Eng muhimi, bu haqida hozir o'ylab ko'rishga vaqt ajratish, sinov va xatolar orqali xulosa chiqara olishdir.


Muvaffaqiyatli boshlash eng avvalo sizning ichki ishonchingiz va sizning o'zingizga bog'liq. Biznesga faqat ahmoqgina o'zining xohishlarini anglamasdan turib aralashishi mumkin. Arslonni oldiga qurol-yaroqsiz borish qanchalik tentaklik bo'lsa, biznesga o'zligini anglamay, qo'lidagi imkoniyatlar salmog'ini bilmay va ishonmay borish

ham shunday ahmoqlik sirasiga kiradi. Kompaniyangizni boshlash yoki yomon boshlanish oqibatlarini bartaraf etish uchun avval o'zingizni sinab ko'rishingiz kerak. Siz o'zingizning chuqur istaklaringizni, ongingiz va e'tiqodingizni tushunishingiz va bilishingiz kerak. Keling, bir daqiqaga chegara yo'qligini tasavvur qilib ko'ramiz. Sizing biznesingiz sizga nima beradi? Beradigan birinchi javobingiz har kim moliyaviy mustaqillikka ega bo'lishi. Roziman. To'liq qo'shilaman. Ammo bundanda ko'proq narsalar mavjud, shunday emasmi? Agar o'z biznesingizni boshlasangiz nima bo'ladi? Sizni hissiy jihatdan qondiradi va sizni mutlaqo baxtli odamga aylantiradimi? Agar hayotingiz o'zgarsa? Agar har kuni ertalab sizdan ish uchun g'ayrat uyg'onishingizga sabab bo'lsa? Agar odamlar sizning kompaniyangizni yaxshi ko'rsalar? Agar dunyo sizni qilgan ishingiz uchun mukofotlasa, va siz taklif qilayotgan narsalarni mamnuniyat bilan qabul qilsa, sizga bundan ortiq yana nimalar kerak?

Kompaniyaga ega bo'lish, eshakni tirikchilik qilish ehtiyojidan qutqarishni anglatmaydi. Egalik qilish degani ko'p vaqt sarflab ko'p pulga ega bo'ladi degani ham emas. Bu maksimal darajaga hayotni yaxshilashni anglatadi. Kompaniyangizning asosiy maqsadi odamlar hayotiga yaxshi ta'sir ko'rsatib, ularning ehtiyojini o'zi xohlaganday qondirgan holda o'z hamyoningizni to'ldirish bo'lishi kerak. Bunga yorqin misol sifatida, Walmart asoschisi taniqli ishbilirmon Sem Uoltonni ko'rsatish mumkin. Uolton kompaniyaning oddiy orzusidan boshlagan va sayyoradagi eng boy odamlardan biriga aylangan. «Hammasiga la'nat» – bu so'zlarni Uolton qayta-qayta o'lim to'shagida yotganda takrorlagandi. O'z me'yorlariga ko'ra, u muvaffaqiyatsiz: eng kichiklik davrini deyarli bilmagan milliarder bola va ba'zi bir sabablarga ko'ra u bilan birga bo'lgan ayol bilan muhabbatdan yiroq bo'lgan deb o'ziga baho beradi.

Uolton juda ko'p yutuqlarga erishgan va buning uchun juda ko'p harakat qilgan. Agar siz ushbu turdagi

muvaffaqiyatni xohlasangiz, unga erishishingiz mumkin. Hammasi siz bilan boshlanadi va siz bilan tugaydi. Bozor ko'rsatgan yo'nalishdan emas. Eng so'nggi va eng kuchli tendensiyalar ham bilan emas. Va hatto sizning fikringizga ko'ra iste'molchilarga kerak bo'lgan innovatsion mahsulotlar bilan ham emas. Sizning biznesingiz sizdan boshlanadi.



Uolton Sem

Walmart asoschisi

Hamma gap sizda, o'zingizda!

Bugungi muvaffaqiyatli kompaniyalar jadal sur'atda o'sib bormoqda, chunki ular haqiqatan ham buyuk kompaniyalardir. Ular noyob mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishadi va ularning shuhrati dunyoda virus kabi tarqaladi. Ko'plab mijozlarni jalb qilish uchun endi sizga shunchaki katta marketing budjeti yetarli bo'lmaydi. Bugungi kunda siz mijozlarni keskin sonini oshirish uchun noyob tovarlar va xizmatlar taklif qilishingiz lozim. Marketing virusga aylandi, uni dunyo bo'ylab tarqalganini hozirgi televideniya, ijtimoiy tarmoqlarda va ko'chadagi osig'liq turgan bannerlarda ko'rishimiz mumkin. Bu ham yetmagandek, uni sayohatlar, internet forumlari, bloglarda va har yerda qo'llashmoqda. Siz o'zingizning qobiliyatigizning eng yaxshisini faqat boshda va qalbda bir vaqtning o'zida tug'ilganda taqdim etishingiz mumkin.

Biznes g'oyasi sizning qalbingizdan paydo bo'lganda, kompaniya va siz ikkovlon yolg'iz qolganingizda kompaniya qudratli kompaniyaga aylanadi. Bu ikki kuchning birlashishi sizni muvaffaqiyatga mahkum etadi.

Hamma bahonalarni yig'ishtiring. Inson tabiatida mavjud bo'lgan dangasalik va uning oqibatida yuzaga keladigan hamda tez uchraydigan bahonalarni ko'zdan kechirib chiqamiz.

Bahonalar hammasi badbo'y bir balchiqqa o'xshaydi. Inson tabiatida bahona illati albatta mavjud, ammo uni yengish oson. Bahonalar badbo'y bo'lishiga qaramay, odamlar mamnuniyat bilan uni hidlab yurishadi.

Bahonalar bu ichki qo'rquvimizga mantiqni qo'llashning ajoyib mexanizmidir.

Bu mexanizm o'zimizning ichki qo'rquvimizni himoya qilish uchun oson ishlaydigan la'natlangan mexanizmdir. Shuni aytish mumkinki ularning barchasi to'liq chiqindi, ular hech qachon real bo'lmaydi, ya'ni siz xayolingizda qo'rquvni har xil holatlarda tasavvur qilganingizda ham real bo'lmaydi. Inson tabiatidagi qo'rquvlarning asosiy qismi xayoliy bo'lib, u real hayotda 95 foiz sodir bo'lmaydi.

«Iqtisodiyot yangi biznes boshlash uchun yetarlicha kuchli emas».

Agar iqtisodiyot tanazzulga uchragan bo'lsa, xaridorlarning faolligi kamayishi mumkin, raqobatchilar ham xuddi xaridorlar kabi chetga chiqishadi. Zaif iqtisodiyot bu yong'inga o'xshaydi: u ko'plab daraxtlarni o'ldiradi, ammo o'rmonda urug'lar unib chiqishi va hayotga qayta tug'ilishi uchun yetarlicha joy mavjud. Zaif iqtisodiyot davrida biznes boshlash uchun eng maqbul vaqt hisoblanadi.

«Tadbirkorlik juda xavfli faoliyat».

Har qanday tayyorgarlichsiz va kerakli bilimlarni egallamasdan, tadbirkorlikni boshlash juda xavfli. Shunday qilib tayyorlaning! Eng qizig'i shundaki, siz allaqachon qaysidir ma'noda tayyorsiz, garchi bu haqda bilmasangiz ham. Agar his-tuyg'ularingizni, ichki ovozingizni tinglasangiz, tabiiy ravishda o'zingizni to'g'ri yo'lda topasiz. Ehtimol siz juda muhim o'quv bosqichlaridan o'tgandirsiz, boshqa barcha kerakli narsalarni vaqt o'tgan sari shimgich gubka singari o'zingizga singdirasiz.

«Katta kompaniyada ishlash ancha xavfsizroqmish».

Keling! Sizga yuzlab kompaniyalar haydab yuborgan mashhur shaxslar haqida gapirib bersak. Enron, Arthur Anderson, Bear Sterns, Lehman Brothers. Bular likvidiligi (to'lovga qobiliyati) yuqori bo'lgan kompaniyalar oynasidan o'chib haydalanganlar. Agar siz ham bular kabi kompaniyada ishlasangiz, Xudo ko'rsatmasin agar kichik xato qilsangiz ham sizni naqd yuqori qavatli bino oynasidan itarib chiqarishadi. Qachonki, siz o'zingiz uchun ishlasansiz, sizni ishdan bo'shatishga hojat qolmaydi va muvaffaqiyatga erishishning yagona sababchisi bu o'zingiz bo'lasiz.

«Men o'z biznesimni boshlash uchun juda keksa yoshdaman».

Yoshingiz ulug' bo'lsa, unda nima qilmoqchisiz? Yosh bo'lib qolishingizni kutmoqchimisiz? Hayotingizda boshlash uchun hozirgi maqbul vaqtdan boshqa vaqt bo'lmaydi. Hayot lentani orqaga qaytarishni taklif qilmaydi. Ma'lumki, siz yoshligingizni qaytara olmasiz. Afsus nadomatlar bilan yashamang. Yoshingizdan qat'i nazar hoziroq boshlang. Siz

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

o'zingizning yangi biznesingizni boshlash paytida o'zingizni oshkor qilish jarayoniga shubhasiz loyiqsiz. Bundan tashqari sizning faollingiz keyingi kelajak avlodga kichik meros yoki katta namuna bo'la oladi. Xuddi Xarland Sanderson kabi.



Amerikalik restorator, Kentukki Fried Chicken tez ovqatlanish tarmog'ining asoschisi (inglizchadan – «Kentukki shahridan Fried Chicken», KFC), uni retsepti boshqalardan o'zgacha hisoblanib, aromatik o'tlar va ziravorlar aralashmasi bilan ishlangan qovurilgan tovuq bo'laklaridir. Uning portreti an'anaviy ravishda uning tarmog'idagi barcha restoranlarda va markali qadoqlarda tasvirlangan. Bu inson biznesni aksariyat biznes vakillaridan o'laroq yoshligida yoki o'rta yoshida boshlamagan. Startap g'oyasi ham bo'lmagan. U yoshligida bir baxtsiz odam bo'lgan. Bir kuni u o'zini baxtsizligidan yashash uchun sabab yo'q deb hisoblab o'zini o'ldirmoqchi bo'ladi. Lekin o'ldira olmaydi. O'zgina vaqtdan so'ng u o'zining Kentukki deb nomlangan yashash joyida tovuqni qovurib sotishni boshlaydi. Uning tayyorlash uslubi hammaga birdek manzur bo'ladi. Oradan bir necha yil o'tgach u dunyoni eng boy milliarderiga aylanadi, shu vaqtda u 86 yoshida bo'lgan. Shuningdek, bu inson dunyoni

eng kuchli motivatorlaridan biri hisoblanadi, u sabab juda ko'p odam biznes boshlashga yoshi yetarli ekanini anglagan. Ko'rib turganingizdek harakatda barakat, sizning yoshim qari degani haqqingiz yo'q.

«Men o'z biznesimni boshlash uchun hali juda yoshman».

Nima?! Qonun nuqtayi nazaridan siz biznesni tashkil qilishingiz va har qanday yoshda kompaniyani ro'yxatga qo'shishingiz mumkinligi haqida bilarmidingiz? Qonun sizga boshqa birovga ishlash huquqini berishidan oldin ham kompaniya ochishingizga ruxsat berishi muqarrar. Misol uchun, Kameron Jonson o'zining birinchi biznesini yetti yoshida boshladi, o'n ikki yoshida birinchi kompaniyani yaratdi. Nega biznes boshlay olmaysiz? Agar siz xohlasangiz birinchi biznesni olti yoshingizda ochgan bo'lar edingiz. Ko'chalarda o'z mahsulotini sotib yurgan yoki kamida muzqaymoq sotgan do'stingiz kichiklik davringizda albatta bo'lgandir, o'sha do'stingiz sizdan oldin birinchi qadamni tashlagan. Siz bunday ahmoqona fikrlar, stereotiplar, o'zingizcha aqlli tamoyillaringiz bilan hali ham hech narsasiz yuribsiz.

Yoshingiz kattami yoki kichikmi farqi yo'q, hoziroq boshlang. Do'stim dunyoga yaxshilab nazar soling, dunyo sabablar va namunalar bilan to'lib toshgan. Bu dunyoda biznes boshlashning yoshi borasida har qanday misollar topish mumkin. Yuqoridagi yoshi qari tadbirkorimiz bulardan biri bo'lsa, ikkinchisi esa 23 yoshidayoq dunyoning yosh millionerlaridan biri bo'lgan Mark Sukkerberg.


U mashhur Facebook ijtimoiy tarmoq veb-saytini yaratgan. Sayt 2004-yil 4-fevralda tashkil etilgan. Facebook Garvard universiteti talabalari uchun aloqa sayti sifatida ish boshlagan. Asoschisi Mark Sukerberg bo'lib, u portalni universitet yotoqxonasiga o'rnatgan. Veb-sayti tufayli Mark

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

Cukerberg 23 yoshida eng yosh milliarderga aylandi. 2008-yilning mart oyida Forbes jurnali Sukerbergni dunyoning eng boy odamlari ro'yxatiga kiritdi. O'sha paytda mavjud bo'lgan Facebook va ijtimoiy tarmoqlarning asosiy farqi aynan aloqa qilish imkoniyati edi: Sukerberg odamlarga bir-birlari haqida ma'lumot almashishning oson va qulay usulini taklif qildi.



Siz hali ham yoshim yetmaydi deb o'ylayapsizmi? Mark biznes qilish uchun maqbul vaqtni kutib o'tirmadi, shunchaki o'zi yoqtirgan unga zavq beradigan ishni bajardi va milliarder bo'ldi. Ushbu ijtimoiy tarmoq startapning hamma talablariga javob bera oladi. Startapning asosiy maqsadi esingizdami? Uning maqsadi insonlarga qulaylik yaratish va muammolarga yechim topish edi. Mark shu ishni a'lo darajada bajardi, shuning uchun ham bugunga kelib eng ko'p foydalanuvchilar reytingiga yetakchilik qiladi.



Yuqoridagi jadvalda siz Facebook ijtimoiy tarmog'ini yaralgandan buyon ko'rsatgan o'sish tendensiyalari gavdalangan. U yaralgandan buyon hech ham pasaymagan, faqat o'sishni ko'rishimiz mumkin. Mutaxassislarning keltirgan faktlariga ko'ra: agar Facebook degan mamlakat bo'lganida edi, u dunyoning eng aholisi ko'p mamlakatlarning uchinchi o'rnini egallar edi. Amin bo'lganingizdek, bu ishni yoshi hali 25ga bormagan inson bajardi. Agar siz ongizdagi "hali yoshman, ulguraman" degan manqurtni olib tashlamasangiz, bu kabi ko'rsatkichlar sizni kompaniyangizga hech qachon tegishli bo'lmaydi. Hoziroq ishga kirishing.

«Men juda ko'p pul ishlab topa olmayman».

Kollejlar va ish beruvchilar milliy assotsiatsiyasi (NASE) tomonidan o'tkazilgan so'nggi tadqiqot shuni ko'rsatdiki, firmaning katta auditori uchun o'rtacha ish haqi yiliga 46 292 dollarga teng. Yomon emas. Agar tushungan bo'lsangiz keyingi 10 yil ichida sizning maoshingiz har yili 10 foizga oshiriladi, siz 120 069 dollar olasiz. Umuman yomon emas. World Wide Learn ma'lumotlariga ko'ra, agar siz o'zingiz biznes boshlaganingizda edi birinchi yilda sizning maoshingiz yiliga o'rtacha 50 000 dollarni tashkil qilar edi. Bu ko'rsatkich ham yomon emas. Agar siz kompaniyani yaxshi boshqarsangiz va o'zingizga o'zingiz har yili o'zinga 25 foiz o'sish qilaman deb qaror qilsangiz (o'rtacha hisobda ish haqqidan 50 sent orttirsangiz) o'n yil ichida siz 465 661 dollar ishlab topasiz. Ana endi bu juda chiroyli raqamga aylandi.

«Men yetarlicha ma'lumotga ega emasman».

Agar muvaffaqiyatli bo'lish uchun oliy ma'lumot talab etiladi deb o'ylasangiz juda qattiq adashasiz. Garvardda doktorlik dissertatsiyasiga ega bo'lgan kishilarni bilamiz, ustiga-ustak universitetdan haydalganlarni ham bilamiz;

ularning biznesdagi yutuqlari ularning ishonchlari, istaklari, ehtirolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ammo hayot maktabidagi darslariga changoqlik bilan o'z xatolarini tuzatib, biznesda muvaffaqiyatga erishganlarni ham bilamiz. Sizning ilmiy yutuqlaringiz yo'qligi muvaffaqiyatingizga kam ta'sir qiladi yoki umuman ta'sir qilmaydi. Biznes vakillari ichida qanchadan qanchasi oliy ma'lumotsiz yuqori saviyali ishbilarmonlar mavjud. Ba'zilar diplomga ega bo'lishga aqli yetgan, lekin unga ehtiyoj sezmagani. Oliy ma'lumot albatta yaxshi, u bilan ish o'rin topish ancha qulay, lekin u faqat ishchi bo'lishni xohlovchilar uchun idealdir va yagona yo'ldir. Sizning hayotda maqsadingiz bo'lsa, ishonchingiz bo'lsa, rejalariniz bo'lsa, bas, ma'lumotga ega odamlar qila olmagan ishlarni qila olasiz. Bir parcha qog'oz hayotingiz asosi degan fikrni esingizdan chiqaring. Siz hamma narsaga qodirsiz. Albatta eplaysiz!

«Biznes boshlash uchun pulim yetarli emas».

Bu ham juda yaxshi bahona! Agar biznesdagi hamma narsani tartibga solish uchun hozirda yetarli pulingiz borligini payqaganimda sizni yaqinda inqiroz kutayotganining xabarini berar edim. Sizda pul yo'qligi (yoki uning juda ozligi) shunchaki uni topish uchun avvalo sabab va aqlni ishlatish uchun harakat qilish kerakligini anglatadi. «Zarurlik – zukkolik onasi» degan gapning sababi shu. Pul mavjudligi insondagi muammolar va zaif tomonlarni yashiradi. Pulsizlik vaqtingizda imtihonlardan a'lo baholarga o'tasiz yoki topshirilgan ishni maksimal darajada yaxshi bajarishingizga sababdir. Moliyalashtirishning yetishmasligi, siz hamma narsani optimallashtirishingiz va to'g'ri yo'nalishda o'sishingiz uchun kuchli motivatsiya hisoblanadi. Motivatsiya paydo bo'lish sababi insonda majburiyat hissi borligi uchundir. Agar majbur bo'lsangiz siz harakat qilasiz, sizda tanlov huquqi bo'lmaydi. Bu esa sizni yuksaklarga ko'taradi.

«Biznes boshlash uchun raqobat juda kuchli, raqobatchilarning oyoqlari ostida qolib ketaman deb qo'rqaman».

Bir donishmand bir-biriga o'xshash odam yo'q deb aytardi. U haq edi. Agar raqobatchilar bu ishni sizdan ko'ra yaxshiroq qilishadi deb o'ylasangiz, demak, siz o'zingizning kuchli tomonlaringizni to'liq ishga soladigan darajada o'zingizga ishona olmangansiz. Ularga mos keladigan burchakni toping (shuningdek, sizning tug'ma iste'dodlar va sizning sevimli mashg'ulotingizni ham) hech kim qilmaydigan yoki boshqa hech kim qila olmaydigan darajada bajaring, albatta bu qiyin, lekin sizning raqobatchilaringiz buni bajara olisha-yapti-ku. Raqobatchilardan qo'rqmaslik birinchi xato hisoblanadi, chunki siz ularni nazar-pisand qilmay o'z ustingizda ishlamay qo'yishingiz ehtimoli katta. Raqobatchilardan xalos bo'lishning usuli – ularda yo'q yoki ular bajara olmaydigan ishni qilishdir. Misol uchun, siz o'z muzqaymoq do'koningizda muzqaymoq sotasiz, lekin atrof to'la muzqaymoqchilar. Siz ulardanda ko'proq foyda olish uchun muzqaymoqni yana shirin va jozibador qilishingiz kerak, deylik muzqaymoq ustiga maydalangan shokolad sepib berdingiz. Birinchi tatib ko'rishdayoq mijozlar sizning muzqaymog'ingiz boshqalarga qaraganda ancha shirin va chiroyli ekanligini payqashadi. Qarabsizki, ular sizning oldingizda girdikapalak bo'lishadi.

Og'ir raqobat paytida o'zining o'rnini topgan insonlar ham tarix sarlavhalarida topiladi. Misol uchun: Pop janridagi musiqa qiroli Maykl Jekson. Uning davrida unga raqobatdosh musiqachilar talaygina edi. Uning eng katta raqobatchilari Elvis Presli va Jeyms Braun bo'lgan. Ular shou-biznes olamida mo'jizalar ko'rsatib, insonlarni qalblaridan chuqur joy egallab yurgan vaqtlarida Maykl yosh bola bo'lgan, o'zining raqobatchilari qay darajada buyukligini anglagan bo'lsa, ham Maykl kuni kelib ularni ortda qoldirishni maqsad qilgan.



Maykl ularni ortda qoldirish uchun o'z yoshligini ishlash bilan o'tkazdi, qurbon qildi desak to'g'ri bo'ladi. Maykl Jekson juda ko'plab musiqalar yozdi, lekin ulardan o'tib ketishning hech ilojisi topilmadi. Oradan yillar o'tdi, u ulg'aygani sari raqobatchilaridan qanday qilib o'zib ketish yo'lini kashf qila boshladi. Shu sabab musiqasining jozibasi kuchayishi uchun har xil aqlbovar qilmas raqislar, qimirlash harakatlarini o'ylab topdi. Vaholanki, uning raqobatchilarida bunday qobiliyat yo'q edi. Shundan so'ng Maykl Jekson ismi tillarda doston bo'ldi, u tirik afsonaga aylandi. Uning konsert chiptalari sekundiga 10–15 tadan sotila boshladi, odamlar uning konsertida juda kuchli hayratdan jon taslim qilganlar, konsert vaqtida o'lim sodir bo'lishi odatiy holga aylanib ketgan edi, qizlarning aksariyati muhabbatdan o'zlarini o'ldirganlar.

Muhlislar o'rtasida bo'layotgan bu kabi g'ayrioddiy voqealarga sababchi Maykl Jeksonning harakatchangligi, o'z ustida tinmay ishlagani va raqobatchilarining kuch-qudratlaridan qo'rqmaganligi edi. Bugungi kunga kelib

hech kim Elvis Presli yoki Jeyms Braunning musiqasini tinglamaydi. Maykl shu tariqa raqobatchilarini yer tishlatdi. Uning musiqalarini raqslari jonlantiradi, insonlar uni musiqa qiroli deb tan olgan bo'lsalarda, uning bu darajaga chiqishiga sabab u o'zligini yaxshi bilganida, nimani va qanday xohlayotganini aniq bilganida va eng asosiysi, raqslarida edi. Siz shunday qobiliyatni topishingiz kerak. Qanday qilib deysizmi? Bu savolga inson o'zligini anglab, o'z biznesiga ishonsagina javob topa oladi. Biznes olamida kichik bir harakatingiz sabab yuksaklarga ko'tarilishingiz hech gap emas. O'sha omilni siz yarating. Raqobatchilar sizdan o'zib keta olmaydigan odamga aylanish vaqti keldi.

«Mendan hech kim mahsulot sotib olmaydi».

Bu bahonani tushunsa bo'ladi, ammo bu biznesdan voz kechish uchun sabab emas. Sizga yana bir marta nimani sotmoqchi ekanligingizni o'ylab ko'rishingizni maslahat beraman va tezkor yetkazib berishning yangi yo'lini topish bilan o'z mijoz bazangizga ega bo'ling.

«Men tayyor emasman».

Ushbu bahonani qabul qilsa bo'ladi, tayyor emassiz. Siz hech qachon tayyor bo'lmaysiz. Bu bahonangiz boshqa bahonalarning birlashmasi. Men odamlardan nega tayyor emasman, deb o'ylayapsiz deya so'raganimda, ular yuqorida sanab o'tilgan bahonalardan biriga qayta murojaat qilishadi. Bu odamlar shunday deb o'z umrini zoye qiladi, hech narsaga erishmaydi. Aminmanki, siz biznes boshlamaslik uchun har qanday bahonani yolg'ondan bo'lsa, ham to'qib chiqarasiz. Eng achinarlisi shuki, ana shu o'zingiz to'qib chiqargan cho'pchaklarga o'zingiz qattiq ishonasiz. Bahonalarni yengdik ham deylik. Endi sizda tavakkalchilik qo'rquvi tug'iladi. Bu qo'rquv o'z biznesidan katta daromad olayotgan ishbilarmonlarda

ham bor, bu sizga bahona bo'la olmaydi. O'z jonini xatarga qo'yib, mardlik bilan tavakkal qilib, hayoti tubdan ijobiy tarafga o'zgartgan kishilar hayotida yana ham botqoqqa botgan odamlarga qaraganda juda ko'p eshitganmiz. Agar hoziroq boshlamasangiz qariganingizdan so'ng afsus-nadomatlariga qolib ketasiz va bu dunyoni armon bilan tark etasiz. Boshlash uchun vaqt allaqachon kelgan. Siz tayyorsiz, buni anglash uchun ham boshlang!

Biznesni boshlash uchun yagona sabab bor. Boshlang agar sizning yagona maqsadingiz tezda boyib ketish bo'lsa.

Ochko'zlik – bu yoqimsiz va qisqa muddatli tuyg'u. Agar pul sizning oldingizga hech qanday mehnat va kuch sarflamasangizdan oldin kelsa ham, masalan, lotereyada yutish bilan bo'lsa, ham, qanday bo'lmasin tabiat g'ayritabiiy tarzda sizni biznesingiz uchun pul to'lashingizga yo'l topadi. Siz yangi moliyaviy intizomlardan birini o'zlashtirish orqali ko'p pul ishlashingiz mumkin. Ammo ko'pincha tezda keladigan daromad bilan umidsizlik, qashshoqlik va bankrotlik birga parallel ravishda keladi. Faqat ba'zi kishilarning katta miqdorda lotereyadan mablag' qozonishiga nazar tashlang – siz bu yutuqlaridan so'ng ularning hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rmaysiz. Misol tariqasida, Jek Uittaker lotereya chiptasida katta miqdorda mablag' yutishidan avval uni yirtib tashlamaganidan pushaymon bo'lgan. U uzoq vaqtdan beri TBB (Tadbirkorlikning boshlang'ich bosqichi) edi. U yillar davomida qattiq mehnat qildi va yiliga 16 million dollarga tushadigan qurilish kompaniyasini barpo etgan edi.

Ammo Jek lotereyadan 315 million dollar yutib olgandan so'ng uning hayoti jahannamga aylandi. U do'stlari va oilasini yo'qotdi, sud ishlarida unga qarshi to'rt yuz kishi da'vo qildi. Men bu gaplar bilan sizni qo'rqitmoqchi emasman, shunchaki shuni ta'kidlashni istardimki, ba'zida tezda boyib

ketishga muvaffaq bo'lamiz, ammo bu qoniqish, rohatlanish hissini olib kelmaydi va ba'zi hollarda bu juda ham halokatli bo'lishi mumkin. Tezda boyib ketish juda yaxshi. Lotereyadan birdaniga katta miqdorda pul topishni xohlamaydigan odamni kunduzi chiroq yoqib ham topib bo'lmaydi. Albatta, aksariyat odamlar ko'p pul ishlab olishni qattiq xohlaydigu, oxirida hech narsaga erisha olmaydilar. Hayotingizda lotereyadan katta pulni birdaniga yutib olgan tanishlaringiz, yaqinlaringizmi bormi? Bo'lsa, ham juda kamchilikni tashkil qiladi, aniq bilamanki, ularning sonini bir qo'lingizdagi barmoqlaringiz bilan sanab tugata olmaymiz. Shunday ekan, soniyalaringizni ming kishidan faqat bittasiga nasib qiladigan lotereya yutuqlarini topishga emas, balki o'zingizning shaxsiy peshona teringiz mehnati bilan erishilgan yutuqlarga sarflang. Pul inson odatlarini kuchaytiradi. Agar siz yomon odatlarni rivojlantirgan holda to'satdan boyib qolsangiz, ularni shunchaki qayerga ishlatishni bilmay havoga sovurib yuborasiz. Agar sizning odatlaringiz yaxshi bo'lsa, pul sizning munosib xatti-harakatlaringizni kuchaytiradi. Pul bizni kim ekanligimizni ko'rsatishga imkon beradi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, qaysidir inson o'rta holatda yashab yurganida yaxshi inson bo'ladi, lekin puli ko'payib cho'ntagida pul ko'rinib qolsa, salbiy tomonga o'zgaradi, baxil bo'lib qoladi, kibrli bo'lib qoladi va hokazo. Bu inson o'rta holatda yurgan holatida ham shunday salbiy inson bo'lgan, ammo o'sha paytda pul bo'lmaganligi sababli o'zligini namoyish qila olmagan. Shunday qilib, o'zingizdagi to'g'ri tasvirni rivojlantirish yaxshiroqdir. Tonnalab mablag'lar ishlashimizdan oldin o'ylashimiz va yaxshi odatlarni rivojlantirishimiz lozim. Sizning ongingiz, potensialingiz yuqori darajada bo'lgandan so'ng baxt va faqat yaxshilikka yo'naltirilgan maqsadingiz bo'lsa, ya'ni niyatingiz yaxshi bo'lsa, pul va omad o'zi keladi. Pul o'ziga qo'shib bundan ham ko'proq pul olib keladi. Shu bilan birga, yaxshi odatlaringiz kuchayadi. Baxt ham o'sib boradi. Mana sizga

sog'lom boylikka to'g'ri olib boruvchi yo'l. Balki bularga tez va osonlikcha erishmassiz, ammo albatta erishasiz. Chunki siz to'g'ri yo'ldasiz!

Endi ishga kirishamiz!

Kichik qadamlar katta g'alabalarga olib keladi. Har bir bobning oxirida siz bajarishingiz mumkin bo'lgan uchta harakatlar strategiyasini topasiz. Shuning uchun bahona qidirmang.

1. Siz eng ko'p nimani xohlaysiz?
2. Sizning ruhiyatingizni ko'taradigan narsalar nima?
3. Siz nimani har kuni bajarishdan xursand bo'laman deb hisoblaysiz?

Bu haqda fikr yuriting va oxirida nimaga ega bo'lishingizga e'tibor qarating. Ba'zan biz biron-bir moddiy narsani xohlaymiz deb o'ylaymiz, aslida esa biz qayta-qayta harakat qilishimizning asosiy maqsadi ma'lum bir yoqimli tuyg'ularga ega bo'lishdir.

Siz ilgari o'z biznesingizni boshlashdan bosh tortishingizga sabab bo'lgan barcha bahonalar ro'yxatini tuzing. Agar siz allaqachon kompaniyani boshqarayotgan bo'lsangiz unda o'zingizni to'xtatishga undayotgan kichik yolg'on va bahonalaringizni yozing. Yoshning asosiy maqsadi sizda bo'layotgan bu kabi qo'rquvlar qalbdan kelyaptimi yoki sizni shayton chalg'itishga harakat qilayaptimi aniqlashtirib olasiz. O'zingiz o'ylab topgan bahonalaringizning yopiq qirralarini yozish orqali o'zingiz uchun yoritib bering. Nima uchun bahonalaringiz o'rinsiz ekanligi haqida o'zingizga bayonot bering. Agar siz haqiqatan ham yaxshi formada bo'lsangiz, o'zingizda Xudo tomonidan berilgan qobiliyatlarni qanday qilib rivojlantirish haqida yozing, bu sizning maqsadingizni doimiy eslatib turishga yordam beradi.

Sizning ongingiz uchun ozgina tinchlik va sukunat kerak

Mening musiqam abadiy qoladi. Bu ahmoqona eshitalishi mumkin, lekin men aniq fakt ko'rsamgina bunday deyman. Men mana shunday fakt ko'rayapman. Mening musiqam abadiy qoladi.

Bob Marley

Ishonch – bu fikrning ustida turgan qat'iy fikr.

Ishonch – bu bir narsani qayta-qayta qaytarish emas.

Ishonch – sizning ishingizga yordam beradigan bo'lsa-da biror narsa qilish istagi emas.



Ishonch bu sizning ichki ovozingizdir. Bu tuyg'u haqiqat deb hisoblagan barcha narsalarga chuqur qat'iy ishonchdir. Bu o'zingiz bilan bo'lgan doimiy suhbatdir. Muammo ana shunda-da. Biz doimo so'z va fikrlarimizda yolg'on gapiramiz

yoki ba'zan biz o'zimizni ishontirishga muvaffaq bo'lamiz. O'zingizning ichki his-tuyg'ularingizni tushunmaguningizcha va ular bilan qanday kurashishni o'rganmasangiz, barqaror taraqqiyotni ko'rmaysiz. Vazn yo'qotishga urinish uchun klassik misol, albatta siz misol tariqasida gapirilayotgan odamlarni hayotingizda uchratgan bo'lishingiz mumkin. Ular ma'lum bir vaqt davomida diyetaga qat'iy qaror bilan o'tishadi, shu sabab o'ylaganlariday tez vazn tashlaydilar.

Lekin ozgina vaqtdan so'ng ular olingan natijalardan havolanib diyetani tashlaydilar. Qarabsiz-ki ular avvalgi holatidan ham ko'proq vazn yig'ib, yana o'z holatlariga qaraganda yomonroq holatga qaytishadi. Ular o'z maqsadlariga erisha olmaydilar, o'ziga ishonchi yo'qligidan uzoq vaqtga ham diyeta qila olmaydilar. O'z-o'ziga ishonish poydevori bo'lmasa diqqatni uzoq ushlab turish yoki biror narsa qilish mumkin bo'lmay qoladi. Ozish istagi borlar ozishga harakat qilishlari kerak. Ishonch nafaqat kilogrammi yo'qotish uchun, balki ularni butunlay tashlab yuborishda ham muhimdir.

Sizning turmush tarzingizni abadiy ijobiy tomonga o'zgartirishi va unga ishonish kerakligini chuqur anglamasdan siz sog'lom tanaga ega bo'la olmaysiz.

Vazndagi kilogramm ko'rsatkichlari yo'qolishi nafaqat sizni tashqaridan qiladigan amallaringizga bog'liq, balki sizning ichki holatingizga, ya'ni miyangizdagi o'y-fikrlarga ham bog'liq. Aslida, har qanday erishilgan yutuq omillar bilan emas, balki inson ongida sodir bo'lgan voqealarning natijasidir. Lekin biror narsaga ishonish bu haqiqat degani emas. Siz shunday deb o'ylashingiz mumkin. Boshqalar esa boshqacha o'ylaydilar. Bu dunyoda o'zi kim haq? Hech kim! Ayni paytda hamma voqealar bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Bu dunyoda hamma o'zi uchun haq, hammaning o'z qarashlari mavjud. Kimdir to'g'ri gapiradi, yana kimdir noto'g'ri gapiradi. Ushbu ikki kishining qaysi biridir noto'g'ri gapiradi. Eng achinarlisi shuki, biz insonlar ularning gapirayotgan gaplarini to'g'ri

yoki noto'g'riligini ajratishga qodir emasmiz. Kim bilsin, biz noto'g'ri gapirayapti degan shaxs to'g'ri gapirayotgandir. Shu sababli, insonlar Xudodan kelgan ilohiy haqiqatlardan oldin hukm chiqara olmaydilar. Biz faqat bir zodning gapini hech qanday muhokamalarsiz to'g'ri deb bilishimiz mumkin – bu Tangrimiz. Biror joyda «universal» haqiqat bor-yo'qligi muhim emas. Muhimi uni haqiqat deb bilasiz. Biz o'zimiz ishongan narsalarga to'liq avtomatlashgan tizim ravishida harakat qilish uchun yaratilganmiz. Bizning his-tuyg'ularimiz ko'rinmas GPS-navigatori sifatida ishlaydi, u har safar bizni ishonch bilan belgilanadigan yo'lni aniq ko'rsatib turadi.

Agar siz quyosh porlashi, yomg'ir yog'ishi yoxud osmonning rangi havo rang ekanligi kabi oddiy haqiqatlarga ishona olmasangiz, qanday qilib millioner bo'lishingizga ishonishingiz mumkin. Kechirasiz-u, dunyoning mexanizmi shu yo'sinda ishlaydi. Siz o'z xohishingiz amalga oshirishini ta'minlash uchun ishonchingiz nimada ekanligini aniqlash yoki anglash vaqti keldi. Bu siz yolg'on gapirishingiz kerak degani emas. Yolg'on yordam bermaydi.

Bu sizning ishonchingiz diqqat markazida va harakatlaringizni istaklaringiz bilan uyg'unlashtirishni anglatadi. Ushbu qoidaga amal qilsangiz ishonchingiz pulga, muvaffaqiyatingiz esa baxtga aylanadi. Eng yomoni shundaki, ishonchni o'zgartirish qiyin. Lekin bu tadbirkorning muvaffaqiyati uchun asosiy komponent hisoblanadi: o'zingizga ishonmasdan hech narsa qila olmaysiz. Siz uchun yaxshi yangilik bor. Ishonchni topish mumkin! Buning uchun siz his-tuyg'ular va ongni muvofiqlashtirishingizga to'g'ri keladi. Buning uchun birinchi navbatda ikkita holat borligini tushunib olishingiz kerak: o'z kuchiga ishonchsizlik va o'zingizga bo'lgan ishonch kamligi. Undan so'nggi qadamda yangi holatga o'tishni xohlayotganingizni bilib oling. Va nihoyat, bu ishonchni ichki kuch sifatida qabul qilib, unga muvofiq tarzda oldinga harakat qiling. Tadbirkorlikni

boshlash bosqichlaringiz muvaffaqiyatli amalga oshirilishini istasangiz, o'zingizga ishonishingiz zarur. Yo'lingizda uchraydigan qiyinchiliklarga qaramay, muvaffaqiyatga erishishingiz haqida ko'p tafakkur qilishingiz kerak bo'ladi. Sizing his-tuyg'ularingiz va aqlingiz o'rtasidagi doimiy kelishuv butun farqni yaratadi. His-tuyg'ular va aqlning mos kelmasligi sizni olg'a siljitmaydi.

Qanday qilib atigi 20 dollarni qurbon qilish orqali millionlar ishlab topish mumkin

Devid Tayreman ismli shaxs Angliya shahridan «Amerika orzusi»ga erishish uchun qochib ketdi, qochib yurgan paytlarida uning kissasida faqatgina 20 dollar pul bor edi. Uning sobiq xo'jayini tomonidan ta'kidlanganicha, u amerikaliklarga antikvarlarni sotish bo'yicha biznes g'oyasini amalga oshirishda, yopiq shoularda muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi. Sizningcha, bu hikoya 20 dollar qanday qilib millionlarga aylangani to'g'risidagi deb taxmin qilayotgandirsiz. Afsuski, hikoyada qiyinchilikda tinkasi qurigan, hayot sinovlarining chig'irig'idan mohirona o'tgan shaxs haqida emas. Aslida Devid va uning biznes sherigi tungi barda o'sha so'nggi 20 dollarni ichish uchun sarflaganlar. (Axir ular inglizliklar-ku.) Xo'sh, nima bo'libdi? Ularning savdo kemasi pastga qarab cho'kayotgan damlarda, ularning qo'lidan baribir hech narsa kelmagan edi, shuning uchun depressiya holatidan ko'ra biroz dam olishni afzal ko'rdilar.

Ammo ertasi kuni Devid o'zining eng dahshatli muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechirganini angladi – lekin uning qalbi muvaffaqiyatsizlik unchalik dahshatli voqea emasligi, yana oyoqqa turish mumkinligi haqida ta'kidlayotgan edi. Hech kim o'lmadi, yer yorilib uni butunlay


yutub yubormadi. Qisqasi vahimaga o'rin yo'q edi. Shuning uchun Devid hammasini boshidan boshlashga qaror qildi. U o'z do'konini tashqi va ichki bezagini amalga oshirish uchun chakana do'konlar tizimiga o'tish orqali biznes modelini o'zgartirdi. Garchi Devid bu ish haqida hech narsa bilmasada va bozorda katta raqobat ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, u bir nechta mijozlarni jalb qilish yo'lini topgan edi.

Raqiblaridan farqli o'laroq, Devid mahsulotlarini o'z garajida saqladi va do'konlarga yetkazib berishga kelganda unga do'stlari yaqindan yordam berdi. Devidning qo'lida rivojlanish uchun unchalik ko'p sarmoya bo'lmasa-da, u o'z biznesini qattiq mehnati va kreativ yondashuvi evaziga qurdi. Devid biznesining rivoji uchun noodatij fikrlashi kerak edi va aynan shu narsani mijozlari ham xohlab turishgandi. U shuni anglab yetgandiki, do'konlar uning mahsulotlaridan foydalanadilar, u antikvarlar bilan shug'ullangani bois, boshqa birovlarining mahsulotlaridan o'z mahsuloti yaqqol ajralib turganligi, uning shaxsiy brendini yaratish uchun yordam berishini tushunib qolgan edi. Bu tushuncha unga millionlab mijozlar oqimini olib keldi. Devid o'zining muvaffaqiyatini London Antikasi, vizual dizayni bilan shug'ullanadigan propaganda brendingi bo'yicha ixtisoslashgan, antiqa buyumlar va noyob brendni yaratish uchun Propaganda tomonidan talab qilinadigan keng turdagi mahsulotlarni sotish yo'li bilan ikkiga ko'paytirgandi. Ushbu qadamlar kichik bo'lsa, ham jiddiy va kelajakni hal qila oladigan qadamlar edi. Shunday og'ir mas'uliyatga qaramay, Devid muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmadi. Propaganda biznesining yetarli talabga ega bo'lishini Devid bilarmidi? Yo'q. U bu haqida o'ylab tashvishlanganmidi? Unchalik ko'p emas. Bir necha yil davomida Devid kompaniyasi Banana Respublikasi, O'ld Naviy va Nayki kabi boshqa yirik kompaniyalarni o'ziga doimiy mijoz qilib olgan edi. Ko'p yillar davomidagi branding sohasida ijodiy izlanishlar olib borgan Devid tajribalari, oz vaqtdan so'ng Devidning brendlarni yaratishda

mutaxassis bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik u ko'p millionli biznes loyihalarni mo'may pulga sotdi va brendning o'ziga xosligini yaratishga yordam beradigan kompaniya «**World Famous**»ni yaratdi. Omad Devidga kulib boqdi, chunki u muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmagandi. U muvaffaqiyatsizlik hayotdagi eng yomon omil ekanligiga ishonmay qo'ydi. U aqlli va mehnatsevar odamga aylandi. **Devid Teyrman** hojatxona qog'ozlari ishlab chiqaruvchi gigant kompaniya egasi.

O'ziga ishonchsizlik devorlari

Biznes – bu hozirgi (A nuqtadan) keyingi yutuqqa olib boradigan (B nuqtasiga) yo'l. Ehtimol, daromad olish uchun birinchi qadamni qo'yishni xohlarsiz. Sizing hozirgi daromadingiz 0ga teng, bu A nuqtasi. Yil oxirigacha sizning daromadingiz 400 000 dollarga yetishini xohlashingiz, bu B nuqtasi.



Agar o'zingizga ishonmayotgan bo'lsangiz, o'z oldingizga katta devor (to'siq)ni quryapsiz. Bu devor oldinga siljishingizga yo'l qo'ymaydi va hatto sizni chetga surib qo'yishi ham mumkin, bu esa vaziyatni yomonlashtiradi. Keling, ushbu misolda sizning ishonchsizligingiz quyidagi argumentlarda ifodalanishini ko'rib chiqamiz.

1. Sizda pul yo'q, ularsiz mahsulotingizni bozorga olib chiqa olmaysiz.

2. Siz bundan oldin hech qachon bunday ish bilan shug'ullanmangansiz, shuning uchun raqobatchilar sizning tajribangiz yo'qligi sabab osongina yengishadi.

3. Siz biznes hamjamiyatida hurmat topishingiz uchun juda yoshsiz.

4. Hech kim va hech qachon o'z daromadini bu tarzda tez oshira olmagan. O'sha uchun bu ishni men qilishim imkonsiz.

Ana endi keling, ushbu bahonalarning har birini ko'rib chiqaylik va orzularingizni qanday qilib barbod qilishi mumkinligini o'ylab ko'raylik.

1. Mahsulotingizni bozorga pulsiz olib kela olmaysiz.

Hayotda o'z mahsulotlarini bozorga chiqarish uchun yetarli mablag' yo'qligidan qo'rqib, ajoyib g'oyalarni rad etgan odamlar talaygina. Yoki undan ham yomoni, ular marketing uchun resurslarni saqlab qolish ilinjida, mavqeyi buyuk bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishga kamroq vaqt va pul sarflaydilar, shu sababli sifati past mahsulotni sotib oldilar, ammo buning marketing harakatlarining kamligi tufayli bo'ldi deb uni ayblashadi. Mana bunday harakatlar muvaffaqiyatsizlik uchun aniq retseptdir. Agar mahsulot ajoyib bo'lsa, u o'zini o'zi sotadi. Ishoning, marketing bepul yoki arzon bo'lishi mumkin (bu haqiqat). Tovarlarni sotish bilan birga savdo tendensiyasiga yanada rag'batlantirish uchun mablag'lar qo'shiladi.

2. Siz bundan oldin hech qachon bunday ish bilan shug'ullanmangansiz, shuning uchun raqobatchilar sizni tajribangiz yo'qligi sabab osongina yengishadi.

Bunday tushunchaga bo'lgan ishonch har doim sizni harakatsizlikka olib keladi. Bundan ham yomoni, odamlar raqobatchilari noto'g'ri ishlashni o'rganish uchun vaqt va pul sarflashadi. Biroq, ustunlikni ta'minlash o'rniga, ular raqobatning o'ziga xos xususiyati haqida faqat o'n yoki yigirma yil avvalgi o'nga yaqin bilimlarga ega bo'la olishadi, demoqchi bo'lganimiz eski bilimlar olamida yangiliksiz qolib ketishadi. Ilm-fan har doim ortda qolishga moyil, albatta zamonning tebranishi oldingiga qaraganda shiddatli, kerak bo'lsa, shafqatsiz bo'lganidan keyin shunday bo'lishi tabiiy-ku, agar siz ham faqatgina an'anaviy ta'limga tayanadigan bo'lsangiz siz ham u bilan birga ortda qolasiz. Ishoning, tajribasizlik sizning raqobatchilaringiz tasavvur qila olmaydigan tarzda o'ylashga imkon beruvchi aktivdir.

3. Hech kim sizni jiddiy qabul qilmaydi.

Ishonch shundaki, siz biznes hamjamiyatini hurmat qilish uchun juda yoshligingizga ishonchingiz komil bo'lishi mumkin, natijada birinchi qadamlarni bosish uchun ideal vaqtni kutishingiz muqarrar, lekin unday vaqt hech qachon kelmaydi. Hamma narsa amalda sinovdan o'tadi. Faoliyatni qanchalik tez boshlasangiz shunchalik tez tajribangiz oshadi. Bundan tashqari, internet sizga katta korporatsiya kabi harakat qilish imkonini beradi, hatto siz o'zingizning ishingiz bilan ishlayotgan bo'lsangiz ham. Siz biznes uchun juda yosh bo'lolmaysiz, birinchi kompaniya yaratish uchun siz haydovchilik guvoohnomasiga ega bo'lishingiz shart emas!

4. Sizning g'oyangizni amalga oshirish mumkin emas, chunki buni hech kim hali amalga oshirmagan.

Bundan oldin hech kim qilmagani uchun, biror narsa qilish mumkinligiga shubha ko'zi bilan qarab, qanchadan qancha odam tuzoqqa tushadi! Bu kabi yondashuvlar harakatsizlikka olib keladi. Shunday yondashuvlar olamida umrguzaronlik qilib yurgan vaqtingizda, siz «imkonsiz» deb o'ylagan g'oyani boshqalar qanday amalga oshirganiga guvoh bo'lasiz. Xalqimizda shunday gap bor: ming chaqirimlik masofa ham birinchi qadamdan boshlanadi. Xuddi shunday, har bir ixtiro, har bir ish, har bir buyuk g'oya birinchi qadam bilan paydo bo'ladi. Agar hech kim buni qilishni xohlamasa, xursand bo'ling! Siz muvaffaqiyatga erishish uchun birinchi bo'lib qadam tashlab, boshlab berishingiz mumkin.

Ko'rib turganingizdek, hatto A nuqtasidan boshlash uchun ham, ishonchsizligingiz tufayli siz juda baland va kuchli devorni qurdingiz, u sizni chalkashtirib, harakatni boshlash uchun imkonsiz holga keltirib qo'yadi. Shu sabab, siz hech qachon B nuqtasiga yeta olmaysiz. Devor har qanday jismoniy

to'siqdan ko'ra chidamli va kuchliroqdir. O'z-o'ziga ishonish orqali devorni yo'q qilishning boshqa usuli yo'q. «Bir daqiqa kutib turing! Agar men o'z biznesimni boshlash uchun pul kerak deb hisoblasam va keyin devorni ag'daradigan pulni topsam, demak, ishonchni o'zgartirmasdan devorni yo'q qilgan bo'laman!» Bu to'g'ri yondashuv emas. Pul borligi devorni buza olmaydi. Aslida, u devorni baland va kuchli qiladi. Siz pulsiz biznesni boshlash mumkin ekanligiga ishonishdan bosh tortdingiz. O'zingizga pul kerakligini isbotladingiz. «Pulsiz boshlay olmayman» devori vaqtinchalik ahamiyatsiz bo'lib qoldi, chunki pulingiz bor edi. Lekin ularning kuchida noaniqlik qoldi. Keyingi safar sizda yo'q pulni talab qiladigan vaziyatda, bu fikr yana sizning yo'lingizdagi to'siqlarni keltirib chiqaradi. O'z ishonchi va tafakkurining kuchi bilan buzish devorni yakson qiladi, agar aksi bo'lsa, u devorni yanada mustahkam qilishga sababchi bo'ladi. Hayotdagi buyuk narsalar yoxud bizga imkonsiz bo'lib tuyulgan ishlar aslida oddiy narsalar ichiga yashiringan, uni topish uchun sarosimasiz oddiy yondashuv va kichik bo'lsa, ham harakat kerak. Mashoyiqlar aytgandek, **“Buyuklik oddiylikda”**.

Buni hasad deydilar.

Yer deb nomlanuvchi bu planetada juda ko'p insonlar umr guzaronlik qiladilar va unim topish uchun qurolsiz kurashadilar. Bu tushunarsiz planetada istiqomat qiluvchi odamlarning 95 %i qolgan 5 % tomonidan boshqariladilar. Ushbu ikki nisbatning o'rtasida juda ko'p sabablar yoki omillar borgan o'xshaydi. Ammo bunday emas. Mazkur 5% odamlarning hayotda o'z quroli bor, bu qurol boshqalarni boshqarishga undaydi. Bu qanday qurol bo'ldi? Yuqorida aytilganidek, javobi eng oddiy narsalarda, ya'ni bilim, ko'nikma, tajriba, olam va odamni anglash uchun tinIM siz harakatda, boshqalarning muvaffaqiyatida o'zining muvaffaqiyatsizligini ko'rmaslikda, jo'n qilib aytganda, hasad

qilmaslikda. Hasadgo'y kishi shunday bir jirkanch kishiki, agar insoniyat uning ichki ma'naviyatidan ufurib turgan badbo'y hidni sezganida edi, bunday inson darhol qatliga yoki olislarda yashashga mahkum etilar edi. Hasadgo'y birovning chashmasidan suv ichib turgan vaqtida ham chashma egasidan hamma yaxshilikni qizg'anib, unga yomon bo'lishini istab turadi. Hasad deb nomlanmish bu xislat, insonni bor energiyasini so'rib tashlaydi. Oqibatda, odam to'g'ri ko'rish, o'z faoliyatini to'g'ri yurgizish uchun yetarlicha kuch topa olmaydi. Boshqalarga hasad qilishni to'xtatganimda, tadbirkor sifatida mening taraqqiyotim tezlashdi. Ilgari, mendan ancha oldinda bo'lgan muvaffaqiyatli odamlar bilan tanishib, ularning muvaffaqiyatlarini tan oldim, lekin faqat yuzaki. Qalbinning tubida ularni kumush bilan tug'ilgan «baxtsiz eshaklar» deb atar edim, ular egalik qilayotgan narsasiga loyiq emas deb bildim. Xayolimda ularni ortda qoldirish, kamsitish uchun tug'ilgan fikrlarim milliontadan kam emas edi. Bu fikrlar meni bora-bora boshimni og'ritishni boshlagan edi. Bunday qilishni to'xtatishga urindim. Oz vaqtlardan so'ng mening kayfiyatim yaxshilana boshladi. Ammo keyingi safar muvaffaqiyatli odamni takror ko'rganimda, mening oldingi hasadim yana qo'zg'alishni boshladi va butun jarayon yana takrorlandi. O'sha damlarda kishilargahasadqilib, o'zimgabo'lganishonchkamayibketardi va shu bilan o'z muvaffaqiyatim yo'lida qurilgan devorning balandligini oshirar edim. Biror kishiga hasad qilib, biz ular qila olmagan va qila olmaydigan narsalarga erishganini tan olamiz, shuning uchun biz ularga faqat havas ko'zi bilan qarashimiz kerak. Aslida, biz boshqa odamda biz izlayotgan qobiliyatlar borligini bilmasligimiz haqida gapiramiz. Bu o'z-o'ziga ishonmaslikning kuchli namoyandasidir. Boshqalarga hasad qilish o'z muvaffaqiyatimiz yo'lida to'siqsiz to'siq yaratadi. Bunday odamlarga hasad qilish o'rniga chin dildan havas qiling. Siz ilgari hasad qilgan odamingizni oldingi ijobiy jihatlaridan olishga harakat qiling deymiz. Ulardan

minnatdor bo'ling, chunki ular sizning muvaffaqiyatingiz uchun yo'lni o'zlarining aspektlari orqali sizga ko'rsatib berishdi. Ular muvaffaqiyat yo'lida nimani qanday qilishgani haqida so'rang, o'rganing va o'rnak oling. Sizga ular tomonidan berilgan maslahat qanday yordam berishi mumkinligiga vaqti kelib hayron qolasiz. Siz ishonchsizlik bilan yuzma-yuz uchrashishingiz va uni mag'lub qilishingiz kerak. Bu devorni yo'q qilishning yagona yo'li. Siz o'zingizning kuchingizga ishonmaydigan ishonchsizlikdan qutulishingiz va o'zingizga bo'lgan ishonchni, oldinga harakat kanalini yaratadigan ishonchni topishingiz kerak.

O'zingizga bo'lgan ishonchni topish uchun kanallar

Muvaffaqiyatli tadbirkor bo'lish uchun siz aql va qalbni mashq qilishga o'rgatishingiz va o'zingizga ishonishingiz kerak. Odamlar tanaffusli sayrdan keyin ishga kuchliroq va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib qaytib kelishganidek, o'zin-gizga bo'lgan ana shunday ishonch, maqsadlarga erishish yo'lini yaratadi. Biz buni o'z-o'ziga ishonch kanali deb ataymiz. Agar o'zingizga bo'lgan ishonchingiz ortgan bo'lsa, avvalgi misolda keltirilgan dalillar qanday o'zgaradi? Keling, vaziyatga mos yangi qoidalar to'plamini ishlab chiqamiz va unga ishonamiz.

1. Sizda pul yo'qligi, bu sizning raqobatchilardan har qanday mahsulotni targ'ib qilishda yaratuvchanlik va energiyani e'tiborga olish imkonini beradi.

2. Siz hech qachon bu ishni oldin qilib ko'rmagangiz, bu sizning raqobatchilaringizni o'ylantirib qo'yadigan yangi g'oyalar bilan kelishish imkonini beradi.

3. Sizning yoshligingiz va professionalligingiz biznes hamjamiyatida katta hurmatga olib keladi.

4. Hech kim sizning sohangizda tez o'sish yo'lini topa olmadi, shuning uchun iste'dod, kreativlik sizni taraqqiyot va yetakchilik qobiliyati bilan ta'minlaydi. Sizning yo'lingizdagi

devorni quradigan kuchingizga ishonmaslikdan voz kechib, siz nafaqat cheklovlarni olib tashlaysiz, balki o'zingizga bo'lgan ishonch kanalini ham yaratasiz. Bu kuch-quvvat monomentini oshiradi. Agar sizni yo'ldan itarib chiqarishsa ham, o'zingizga bo'lgan ishonch tufayli oldinga harakat qilishni davom ettirishga imkon beradi.

Yuqoridagi gaplar siz uchun zerikarli, balandparvoz gaplar bo'lib tuyilishi mumkin, lekin bu so'zlarga amal qilgan holda tadbirkorlar muvaffaqiyatga erishgan, bee'tibor bo'lmang, o'zingizga bo'lgan ishonch kanalini yaratishga yordam beradigan asosiy maslahatlar mana shular.

1. Imkonsiz ishning o'zi yo'qligini yaxshilab tushunib oling.

«Bu ishni qilish imkonsiz» deb aytsangizu va shu so'zlaringizga ishonsangiz, muvaffaqiyatga erishish yo'lida o'zingizga chuqur qazigan bo'lasiz. Bugungi kunda teleportatsiya qilish mumkin deb aytsam, bizning ustimizdan kulasiz. Agar havo orqali reyslar mumkinligini aytsam, siz: "ha, albatta" deysiz. Bu haqiqatni har qanday inson biladi. Ammo 1800-yillarda amalga oshirilgan aeronavtika haqida gapirilganda odamlar qah-qah otib kulishar edi, ular uchun havo yo'li bo'ylab odam tashash mumkin emas edi go'yo. Hozirgi zamonda, «bu mumkin emas» deb aytishni bas qiling. Maqsad uchun doimo yo'l topiladi, shunchaki uni topish kerak. «Men sizlarga imkonsiz ishni o'zi yo'q demaganmidim» deyish uchun birinchi telepartyorni kutib yashash ahmoqlik.

2. O'rinli savollar bering.

Biz hammamiz ahmoqona savollar bo'lmaydi degan iborani eshitganmiz. Bu haqiqat emas! Berayotgan savollaringiz sizning bilim saviyangizni ko'rsatib beradi. Sizga aytmoqchimanki, ahmoqona savollar bor, ular har qadamda uchraydi. Odamlar menga bir xil ahmoqona savollarni

qayta-qayta berishadi. Bir biznes trener aytgan: Men uchun eng ahmoqona savollardan biri bu menga pul beradigan investorni qayerdan topish mumkin? kabi savollardir. Agar investorlar ota-onam bo'lganida, men sizni ular bilan uchrashtirib qo'yar edim, deb javob qaytaraman. Ahmoqona savollar berishni to'xtating. To'g'ri so'rashni o'rganing. Siz o'rinli savol berganlarning birinchisi bo'ling: «Investorni o'z g'oyamga bo'lgan ishonchini qay tarzda 200%ga chiqara olaman?» yoki «investorga bu yerda g'alaba qozonishimiz mumkinligini qanday ko'rsatishim mumkin?» To'g'ri savollar to'g'ri javoblarni olib keladi.

3. Kimdir siz kabi bir xil ish qilyaptimi yoki yo'qmi, shuni tekshiring.

Ko'pincha, ko'zlarimizni ochganimizda biz imkonsiz deb hisoblagan narsalarni allaqachon bajarib bo'lgan odamni ko'ramiz. Buni o'zingiz uchun qo'llashingiz kerak. Aka-uka Raytlar qushlarga qarab uchish imkoniyatini ko'rdilar. Shundan so'ng, ular tarixni o'zgartiruvchi savolni berishga muvaffaq bo'ldilar: «Qushlar haqidagi bilimimizni, insonni uchirishga imkon beradigan konstruksiyani yaratish uchun qanday ishlatishimiz mumkin?» Agar kimdir allaqachon xuddi shunday ish qilgan bo'lsa, buni amalga oshirish mumkin.

4. O'zingiz bajaring.

O'zingiz uchun biror narsani isbotlamaguningizgacha, hech qachon o'zingizga ishonmaysiz. Ba'zan dalil sirtigingiz ustida yotadi. O'zingizni sinab ko'ring va o'zingizning ishonchsizligingizga zid bo'lgan narsalarni bajarib ko'ring. Siz haqligingizni isbotlashga urinmang; aksincha, o'z nuqtayi nazarigingizning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun o'zingizni butunlay safarbar eting! Har bir qilib ko'rgan ishingiz muvaffaqiyatli bo'lganda, o'zingizga bo'lgan ishonch

kuchayadi. Ba'zan noto'g'ri bo'lish juda to'g'ri bo'lishdan yaxshiroq.

5. Maqsadga toshbaqa qadamida boring.

Agar sizning ishonchingiz tasvirida siz 180 daraja burilish qilishingiz kerak bo'lsa, avval uni bir vaqtning o'zida bir darajadan o'zgartirishingiz kerak bo'ladi. Birinchi kichik o'zgarish uchun energiyangizning katta qismini ishlatib. Qachonki, bu ish o'xshasa, o'zingizni maqsadga erishganlik uchun tabriklang va keyingi bosqichga o'ting. Barcha muammolarni bir vaqtning o'zida hal qilishga urinmang; toshbaqa qadamida harakatlaning. Agar quyon tezligida harakatlansangiz, oldingizdagi muammolarni hal qilishga shoshib qolasiz. Daromad topishga qiyoslaganda, siz birinchi bo'lib 100 dollar topib, so'ng toshbaqa tezligida uni oshirib borasiz.

6. Stakaning yarmi to'lgan deb hisoblang.

Har qanday vaziyatga duch kelganda, faqat qulay imkoniyatlar izlashga e'tibor bering. Ba'zi hollarda bunday imkoniyatlar kam bo'lishi va ko'plab muammolar ro'parangizda turishi mumkin. Muammolarga e'tibor berish hech qanday foyda keltirmaydi. Siz deyarli topishga imkon bo'lmagan vaziyatda ham uni topa olishingiz kerak. Agar sizning stakaningizda faqatgina bir tomchi suv qolgan bo'lsa, ham, demak, hali ichishga nimadir bor ekan. Bu hayotda inson o'zini o'zi xursand qilmasa, kim xursand qiladi.

7. Yozib oling va o'rganing.

Odamlar tez-tez nimadir bilishlarini namoyon qilish uchun aqllilikka da'vogarlik qilishadi, buni qayerdan bilishlarini so'raganda, ular shunday javob berishadi:

«shunchaki bilaman, bo'ldi». Bunday javob berish usuli, o'zidagi ishonchsizlik devorini qurish uchun juda oddiy va oson usuldir. Qalbingizdagi ovoz sizga qandaydir ishni qila olishingizning xabarini bersa, uni zudlik bilan qog'ozga yozing. Keyin ma'lumotni qidirib, uni diqqat bilan o'rganing. Tahlil natijalari sizning ishonchsizligingizni bartaraf etishi mumkin, va shu sabab, siz maqsadingizga yashin tezligida ketishingiz mumkin bo'ladi.

III BOB

Kelajakka
chorlov**Qaysi muhim haqiqat borasida juda kamchilik odamlar sizning fikringizga qo'shiladi?»**

Savol oddiy bo'lgani uchun osondek tuyuladi. Aslida esa unga javob berish juda qiyin. Savol intellektual jihatdan murakkab, chunki maktabda o'rgatilgan bilimlarni hamma haqiqat deb tan oladi. U psixologik nuqtayi nazardan qaraganda ham mushkul, sababi javob beruvchi shaxs o'zi ko'pchilik norozi deb bilgan biror fikrni aytishi kerak. Dohiyona fikrlash qobiliyati kamdan kam insonlarda uchraydi, biroq jasurlik daholikdanda taqchil xislat.

Savolga eng ko'p beriladigan javoblar quyidagilar:

«Ta'lim tizimimiz izdan chiqqan, uni zudlik bilan isloh qilish kerak».

«Amerika – boshqa mamlakatlarga o'xshamaydigan, o'zgacha davlat».

«Xudo mavjud emas».

Bular yomon javoblar sirasidan. Birinchi va ikkinchi gap to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin ko'pchilik ularni allaqachon haqiqat deb tan oladi. Uchinchi gap esa hammamizga tanish

ko'hna munozarada bir tomonning fikrini yoqlash, xolos. Yaxshi javob quyidagicha ko'rinishda bo'ladi: «Ko'pchilik X-ga ishonadi, lekin haqiqat X-ning teskarisidir».

Ushbu noodatiy savolning kelajakka qanday aloqasi bor? O'ta sodda qilib aytganda, kelajak hali yetib kelmagan lahzalar to'plamidan iborat. Ammo kelajakni o'zgacha va ahamiyatli qiluvchi omil – bu hali uning sodir bo'lmagani emas, balki u kelganida dunyo bugungidan boshqacha ko'rinishga ega bo'lishidir. Bu degani, agar keyingi 100 yil ichida jamiyatimizda hech qanday o'zgarish sodir bo'lmasa, demak, kelajak 100 yildan keyin keladi. Agar keyingi 10 yil davomida jadal o'zgarishlar sodir bo'lsa, demak, kelajak juda yaqin. Hech kim kelajakni oldindan aniq bashorat qila olmaydi, lekin bizga ikki narsa ma'lum: u hozirgidan farqli bo'ladi va unga bugungi dunyoda zamin yaratilishi lozim. Noodatiy savolga javoblarning aksariyati zamonamizga turlicha nigoh bilan qarash, xolos; yaxshi javoblar esa bizga kelajakka yaqinroq masofadan nazar tashlash imkonini beradi.

Startup – taraqqiyot kelajagi

Qachonki, kelajak haqida o'ylaganimizda beixtiyor kelajakda taraqqiyot bo'lishiga umid qilamiz. Taraqqiyot ikki xil shaklda gavdalanadi.

Gorizontal yoki (kengayuvchi) vertikal taraqqiyot – samarali modellardan nusxa ko'chirishni, ya'ni 1 dan n ga siljishni anglatadi. Gorizontal taraqqiyotni tasavvur qilish oson, chunki u allaqachon shaklan bizga tanish. Vertikal yoki o'suvchi taraqqiyot – yangilik yaratishni, A nuqtadan B nuqtaga o'tishni anglatadi. Vertikal taraqqiyotni tasavvur qilish mushkulroq, chunki u boshqalar shu paytgacha qo'l urmagan ishlarni bajarishni talab etadi. Bitta yozuv mashinkasini olib 100 ta shu kabi yozuv mashinkasini yasashingiz gorizontal taraqqiyot hisoblanadi. Sizda yozuv mashinkasi bo'lsa-yu, siz matn protsessorini yaratsangiz unda vertikal taraqqiyotni amalga oshirgan bo'lasiz.

vertikal yoki o'suvchi taraqqiyot (yangilik yaratish)



Gorizontal yoki kengayuvchi samarali modellardan nusxa ko'chirish

Dunyo miqyosida olib qaralsa, gorizontal taraqqiyotni bir so'z – globallashuv so'zi bilan ifodalash mumkin. Bu biror yerda muvaffaqiyatli ishlayotgan narsani olib uni boshqa joylarda ham joriy etishni anglatadi. Xitoy – globallashuvning yaqqol misoli: Xitoy 20 yil ichida AQSHning bugungi darajasiga erishishni rejalashtirgan. Xitoyliklar rivojlangan davlatlarda samarali ishlagan har qanday modelni bor-budicha ko'chirib, o'zlashtirib kelmoqdalar: XIX asrda temiryo'llar, XX asrda konditsioner va hattoki butun boshli shaharlarning nusxasini yaratgan. Ular yo'l-yo'lakay ayrim bosqichlarni tashlab o'tgan bo'lishi mumkin, masalan, simli telefonlar o'rnatmasdan, bevosita simsiz telefonlardan foydalanish kabi, lekin baribir u yerda rivojlanish ko'chirish orqali amalga oshmoqda.

Vertikal – A nuqtadan B nuqtaga taraqqiy etish, bir so'z bilan, texnologiya deb ataladi. Oxirgi bir necha o'n yillik ichida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi Silikon vodiysini ma'lum ma'noda «texnologiyalar» poytaxtiga aylantirdi. Biroq texnologiya tushunchasini faqat kompyuterlar bilan bog'liq deb tasavvur qilish asossiz. To'g'riroq aytadigan bo'lsak, texnologiya bu har qanday narsani yangi va mukammalroq yo'l orqali amalga oshirishdir.

Texnologiya A nuqtadan B nuqtagacha



Globallashuv va texnologiya rivojlanishning ikki xil modeli bo'lgani sababli bir vaqtning o'zida ularning har ikkalasi yoki faqat bittasi mavjud bo'lishi yoxud ikkisi ham mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, 1815-yildan 1914-yilgacha bo'lgan davr mobaynida ham shiddatli texnologik rivojlanishda ham shiddatli globallashuv sodir bo'lgan. Birinchi jahon urushidan boshlab to Kissinjer Xitoy bilan aloqalarni qayta tiklash uchun Xitoyga tashrif buyurguniga qadar shiddatli texnologik rivojlanish kuzatilgan bo'lsa-da, globallashuv jarayoni u qadar sezilmagan. Ajablanarlisi shundaki, 1971-yildan buyon shiddatli globallashuv yuz bermoqda, texnologik taraqqiyot esa globallashuvga qaraganda ancha cheklanib qolgan – yangiliklar, asosan, axborot texnologiyalari sohasi doirasida amalga oshirilmoqda.

Ushbu globallashuv davrida keyingi bir necha o'n yillikda xalqlar o'rtasidagi yaqinlashuv va bir xillik yanada oshishini tasavvur qilish oson. Hattoki kundalik so'zlashuv tilimiz ham texnologiyalar tarixi ma'lum ma'noda yakunlanganiga ishonishimizdan darak beradi: dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga bo'linishi «rivojlangan» davlatlar allaqachon imkoni bo'lgan narsalarning barchasiga erishib bo'lgani, nochorroq davlatlar esa shunchaki ularga yetib olishi kerakligi haqidagi taassurotni uyg'otadi.

Noodatiy savolga mening javobim quyidagicha: «Aksariyat kishilar dunyo kelajagini globallashuv belgilab beradi, deb o'ylaydi, aslida esa texnologiyalarning ahamiyati yuqoriroqligicha qolaveradi». Texnologik rivojlanishlarsiz Xitoy keyingi yigirma yil ichida energiya ishlab chiqarishni ikki barobarga oshiradigan bo'lsa, havoning ifloslanishini ham ikki barobarga orttiradi. Agar Hindistondagi yuz millionlab uy xo'jaliklarining har biri hozirda amerikalik oilalar yashayotganidek – faqatgina bugunda mavjud texnologik vositalardan foydalanib hayot kechirishganida edi, buning oqibatida atrof-muhit ekologik halokatga mahkum bo'lardi. Butun dunyoda to'kin-sochinlik yaratish uchun eski usullarni tarqatish mo'l-ko'pchilikka emas, vayrongarchilikka olib keladi. Resurslar tanqis bo'lgan dunyoda globallashuv yangi texnologiyalarsiz barqaror bo'la olmaydi. Tarixda yangi texnologiyalar hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmagan.

Ajdodlarimiz nazarida boshqalarning mulkini tortib olish muvaffaqiyat deb hisoblangan, ular talonchilikka asoslangan jamiyatda yashashgan. Ular kamdan kam hollardagina boylik orttirishning yangi manbalarini yaratishgan, uzoq muddatda esa ular bu kabi manbalarni insonni o'ta qashshoq hayotdan saqlashga yetarli miqdorda yarata olmagan. So'ngra 10 minglab yillar davomida qishloq xo'jaligining ibtidoiy usullaridan boshlab to o'rta asr shamol tegirmonlari va XVI asr usturloblari yaratilgunicha betartib rivojlanib kelgan jamiyat birdaniga texnologik taraqqiyotning zamonaviy davriga o'tib, 1760-yillarda bug' dvigateli ixtiro qilinganidan keyin to 1970-yillarga qadar paydar-pay yangidan yangi ixtirolarga guvoh bo'ldi. Natijada biz ajdodlarimiz tasavvur qilganidanda boyroq jamiyatni meros qilib oldik. Albatta, ajdodlarimiz deganda 1960-yillar oxirida yashagan otalarimiz va bobo-buvilarimizni nazarda tutmayapman – ular bu rivojlanishni davom etadi deb o'ylashgan.

Ular haftasiga to'rt kungina ishlash, energiya o'lchashga ham arzimas darajada arzon bo'lishi, ta'tilni Oyda o'tkazish

mumkin bo'lgan davrlar kelishini intiqib kutishgan. Lekin bular amalga oshmadi. Bizni o'rab turgan voqelikdan chalg'ituvchi smartfonlar ushbu voqelik hayratlanarli darajada eskirganini ilg'ashimizga ham imkon bermaydi: XX asr o'rtalaridan beri faqat kompyuterlar va kommunikatsiya texnologiyalarigina katta o'zgarishlarga uchradi xolos. Bu ota-onalarimizning ravnaqli kelajak haqidagi orzulari xato ekanligini anglatmaydi. Shunchaki, ular ushbu rivojlanish o'z-o'zidan sodir bo'ladi deb umid qilishlari xato edi. Bugun oldimizda turgan qiyinchilik va bajarishimiz kerak bo'lgan burchimiz shuki, biz bir vaqtning o'zida XX asrga qaraganda tinchroq va farovonroq qila oladigan yangi texnologiyalar haqida ham tasavvur qilishimiz, ham ularni yaratishimiz kerak.

«Startup»cha fikrlash

Aksariyat yangi texnologiyalar yangi loyihalar – startaplar orqali dunyoga keladi. Bir maslak atrofida birlashgan insonlardan iborat kichik guruhlar dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirgan: siyosatdagi asoschi-otalardan tortib to ilmfandagi qirolik jamiyati va biznes sohasidagi "Fairchild Semiconductor" «makkor sakkizligi»gacha. Mazkur dalilni oddiy qilib aytganda, u salbiy hisoblanadi: katta tashkilotlarda ishlash jarayonida qandaydir yangicha tesha tegmagan narsalarni yaratish juda murakkab, buni yakkalikda amalga oshirish esa undanda og'irroq. Byurokratik tuzilmalar imillab harakatlanadi, manfaatlar kuchliligi esa tavakkal qilishga yo'l bermaydi.

Faoliyati samarali tashkil etilmagan tashkilotlarda mansab pillapoyalaridan ko'tarilish uchun «xo'ja ko'rsin»ga ishlash shu ishni chindan ham bajarishdan ko'ra foydaliroq usuldir (agar mazkur ta'rif sizning kompaniyangizga ham mos tushsa, uni hoziroq tark etishingiz kerak). Ikkinchi holatda esa biror daho yakka o'zi adabiyot yoki san'at sohasida

mumtoz asar yaratishi mumkin, lekin u hech qachon butun bir sanoat tarmog'ini yarata olmaydi. Startaplar quyidagi mezon asosida ishlaydi: biror ishni yaxshi bajarish uchun boshqalar bilan birga ishlash lozim, ijobiy natijaga erishish uchun esa jamoa kichikligicha qolishi kerak.

Startap tushunchasiga ijobiy ta'rif beradigan bo'lsak, startap – yangicha kelajak yaratish rejangizga ishonirishingiz mumkin bo'lgan insonlardan iborat eng katta guruh. Ular olamda katta renessans qilishga intiladilar. Yangi kompaniyaning asosiy kuchi – uning yangicha fikrlay olish qobiliyatidir: kompaniyaning kichik hajmli bo'lishi xodimlarga erkinroq fikrlash imkonini beradi, bu uddaburonlikdan ham muhimroqdir. Mazkur kitob yangi narsalar yaratish orqali biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun javobini topishingiz zarur bo'lgan savollar haqida. Quyida o'qiydiganlaringiz qo'llanma yoki ma'lumotlar to'plami emas, balki fikrlash hamda tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirish mashqidir. Chunki startapning vazifasi ham aynan shu: mavjud g'oyalarga tanqidiy qarash va biznes g'oyasini bir boshdan qayta ko'rib chiqish.

Go'yoki 1999-yildagidek

Yuqorida berilgan g'ayrioddiy savolga yana yuzlanamiz: «Qaysi muhim haqiqat borasida juda ko'pchilik odamlar sizning fikringizga qo'shiladi?» degan noodatiy savolimizga to'g'ridan to'g'ri javob berish mushkul. Debocha bilan boshlasak, osonroq bo'lishi mumkin: atrofdagi insonlar nimalarni to'g'ri deb hisoblaydi? «Yolg'izlik holatlarida odamning aqldan ozishi kamyob hodisa, lekin jamoalar, partiyalar, xalqlar va butun bir avlodlarning ommaviy aqldan ozishini har qadamda kuzatish mumkin, bu – inkor etib bo'lmas qoida» – deb yozgan edi Nisshe o'zi aqldan ozishidan oldin. Agar yangilish ommaviy aqidani aniqlay olsangiz, uning ortida yashirilib yotgan qarama-qarshi haqiqatni topa olasiz.

Masalan, oddiy bir farazni olaylik: kompaniyalar pul ishlash uchun yaratiladi, pul yo'qotish uchun emas. Bu fikrlash qobiliyatiga ega har qanday insonga ayon narsa. Lekin 1990-yillarning oxirlarida ko'pchilikka bu mezon muhim haqiqatdek qabul qilinmagan: u paytlarda hatto yirik yo'qotishlar ham buyukroq, yorqinroq kelajakka tikilgan sarmoya sifatida qabul qilinavergan. «Yangi iqtisodiyot»davrida an'anaviy tafakkur ajoyib qiyofa aks etardi. Ular hamma joylarda moliyaviy muvaffaqiyat yo'lida odatdagi va kundalik daromadlarga nisbatan ancha mukammal va yo'naltirilgan o'lchov tamoyili hisoblangan.

Odatda, umum qabul qilingan g'oyalarning mantiqsiz va xato ekani vaqt o'tib, o'tmishga nazar tashlanganda bilinadi; halokatga yuz tutgan bu kabi eski aqidalarni biz «pufak» deb ataymiz. Biroq pufak shakllantirgan yangilish qarashlar u yorilganda birga yo'qolib ketmaydi. 1990-yillardagi internet jazavasi 1929-yilgi birja halokatidan keyin paydo bo'lgan eng katta iqtisodiy pufakcha edi; keyinchalik undan olingan saboqlar bizning texnologiyalar haqidagi hozirgi qarashlarimizni belgilab berdi va yangilish tushunchalar hosil bo'lishiga olib keldi. Shunday ekan, haqiqat borasidagi fikrlash yo'lida qo'yiladigan dastlabki qadam o'tmish haqida bilamiz deb o'ylaganlarimizni shubha ostiga olishdir.

1990-yil: texnologik tarix

1990-yillar kishilarda yaxshi taassurot qoldirgan edi. Odatda, bu davrning yakunida internet loyihalar qo'ziqorindek otilib chiqib, ko'pchiligi pufakdek yorilgan, insonlar o'rtasida yangicha kayfiyat hukm surgan. O'tgan asrning 90-yillarini samarador o'n yillik sifatida eslaymiz. Biroq u yillarning aksariyati shirin xotiralarimizda saqlanib qolgani kabi shod-xurramlikda o'tmagan. Mazkur o'n yillikning so'nggi 18 oyida yuz bergan dotkom-maniya dunyoni ostin-ustun qilgani allaqachon yodimizdan ko'tarilgan.

1989-yil 1990-yilning noyabr oyida Berlin devorining qulashi tufayli kuchli pozitiv hayajon (eyforiya) bilan boshlandi. Ammo quvonchli damlar uzoq davom etmadi. 1990-yilning o'rtalariga kelib, AQSHni iqtisodiy tushkunlik qamrab oldi. Tushkunlik rasman 1991-yilning mart oyida o'z nihoyasiga yetdi, biroq iqtisodiyotning qayta tiklanishi ancha mashaqqatli kechdi va ishsizlik darajasi 1992-yilning iyuliga qadar o'sishda davom etdi. Ishlab chiqarish sohasi ham qaytib oldingi holatini tiklay olmadi. Xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayoni uzoq va og'riqli kechdi.

1992-yildan 1994-yilning oxirlarigacha umumiy beqarorlik davri hukm surdi. Kabelli telekanallar Mogadishoda halok bo'lgan amerikalik askarlar suratini to'xtovsiz namoyish etib borar edi. Globallashuv va AQSHning jahon sahnasidagi raqobatbardoshligi borasidagi xavotirlari kuchaydi, natijada ish izlab Meksikaga yo'l olganlar soni oshib ketdi. Jamiyatni qamrab olgan pessimistik kayfiyat AQSHning 41-prezidenti Katta Jorj Bushni prezidentlik kursidan mahrum qildi va 1992-yilgi saylovlarda Ross Perotga xalqning deyarli 20% ovozini olib berdi: bu Teodor Ruzveltning 1912-yilgi natijasidan keyin «uchinchi tomon» nomzodi sifatida qayd etilgan eng yaxshi ko'rsatkich edi. Ommaviy madaniy trendlar – Nirvana guruhi, granj uslubidagi musiqasi, keng tarqalgan heroin giyohvandligi istalgan savolga javob bo'la olardi. Lekin umid yoki ishonchdan darak bermas edi.

Silikon vodiysida ham umidsizlik hukm surardi. Yarim o'tkazgichlar bozorini egallash uchun kurashda Yaponiyaning qo'li baland kela boshlagandi. Internetning ommalashish davri ham kechikdi, bunga sabab internetdan tijoriy maqsadda foydalanishning 1992-yil oxirlarigacha taqiqlangani hamda foydalanuvchilar uchun qulay brauzerlarning yo'qligi edi. E'tiborlisi shu bo'ldiki, 1985-yil Piter Tiyel Stenford universitetiga ilk bor qadam qo'yganida, talabalar orasida eng ommabop soha kompyuter texnologiyalari emas edi, balki iqtisodiyot edi. Universitetdagi talabalarning aksariyati

uchun texnologiyalar sohasi g'ayritabiiy va hatto qoloqdek, kelajagi noma'lum sohaddek tuyulardi.

Internet bu stereotiplarning barini o'zgartirib yubordi. 1993-yil noyabrda Mozaik kompaniyasi o'z brauzerini rasman ommaga taqdim etish orqali oddiy kishilarga ham internetga kirish imkonini berdi. Tez orada Mozaik Netckeypga o'zgartirildi va 1994-yil oxirida o'zining Navigator brauzerini taqdim etdi. Navigator brauzeri shiddat bilan ommalashdi – 1995-yilning yanvarida internet-brauzerlari bozorining 20% ulushi Navigator hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 12 oydan kamroq muddat ichida bu ko'rsatkich deyarli 80% ni tashkil etdi. Garchi hali u foydaga chiqishga ulgurmagan bo'lsa-da, Netskeyp 1995-yilning avgustida IPO boshlashga muvaffaq bo'ldi. Keyingi besh oy ichida Netskeyp qimmatli qog'ozlarining narxi bitta aksiya uchun 28 AQSH dollaridan 174 AQSH dollarigacha ko'tarildi. Mazkur davrlarda texnologiya sohasidagi boshqa kompaniyalar ham jadallik bilan o'sib borayotgandi.

Yahoo! kompaniyasining 848 million AQSH dollarilik qimmatli qog'ozlari 1996-yilning aprel oyida fond bozoriga chiqarildi. Ularning ketidan 1997-yilning may oyida Amazon kompaniyasi ham 438 million AQSH dollari qiymatidagi qimmatli qog'ozlari bilan fond bozoriga qadam qo'ydi. 1998-yilning bahoriga kelib, aksiyalarini fond bozoriga chiqargan texnologiyalar kompaniyalarining har biriga tegishli aksiyalar qiymati to'rt barobardan ko'proqqa o'sdi. Skeptiklar internetga aloqador kompaniyalarning tushum va daromadlaridagi o'sish internet sohasiga aloqador bo'lmagan kompaniyalarnikidan chindan ham yuqoriroq bo'lganiga shubha bilan qarashdi. Bozor «aqlidan ozdi» degan xulosaga kelish qiyin emasdi.

Mazkur xulosa asosli edi-yu, ammo bevaqt chiqarilgandi. Pufak yorilishidan 3 yil oldin – 1996-yilning dekabrda Federal xazira tizimi raisi Alan Grinspen «bemulohaza yuqori tendensiya» «aktivlar qiymatini keskin oshishi»ga sabab bo'lishidan ogohlantirgandi. High-Tech (yuqori texnologiya)

ga pul tikkan sarmoyadorlar chindan ham to'g'ri yo'l tutgan edi, lekin ularni bemulohaza ish ko'rgan deyish qiyin. O'sha paytda dunyoning boshqa qismlarida holat u qadar yaxshi bo'lmaganini osongina yoddan chiqarib qo'yamiz.

1997-yilning iyulida Sharqiy Osiyo moliyaviy inqirozi yuz berdi. Tanish-bilishchilik asosida qurilgan kapitalizm va yirik miqdordagi tashqi qarz Tayland, Indoneziya hamda Janubiy Koreya iqtisodini tiz cho'ktirdi. Uning ortidan 1998-yilning avgustida rubl inqirozi boshlandi, surunkali moliyaviy kamomaddan falajlangan Rossiya milliy valutasini devalvatsiya qilib, qarzdorlik majburiyatlarini bajara olmasligini e'lon qildi. Amerikalik sarmoyadorlarni 10 mingdan ortiq yadroviy qurolga ega, biroq hisobida bir chaqasi ham bo'lmagan davlat tobora xavotirga solayotgandi; Dou Jons indeksi (Dow Jones Industrial Average) bir necha kun ichida 10% ga pasaydi.

Sarmoyadorlarning xavotiri o'rinli edi. Rubl inqirozi zanjir reaksiyasini keltirib chiqardi, natijada AQSHning katta miqdordagi qarz mablag'lari asosida faoliyat yurituvchi "LTCM" xedj-fondi kuchli zarbaga uchradi. 1998-yilning ikkinchi yarmida fond 4,6 milliard dollar yo'qotdi. Shundan keyin ham fondning 100 milliard dollardan ko'proq qarz majburiyatlari mavjud edi, lekin Federal zaxira tizimi vaziyatga aralashib, fondni keng qamrovli moliyaviy ko'mak orqali qo'llab-quvvatladi hamda butun tizim halokatining oldini olish uchun zudlik bilan foiz stavkalarini pasaytirdi. Yevropada ham ahvol havas qilarli darajada emasdi. 1999-yilning yanvaridan muomalaga kiritilgan yagona pul birligi – Yevro skeptik loqayd ruhda qarshi olindi. Valuta bozoriga chiqarilgan birinchi kunida 1 Yevro 1,19 AQSH dollarigacha ko'tarildi, lekin keyingi 2 yil ichida 0,83 AQSH dollarigacha tushib ketdi. 2000-yilning o'rtalarida «Katta yettilik» davlatlarining markaziy banklari Yevroning qadrini mustahkamlash uchun bir necha milliard dollarlik valuta intervensiyasini amalga oshirishga majbur bo'ldi.

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

Shunday qilib, dunyodagi odatiy tizimlarning hech biri ko'ngildagidek ishlayotgani 1998-yilning sentabrida boshlangan umri qisqa dotkom-maniyaga zamin yaratib bergandi. Eskirgan iqtisodiy tizim globallashuv natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning uddasidan chiqqan olmadi. Agar kelajak yaxshiroq bo'ladi deb umid qilinsa, qandaydir usul chindan ishlashi, ishlaganda ham, nihoyatda keng miqyosda ishlashi lozim edi. Ushbu vaziyatda bilvosita dalillar olg'a siljishning yagona usuli internetga asoslanuvchi yangi iqtisodiyot ekanini ko'rsatdi.

Jazava: 1998-yil sentabr – 2000-yil mart


O'sha davrlarda dotkom maniyasi shiddatli, biroq qisqa muddatli bo'ldi, ushbu jazava 18 oy – 1998-yilning sentabridan 2000-yilning martigacha davom etdi. Bu Silikon vodiysining oltin vasvasasi edi: har tarafdin pul oqib kelar, pullarning ortidan quvgan serg'ayrat, ustomon kishilarning ham keti ko'rinmasdi. Har yangi haftada o'nlab startaplar ishga tushayotganligi munosabati bilan startaperlar kimo'zarga bir-biridan dabdabali bazmlar uyushtirardi. (Loyihalar muvaffaqiyatini nishonlash bazmlari esa juda kam uchrardi).

DOTKOM PUFAGI



Millionerlar minglab dollar qiymatidagi tushliklarni buyurtma qilib, tushlik haqini o'z startapining aksiyalari bilan to'lashga urinishardi, ayrim hollarda to'lovlarni shu usulda qabul qiluvchilar ham topilardi. Son-sanoqsiz odamlar o'z startapini boshlash yoki biror startapga qo'shilish uchun o'zining barqaror va yaxshigina maoshga ega ishlarini tashlab ketayotgandi. Men yoshi 40 dan oshib qolgan bir magistratura talabasini tanirdim, shu yigit 1999-yili bir vaqtning o'zida oltita kompaniyani boshqarardi. (Odatda 40 yoshli kishining magistraturada o'qishi g'alati tuyuladi. Bir vaqtning o'zida oltita kompaniyani ishga tushirish esa telbalik hisoblanadi. Biroq 90-yillarning oxirlarida ko'pchilik bu ikkisi muvaffaqiyatli kombinatsiya ekaniga ishonardi.) Ushbu manyaning beqarorligi barchaga ma'lum bo'lishi kerak edi; eng «muvaffaqiyatli» kompaniyalar biznes modelini hayotga tatbiq etayotgandek edi: kompaniya o'sgani sari ko'proq pul yo'qotardi. Ammo musiqa yangrayotganda, raqsga tushgan odamlarni ayblash qiyin: kompaniyangiz nomiga. com so'zi qo'shilishi bir kechada kompaniya qiymatini ikki barobar oshirib yuborishi mumkin bo'lgan paytlarda bunday mantiqsizlik to'laligicha mantiqiy asosga ega edi.

DOTKOM PUFAGINING YORILISHI



Silikon vodiysidan umidini uzmag'an tadbirkorlar dotkom pufagining yorilishidan bugungi kunda ham biznes-fikr yuritishning asosi bo'lgan to'rtta muhim xulosa chiqardi:

1. Rivojlanishni bosqichma-bosich (kichik qadamlar bilan) amalga oshiring

Ulkan maqsadlar, o'ylamasdan ish ko'rish va prognozlarga asoslanmagan harakat dotkom pufagi yorilishini yuzaga keltirdi, shu sababli ularga berilib ketmaslik kerak. Buyuk ishlarni bajarishga va'da berayotgan har qanday kishi shubha ostiga olinishi kerak. Dunyoni o'zgartirish istagida bo'lgan har qanday shaxs kamtarroq bo'lishi kerak emasmi? Kichik qadamlar bilan bosqichma-bosqich oldinlash – rivojlanishning yagona xavfsiz yo'lidir.

2. Moslashuvchan (Flexibility) bo'ling

Barcha kompaniyalar moslashuvchan bo'lishi tom ma'noda aniq rejaga bog'lanib qolmasligi lozim. Biznesingiz qanday bo'lishini oldindan aniq belgilashga harakat qilmang: rejalashtirish o'zingizga bo'lgan ishonchni nihoyatda oshirib yuboradi va qayishqoqlik qobiliyatingizdan mahrum qiladi. Buning o'rniga turli usullarni sinab ko'ring, tajriba to'plang, tadbirkorlikni skeptik o'tkazadigan sinov deb biling.

3. Raqobat rivojlanishingizga xizmat qilsin

Qulay fursat kelmasidan turib yangi bozor yaratishga urinmang. Biznesingiz nimagadir arziyishiga ishonch hosil qilishning yagona yo'li – ayni paytda mijozlari mavjud bo'lgan mahsulot xizmatni taklif qilish orqali ish boshlashdir. Demak, biznesingizni bozorda muvaffaqiyatli raqobatchilar tomonidan allaqachon taklif etilayotgan «tanish» mahsulotlarni yaxshiroq nusxasini ishlab chiqish ustiga qurishingiz kerak.

4. Diqqatingizni mahsulotga qarating, savdo hajmini oshirishga emas

Agar mahsulotingiz bozordan joy olishi uchun reklama yoki savdo agentlaridan foydalanish zarur bo'lsa,

demak, mahsulotingiz talab darajasida emas. Texnologiyalar asosiy e'tiborni mahsulotni tarqatishga emas, balki uni yaxshilash va rivojlantirishga qaratishingizni taqozo etadi. Dotkom pufagi davrida reklamalar pulni isrof qilishdan boshqa narsaga yaramagan. Barqaror o'sishning yagona usuli bu – virusli marketing.

Startaplar dunyosida yuqoridagi saboqlar dogmatik qarashlarga aylangan. Ularga befarqlik bilan qaragan har qanday shaxs 2000-yilda yuz bergan buyuk qulashda texnologiyalar sohasining boshiga tushgan ofatni o'ziga chorlagan bo'ladi. Shunga qaramay, yuqoridagilarga teskari tamoyillarga tayanish to'g'riroq bo'ladi:

1. Maydalashib o'tirgandan ko'ra, qo'rqmasdan tavakkal qilgan yaxshiroq.
2. Yomon reja umuman rejaning yo'qligidan ko'ra yaxshiroq.
3. Raqobat kuchli bo'lgan bozorlarda foydadan umid ham qilib bo'lmaydi.
4. Savdo hajmini oshirish mahsulotni yaxshilash bilan bir xil ahamiyatga ega.

Chindan ham, texnologiyalar sohasida yirik pufak hosil bo'ldi, natijada yorilish yuz berdi. 90-yillarning oxirlari takabburlik davri deb e'tirof etiladi: kishilar 0 dan 1 ga o'ta olishlariga ishongandi. Nihoyatda kam sonli startaplar buning uddasidan chiqdi, aksariyat tadbirkorlar quruq va'dabozlikdan nariga o'ta olmadilar. Ammo biz kam xarajat bilan ko'proq natijaga erishish yo'llarini topishdan boshqa choramiz yo'qligini tushunib yetayotgan edik. 2000-yilning mart oyida bozorda narxlarning keskin oshib ketishi shubhasiz telbalikning cho'qqisi edi. Shu bilan birga, bu holatni maksimal aniqlik lahzasi ekanligini anglash biroz mushkul, biroq muhim ham edi. Kishilar uzoq kelajakka nazar tashlashni o'rgandilar. Uni barpo etish uchun qancha yuqori

qiyamatli yangi texnologiyalar zarurligini anglay olishdi va ularni yaratishga qodir ekanliklariga ishonilar.

Hozir ham yangi texnologiyalarga muhtojmiz. Ularni yaratish uchun, ehtimol, bizga biroz 1999-yildagi takabburlik va g'ayrat ham kerak bo'lar. Yangi avlod kompaniyalarini yaratish uchun pufak yorilishi oqibatida ongimizga o'rnashib qolgan dogmalardan qutulishimiz lozim. Bu o'sha dogmalarga qarama-qarshi bo'lgan tamoyillar o'z-o'zidan to'g'ri bo'lishini anglatmaydi: ularni ko'r-ko'rona rad etish orqali olomonning telbaligidan qocha olmaysiz. Yaxshisi o'zingizga savol bering: biznes haqidagi bilimlaringizning qanchasi o'tmishdagi xatolardan yangilish xulosa chiqarish natijasida shakllangan? Ommaga qarshi chiqqanlar emas, o'zi mustaqil fikr yurita oladiganlar chinakam mustaqil shaxslar hisoblanadi.

Noodatiy savolimning biznesga taalluqli varianti quyidagicha bo'ladi: Qanday serdaromad kompaniyaga hech kim asos solmayapti? Bir qarashda savol oson tuyuladi, aslida unga javob topish qiyin, chunki kompaniyangiz serdaromad bo'lmay turib ham boylik yaratishi mumkin. Boylik yaratishning o'zi yetarli emas – yaratilgan boylikning bir qismini o'zingizda saqlab qola bilish zarur.

Bu hattoki yirik bizneslar ham yomon biznes bo'lishi mumkinligini anglatadi. Masalan, AQSH aviakompaniyalari har yili millionlab yo'lovchilarga xizmat ko'rsatib, bir necha yuz milliard dollarlab daromad keltiradi. Biroq 2012-yilda bir tomonga uchish chiptasining o'rtacha narxi 178 AQSH dollarini tashkil qilgan, aviakompaniyalar esa har bir yo'lovchidan atigi 37 sent foyda olgan. Endi shu kompaniyalarni Google bilan solishtirib ko'ring – Google ning yalpi daromadi kamroq bo'lsa-da, kompaniya ko'proq foyda keltiradi. Google 2012-yilda 50 milliard AQSH dollari ishlab topgan (aviakompaniyalarning yalpi daromadi esa shu yili 160 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan), lekin shu tushumning 21%i olingan foyda sifatida kompaniyada qolgan – bu aviakompaniyalarning o'sha yilgi tushumidagi foyda ulushidan 100 barobar ko'p.

Hozirda Google shunchalik yirik daromad keltiradiki, uning qiymati AQSHdagi barcha aviakompaniyalarning umumiy qiymatidan uch barobar kattaroq.


Aviakompaniyalar bir-biri bilan raqobatlashadi, Google esa – yagona, raqobatchisi yo'q. Iqtisodchilar aviakompaniyalar va Google o'rtasidagi farqni tushuntirishda ikki oddiy modeldan foydalanadi: erkin raqobat va monopoliya.

Iqtisodiyot asoslarida «sof raqobat» ham mukammal, ham standart holat sifatida qabul qilinadi. Sof raqobatli bozorlarda ishlab chiqaruvchilar taklifi iste'molchilar talabiga teng bo'lganda bozor muvozanati ta'minlanadi. Sof raqobatli bozorda kompaniyalar bir-biridan farq qilmaydi va turdosh mahsulotlarni sotishadi. Raqobatli bozorda kompaniyalarning hech biri bozorga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega emasligi bois mahsulotlarini bozor belgilab bergan narxda sotishga majbur. Agar kattaroq foyda bilan yaxshigina pul ishlab olish imkoni paydo bo'lsa, bozorga yangi kompaniyalar kirib keladi – taklif miqdori oshadi, narxlar pasayadi, natijada boshida ularni jalb qilgan katta foyda olish imkoniyati yo'qqa chiqadi. Agar bozorga haddan ortiq ko'p kompaniya kirib kelsa, ular zararga ishlay boshlaydi, ayrimlari yopiladi va narxlar yana avvalgi barqaror me'yorga qaytadi. Mukammal raqobat sharoitida, uzoq muddatli davrda hech bir kompaniya iqtisodiy foyda ko'rmaydi. Sof raqobatga teskari sharoit monopoliya deyiladi. Raqobatli firma mahsulotini bozor narxida sotishga majbur bo'lgan bir vaqtda, monopoliya bozorga egalik qiladi va mahsulotining narxini o'zi belgilaydi. Monopol firmaning raqobatchilari bo'lmagani sababli u mahsulotini foydani maksimallashtiruvchi miqdor va narxda ishlab chiqaradi. Iqtisodchi uchun barcha monopoliyalar bir xil – raqobatchilarini noqonuniy va g'irrom yo'llar bilan yo'q qilganlari ham, davlat litsenziyasini qo'lga kiritganlari ham, monopol darajaga innovatsiyalar orqali ko'tarilganlari ham. Mazkur kitobda biz noqonuniy yo'llar yoki davlat tomonidan berilgan imtiyozlar orqali monopoliyaga erishganlar haqida

suhbatlashmaymiz. Aksincha, bu kitobda monopol firma deganda o'z ishini shu qadar qoyillatib bajarganidan boshqa hech bir kompaniya uning xizmatlari/mahsulotlari o'rnini bosuvchi xizmat/mahsulot taklif eta olmaydigan monopollar nazarda tutiladi. Google 0 dan 1 ga o'ta olgan kompaniyaga ajoyib misol bo'la oladi: 2000-yillar – Microsoft va Yahoo! kompaniyalaridan mutlaqo ajralib olganidan beri Google internet-qidiruv sohasida birorta ham kompaniya bilan raqobatlashmagan. AQSHliklar raqobatni ilohiylashtirib yuboradi: bizni sotsializmning dahshatlari va non uchun navbatda turishdan saqlayotgani uchun uni ulug'lashadi. Aslida kapitalizm va raqobat bir-biriga zid tushunchalar. Kapitalizm kapital jamg'arish asosiga quriladi, biroq sof raqobat sharoitida foyda raqobat natijasida nihoyatda kamayib ketadi. Tadbirkorlar olishi kerak bo'lgan saboq juda oddiy: agar foyda qilmoqchi va uning xaridorgirligini saqlab qolmoqchi bo'lsangiz, biznesingizni boshqalarnikidan farq qilmaydigan mahsulot xizmat asosiga qurmang.

Kishilarning yolg'onlari

Xo'sh, dunyoning qancha qismida monopoliya hukmronlik qiladi? Yana qancha qismi haqiqiy raqobat sharoitida faoliyat yuritadi? Buni aniq aytish qiyin, chunki ushbu mavzuga doir kundalik suhbatlarimiz o'ta chalkash. Tashqaridan qaraganda, barcha kompaniyalar deyarli bir xildek ko'ringani sababli ular o'rtasidagi ayrim kichik farqlarnigina oson ilg'aymiz.



Lekin aslida esa biznes olami ikki qutbga bo'linadi. Sof raqobat va monopoliya o'rtasida juda katta farq mavjud, aksariyat kompaniyalar qutblarning biriga biz o'ylaganimizdan ko'ra ancha yaqin.

Ushbu chalkashlik bozor sharoitlarini o'z manfaatlaridan kelib chiqib izohlash natijasida vujudga kelgan: monopolistlar ham, raqobatli kompaniyalar ham haqiqatni buzib ko'rsatishga moyildirlar.

Monopoliya nayranglari

Monopolistlar o'zlarini himoya qilish maqsadida yolg'on gapirishadi. Ular o'zlarining monopolligini ko'z-ko'z qilish auditorlik tekshiruvlar va turli hujumlar kuchayishiga olib kelishini bilishadi. Ularning asosiy maqsadi monopolistik daromadlarining davomiyligini zararsiz saqlab qolish bo'lgani sababli ular jon-jahdi bilan o'zlarining monopol ekanini yashirishga urinishadi. Odatda, buni (mavjud bo'lmagan) raqobatchilarining qudratini oshirib ko'rsatish orqali amalga oshirishadi. Google o'z faoliyatini qanday ta'riflashiga e'tibor qilib ko'ring. Albatta, u o'zini hech qachon monopoliya deb atamaydi. Lekin u chindan ham monopolmi? Bu qaysi soha haqida gap ketayotganiga bog'liq. Aytaylik, Google – avvalo, qidiruv tizimi. 2014-yil may holatiga ko'ra, internet qidiruv bozorida Google kompaniyasining ulushi 68% ni tashkil qilgan. Uning eng yaqin raqobatchilari Microsoft va Yahoo! mos ravishda 19% va 10% ulushga egalik qilgan. Agar ushbu raqamlar Google kompaniyasining so'zsiz ustunligini isbotlash uchun yetarli bo'lmasa, «Google» so'zi hozirda Oksford ingliz tili lug'atiga rasman fe'l so'z turkumiga oid so'z sifatida kiritilganini o'ylab ko'ring. «Bing» so'zi ham shunday maqomga ko'tarilishiqa hech qanday shubha yo'q. Lekin, keling, Google ni asosiy faoliyati reklamaqa qaratilgan

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA


kompaniya, deb tasavvur qilamiz. Bu holatda vaziyat butunlay boshqacha tus oladi. AQSHda qidiruv tizimlari reklama bozorining yillik umumiy qiymati 17 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Onlayn reklama bozorining yillik qiymati 37 milliard AQSH dollariga teng. AQSHdagi reklama bozorining umumiy yillik qiymati 150 milliard dollarga teng. Butun dunyo reklama bozorining umumiy yillik qiymati esa 495 milliard AQSH dollariga teng. Demak, Google AQSHdagi qidiruv tizimlari reklama bozorini to'liq monopollashtirib olgan taqdirda ham, uning dunyo reklama bozorining atigi 3,4% ulushiga egalik qilardi. Masalaga shu tomondan yondashilsa, Google yuqori raqobatli bozorda kichik bir o'yinchidek ko'rinadi.

AQSHdagi qidiruv tizimlari
reklama bozori – 17 \$

AQSHdagi umumiy reklama bozori –
150 \$

AQSHdagi onlayn
reklama bozori – 37 mlrd.\$

Butun dunyodagi reklama bozori –
495 mlrd.\$



Google kompaniyasini texnologiyalar sohasidagi ko'p tarmoqli kompaniya, deb olsak-chi? Bunday qarashga to'laqonli asosimiz bor albatta. Qidiruv tizimidan tashqari, Google o'nlab dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab

chiqaradi, robot-avtomobillar, Android telefonlar, mini-kompyuterlarniku aytmasa ham bo'ladi. Biroq Google daromadining 95% dan ko'proq qismi qidiruv tizimidagi matnli reklama hissasiga to'g'ri keladi. Uning boshqa mahsulotlari 2012-yilda atigi 2,35 milliard dollar daromad keltirgan, iste'mol texnologiyalari mahsulotlarining ulushi esa ushbu summaning juda kichik qismini tashkil etgan. Dunyo bo'yicha iste'mol texnologiyalari bozorining yillik qiymati 964 milliard AQSH dollariga teng ekanini hisobga olsak, uning 0,24%i dan kamroq qismi Google hissasiga to'g'ri keladi – juda arzimasi ulush, monopoliya deyishga til ham bormaydi. O'zini texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi ko'plab kompaniyalardan biri sifatida ko'rsatish orqali Google har qanday keraksiz e'tibordan xalos bo'ladi.

Monopolistik kapitalizm

Shunday qilib, monopoliya ichidagilar uchun monopoliyaning mavjudligi shubhasiz ijobiy holat, lekin monopoliyadan tashqaridagilar uchun-chi? Ulkan foyda jamiyatning qolgan a'zolari hisobidan qo'lga kiritiladimi? Rostini aytganda, ha, shunday. Foyda iste'molchilarning hamyonidan olinadi va monopollar yomonotliq bo'lishga loyiq: faqatgina hech qanday o'zgarish bo'lmaydigan dunyoda shunday bo'ladi.

Turg'un muhitda siz monopolistlar ijarachilarsiz. Bozorning qulay qismini egallab olib, narxni istalgancha oshirishingiz mumkin. Iste'molchilarning sizdan xarid qilishdan boshqa tanlovi ham, chorasi ham yo'q. Mashhur stol o'yinini eslang, egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar bir o'yinchidan boshqa o'yinchiga o'tib turadi, lekin o'yin maydoni hech qachon o'zgarmaydi. Ko'chmas mulk obyektlarini qurishning

yaxshiroq usulini ishlab chiqmasdan turib o'yinda g'olib bo'lish imkonsiz. Mullarning nisbiy qiymati bir umrga o'zgaras qilib belgilangan, shu sababli qo'lingizdan keladigan yagona narsa – ularning barchasini sotib olishga harakat qilish.

Biroq biz yashayotgan dunyo doimiy ravishda o'zgarib turadi, yangi va yaxshiroq nimadir yaratish imkoni bor. Ixtirochi monopolistlar dunyoga ne'matlarning butunlay yangi turlarini taqdim qilish orqali mijozlar uchun tanlov imkoniyatlarini oshirib boradi. Ixtirochi monopolistlar jamiyat uchun faqat foydali bo'libgina qolmay, jamiyatni yaxshiroq kelajak sari yetaklovchi qudratli dvigatellar vazifasini ham o'taydi. Hatto hukumat ham bundan xabardor. Shuning uchun ham hukumatning bir organi monopolialarni qo'lga tushirish ustida ishlayotgan bir paytda (sudlarda monopoliyaga qarshi da'vo ishlarini qo'zg'atish orqali), boshqa bir organi monopoliya yaratish maqsadida ter to'kib mehnat qiladi (yangi ixtirolarga patent berish orqali). Albatta, kimdir birinchi bo'lib mobil qurilmalarning dasturiy ta'minoti dizayni kabi mahsulotni yaratgani uchun unga monopol faoliyat bilan qonuniy ravishda shug'ullanish huquqini taqdim etish kerakmi degan savol tug'ilishi mumkin. Biroq hammaga ma'lumki, Apple kompaniyasining I phone dizaynini yaratish, uni ishlab chiqarish va sotishdan kelayotgan monopol daromadlari qo'shimcha afzallik yaratish orqali sun'iy tarzda taqchillikni yuzaga keltirish uchun yetarli bo'ldi. Mijozlar nihoyat yuqoriroq narx evaziga chindan ham yaxshi ishlaydigan smartfonga ega bo'lish imkoniyati yaratilganidan mamnunlar.

Yangi monopolialardagi o'zgaruvchanlikning o'zi nega eski monopolialar innovatsiyani bo'g'ib, yo'q qilishga urinmasligini izohlaydi. Apple kompaniyasining iOS operatsion tizimi yetakchilikni qo'lga kiritgach, mobil kompyuterlar ibtidosi Microsoft ning operatsion tizimlar bozorida bir necha o'n yillardan beri davom etib kelayotgan

mutlaq ustunligini keskin pasaytirib yubordi. Bundan oldinroq esa 60 va 70-yillarda Kompyuter texnologiyalari sohasida monopol bo'lgan IBM dan Microsoft kompaniyasi dasturiy ta'minotlar sohasida o'z monopoliyasini o'rnatish orqali monopollik rutbasini tortib olgandi. AT&T korporatsiyasi deyarli butun XX asr davomida telefon aloqasi xizmatlari sohasida monopol sifatida faoliyat yuritgan, biroq hozirda istalgan kishi istalgan aloqa operatoridan arzon narxda uyali aloqa tarif rejasini sotib olishi mumkin. Monopol bo'lishga intiluvchi bizneslar taraqqiyot yo'liga to'siq bo'lganida edi, ularni jamiyat uchun xavfli deb, ularga qarshi kurashishga haqli bo'lardik. Biroq taraqqiyot tarixi yaxshiroq monopol bizneslarining mavjud monopoliyalar o'rnini egallashidan iboratdir.

Monopoliyalar taraqqiyotni olg'a siljitadi. Negaki, uzoq yillar mobaynidagi yuksalishlar hamda bir necha yillar davomida monopol daromad olish imkoniyati yangilik yaratish uchun kuchli rag'bat bo'lib xizmat qiladi. Vaqt o'tgan sari monopoliyalar yangilik yaratishda davom etadi, chunki yirik daromad ularga uzoq muddatli rejalar tuzish hamda yuksak maqsadlarni ko'zlovchi tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish imkonini beradi. Raqobatli kompaniyalar esa bunday imkoniyatlar haqida orzu ham qila olmaydi.

Xo'sh, nega unda iqtisodchilar bozor raqobat uchun mukammal sharoit degan fikrga yopishib olgan? Bu eskilik sarqiti, xolos. Iqtisodchilar o'z hisob-kitoblarining asosini XIX asr fiziklarining qarashlaridan ko'chirma olgan. Ular insonlar va kompaniyalarni bir xil, bir-biri bilan bog'liq atomlar sifatida ko'radi, o'ziga xoslik tushunchalarini tan olmaydi. Ularning nazariyasi sof raqobat muhitining muvozanatini ifodalaydi va bu aslo muvozanatning biznes uchun eng yaxshi sharoit ekani sababli emas, balki uni modellashtirish osonligi tufaylidir. Biroq shuni ham yodda tutishimiz kerakki, XIX asr fiziklari tomonidan bashorat qilingan uzoq muddatli muvozanat – butun quvvat teng taqsimlanib, hamma narsa

sekin-asta qotib qoluvchi holatdir, bu koinotning qaynoq o'limi deb ham ataladi. Termodinamikaga munosabatingiz qanday bo'lishidan qat'i nazar, mazkur holat kuchli metafora ekanini tan olishimiz zarur. Biznesda muvozanat – bu turg'unlik degani, turg'unlik esa o'limni anglatadi. Agar faoliyat yuritayotgan sohangiz raqobatli muvozanat holatida bo'lsa, kompaniyangizning halokati dunyo miqyosida hech qanday ahamiyatga ega emas. Sizdan farqli bo'lmagan boshqa bir raqobatchi o'rningizni egallashga doim tayyor turadi.

Mukammal muvozanatni koinotning katta qismini egallab turgan bo'shliqqa qiyoslash mumkin. Hatto ko'plab kompaniyalarni ham shunday tavsiflash mumkin. Ammo yangi ixtirolar muvozanatdan ancha yiroqda dunyoga keladi. Iqtisodiy nazariyalar tashqarisidagi haqiqiy hayotda har bir kompaniya qanchalik boshqalar qila olmaydigan ishlarni bajarishga qodir bo'lsa, shunchalik muvaffaqiyat qozonadi. Shu sababli ham monopoliya patologiya yoki istisno emas. Monopoliya har bir biznesning muvaffaqiyat shartidir.

Tolstoyning «Anna Karenina» asari shunday so'zlar bilan boshlanadi: «Barcha baxtli oilalar bir-biriga o'xshash, biroq har bir baxtsiz oila o'zicha baxtsizdir». Biznesda esa buning teskarisi. Baxtli kompaniyalar bir-biriga o'xshamaydi: ularning har biri noyob muammoni yechish orqali monopoliya o'rnatadi. Badbaxt kompaniyalarning esa barchasi bir xil ularga raqobat muhitidan chiqib ketish nasib etmagan.

IV BOB

Raqobat mafkurasi

Yaratuvchan monopoliya bu hamma uchun kerakli tovar va xizmatlar, ularning yaratuvchisi uchun esa barqaror foyda degani. Raqobat esa foydaning yo'qligi, raqobatchilar o'rtasida sezilarli farqning mavjud emasligi va yashab qolish uchun kurashni anglatadi. Shunday ekan, nega kishilar raqobatni sog'lom muhit sifatida ko'radi? Javob oddiy raqobat, shunchaki, iqtisodiy nazariya yoki bozorda kishilar va kompaniyalar duch keladigan oddiy noqulaylik emas. Birinchi navbatda, raqobat – mafkura, u jamiyat ongiga singib ketgan bo'lib, idrokimizni voqelikni buzib talqin qilishga undaydi. Biz raqobatni ko'klarga ko'taramiz, uning zarurligiga o'zimizni ishontiramiz va uning buyruqlarini qonun darajasiga olib chiqamiz. Natijada o'zimizni raqobat tuzog'iga mahkum qilamiz, qancha ko'p raqobatlashsak, shuncha kam foyda olamiz.

Bu oddiygina haqiqat, biroq hammamiz ushbu haqiqatni tan olmaslikka o'rgatilganmiz. Ta'lim tizimimiz raqobatga bo'lgan otashin muhabbatimizni o'zida aks ettiribgina qolmay, bu muhabbatni yanada alangalatadi ham. Baholarning o'zi har bir o'quvchining raqobatbardoshligini aniq o'lchash vositasi sifatida xizmat qiladi. Eng yuqori baholarni qo'lga kiritgan o'quvchilarning obro'yi oshadi va ular e'tiroflarga sazovor bo'ladi. Biz har bir bolaga, uning individual qobiliyati

va qiziqishlaridan qat'i nazar, bir xil fanlarni deyarli bir xil usulda o'qitamiz. Partada jim o'tirib, berilgan bilimlarni yaxshi o'zlashtirilmagan o'quvchilar tashqi bosim ostida o'zlarini boshqalardan ko'ra noshudroq his qiladi. Test sinovlari va kurs ishlari kabi an'anaviy baholash mezonlarini a'loga topshiradigan bolalar esa o'zlariga shaxs sifatida sun'iy yaratilgan akademik voqelik asosida baho berishga odatlanib qoladi. Talabalar musobaqaning yuqoriroq bosqichlariga ko'tarilganlari sari ahvol og'irlashib boraveradi. Eng ilg'or talabalar to shiddatli raqobat ularning orzularini yanchib, tamoman xayollaridan chiqarib tashlashga majbur qiladigan darajaga yetmagunicha yuqoriga shaxdam tirmashaveradilar. Oliy ta'lim muassasalari – maktabda ulkan rejalar tuzgan kishilar boshqaruv konsultanti yoki investitsiyalar bo'yicha bankir kabi mansablarga erishish maqsadida bilimda o'zlaridan qolishmaydigan tengdoshlari bilan shafqatsiz kurashga kirishadigan joy. Konformistga aylanish sharafiga muassar bo'lish uchun talabalar yoki ularning oilalari ta'lim olish uchun yuz minglab dollar sarflaydi. Nega biz o'zimizni bunday qiynaymiz?

Urush va tinchlik

Professorlar talabalar o'rtasida shafqatsiz ilmiy raqobatni yoqlashmaydi, ammo menejerlar hech qachon biznesni urush bilan taqqoslashdan charchamaydilar. MBA dasturi talabalari o'zlari bilan Klausevit va Sun Tczining nusxalarini olib yurishadi. Urushning metaforalari bizning kundalik biznes tilimizni zabt etgan. Biz savdo menejerlar tarkibini "mustahkamlash" va "kuchaytirish" uchun «ko'plab ovchilar»dan foydalanamiz. Ammo, aslida, biznes emas, raqobat urushga o'xshaydi: go'yoki zarur, oxir-oqibat halokatli. Nima uchun odamlar bir-biri bilan raqobatlashadi? Marks va Shekspir raqobatning deyarli barcha turlarini tushunish uchun ikkita modelni taqdim etishgan. Marksning so'zlariga ko'ra, odamlar bir-

biridan farq qilgani sababli raqobat qilishadi. Proletariat mutlaqo boshqacha g'oya va maqsadlarga ega bo'lgani sababli, burjuaziya bilan kurashadi. Farqlar qancha ko'p bo'lsa, nizo ham shunchalik katta bo'ladi. Shekspir uchun esa, aksincha, barcha raqobatchilar bir xil. Ular nima uchun raqobat qilishlari kerakligini o'zlari ham bilishmaydi, chunki ularda raqobatlashadigan mavzuning o'zi yo'q. Romeo va Juliyettaning birinchi qatorini o'qib ko'ring: "bir xil hurmatga ega ikki oila". Ikki oila imkoniyatlari teng bo'lgani bilan, ular bir-biridan nafratlanishadi. Dushmanlik kayfiyati tobora kuchayib borgani sari ular orasidagi o'xshashlik yanada ko'payadi. Oxir-oqibat, ular nima maqsadda kurash boshlaganliklarini unutishadi. Biznes dunyosida Shekspirning g'oyasi oqilona ekanligi isbotlangan. Kompaniyada odamlar mansab pillapoyalaridan ko'tarilish jarayonida o'z raqobatchilari bilan band bo'lishadi. Keyinchalik butun boshli firmaning o'zi bozordagi raqobatchilariga moyil bo'lib qoladi. Barcha insoniy dramalar orasida, odamlar muhim narsalarni esdan chiqarib, o'rniga raqiblari e'tibor berishadi. Haqiqiy dunyoda Shekspir modelini tekshirib ko'ramiz. "Romeo va Juliyetta"ga asoslangan "Geyts va Shmidt"ni tasavvur qiling. Montekki Microsoft, Kapuletti – Google. Katta nodonlar tomonidan boshqariladigan ikkita katta oila, o'xshashligi sababli raqobat yuzaga kelgan. Har qanday yaxshi tragediyada bo'lgani kabi, mojaroni faqat kelishish orqali hal qilib bo'lmaydi. Bu oilalar turli joylardan kelgan. Montekki oilasi operatsion tizimlar va ofis dasturlarini yaratgan, Kapuletti oilasi esa qidiruv tizimini. Endi o'ylab ko'ring, nima maqsadda kurash olib borildi? Startup sifatida har bir klan boshqasini unutib, mustaqil ravishda gullab-yashnashi ma'qul edi. Ammo ulg'aygan sari, ular bir-birlariga e'tibor berishni boshladilar: Montekki Kapuletti haqida, Kapuletti Montekki haqida. Natijada nima sodir bo'ldi? Windows va Chrome iOS, Bing va Google Search qidiruv tizimlari, Explorer va Chrome brauzerlari, Office va Docs ilovalari, shuningdek,

Surface va Nexus dasturi kabilarning qarama-qarshiligi yuzaga kela boshladi.

Urush Montekki va Kapuletti uchun farzandlarini boy berish bilan yakunlangan bo'lsa, Apple kelib hamma joyni egallagach, Microsoft va Google bozordagi ustunligini yo'qotdi. 2013-yilning yanvar oyida Arrle ning bozor kapitalizatsiyasi 500 milliard dollarga, Google va Microsoft birgalikda 467 milliard dollarga baholandi. Atigi uch yil oldin, Microsoft va Google Appledan qimmatroq edi. Urush ularga qimmatga tushdi.

Raqobat bizni eski imkoniyatlarga ko'proq urg'u berishga va o'tmishda ish bergan usullardan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirishga majbur qiladi. Yaqinda yuz bergan mobil kredit kard-riderlarining keng tarqalishini olaylik. 2010-yilning oktabr oyida Square deb nomlangan startap kichik oq kvadrat shaklidagi mahsulotni chiqardi, bu esa iPhone orqali kredit kartalarini qabul qilish imkonini beradi. Bu mobil telefonlar uchun to'lovlar protsessining oqilona yechimi edi. Taqlidchilar tezda jangga qo'shilishdi. Kanadaning NetSecure kompaniyasi yarim oy shaklidagi kard-riderni taqdim etdi. Intuit kompaniyasi silindsimon kard-riderni geometrik jangga olib keldi. 2012-yilning mart oyida eBay PayPal kartalarni nusxalaydigan o'z kard-riderini ishga tushirdi. U uchburchak shaklida edi. Taqlidiy raqobatining xavfliligi qisman nima uchun bugungi kunda Asperger kabi aqli to'kis insonlarning Silikon vodiysida qanday manfaatlari borligini tushuntirishi mumkin. Agar ijtimoiy shov-shuvlarga e'tibor bermasangiz, atrofingizdagi odamlar ham xuddi sizdek degan xulosaga kelish yaramaydi.

Raqobat odamlarda mavjud bo'lmagan imkoniyatlarni oshkor qilishi mumkin.

Onlayn uy hayvonlari do'konlari bozori uchun qattiq kurash 90-yillarning telbaligi bo'ldi. Pets.com, PetStore.com, Petoria.com va boshqa o'nlab saytlar mavjud edi. Diqqat markazida bo'lish uchun ajralib turadigan jihatlar yo'qligi sababli, har bir

kompaniya raqobatchilarni aniq mag'lubiyatga uchratishga bel bog'lagan edi. «Itlarning chaynaydigan o'yinchoqlarni kim tanqidiy baholay oladi? Kim eng yaxshi Super Bowl reklamalarini yaratishi mumkin? Ushbu kompaniyalar uy hayvonlarini onlayn yetkazib berish bozori uchun joy mavjudmi degan ko'p qirrali masalaga mutlaqo beparvo munosabatda bo'lishdi. G'alaba mag'lubiyatdan ko'ra yaxshiroq, ammo urush yuz bersa hamma birdek yutqazadi. Pets.com dot.com halokatidan keyin 300 million dollarlik investitsiya kapitali u bilan birga g'oyib bo'ldi.

Boshqa hollarda raqobat shunchaki g'alati harakat yoki qilayotgan ishimizdan bizni chalg'itadi. Vaziyatni munosib baholash uchun 1993-yilda Siebel Sustems kompaniyasini yaratmasdan oldin, Oracle kompaniyasining asoschisi va bosh direktori Larry Ellison va Oracle Ellison kompaniyasining yetakchi sotuvchisi Tom Siebel o'rtasidagi nizomni o'rganib chiqing. Ellison Siebelni xiyonatkorlikda ayblab g'azablanardi. Siebel esa o'zining sobiq xo'jayini soyasida yashashni hazm qila olmasdi. Ikkalasi ham deyarli bir xil xususiyatga ega odamlar edi – savdogarlikni yaxshi ko'radigan va yo'qotishni hazm qila olmaydigan chikagoliklar – ular ko'p jihatdan bir-biriga o'xshagani uchun ularning o'zaro nafрати tobora kuchayib bordi. Ellison va Siebel 90-yillarning ikkinchi yarmini bir-biriga sabotaj qilish bilan o'tkazdilar. Bir payt Ellison Siebelning xodimlarini ishdan bo'shashga rag'batlantirish uchun Siebel shtab-kvartirasiga muzqaymoq va sendvichlar bilan to'la yuk mashinalarini yubordi. Ko'chirish kerakmi? "Yoz yaqinlashdi, quyosh endi biz tomonga og'di, Oracle endi shu yerda. U kuningizni yoritish va martabangizni oshirish uchun tashrif buyurdi" deb yuk mashinalarga yozib qo'ygan edi. Ajablanarlisi shundaki, Oracle dushmanlarini ataydan to'pladi. Ellison aqidasiga ko'ra, agar u qo'rqinchli tuyulsa (va shu orqali xodimlarni ishlashga undasa), lekin kompaniyaga tahdid soladigan darajada katta bo'lmasa, dush-

borishni istagan odamlarni u yerga olib borishni istagan odamlar bilan bog'lash orqali milliard dollarlik biznesni qurish mumkinligi to'g'risidagi tasavvuri mavjud emas. Mazkur sabablarga ko'ra, ko'pgina Facebook ka o'xshagan internet-kompaniyalar yetarli darajada baholanmaydi – ularning juda soddaligi bu sirlarning asosidir. Agar o'tmishda juda oddiy ko'ringan tushunchalar muhim va qimmatbaho biznesni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lsa, unda hali asos solinishi kerak bo'lgan ko'plab yirik kompaniyalar o'z egasini kutib yotibdi.

Yashirin sirlarni qanday qilib kashf etish mumkin?

Sirlarning ikki turi mavjud, tabiatga va odamlarga taalluqli sirlar. Tabiiy sirlar hammamizning atrofimizda mavjud, ularni kashf etish uchun fizika dunyosining ochilmagan qirralarini o'rganish kerak. Odamlar haqidagi sirlar hammasidan ham murakkab, bu odamlar o'zlari haqida bilmaydigan narsalar yoki boshqalar bilishini istamaganlari uchun yashirgan narsalaridan iborat bo'ladi. Shuning uchun, qaysi turdagi kompaniyaga asos solish haqida o'ylagan vaqtingizda o'zingizga ikki savolni berishingiz kerak: Tabiat sizga qanday sirlarni ko'rsatmadi? Odamlar sizga qanday sirlarni aytmaydilar? Hammasidan ham eng muhimi ba'zi sirlarni tabiiy sirlar deb ham taxmin qilish oson, ularni qidirayotgan odamlarning ismlari juda obro'li eshitiladi. Shuning uchun falsafa fan doktorlari bilan ishlash juda qiyin, chunki ular fundamental haqiqatlarni bilganlari sababli barcha haqiqatlarni bilaman deb o'ylashadi.

Ammo elektromagnit nazariyasini tushunishingiz sizni avtomatik ravishda mukammal nikoh maslahatchisiga aylantiradi. Gravitatsion nazariyachi sizdan ko'ra biznesingiz haqida ko'proq biladimi? RauRal da men bir marta falsafa fan doktori bilan muhandislik ishlari bo'yicha suhbatlashdim.

Mening birinchi savolim o'rtalarida u beixtiyor baqirib yubordi: To'xtang! Sizdan nima so'rashni bilaman! dedi. Ammo u adashgan edi. Bu men qilgan eng oddiy qaror edi. Odamlar haqidagi sirlar nisbatan kam qadrlanadi. Ehtimol, ularni ochib beradigan savollarni berish uchun sizga o'n yillik oliy ma'lumot kerak emas, odamlar nima haqida gapirishlari taqiqlangan? Nima taqiqlangan yoki man etilgan?

Ba'zida tabiiy sirlarni qidirish va inson sirlarini izlash bir xil haqiqat tomon yetaklaydi. Monopoliya sirini yana bir bor ko'rib chiqing. Raqobat va kapitalizm bir-biriga qarama-qarshi tushunchalardir. Agar siz buni oldindan bilmasangiz siz buni tabiiy, empirik usulda kashf qilishingiz mumkin. Korporativ foydani miqdoriy jihatdan o'rganing va shunda ularning raqobat orqali yo'q qilinishini ko'rasiz. Ammo siz ham insoniy yondashuvga murojaat qilishingiz, kerakli vaqtda kerakli savollar berishingiz mumkin, kompaniyalarni boshqaradigan odamlar nima deyishlari taqiqlangan? Tekshirishdan qochish uchun monopolistlar o'zlarining monopol mavqeyini pasaytirib ko'rsatayotganining guvohi bo'lishingiz mumkin, raqobatdosh firmalar esa o'zlarining noyobligini strategik ravishda bo'rttirib ko'rsatishadi.

Firmalar orasidagi tafovutlar ko'rinishidan kichik bo'lib ko'rinsa ham aslida ular juda katta bo'ladi. Sirlarni qidirish uchun eng yaxshi joy – bu hech kim uni qidirmaydigan joydir. Aksariyat odamlar faqat o'zlariga o'rgatilgan narsalar nuqtayi nazaridan o'ylashadi. Maktab ta'limi umumiy qabul qilingan fikrni shakllantirishga yo'naltirilgan. Shuning uchun siz shunday savol berishingiz mumkin muhim bo'lgan, ammo standartlashtirilmagan va institutsionalizatsiya qilinmagan sohalar bormi? Masalan, fizika barcha yirik universitetlarda haqiqiy yetakchi mutaxassislik bo'lib, bir xillikni xush ko'ruvchi fan hisoblanadi. Fizikaning teskarisi astrologiya bo'lishi mumkin, ammo munajjimlik fizikachalikdan muhim emas. Oziqlanish haqida nima deyish mumkin? Oziqlanish hamma uchun muhim, ammo bu yo'nalish Garvardda muhim

ahamiyat kasb etmaydi. Ko'pgina yetakchi olimlar boshqa sohalarga kirib bormoqdalar. Katta izlanishlarning aksariyati 30 yoki 40 yil oldin o'tkazilgan va hozirda bu izlanishlar boshi berk ko'chaga kirib qolgan. Bizga kam yog'li va katta miqdordagi donni iste'mol qilishimiz kerakligini aytadigan oziq-ovqat piramidasi haqiqiy fanning ko'rsatmalari emas. Uning asosiy ta'siri semirib ketish epidemiyasini yanada kuchaytirish bo'lgan. Biz ko'p narsani o'rganishimiz kerak, ming nadomatlar bo'lsinkim, hozirda biz odamning ovqatlanish ratsionidan ham ko'ra ko'proq uzoq yulduzlar fizikasi haqida bilamiz. Bu oson bo'lmasligi mumkin, lekin imkonsiz ham emas, bu sirlarni ochib beradigan aniq sohadir.

Mulkchilik, egalik va nazorat

Kompaniya faoliyatida faqatgina ta'sischilarning kelishib ishlashi kamlik qiladi. Kompaniyangizda hamma hamjihatlikda, bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi lozim. Silikon vodiysining ozod vakillari ushbu muammoni biznesni yo'lga qo'yish va yakka mulkchilik tartibi bilan cheklash orqali hal qilishingiz oson ekanini ta'kidlashadi. Freyd, Yung va boshqa psixologlarning aytishlaricha, har bir shaxsning ongi bir-biriga qarshi qattiq kurashadigan qismlarga bo'linishi haqidagi nazariya mavjud, ammo biznesda hech bo'lmaganda, o'zi uchun ishlash kelishuvni kafolatlaydi. Afsuski, bu o'zingiz xohlagan kompaniya qura olishingizga ham to'siq bo'lishi mumkin.

A nuqtadan B nuqtagacha hamfikir jamoasiz borish juda qiyin.

Silikon vodiysidagi ba'zi anarxistlar "Kerakli mutaxassislarni yollasangiz va barchaning xohlagan ishini bajarishiga ijozat berib, ular ijod qilishi uchun qulay sharoit yaratib qo'ysangiz, umumiy kelishuvga erishishingiz mumkin", – deb aytishadi. Kompaniyadagi intuitiv tushuncha g'oyalari va hatto boshqarib bo'lmaydigan betartiblik go'yo inert, eskirgan

dunyo tomonidan yaratilgan va joriy qilingan qoidalarning yo'q qilinishiga yordam beradi. Darhaqiqat, "agar odamlar farishta misoli bo'lganlarida, hech qanday hukumatga ehtiyoj qolmas edi". Ammo anarxist kompaniyalar Jyeyms Medison eslagan narsadan mahrum bo'lmoqdalar – "Afsuski, insoniyat farishta emas". Shu sababli kompaniya kundalik boshqaruvidagi top-menejerlar va strategik qarorlar qabul qiladigan direktorlar vazifalari har xil. Ana shu nuqtayi nazardan hammuassislar va investorlar biznes talablari doimo diqqat-e'tibor bilan qayd etiladi. Ishlarni oldinga siljitish uchun sizga hamisha ahil-inoq jamoa kerak, shu bilan birga, butun jamoaning uzoq muddatli istiqbolda birgalikda ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan tuzilmaga katta ehtiyoj saqlanib qolaveradi.

Ishbilarmonlik mexanizmi qaysi tugunlar nomuvofiq ekanligini oldindan taxmin qilish uchun uchta boshqaruv tarmog'i o'rtasidagi farqni aniq anglash kerak.

Xususiy mulkchilik: kompaniya aksiyalariga rasman kim egalik qiladi?

Menejment: kompaniyani har kuni kim boshqaradi?

Nazorat: rasmiy ravishda kim biznes bilan bog'liq qarorlarni qabul qiladi?

O'rtacha startapda mulk ta'sischi, xodim va sarmoyadorlarga tegishli. Kompaniyani unda mavjud kunlik jarayonlarni amalga oshiradigan menejer va mutaxassislar boshqaradi. Shuningdek, boshqaruv odatda ta'sischi va investorlarni o'z ichiga olgan direktorlar kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Nazariy jihatdan, ushbu tuzilma juda samarali ishlaydi. Kompaniya aksiyalarining bir qismiga egalik qilishdan olinadigan moliyaviy foyda investorlar va ishchilarni o'ziga jalb etadi. Agar mazkur jarayon omadli kechsa, ularni mukofotlashni ta'minlaydi. Yaxshi boshqaruv ham tashkilot egalarini, ham xodimlarni ilhomlantirib, rag'batlantirib boradi, chunki bu ular yaratadigan mexanizm

ishlayotganini anglatadi. Kompaniyani direktor kursisidan baland ekanini ko'rish imkoniyati rahbariyatga istiqbollarni yanada kengroq o'rganib chiqishga yordam beradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining to'rtinchi prezidenti, yuqoridagi iqtibos muallifi

Amalda ushbu faoliyatni turli kishilar o'rtasida taqsimlash mazmunli bo'lishiga qaramay, ayrim tushunmovchilik va harakatlar nomuvofiqligini yuzaga keltiradi. Ushbu o'ta ziddiyatli ahvolning nimaga o'xshashini bilish uchun transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish xizmatiga bir muddat murojaat qilib ko'raylik. Aytaylik, yangi haydovchilik guvohnomasini olishingiz kerak. Nazariy jihatdan bu qiyin emas. Avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish xizmati davlat idorasidir. Biz o'zining manfaatlarini himoya qilish uchun o'z vakillarini saylaydigan odamlarga tegishli bo'lgan demokratik respublikada yashaymiz. Agar fuqaro bo'lsangiz, unda qisman sizning vakillaringiz tomonidan nazorat qilinadigan transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish xizmatining egasidirsiz. Shuning uchun siz u yerga ishonch bilan borib, kerakli narsalarni olishga haqlisiz.

Afsuski, aslida hamma narsa boshqacha tarzda sodir bo'ladi. Biz transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish xizmatining egalari bo'lishimiz mumkin, ammo bu mulk juda rasmiydir. Ushbu tashkilotni boshqaradigan amaldorlar va kichik zulmkor rahbarlar o'z mavqeyi ularga beradigan haqiqiy vakolat va kuchdan g'oyatda mamnun. Hatto mazkur idora ustidan nominal nazoratga ega bo'lgan hokim va qonun chiqaruvchilar ham bu yerda hech narsani o'zgartira olishmaydi. Byurokratik mashina u yoqdan-bu yoqqa sudralgan holda xalq vakillari bunga qarshi qanday kurashmoqchi bo'lmasin, inersiya bilan harakatlanadi.

Natijada, avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish xizmati hech kimga hisobot bermaydi va hamma uchun noqulay. Byurokratlar ruxsatnoma berish jarayonini dahshatli tush darajasida keskin yoki xohlaganicha qulay qilib qo'yishi

mumkin. Siz bu yerda siyosiy ta'lim olib borishingiz va ularga xo'jayin ekanligingizni eslatib qo'yishingiz mumkin, ammo, afsuski, bu xizmat sifatiga ta'sir qilishdan boshqa hech narsaga yaramaydi. Yirik korporatsiyalar ro'yxatdan o'tish kitoblariga qaraganda ancha chaqqonroq, ammo ular ham nomuvofiq hollarga ega. Ayniqsa, egalari va menejerlar o'rtasida bu vaziyat yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Masalan, "General Motors" singari ulkan korporatsiyaning bosh direktori kompaniya ulushiga ega, ammo u faqat kichik bir qismga egalik qila oladi, xolos. Shu bois u bajargan vazifasi uchun mukofotni firmaning biror-bir qismiga egalik qilish orqali olishdan ko'ra yaxshi boshqaruv vositasida olish ehtimoli ko'proq. Agar u har chorakda ijobiy hisobotlarni egalariга o'z vaqtida yuborsa, bu unga yuqori ish haqi va korporativ samolyotdan foydalanish huquqini saqlab qolishga imkon beradi.

U mabodo kompaniya hissadorlari ulushini oshirish hisobidan tanlovni qo'lga kiritgan taqdirda ham nomuvofiqlik saqlanib qolishi mumkin. Deylik, variantni olish qisqa muddatli ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lsa, xarajatlarni kamaytirish osonroq va foydaliroq bo'lgan rejani tuzishdan ko'ra unga ko'proq foyda keltirib, kelajakda kompaniya qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Yirik korporatsiyalardan farqli o'laroq startaplar o'z sayohatlari avvalida kichik kompaniyalar bo'lib, ularning egalari qoida bo'yicha o'zlarini boshqaradilar. Startaplar zamiridagi ziddiyatlarning aksariyati ularning egalari va nazoratchilar o'rtasida, ya'ni kompaniya sohiblari va direktorlar kengashida o'tirgan sarmoyadorlar orasida yuzaga keladi. Shu bilan birga mojaro yuzaga kelishi ehtimoli vaqt o'tishi bilan yuzaga qalqib chiqadi.

Bu holat tomonlarning o'zaro manfaatlari bir-biridan farq qila boshlaganda paydo bo'ladi. Masalan, direktorlar kengashi a'zosi kompaniyani "IPO"ga ko'tarilishi uchun uni imkon qadar tezroq chiqib ketishini talab qilishi mumkin. O'z venchur sarmoyalari uchun foydani aniqlash, shuningdek,

tashkilot egalari tijoratini rivojlantirish orqali kompaniyani mulkdor holatida saqlab qolishni afzal ko'rishadi. Ana shu vajdan ham direktorlar kengashi uchun umumiy qoidalar behad ko'p. Kengash tarkibidagi kishilar soni qancha kam bo'lsa, uning a'zolari bilan muloqot qilish, murosaga kelish va jarayonlar ustidan samarali nazoratni ushlab turish shunchalik osonlashadi. Ammo masalaning yana bir jihatini esda tuting, ushbu samaradorlik shuni anglatadiki, hatto kichik direktorlar kengashi ham har qanday nizolarda boshqaruvga qarshi kuchli choralarni taqdim etishi mumkin. Ayni holatda aql va tafakkur bilan tanlov qilish juda ahamiyatlidir. Kengash har bir a'zosining shaxsi anchayin muhimdir. Siz bilan qiyinchilik devoriga duch kelgan birgina direktor ham sizga juda ko'p boshog'riq keltirishi va hatto faoliyatingiz kelajagini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Ideal holdagi direktorlar kengashi uch nafar a'zodan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari har qanday holatda ularning soni besh nafardan oshmasligi kerak.

Albatta, agar u ommaviy kompaniya bo'lmasa (Hukumat tomonidan tartibga solinadigan andazalar, ommaviy kompaniya egalarini kengashdagi direktorlar sonini ko'paytirishga faol tarzda majbur qilmoqda, bugungi kunda o'rtacha ko'rsatkich to'qqiz nafarni tashkil etadi). Siz uchun eng yomoni direktorlar kengashidagi shaxslar sonini ulkan nisbatlarga yetkazishdir. Tajribasiz kuzatuvchi o'nlab ismlarni sanab o'tadigan ba'zi bir nodavlat tashkilotlardagi boshqaruv kengashi ro'yxatini o'qiyotgan paytda shunday deb o'ylaydi: "Vau! Ushbu tashkilot faoliyati haqida qanchadan qancha jonkuyar insonlar tashvishlanmoqda! Ehtimol, u yerda ishlar risoladagidek bo'lsa, kerak!" Aslida, yirik boshqaruv kengashi biznes ustidan samarali nazoratni mutlaqo yaxshi ta'minlay olmaydi. U faqat tashkilotni boshqaradigan ba'zi mayda diktatorlar ehtiyojini qoplaydi, xolos. Agar direktorlar kengashi sizga shunday boshqaruvni berishini istasangiz, uni oxirigacha zabt eting. Mabodo ushbu tarkibning samarali

ishlashini kutmoqchi bo'lsangiz, uni qisqartirish yo'lidan boring.

Professionalizmdan yiroqlik

Piter Tiyl yaratgan birinchi jamoa Silikon vodiysida «PayPal Mafia» nomi bilan tanilgan, chunki uning ko'plab sobiq hamkasblari bir-birlariga yordam berish va muvaffaqiyatli texnologiya kompaniyalariga sarmoya kiritishni boshladilar. 2002-yilda ular RauRa1 ni yeVau ga 1,5 milliard dollarga sotdi. O'shandan beri:

Ilon Mask Space-X ni yaratdi va Tesla Motors asoschilaridan biri bo'ldi;

Reid Xoffman LinkedIn asoschilaridan biri bo'lib ommaga tanildi;

Stiv Chen, Chad Xarli va Javed Karim birgalikda You tube-ga asos solishdi;

Jeremiy Stopelman va Rassel Simmons Elpga asos solishdi;

Devid Saks Yammer asoschilaridan biri bo'ldi va Tiyl Palantir ga asos soldi.

Bugungi kunda ushbu yetti kompaniyaning barchasi 1 milliard dollardan ortiqroq qiymatga ega. RauRa1 hech qachon Sizning korxonangizdagi iqtidorli odamlar siz uchun ishlashlari shart emas, ularning boshqa tanlovlari ham talaygina bo'ladi. O'zingizga savolni aniq berishingiz kerak:

Nega kimdadir ko'proq pul va obro' va'da qiladigan Google ga ishga kirish imkoniyati mavjud bo'lsa-yu, u 20-muhandis sifatida sizning kompaniyangizga qo'shilishi kerak?

Bu yerda ba'zi bir odatiy javoblar bor: «Sizning aksiyadorlik aksiyalaringiz boshqa joylarga qaraganda ko'proq qiymatga ega» yoki «Siz dunyodagi eng aqlli odamlar bilan ishlashingiz mumkin», «Siz dunyodagi eng qiyin muammolarni hal qilishga yordam bera olasiz». Qimmatli qog'ozlar, aqlli odamlar yoki dolzarb muammolar bilan qanday noodatiylik mavjud? Hech qanaqa, lekin har bir kompaniyada

bir xil talablar mavjud, shuning uchun ular sizning ajralib turishingizga yordam bermaydi. Umumiy va boshqalardan farq qilmaydigan xususiyatlar bilan yangi ishchilarni boshqa kompaniyalar turganda aynan sizning kompaniyangizga qo'shilishi kerakligi to'g'risida ishontira olmaysiz. Yaxshi javoblar, bular faqatgina sizning kompaniyangizda mavjud. Shuning uchun siz ularni ushbu kitobda topa olmaysiz. Ammo yaxshi javoblarning ikkita asosiy turi bor: sizning vazifangiz va jamoangiz haqidagi javoblar. Sizning vazifangiz nima uchun jozibali ekanligini tushuntirib bera olsangiz, kerakli ishchilarni jalb qila olasiz. Bu uning ahamiyatini oshiradigan yagona yo'l hisoblanadi. RauRa1 da, agar siz AQSH dollarining o'rniga yangi raqamli valutani yaratish g'oyasi bilan qiziqqaningizda, biz siz bilan gaplashishni xohlagan bo'lar edik. Agar bunday bo'lmasa, unda siz mos kelmagan bo'lar edingiz. Biroq, bu holatda katta-katta vazifalar ham yetarli bo'lmaydi. Xodimlarni eng ko'p jalb qiladigan hayratlanarli yollash turi: «Men ishlamoqchi bo'lgan odamlarmi bu?» Sizning kompaniyangiz nima uchun shaxsan u uchun o'zgacha ekanligini tushuntirishga qodir bo'lishingiz kerak. Agar buni qila olmasangiz, ehtimol u xodim sizning kompaniyangizga mos tushmaydi.

Birinchidan, mol-mulk ustidan kurashmang. Kimdir bepul kir yuvish yoki uy hayvonlarini parvarish qilishga moyil bo'lsa, bu sizning jamoangiz uchun yomon bo'lishi mumkin. Faqat sog'liqni sug'urtalash kabi asoslarni qamrab oling va o'zingizga boshqa yo'l qoldirmaslik uchun boshqa hech kim qila olmaydigan narsani va'da qiling: buyuk odamlar bilan birgalikda noyob masalalar bo'yicha mislsiz ishlarni bajarish. Ehtimol, siz rag'batlantirish yoki imtiyozlar bo'yicha Google-ning 2014-yildagi holatiga tenglasha olmassiz, ammo agar vazifangiz va jamoangiz haqida yaxshi javoblaringiz bo'lsa, siz Google 1999-yildagi kabi bo'lishingiz mumkin. Tashqaridan qaraganda, kompaniyangizdagi har bir kishi bir xil bo'lishi kerak. Sharqiy qirg'oqdagi odamlardan farqli

o'laroq, Mountain view va Palo Alto yoshlari sohasiga bog'liq ravishda bir xil jingalak jinsi yoki tasmali kostyum kiygan holda, futbolkalarda ishlashga ketishadi, texnik ishchilar kiygan narsalariga ahamiyat bermasliklari haqidagi gaplarning siyqasi chiqib ketgan, ammo agar siz ushbu futbolkalarga diqqat bilan e'tibor bersangiz, tashuvchi kompaniyalarning logotiplarini ko'rasiz, texnik xodimlar ularga katta e'tibor berishadi. Startapni tashqaridan yaqqol ajratib ko'rsatadigan narsa bu brend logotipi tushirilgan futbolka yoki kepka hisoblanadi. Startap formasi sodda, ammo muhim prinsipni o'zida aks ettirishi kerak: kompaniyangizdagi hamma bir xil bo'lishi kerak, kompaniya missiyasiga astoydil sodiq fikrli insonlar avlodi.

Piter Tiyelning RauRa1 dagi sherigi Maks Levchin startaplar o'zlarining birinchi xodimlarini iloji boricha bir xil kiyintirishlari kerakligini aytadi. Startaplarda cheklangan resurslar va kichik jamoalar mavjud bo'ladi. Ular omon qolish uchun tez va samarali ishlashlari kerak, va kompaniyadagi har bir xodim dunyo haqidagi tushunchalarini o'rtoqlashganda, buni bajarish osonroq kechadi. RauRa1 ning dastlabki jamoasi birgalikda yaxshi ishlagan, chunki ular hammasi bir xil darajadagi ishtiyoqqa ega edi. Ular hammasi ilmiy fantastikani sevishar edi: Kriptonomiyani o'qish talab qilinardi va ular kapitalistik urushlarni kommunistik qo'shiqlardan afzal ko'rar edilar. Eng muhimi, barchasi hukumatlar emas, balki shaxslar tomonidan boshqariladigan raqamli valutani yaratish bilan ovora bo'lishgan. Kompaniyaning ishlashi uchun odamlar qanday ko'rinishda bo'lishlari yoki qaysi mamlakatdan ekanliklari muhim emas edi, ular har bir yangi ishchiga teng darajada ish hajmi berishi kerak edi. Ichkaridan qaraganda, har bir xodim o'z mehnati bilan keskin farq qilishi kerak. Startap ishchilarga vazifalarni tayinlashda, iste'dodlarni vazifalar bilan samarali ravishda band qilishni oddiy optimallashtirish muammosi sifatida ko'rib chiqishdan boshlashingiz mumkin. Ammo siz buni qaysidir ma'noda

mukammal bajarishingiz mumkin bo'lsa, ham, har qanday yechim tezda barbod bo'ladi. Bu qisman startaplar tezda harakatlanishi kerakligi bilan bog'liq, shuning uchun individual rollar uzoq vaqt barqaror bo'lib qololmaydi. Ishni taqsimlash nafaqat ishchilar va vazifalar o'rtasidagi munosabatlarga tegishli; balki xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Piter Tiyel RauRa1 menejeri sifatida qilgan eng yaxshi ishi har bir xodimdan alohida narsani qilishni talab qilgani bo'lgan. Har bir xodimning individual xususiyati bor edi va barcha uni faqat shu xususiyati uchun qadrlar edi. U buni oddiy odamlarni boshqarish vazifasini soddalashtirish uchun boshlagan edi. Ammo keyin u yaxshiroq natijani payqadi: rollarni belgilash mojaroni kamaytirdi. Kompaniya ichidagi janjallarning ko'pi hamkasblar bir xil vazifalar uchun raqobatlashganda yuzaga keladi. Startaplarda buning katta xavfi mavjud, chunki dastlabki bosqichlarda ish joylari o'zgaruvchan bo'ladi. Raqobatni yo'q qilish, hamma uchun oddiy professionalizmdan tashqariga chiqadigan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, ichki xotirjamlik bu startapning omon qolishiga imkon beradigan jihatidir. Agar startap muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, biz ko'pincha raqobatbardosh ekotizimdagi yirtqich raqiblarga duch kelganini sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. Ammo har bir kompaniyaning o'ziga xos ekotizimi bor va ichki nizolar uni tashqi tahdidlarga nisbatan zaiflashtiradi. Ichki mojaro immun tizimi yetishmovchiligi kasaliga o'xshaydi: pnevmoniya o'limning texnik sababi bo'lishi mumkin, ammo asl sabab oddiy ko'rinishda yashirin bo'ladi.

Yashirin savdo

Barcha sotuvchilar aktyorlar hisoblanadi: ularning ustun tarafi samimiylik emas, balki ishontirishdir. Shuning uchun «sotuvchi» so'zi tushunarsiz jaranglashi mumkin va foydalanilgan avtoullov sotuvchisi bizning soyamizning

namunasi hisoblanadi. Ammo biz faqat beso'naqay sotuvchilarga, ya'ni yomon sotuvchilarga salbiy munosabatda bo'lamiz. Savdo qobiliyatining keng doirasi mavjud: yangi kashfiyotchilar, mutaxassislar va hunarmandlar orasida ko'plab darajalashuv mavjud. Hatto grossmeysterlarning ham savdosi mavjud. Agar siz grossmeysterlarni tanimasangiz, bunga siz ular bilan uchrashmaganligingiz emas, balki ularning san'ati ko'zga ko'rinmas bo'lgani sabab bo'ladi. Tom Soyer qo'shni do'stlarini u uchun to'siqni oqlashga ishontirishga muvaffaq bo'lgan, buni e'tirof etish kerak, bu mohirona harakat. Ammo ularni uy yumushlarini bajarish uchun haq to'lashga ishontirish bu donishmandona harakat edi, sababi uning do'stlari aqlli emas edi. Mark Tven bu asarni 1876-yilda yozganidan buyon ko'p narsa o'zgarmadi.

Aktyorlikdagi kabi, savdo ham yashirin bo'lganda yaxshiroq samara beradi. Bu nima uchun tarqatish bilan bog'liq bo'lgan savdo, marketing yoki reklama sohasidagi deyarli har bir kishi bu narsalarga hech qanday aloqasi bo'lmagan lavozimga egaligini tushuntirib beradi. Reklamalarni sotadigan odamlar «hisob menejerlari» deb ataladi. Mijozlarni sotadigan odamlar «biznesni rivojlantirish» sohasida ishlaydi. Kompaniyalarni sotadigan odamlar «investitsiya bankirlari» sanaladi. O'zlarini sotadigan odamlar esa «siyosatchilar» deb ataladi. Ushbu takroriy tavsiflarning o'ziga xos sababi bor: bizni sotishayotgani to'g'risida hech birimiz eslatishni xohlamaymiz.

Karyera qanday bo'lishidan qat'i nazar, savdo qobiliyati super yulduzlarni ham mag'lublardan ajratib turadi. Uoll-stritda yangi xodim o'z texnik faoliyatini «analitik» sifatida boshlaydi, ammo uning asl maqsadi bitim tuzuvchi bo'lish bo'ladi. Advokat o'zining professional obro'si bilan faxrlanadi, ammo advokatlik firmalariga katta mijozlarni jalb qiladigan uddaburonlar rahbarlik qiladi. Ilmiy yutuqdan obro'ga da'vo qiladigan universitet professorlari ham o'z sohalarini belgilaydigan o'z-o'zini reklama qiluvchilarga hasad

qilishadi. Tarix yoki ingliz tilidagi akademik vakolatxonalar shunchaki intellektual xususiyatlariga ko'ra sotilmaydi. Hatto fundamental fizikaning kun tartibi va saraton kasalligini tatbiq qilishning kelajakdagi usuli – bu ishontirish natijalari hisoblanadi. Hatto tadbirkorlar ham savdoning ahamiyatiga yetarlicha e'tibor bermayotganligining eng muhim sababi bu yashirin ravishda boshqariladigan dunyoning har bir mintaqasida uni yashirishga urinishdir.


Muhandisning panjarasi shunchalik yaxshi mahsulotki, «u o'zini o'zi sota oladi». Ammo real mahsulot haqidagi haqiqatni aytadigan har bir kishi yolg'on gapirishi kerak: yoki uning o'zi yolg'onchi (chunki yolg'on gapiryapti) yoki biror narsani sotyapti (shu orqali o'ziga qarshi chiqyapti). Qarama-qarshi qutbdagi biznesning eskirgan tushunchasi «eng yaxshi mahsulot har doim ham g'alaba qozonmaydi» deb ogohlantiradi. Iqtisodchilar buni yo'l qaramligi bilan bog'laydilar: obyektiv sifatga bog'liq bo'lmagan o'ziga xos tarixiy sharoitlar har qaysi mahsulotlar keng sotilishini belgilashi mumkin. Bu ayni haqiqat bo'lsa, ham, biz foydalanadigan operatsion tizimlar va biz kiritgan klaviatura tartiblari tasodifan paydo bo'lgan degani emas. Taqsimotni mahsulotingiz dizayni uchun kim tarkibiy qism deb o'ylash oqilona qarordir. Agar siz biron-bir yangi narsani ixtiro qilgan bo'lib, uni samarali sotish usulini ixtiro qilmagan bo'lsangiz, unda mahsulotingiz qanchalik yaxshi bo'lmasin, biznesingiz foydali bo'la olmaydi.

Mahsulotni qanday sotish mumkin?

Yuqori savdo va o'z-o'zidan tarqalish mahsulot bir xilligi bilan ham monopoliyani yaratishi mumkin. Orqaga qarash to'g'ri ish deb hisoblanmaydi. Mahsulotingiz qanchalik mustahkam bo'lishidan qat'i nazar, u sizning doimiy odatlaringizga osonlikcha mos tushgan taqdirda ham hamda uni tatib ko'rgan kishi darhol uni yoqtirsa ham siz

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

uni baribir qat'iy taqsimlash rejasi bilan saqlashingiz kerak. Ikki nafar o'lchov samarali taqsimlash uchun cheklovlarni belgilaydi. Mijoz bilan bo'lgan munosabatingiz davomida qilgan o'rtacha daromadingiz (Mijozning umr bo'yi qiymati) sizning yangi mijozingizni (Mijoz sotib olish qiymati) sotib olish uchun sarflaganingizdan ko'proq bo'lishi kerak. Umuman olganda, mahsulotingiz narxi qanchalik baland bo'lsa, uni sotish uchun ko'proq pul sarflash kerak. Buning uchun sarflash aqlli qaror hisoblanadi. Tarqatish usullari doimiy asosda tuzilishi mumkin:



Kompleks savdolar

Agar o'rtacha sotuvingiz yetti xonali yoki undan ko'proq raqamlarga teng bo'lsa, har bir bitimning har bir tafsilotiga alohida e'tibor talab etiladi. To'g'ri munosabatlarni rivojlantirish uchun bir necha oy kerak bo'lishi mumkin. Siz yiliga bir yoki ikki marta savdo qilishingiz mumkin. Shunda bitim tugagandan so'ng, odatda mahsulotni o'rnatish va xizmat ko'rsatish paytida kuzatib borishingiz kerak bo'ladi. Buni bajarish qiyin, ammo bunday «qiyin savdo» ba'zi qimmatbaho mahsulotlarni sotishning yagona usuli hisoblanadi.

SpaceX buni amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Raketa ishga tushirilgandan bir necha yil o'tgach, Ilon Mask NASA ni bo'shatilgan kosmik kemani yangi ishlab chiqilgan

SpaceX kemasi bilan almashtirish uchun milliard dollarlik shartnomalar tuzishga ishontirdi. Katta bitimlarda siyosat texnologik zakovatdan ko'ra muhimroq hisoblanadi, shuning uchun bu bitimga erishish oson emas edi. SpaceX da asosan kaliforniyalik bo'lgan 3000 dan ortiq xodim ishlaydi. AQSHning an'anaviy aerokosmik sanoatida 50 ta shtatdan 500.000 dan ortiq kishi ishlaydi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki Kongress a'zolari o'zlarining yashash joylariga ketadigan federal mablag'lardan voz kechishmaydi. Ammo murakkab savdo-sotiq yiliga atigi bir nechta bitimlarni talab qilar ekan, Ilon Mask singari savdo-sotiqning biri bu vaqtni eng muhim odamlarga yo'naltirish va katta siyosiy inersiyani yengish uchun ishlatishi mumkin.

Agar sizda biron-bir sotuvchi bo'lmasa, murakkab savdo yaxshi samara keltiradi. Piterning huquq maktabidagi sinfdoshi Aleks Karp bilan birgalikda asos solgan «Palantir» ma'lumotlar tahlil kompaniyasi, o'z mahsulotlarini sotish vazifasi yuklangan kishini yollamaydi. Buning o'rniga, Palantir kompaniyasining bosh direktori bo'lgan Aleks bir oyda 25 kun mijozlar va potensial mijozlar bilan uchrashadi. Ularning bitimlari hajmi 1 dan 100 million dollargacha o'zgaradi. Ushbu narx doirasidagi xaridorlar sotuv ishlari bo'yicha vitseprezident bilan emas, balki bosh direktor bilan gaplashishni xohlashadi.

Murakkab savdo modellariga ega kompaniyalar, agar o'n yil ichida yiliga 50% dan 100% gacha o'sishga erishsalar, muvaffaqiyatga erishadilar. Keng miqyosda o'sishni orzu qilgan har qanday tadbirkor uchun bu juda sekin bo'layotgandek tuyuladi. Mijozlar yaxshiroq mahsulot haqida bilib olishlari bilan ular daromad 10 baravar ko'payishini kutishi mumkin, ammo bu deyarli hech qachon sodir bo'lmaydi. Korxonalar uchun yaxshi savdo strategiyasi kichik miqyos bilan boshlanadi: yangi mijoz sizning eng katta mijozingiz bo'lishga rozi bo'lishi mumkin, ammo ular kamdan kam hollarda siz ilgari sotgan narsalar bilan

to'liq hajmda shartnoma tuzishdan mamnun bo'lishadi. Mahsulotingizdan muvaffaqiyatli foydalanayotgan mijozlar to'plamiga ega bo'lgandan so'ng, siz har qachongidan ham kattaroq shartnomalarga intilish yo'li bilan uzoq va uslubiy ishlarni boshlab yuborishingiz mumkin.

Aksariyat hollarda savdo-sotiq ishi murakkab tuyulmaydi. Bitimning o'rtacha hajmi 10.000 dollardan 100.000 dollargacha o'zgarishi mumkin va odatda bosh direktorning savdo ishlarida ishtirok etishi shart emas. Muammo aniq bir savdo jarayonini qanday amalga oshirishda emas, balki kichik savdo guruhi mahsulotni qay tarzda keng omma e'tiboriga yetkazishi mumkin bo'lgan jarayonni aniqlashdir.

2008-yilda Box kompaniyasi kompaniyalar uchun o'z ma'lumotlarini bulut texnologiyasida xavfsiz va ishonchli saqlashi uchun ajoyib usulni yaratdi. Ammo odamlar o'zlariga nima kerakligini anglashmadi, bulutli texnologiyalar hali mashhurlikka erishmagan edi. Odamlar orasidagi munosabatni o'zgartirishga yordam berish uchun Bleyk o'sha yozda Box ning uchinchi sotuvchisi sifatida yollangan. Fayl almashish bo'yicha eng jiddiy muammolarga duch kelgan kichik foydalanuvchilar guruhlaridan boshlab, Box savdo vakillari har bir mijozning kompaniyasida ko'p sonli foydalanuvchilar bilan aloqa o'rnatdilar. 2009-yilda Bleyk Box ning kichik bir hisob qaydnomasini Stenford uyqu klinikasiga sotdi, u yerda tadqiqotchilarga eksperimental ma'lumotlar mavjud bo'lgan jurnallarini saqlash uchun sodda va xavfsiz usul kerak edi. Bugungi kunda Stenford universiteti har bir talaba va o'qituvchiga Box hisob qaydnomasini taqdim etadi. Agar barchasi universitet rektorining universitet miqyosida sotib olishga urinishidan boshlangan bo'lmaganida, Box hech narsa sota olmagan bo'lar edi. Savdo-sotiqning murakkab uslubi Box-ni unutilgan startapga aylantirib qo'ygan bo'lar edi; shaxsiy savdo Box kompaniyasini bir necha milliardlik biznesga aylantirdi.

Ba'zan mahsulotning o'zi tarqatishning bir turi hisoblanadi. ZocDoc– bu venchur fondi portfelining kompaniyasi bo'lib,

u odamlarga tibbiy uchrashuvlarni onlayn rejimida topish va bron qilishda yordam beradi. Kompaniya shifokorlarga o'z tarmog'iga qo'shilgani uchun oyiga bir necha yuz dollar to'laydi. O'rtacha bitim hajmi atigi bir necha ming dollarni tashkil etadi, ZocDoc ko'plab sotuvchilarga muhtoj – ularda yollashdan boshqa hech narsa qo'lidan kelmaydigan ichki xodimlarni jalb qiladigan jamoa bor. Ammo shifokorlarga shaxsiy savdolar faqatgina daromad keltiribgina qolmay, tarmoqqa shifokorlar qo'shib, mahsulotni iste'molchilar uchun yanada qadri narsaga aylantiradi (va iste'molchilar soni ko'payib, shifokorlarga murojaat qiladiganlar sonini oshiradi). Ushbu xizmatdan har oyda 5 milliondan ortiq odam foydalanadi va agar u ko'pgina amaliyotchilarni o'z ichiga olgan tarmoqni kengaytirishni davom ettirsa, bu AQSH sog'liqni saqlash sohasi uchun katta foyda keltiradi.

Umidsizlik shukuhini tarqatish

Shaxsiy savdo (sotuvchilar aniq talab qilinadi) va an'anaviy reklama (sotuvchilar talab qilinmaydi) o'rtasida o'lik zona mavjud. Siz do'kon egalari uchun ularning inventarizatsiyasini kuzatishga va buyurtmalarni boshqarishga yordam beradigan dasturiy ta'minot xizmatini yaratdingiz deb faraz qilaylik. Taxminan 1000 dollarga baholangan mahsulotni sotib oladigan kichik biznes uchun yaxshi tarqatish kanali bo'lmasligi mumkin. Agar siz aniq narx taklifiga ega bo'lsangiz ham, odamlarni qanday qilib tinglashga undashingiz mumkin? Reklama juda keng miqyosda (faqat do'kon egalari tomosha qiladigan televidion kanal mavjud emas) yoki juda samarasiz (o'z o'zidan, «do'kon yangiliklari»dagi reklama, ehtimol har qanday do'kon egasini yiliga 1000 AQSH dollari miqdorida pul ajratishga unday olmaydi) bo'ladi. Mahsulot shaxsiy savdoni talab qiladi, ammo ushbu narx toifasida siz har bir potensial mijoz bilan suhbatlashish maqsadida

odamni yuborish uchun resurslarga ega bo'lmasingiz mumkin. Shuning uchun juda ko'pchilik kichik va o'rta korxonalar yirik firmalar odatiy deb hisoblagan vositalardan foydalanmaydilar. Gap kichik biznes egalari g'ayrioddiy tarzda orqada qolishi yoki yaxshi vositalar mavjud emasligi haqida ketmayapti: tarqatish – bu yashirin taraqqiyotga to'sqinlik qiladigan jarayondir.

Marketing va reklama

Marketing va reklama juda jozibali tarzda tarqatishga yaxshi omil hisoblanadi, ammo keng miqyosda tarqalish usuliga ega bo'lmagan nisbatan arzon mahsulotlar uchun ish beradi. Procter&Gamble kir yuvish vositalari kompaniyasi mahsulotlarini uyma-uy sotib yuradigan sotuvchilarga pul to'lay olmaydi. (P&G savdo do'koni sotuvchilarni oziq-ovqat do'konlari va yirik savdo nuqtalarining egalari bilan suhbatlashish uchun yollaydi) o'zining oxirgi foydalanuvchisini topish uchun, qadoqlangan mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniya televizion reklama roliklarini ishlab chiqarishi, gazetalarda kuponlarni bosib chiqarishi va e'tiborni jalb qilish uchun mahsulot qutilarini loyihalashi kerak edi.

Mijozni sotib olish xarajatlari va mijozning umr ko'rish davomiyligi har qanday boshqa tarqatish kanalini iqtisodiy bo'lmagan holatga keltirgandagina reklama startap kompaniyalar uchun samara keltirishi mumkin. Masalan, zamonaviy ko'zoynaklarni ishlab chiqaradigan va sotadigan WarbyParker elektron tijorat startapini olaylik. Har bir ko'zoynak taxminan 100 dollardan boshlanadi, shuning uchun o'rtacha mijoz umr bo'yi bir necha ko'zoynak sotib olsa, kompaniya uchun mijozning o'rtacha umr ko'rish narxi bir necha yuz dollarni tashkil etadi. Bu har bir tranzaksiyaga shaxsiy e'tiborni kafolatlash uchun juda oz bo'lsa, ham, lekin boshqa tomondan, yuz dollarlik mahsulotlar keng miqyosga aylana olmasligi aniq. Warby reklama roliklarini

ishga tushirish va televizion reklama roliklarini yaratish orqali millionlab ko'zoynak taqqan mijozlarga eng yaxshi va arzon narxlarni taklif qilishi mumkin. Kompaniya o'z veb-saytida «TV – bu katta megafon» deb ishonch bilan yozadi va siz yangi mijozni sotib olish uchun o'nlab dollar sarflashga qodir bo'lganingizda, siz topa oladigan eng katta megafonga ehtiyoj sezasiz.

Har bir tadbirkor tabiiyki, taniqli reklama kampaniyasiga hasad qiladi, ammo startaplar eng esda qolarli televizion rollarni yoki eng puxta piarlarni namoyish etish uchun to'xtovsiz musobaqada yirik kompaniyalar bilan raqobatlashish vasvasasiga qarshi turishlari kerak. Men buni tajribadan bilaman. RauRa1 da biz «Yulduzlar qo'shig'i»da Skotti rolini o'ynagan Jeyms Doxanni rasmiy vakil sifatida yolladik. Biz birinchi PalmPilots dasturimizni chiqarganimizda, jurnalistlarni tadbirga taklif qildik, ular Jeymsning o'lmas jumlasini eshitishlari mumkin edi: «Men butun karyeram davomida odamlar bilan porlab keldim, lekin men ilk marotaba pul evaziga ham porlay oldim!» Bu amalga oshmadi – hodisani yoritish uchun kelgan juda kam odamlarga bu gaplar ta'sir ko'rsatmadi. Biz barchamiz aqldan hayratda, shuning uchun biz Skotti bosh muhandisi, aytaylik, kapitan qirqdan ortiqroq vakillar bilan gaplashishi mumkin deb o'ylagandik. Biz yanglishgan edik: Priceline.com sayti mashhur Uilyam Shatnerni (40 deb nomlanuvchi rolini ijro etgan aktyor) irg'itib yuborishi ish bergan edi. Ammo o'sha paytga kelib Priceline asosiy o'yinchi edi. Hech qanday startap yirik kompaniyalarning reklama budjetlari bilan raqobatlasha olmaydi.

Keng miqyosdagi marketing

Agar mahsulotning asosiy funksional imkoniyatlari foydalanuvchilarni o'z do'stlarini ham foydalanuvchi bo'lishga taklif qilishga undasa, uni keng miqyosli deya

olamiz. Facebook va RauRa1 ning tez rivojlanishining sababi shunda: har safar kimdir do'sti bilan bo'lishsa yoki to'lovni amalga oshirsa, tabiiy ravishda tarmoqqa ko'proq odamlarni taklif qiladi. Bu arzon bo'libgina qolmay, tez bo'ladigan jarayon hamdir. Agar har bir yangi foydalanuvchi o'zi bilan bir nechta qo'shimcha foydalanuvchi olib keladigan bo'lsa, siz ko'rsatkichli o'sishning zanjirli reaksiyasiga erishishingiz mumkin. Ideal keng miqyosli sikl iloji boricha tez va silliq kechishi kerak. YouTube da kulgili videolar yoki internet-memlar juda qisqa vaqt ichida millionlab ko'rishlarga ega bo'ladi: YouTube platformasida odamlar mushuklarni yoki o'zlari istagan narsalarni ko'radi, ichida iliqlik, bu ajoyib kontentlarni boshqalarga ham ulashishni his qiladi va bir necha soniya ichida do'stlariga ulashadi.

RauRa1 da bizning dastlabki foydalanuvchi bazamiz 24 kishi edi va ularning barchasi RauRa1 da ishlar edi. Mijozlarni banner reklama orqali sotib olish juda qimmatga tushdi. Biroq, odamlarning ro'yxatdan o'tgani uchun to'g'ridan to'g'ri pul to'lash va do'stlarni jalb qilgani uchun ko'proq pul to'lash orqali biz g'ayrioddiy o'sishga erishdik. Ushbu strategiya har bir mijoz uchun bizga 20 dollarga tushdi, ammo bu shuningdek, kunlik 7% o'sishga olib keldi, bizning foydalanuvchilar bazamiz har 10 kunda deyarli ikki baravar ko'payar edi. To'rt-besh oy o'tgach, biz yuz minglab foydalanuvchilarga ega bo'ldik va kichik komissiyalar evaziga pul o'tkazmalari taqdim etadigan a'lo kompaniya yaratishning haqiqiy imkoniyati paydo bo'ldi.

Keng miqyosli potensialga ega bo'lgan bozorning eng muhim segmentida birinchi bo'lib kim ustunlik qilsa, u butun bozorda so'nggi harakatlantiruvchi kuch bo'ladi. RauRa1 da, biz tasodifan kelib qolgan foydalanuvchilarni jalb qilishni xohlamadik; biz birinchi navbatda bizni qadrlaydigan foydalanuvchilarni qo'lga kiritishni xohladik. Elektron pochta orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun bozorning eng aniq segmenti bu Western Union kompaniyasi xizmatlaridan

o'z oilalariga pul o'tkazish uchun foydalangan millionlab odamlar edi. Mahsulotimiz bu xizmat turini osonlashtirgan bo'lsa, ham, tranzaksiyalar juda kam edi. Bizga pul oqimi tezligi yuqori bo'lgan kichik bozor segmenti kerak edi – biz yeVau Power Sellers da, yeVau auksion saytida onlayn savdo qiladigan professional sotuvchilar segmentiga muhtoj edik. Ularning soni 20,000 edi va aksariyati har kuni bir necha kimoshdi savdolarida bo'lib, qancha ko'p sotgan bo'lsalar, shuncha sotib olardilar, bu ularda doimiy to'lovlar oqimi mavjudligini anglatardi. Qo'shimcha ravishda, yeVau-ning to'lov muammosini o'zi hal qilishi juda qiyin bo'lganligi sababli, ushbu sotuvchilar RauRa1 ni katta ishtiyoq bilan kutib olishdi. RauRa1 ushbu segmentda ustunlik qilgandan yeVau uchun to'lov maydonchasiga aylangandi, bu ishni oldin biror kompaniya qila olmagan edi.

Ushbu usullardan biri, ehtimol har qanday muayyan biznes uchun boshqa narsalarga qaraganda ancha kuchli bo'lishi mumkin: tarqatish o'zining kuch qonunlariga bo'ysunadi. «Keragidan ortig'i kerakmas» deb hisoblaydigan ko'pchilik tadbirkorlar uchun bu qarshi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ammo oshxonadagi akvarium yondashuvi – bir nechta sotuvchilarni jalb etish, jurnallarda reklama berish va mahsulotga biron-bir keng miqyosli funksiyani keyinchalik qo'shimcha sifatida qo'shishga harakat qilish yetarli emas. Aksariyat korxonalar samaradorligi nolga teng bo'lgan tarqatuvchi kanallaridan foydalanadilar. Muvaffaqiyatsizlikning eng ko'p uchraydigan sababi yomon mahsulot emas, balki yomon savdodir. Agar siz faqat bitta tarqatish kanalining ishini qila olsangiz, ajoyib biznesga egaman desangiz ham bo'laveradi. Agar siz bir nechta harakatni amalga oshirsangizu, lekin ishni o'xshata olmasangiz, unda tamom bo'ldim deyavering.

Mijoz bo'lmaganlarga sotish

Kompaniyangiz o'z mahsulotidan tashqari yana ko'proq mahsulot sotishi kerak. Shuningdek, kompaniyangizdan

bino bo'lgan barcha turdagi mahsulotlarni ishchilar va investorlarga sotishingiz kerak. Yaxshi mahsulot o'zini o'zi sotadi degan iborani eshitgan bo'lsangiz kerak. Elronning «inson resurslari» haqidagi ajoyib iqtibosi bor: «Bu kompaniya shunchalik yaxshiki, odamlar u bilan hamkorlik qilish yoki faoliyat yuritish uchun tog'ni talqon qiladilar». Mablag' yig'ishning ham ajoyib versiyasi mavjud: «Bizning kompaniya shu qadar jozibadorki, sarmoyadorlar bizning eshigimizda sarmoya tikish uchun uzundan uzoq navbatlarda turishadi». Biroq ular deyarli hisobli ishga yollashlarsiz sodir bo'lmaydi.

O'z kompaniyangizni ommaviy axborot vositalarida sotish mahsulotni hammaga yoyish uchun zaruriy harakatdir. OAV-ga instinktiv ravishda ishonmaydigan odamlar ko'pincha e'tiborsizlikka yo'l qo'yishadi. Ammo odamlar hech qanday tarqatish strategiyasiz shunchaki afzalliklari ko'p bo'lgan mahsulotni sotib olishlarini hech qachon kutmasligingiz kerakligi singari, odamlar bilan o'zaro aloqalar strategiyasiz kompaniyangizga qoyil qolishlarini hech qachon o'ylamasligingiz kerak. Hattoki, sizdagi keng tarqatish strategiyasi mavjudligi tufayli ma'lum bir mahsulotingiz mijozlarni jalb qilish uchun ommaviy axborot vositalarining ta'siriga muhtoj bo'lmasa ham, matbuot investorlar va ishchilarni jalb qilishga yordam beradi. Istalgan bo'lajak taklif qilganingizga rozi bo'lishidan oldin o'z tadqiqotlari natijasini ham olib boradi. U qanday ma'lumotlarni topish-topmasligi yoki kompaniyangiz nomini internetda ifodalashi bozorda sizning omadga erishuvingizni belgilaydi.

Texnik xodimlar, albatta, savdo muammosini unutib, savdogarlarni o'zga sayyoraga surgun qilishni orzulash huquqiga ega. Har birimiz: "O'z ongimizni to'liq o'zimiz boshqaramiz", deb o'ylashni istaymiz va sotuvchilar hiylanayrangi biz uchun hech qanday ahamiyatga egamas. Ammo asl holat bunday emas. Xodim, ishbilarmon yoki investor bo'lishingiz muhim ahamiyat kasb etmaydi. Har biringiz o'zingiz sotishingiz kerak bo'lgan mahsulotga egasiz. Bu

kompaniyangiz faqatgina o'zingiz va birgina kompyuterdan iborat bo'lsa, ham. Atrofga nazar tashlang! Agar siz bitta ham sotuvchini ko'rmayotgan bo'lsangiz, unda sotuvchi, so'zsiz, o'zingiz.

INSONIYAT UCHUN TEXNOLOGIYALAR QADRI

An'anaviy sanoat tarmoqlari turg'unlik holatida bo'lgan paytda axborot texnologiyalari oldinga shu qadar tez sakrab ketdiki, natijada bugun ularga asl "texnologiya" tushunchasining sinonimi sifatida qarashmoqda. Hozirgi vaqtda bir yarim milliard odam allaqachon inson bilimlari xazinasiga kirish uchun qo'l asboblaridan foydalanmoqda. Har qanday zamonaviy smartfonning ishlash jarayoni bir paytlar kosmonavtlar uchun oyga yo'l ochib bergan kompyuterlarga qaraqanda o'n minq marta kattaroqdir. Aqar Mur qonuni ilgarigidek amal qilishda davom etsa, ertangi kunning kompyuterlari yanada kuchliroq bo'ladi. Ular bugungi kunda "Faoliyat yuritishda insonga teng keladigani yo'q va bo'lmaydi ham", deb doimo ishongan aqidamizdan allaqachon ustun kelishga qodir. 1997-yili "IBM" tomonidan ishlab chiqarilgan "Deep Blue" kompyuter va shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovdan g'olib chiqdi. 2011-yilda "IBM"ning "Watson" nomli yana bir superkompyuter va "Jeopardy" aqlli o'yin shousi tarixidagi eng yaxshi o'yinchi Ken Jenningsni mag'lub etdi. "Google"ning robotlashtirilgan mashinalarini bugun Kaliforniya yo'llarida ko'rish mumkin. Albatta, kichik Deyl Ernardning aytishicha, hozircha biz ular tarafidan bo'ladigan raqobat borasida xavotirga tushmasligimiz kerak. Biroq "Guardian" millionlab shaxsiy haydovchi va taksichilar nomidan o'ziyurar mashinalar haqida: "Bizni to'g'ridan to'g'ri yangi ishsizlik to'lqinlari tomoniga olib kelishi mumkin", degan xavotirni allaqachon aytib o'tqandi. Har bir inson kelajakda kompyuterlar bundan ham ko'proq vazifalarni bajara olishiga

umid qiladi. Shuncha ko'p narsalarki, bu hammani hayron qoldirmoqda. O'ttiz yil ichida odamlar zimmasida biror-bir vazifa qoladimi? "Kompyuter dasturlari dunyoni yutmoqda", deydi venchur sarmoyadori Mark Andrissen iste'foga chiqish ohangida. Boshqa shunday bir boyvachcha Endi Kessler esa deyarli quvonch bilan tushuntiradi: "Samarali ishlashning eng yaxshi usuli "odamlardan xalos bo'lishdir". Bunga qarshi o'laroq Forbes xavotirlanib, o'quvchilardan: "Mashina sizning o'ringizni almashtira oladimi?" degan savolga javob so'raydi. Futuristlar bu savolga: "Ha", deyish to'g'ri javob", deb umid bog'lashadi. Zamonaviy ludchilar esa ushbu nuqtayi nazarni o'zlariga shunchalik yaqin olishadiki, natijada ular yangi texnologiyalar yutug'i.

Amerikalik avtopoygachi. "NASCAR" avtopoyga musobaqasining ikki karra 1811-yilning mart oyida mashinalarga qarshi chiqayotgan bir guruh ishchilar Ludi nomi ostida birlashib, ludchilar harakatiga asos soldilar. Ular to'quv mashinalarining asosiy qismlarini ishdan chiqarib, omborlarga hujum uyushtirar, o'z huquqlarini talab qilib, petitsiyalar bilan hukumatga murojaat qilishardi. Taniqli argentinalik yozuvchi Kristian Ferrer o'zining "Mashinalarga qarshi kurashuvchilar xotirasiga" deb nomlangan maqolasida yozishicha, "Ludchilar texnikaning istalgan turi emas, faqat jamiyatga ma'naviy zarar yetkazishi mumkin bo'lganiga qarshi kurash olib borishgan".

MILLION DOLLARLIK BIZNES STRATEGIYASI

Inson va kompyuterlar bir-birini takomillashtirishi nafaqat ulkan miqyosli haqiqat, balki muvaffaqiyatli biznesni barpo etish yo'li hamdir. Men buni "PayPal"dan olgan shaxsiy tajribam asosida anglab yetdim. Bizning kompaniyamiz 2000-yillar o'rtalariga kelib, ya'ni "dot-com"lar "pufakcha"si yorilganidan so'ng tez sur'atlarda o'sdi. Ammo shu o'rinda

biz bir muhim muammodan xavotirga tushdik: kredit kartalari orqali qilingan firibgarlik ishlaridan oyiga 10 million dollardan ko'proq mablag' yo'qotdik. Bir daqiqada yuzlab va hatto minglab pul o'tkazmalarini amalga oshirib, ularning har birini jismonan kuzatib bora olmasdik.

Ta'kidlash joizki, hech qanday nazorat guruhi bunday tezlikda ishlashga qodir emas. Har qanday muhandislik jamoasi bizning o'rnimizda nima qilishi mumkin bo'lgan bo'lsa, biz ham shuni bajardik. Ya'ni biz avtomatlashtirilgan yechim topishga harakat qildik. Maks, avvalo, barcha soxta amaliyotlarni sinchkovlik bilan tahlil qiladigan yuqori malakali matematiklar guruhini yig'di. Keyin ularning ish natijalarini o'rganib chiqib, barcha soxta amaliy jarayonlarni ayni vaqt tartibi orqali avtomatik ravishda tanib olish va bekor qilishga qodir dastur yaratdik.

Biroq tez orada biz qo'llagan ushbu chora o'z-o'zidan ishlamasligi aniq bo'lib qoldi. Chunki bir-ikki soat ichida nima bo'layotgani haqida anglab yetgan firibgarlar darhol o'z yondashuvlarini o'zgartira boshladilar. Mazkur vaziyatga qanday qilib tezda moslashishni biladigan dushman bilan birga ish tutdik. Bizning dasturiy ta'minotimiz ulardan keyin moslasha olmadi. Tovlamachilar o'z hiyla-nayrangini o'zgartirib, bizning avtomatik kuzatuv algoritmimizni barmoqlari atrofida osongina aylantirishdi. Ammo ma'lum bo'lishicha, bizning vakil tahlilchilar osonlikcha aldanmaganini isbotladi. Maks va uning muhandislari dasturni gibrid yondashuv orqali qayta yozishdi va kompyuter eng shubhali amaliyotlarni yaxshi ishlab chiqilgan foydalanuvchi interfeysida belgilab qo'ydi. Natijada jismoniy operatorlar uning firibgar yoki firibgar emasligi to'g'risida yakuniy xulosani oldindan chiqarib oladigan bo'lishdi. Biz ushbu gibrid tizimga "Igor" deb nom berdik. Bu o'zi bilan hech qachon muomala qila olmasligimiz haqida maqtangan rus internet firibgarining nomi edi. Uning yordami bilan

2002-yilning birinchi choragida faoliyatimiz davomidagi ilk choraklik foydaga ega bo'ldik (bundan bir yil oldin biz ko'rgan zarar har chorakda 29,3 million dollarni tashkil etgandi). Federal qidiruv byurosi bizdan moliyaviy jinoyatlarni ochishda "Igor"dan foydalanish uchun ruxsat so'radi. Shunda Maks beparvolik bilan: "Elektron jinoyatchilar dunyosining "Sherlok Xolms»iga aylandim", – deb maqtandi va bu chindan ham haqiqat edi.

Inson va texnika o'rtasidagi ziddiyat aynan shu tarzda "PayPal"ning bozorda qolishiga imkon berdi. Bu esa o'z navbatida yuz minglab kichik savdogarlar uchun o'zlarining onlayn bizneslarini rivojlantirish borasida zarur bo'lgan to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini yaratdi. Agar inson va kompyuterning hamkorligi asosida yechim ixtiro qilinmagan bo'lsa, ko'pchilik hatto bunday narsani bilmasa, shuningdek, eshitmagan bo'lsa, ham, bularning hech biri sodir bo'lmaydi. Men 2002-yili "PayPal"ni sotganimizdan keyin bu haqda o'ylashda davom etdim: "Agar inson va kompyuterlar birga ishlagan holda ikkalasi alohida-alohida ishlaganidan ko'ra ko'proq samaraga erishsa, unda bu hamkorlik ortidan qanday ajoyib biznes yaratish mumkin!" Keyingi yil Stenforddagi sobiq sinfdoshim Aleks Karp bilan yangi startap haqidagi tasavvurimni o'rtoqlashdim. Odamlar kompyuterlar uchun terrorizm tarmoqlari va moliyaviy firibgarlarni topish maqsadida birgalikda ishlab, "PayPal" tomonidan tasdiqlangan xavfsizlik usulidan foydalanmoqchi edim. Biz FBR mazkur qurilmaga qiziqish bildirilishini bilgandik, shuning uchun ham 2004-yilda turli xil axborot manbalaridan eng ko'p ma'lumot olish imkonini beradigan "Palantir" dasturiy ta'minot kompaniyasini tashkil etdik. Kompaniyaning 2014-yildagi savdosi bir milliard dollardan oshadi, degan umiddamiz. "Forbes" bizning dasturiy ta'minotimizni "qotil dastur" deb ataydi, chunki mish-mishlarga ko'ra, aynan shuning bevosita yordami tufayli Usama bin Laden qaror topgan hududni aniqlashga

muvaffaq bo'lishgan. Ushbu tadbir haqida sizga hech narsa deya olmaymiz, lekin shaxsan o'zim na ayg'oqchilik tashkiloti xodimlari va na shaxsiy kompyuterlar bugun bizning xavfsizligimizni ta'minlay olmasligiga aminman.

AQSHning eng yirik ikkita ayg'oqchilik tashkiloti bir-birlariga zid usullarni qo'llashadi. Markaziy razvedka boshqarmasi tirik jismoniy shaxslar xizmatini afzal ko'radigan ayg'oqchilar tomonidan, Milliy xavfsizlik agentligi esa ko'proq kompyuterlarga ishonadigan generallar tarafidan boshqariladi. Markaziy razvedka boshqarmasi tahlilchilari aqlga sig'maydigan ma'lumot oqimlarini ko'rib chiqishlari kerak. Unda haqiqiy tahdidni aniqlash juda qiyin. Milliy xavfsizlik agentligi kompyuterlari ulkan hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga qodir, ammo barcha mashinalar singari ular ham shaxs terroristik hujumni qachon va qanday tartibda reja qilayotganini mustaqil ravishda aniqlay olmaydilar. "Palantir" ushbu ikkala kamchilikni ham muvozanatga keltira olishga qaratilgan. Bizning dasturlar davlat idoralari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni o'rganib chiqadi (masalan, radikal Yaman diniy rahbarlarining telefon qo'ng'iroqlari yoki terroristik unsurlar bilan bog'liq bo'lgan bankdagi hisob raqamlari) va professional tahlilchi xodimlar tekshirishi uchun eng shubhali ma'lumotlarni belgilab beradi.

"Palantir" tomonidan yaratilgan dasturlardan foydalangan holda terrorchilarni topishdan tashqari tahlilchilar quyidagi holatlarni aniqlab berishga qodir bo'ladilar: afg'on qo'zg'olonchilari bomba tashlamoqchi bo'lgan joyni taxmin qilish;

- tijorat ma'lumotlari bilan savdo qiladigan yuqori martabali insayderlarni javobgarlikka tortish; dunyodagi eng katta bolalar pornografiyasini tarqatish tarmog'iga barham berish;
- kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlariga oziq-ovqat orqali yuqadigan kasallik turlarini yo'q qilishda

ko'maklashish; hukumat va xususiy banklarga moliyaviy firibgarlik qilishga doir harakatlarni yaxshiroq aniqlash orqali har yili yuz millionlab dollar mablag' tejashga yordamlashish. Bularning barchasi zamonaviy dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi, ammo bu borada tahlilchilar, prokurorlar, akademiklar va moliyachilar bundan ham muhim o'rin tutadilar. Ularning faol ishtirokisiz dasturlar mutlaqo foydasiz bo'lib qolaveradi. Bugungi kunda mutaxassis vazifasi nimadan iborat ekanligi haqida o'ylab ko'raylik. Advokat shaxsiy qarashlarini turli-tuman tarzda ifodalab, o'z nuqtayi nazarini bayon etishi lozim. Uning so'zlari mijozga, qarshi tomonning advokatiga yoki sudyaga murojaat qilishiga qarab sezilarli darajada o'zgaradi.

Shifokorlar klinik holatni ko'rishlari va tibbiyot haqida juda kam ma'lumotga ega bo'lgan bemorlarga ushbu masalani zarur tarzda yetkazishlari kerak. Yaxshi o'qituvchi nafaqat o'z fanining mutaxassisi, balki o'zi uchun eng samarali bo'lgan o'qitish usullaridan foydalanib, mavzuni har bir talabning manfaatlariga mos keladigan tarzda tushunishi muhim ahamiyatga ega. Kompyuter ushbu vazifaning bir qismini o'z zimmasiga olishi mumkin, ammo ularni aql-zakovat bilan birlashtira olmaydi. Hatto eng ilg'or texnologiyalar ham huquq, tibbiyot, ta'lim sohasidagi mutaxassis o'rnini bosishi dargumon. Ammo ular keyingi bosqichda yaxshi natijaga erishish imkonini taqdim etadi. "LinkedIn" aynan shu ishni mutaxassis xodimlarni tanlab olish uchun qilgan. Kompaniya tashkil topgan 2003-yilda uning muassislari professional yollovchilardan o'z ishlarida eng muammoli nuqtalarni aniqlashni so'ramadilar. Ular kadrlarni qidirish va tanlab olishda to'liq mutaxassislarning o'rnini bosa oladigan dasturlarni yaratishga harakat qilishmadi. Ishga qabul qilish jarayoni detektiv va sotuvchi faoliyatining aralashmasidek go'yo. Siz nomzod haqidagi tavsiflarni diqqat bilan ko'rib chiqishingiz, uning moslashuvchanligi

va jamoada ishlash qobiliyatini baholashingiz, so'ngra ular orasidan eng umidlisini o'zingiz uchun ishlashga ishontira olishingiz lozim. Bu vazifalarning barchasini kompyuter orqali to'liq ado etish mutlaqo mumkin emas. Shu sababli "LinkedIn" ixtirochilari yollovchilarning ishlash uslubini o'zgartirishga qaror qilishdi. Bugungi kunda yollovchi mutaxassislarning 97 foizdan ortig'i "LinkedIn" va uning kuchli qidiruv tizimidan nomzodlarni ishga tanlashda unumli foydalanmoqda. Ushbu tarmoq mehnat bozorida o'zining shaxsiy nomlarini targ'ib etish uchun foydalanuvchi yuz millionlab mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. Agar "LinkedIn" o'z vaqtida yollash mutaxassislarni kompyuter dasturi bilan almashtirishga harakat qilganida edi, bugungi kunda bozor bunday kompaniyani sira tanimagan bo'lardi.


Kompyuter ilmi mafkurasi

Nega endi odamlar texnologiyalar ortidan vujudga keladigan ajoyib imkoniyatlarni o'tkazib yuborishadi? Bu jarayon maktab davrlaridanoq boshlanadi. Dasturiy ta'minot muhandislari inson kuchining o'rnini bosadigan loyihalar ustida ishlashga moyil, chunki bu ularga yaxshilab uqtirilgan. Akademiklar o'z obro'larini ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar orqali to'playdilar; ularning asosiy maqsadi maqolalar chop etish. Nashr etish degan tushuncha esa ma'lum bir intizom chegaralariga rioya qilishni anglatadi. Kompyuter olimlari uchun esa bu ba'zi vazifalarni kompyuterlarga yuklash orqali inson omilini kamaytirishni anglatadi. Hozirgi kunda kompyuter ilmining eng zamonaviy sohalariga nazar soling. «Kompyuterlashtirish» atamasi inson o'rnini bosish deb ataladigan tasvirini keltirib chiqaradi va uning tarafdorlari agar biz kompyuterlarga yetarli miqdordagi ma'lumotlarni taqdim etsak, ularni har qanday vazifani bajarishga o'rgatish mumkin deb hisoblashadi.

Netflix yoki Amazon ning har qanday foydalanuvchisi o'z-o'zidan kompyuterlashtirish jarayonini boshidan kechiradi. Ikkala kompaniya ham qurish va sotib olish tarixingizga asoslangan mahsulotlarni tavsiya qilish algoritmlaridan foydalanadilar. Ularni ko'proq ma'lumotlar va tavsiyalar bilan ta'minlasangiz, natijalar bundan ham yaxshiroq bo'ladi. Google Translate mazkur algoritmgacha o'xshash tarzda ishlaydi, mavjud 80 tilning har biriga qo'pol, ammo qulay tarjimalarni taqdim etadi, dasturiy ta'minot inson tilini tushunganligi uchun emas, balki ulkan matn tarkibini statistik tahlil qilish orqali namunalarni ajratib olganligi sababidan. O'zgarishga moyillikni aks ettiradigan yana bir trenddagi so'z bu katta hajmli ma'lumotlardir (Big data). Zamonaviy kompaniyalarning ma'lumotlarga nisbatan ishtahasi karnay, ammo ular ko'proq ma'lumot va ko'proq foyda keltiradi deb yangilishadi. Katta hajmli ma'lumotlar odatda «sun'iy zakovat» bo'ladi. Kompyuter odamlarni chalg'itadigan namunalarni topishi mumkin, ular turli manbalardagi namunalarni qay tarzda taqqoslashni yoki murakkab xatti-harakatlarni qanday sharhlashni bilishmaydi. Samarali g'oyalar faqat tahlilchi tomonidan (yoki faqat ilmiy fantastikada mavjud bo'lgan umumiyashtirilgan sun'iy intellekt tomonidan) ishlab chiqilishi mumkin.

Texnologiyani ekzotiklashtirganimiz sababligina biz katta hajmli ma'lumotlardan sehrlanib qoldik. Bizni faqatgina kompyuterlarning kichik yutuqlari hayratda qoldiradi, ammo bir-birini to'ldirishning ulkan yutuqlarini e'tiborsiz qoldiramiz, chunki ularning vahimali bo'lishida insonning hissasi juda kam bo'ladi. Watson, Deep Blue va undan ham yaxshiroq avtomatlashtirilgan algoritmlarga gap bo'lishi mumkin emas. Ammo kelajakdagi eng qimmatbaho kompaniyalar faqat kompyuterning o'zi bilan qanday muammolarni hal qilish mumkinligi bilan qiziqmaydi. Buning o'rniga, ular qanday qilib kompyuterlar murakkab muammolarni hal qilishda odamlarga yordam berishi mumkin deb savol beradilar.

Kompyuterlarning kelajagi, albatta, bir nechta noaniqliklarga to'la. Siri va Watson kabi tobora o'sib borayotgan aqlli antropomorflashtirilgan intellektual robotlar kelajak haqida bir nechta xabarlarini taqdim etishi odatiy holga aylandi. Kompyuterlar bizning barcha savollarimizga javob berishi bilanoq nima uchun bizga bo'ysunishlari kerakligini aniqlash mumkin. Ushbu almashuvchi fikrning mantiqiy nuqtasi «kuchli sun'iy intellekt» deb nomlanadi: har qanday umumiy yo'nalishlardagi inson mehnatini soyada qoldiradigan kompyuterlar. Albatta, ludditlar bu imkoniyatdan qo'rqishadi. Bu hatto futuristlarni ham biroz tashvishlantiradi. Kuchli AJ insoniyatni qutqara oladimi yoki yo'q, bunisi aniq emas. Texnologiya tabiat ustidan hukmronligimizni oshirishi va hayotdagi tasodif rolini kamaytirishi kerak. Kompyuterlarni odamlardan ko'ra aqlli qilish aslida qasos imkoniyatini kompyuterlarga taqdim etishi mumkin. Kuchli sun'iy intellekt kosmik lotereya chiptasiga o'xshaydi. Agar biz g'alaba qozonsak, utopiyaga ega bo'lamiz, agar yutqazsak, Skynet bizni hayotdan siqib chiqaradi. Hatto kuchli sun'iy intellekt ham aql bovar qilmaydigan jumboq emas, balki haqiqiy imkoniyat bo'lsa, ham, bu yaqin orada sodir bo'lmaydi. Kompyuterlar tomonidan insonlarning siqib chiqarilishi XXII asr odamlarini tashvishlantiradi. Uzoq kelajak haqida noaniq qo'rquvlar bugungi kun uchun aniq rejalar tuzishga to'sqinlik qilmasligi kerak. Ludditlarning ta'kidlashicha, biz hech qachon odamlarning o'rnini bosadigan kompyuterlarni yaratmasligimiz kerak. Telba futuristlar esa bu bizga kerak deb da'vo qilishadi. Ushbu ikkita pozitsiya bir-biriga mutlaqo o'ziga xos bo'lsa, ham, ikkalasi to'liq talabga javob bera olmaydi. Aqli raso odamlar uchun porloq kelajak qurish yo'lida kelgusi o'n yilliklar ichida yaxshi imkoniyat bor. Kompyuterlardan foydalanishning yangi usullarini o'ylab topganimiz sari, ular bizga ilgari tasavvur qilishning imkoni bo'lmagan narsalarni yaratishga yordam beradi.




Super sun'iy intellektning kelajagi

Monopoliya savoli

2006-yilda milliarder texnologik investor Jon Douyerr «yashil rangni yangi qizil, oq va ko'k ranglari uyg'unligi» ekanligini e'lon qildi. U qizil rangga to'xtalishi mumkin edi. Douyerrning o'zi aytganidek: «Internetning hajmi milliardlab dollarni tashkil qilyapti; energiya bozorlari esa trillionlarni». U yirik trillion dollarlik bozorlar shafqatsiz, qonli raqobatga to'la ekanligi haqida gapirmagan. Boshqalar Douyerrga qayta-qayta aks sado berishdi. Erik o'nlab aqlli tadbirkorlarning trillion dollarlik bozorlarning ertaknamo ekanligi haqidagi PowerPoint taqdimotlarini tomosha qilardi – eshitgan odam sehrlanib qolardi. Toza texnologiya rahbarlari energiya bozorining har biri kirib keluvchi uchun bag'rikengligiga urg'u berishdi. Lekin har bir kishi odatda o'z kompaniyasining afzalligi borligiga ishonib qoldi. 2006-yilda MiaSole quyosh batareyalari ishlab chiqaruvchi kompaniyasining bosh direktori Deyv Pirs kongress yig'ilishida uning kompaniyasi yupqa qatlamli quyosh batareyalari ishlab chiqarishning


o'ziga xos usulini qo'llaydigan bir nechta «juda kuchli» startaplardan biri ekanligini tan oldi. Bir necha daqiqadan so'ng Pirs Mia Sola ning bir yil ichida «dunyodagi eng yupqa qatlamli quyosh batareyalari ishlab chiqaruvchisi» bo'lishini bashorat qildi. To'g'ri, bu bashorat o'zini oqlamadi, ammo har holda, bu ularga mutlaqo yordam bermasligi ham mumkin edi. Yupqa qatlamli plyonka o'ndan ortiq quyosh batareyalarining faqat bir turi edi xolos. Mijozlar o'zining ma'lum bir muammosini hal qila olmasa, ma'lum bir texnologiyaga e'tibor qaratib o'tirmaydi. Agar siz kichik bozor uchun noyob yechimni monopollashtira olmasangiz, shafqatsiz raqobatga duch kelasiz. Bu 2013-yilda MiaSole bilan sodir bo'lgan, ya'ni kompaniya investorlar kiritgan sarmoyadan arzonroqqa sotib yuborilgan. O'ziga xos ekanligingizni bo'rttirish monopoliya savoliga yaxshi javob bo'la olmaydi. Aytaylik, siz umumiy ishlab chiqarish quvvati 100 megavatt bo'lgan yuzlab quyosh panellari sistemasini muvaffaqiyatli o'rnata oladigan quyosh batareyasi ishlab chiqaradigan kompaniyasi boshqarasiz. AQSHda quyosh energiyasining umumiy quvvati 950 megavatt bo'lganligi sababli siz bozorning 10,53 foiziga ega bo'lasiz. O'zingizni tabriklaysiz: siz o'yinchisiz.

Sizning kompaniya ishlab chiqargan quyosh panellarining umumiy quvvati 100 MVg




STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

Ammo AQSHning quyosh energiyasi bozori mos bozor bo'lmasa-chi? Sizga mos keladigan bozor, ishlab chiqarish quvvati 18 gigavatt bo'lgan global quyosh energiyasi bozori bo'lsa-chi? Endi 100 megavattningiz sizni juda kichik baliqqa aylantiradi. To'satdan siz bozorning 1 foizidan kamiga ega bo'lasiz.



Ammo biz uchun kerak bo'lgani global quyosh energiyasi emas, balki umuman qayta tiklanadigan energiya bo'lsa-chi? Yillik qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish dunyo bo'ylab 420 gigavattni tashkil qiladi. Siz shunchaki bozorning 0,02 foiziga ega bo'lasiz, xolos. Umumiy ishlab chiqarish quvvati 15000 gigavattga solishtirganda, sizning 100 megavattningiz bu dengizdan tomchi, xolos.



Toza texnologiya kompaniyalari tadbirkorlarining bozorlar haqidagi fikri chalkash edi. Ular o'z bozorlarini bir-biridan farqlanib turishi uchun ritorik ravishda qisqartirdilar, faqat ortga o'girilib ulkan foyda keltiradigan bozorlar asosida baholanishni talab qildilar. Ammo, agar bu xayolot mahsuli bo'lsa, siz bozorning bir qismini boshqara olmaysiz va ulkan bozorlar juda raqobatbardosh va qo'l yetmas darajada bo'ladi. Ko'pgina toza texnologiya kompaniyalari asoschilari Palo Alto markazida yangi Britaniya restoranini ochgani ma'qul edi.

Xalq savoli

Energiya muammolari muhandislik muammosi hisoblanadi, shuning uchun siz toza texnologik kompaniyalarini boshqaradiganlar orasida ayrim noshudlarni ko'rishingiz mumkin. Ammo siz yanglishgan bo'lib chiqasiz. Muvaffaqiyatsiz bo'lgan ishlar texnik omillarga daxldor bo'lmagan guruhlar tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu sotuvchi-ijrochilar kapitalni ko'paytirish va davlat subsidiyalarini olishda yaxshi tajribaga ega. Ammo ular xaridor sotib olmoqchi bo'lgan mahsulotlarni yaratishda

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

unchalik yaxshi ko'rsatkich qayd etmaganlar. Ta'sischi bilan fondida biz ushbu yaqinlashuvni o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Yaqqol ko'rinib turgan masala tekstil sohasi bilan chambarchas bog'liq edi. Texnologik rahbarlari kostyumlar va galstuk taqib yurishar edi. Bu juda ham bema'nilik, chunki haqiqiy texnologlar futbolka va jinsida yuradi. Shunday qilib ta'sischi yakuniy yig'ilish uchun maslahat majlisiga keladigandek kiyingan har qanday kompaniya rahbarini umumiy qoida ishdan bo'shatib yuborishni joriy qildi.



**TESLA ELECTRIC MOTORS ning bosh direktori
ILON MASK**



SOLYaNDRA ning bosh direktori BRIAN XARRISION

Agar ular har bir kompaniyaning texnologiyalari ustida batafsil baholash ishlarini o'tkazishga vaqt ajratgan bo'lganida, ehtimol salbiy investitsiyalardan qochgan bo'lishar edi. Ammo jamoaning ziyrakligi hech qachon kostyum kiygan bosh direktorga mablag' ajratmasligi, haqiqatni tezroq anglashga majbur qildi. Eng yaxshi savdolar yashirin bo'ladi. Bosh direktorning savdolarida aralashishi odatiy hol, lekin, agar u haqiqatan ham sotuvchiga o'xshasa, u sotuvda ham, texnologiyada ham no'noqlik bilan ish olib boradi.

Tarqatish savoli

Texnologik toza kompaniyalar hukumat va investorlardan juda xursand bo'lishdi, lekin ular ko'pincha mijozlar haqida unutishdi. Ular dunyo laboratoriya emasligining qiyin usulini bilib oldilar, mahsulotni sotish va yetkazib berish hech bo'lmaganda mahsulotning o'zi kabi muhimdir. Isroilning elektromobil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Batter Place startapidan 2007-yildan 2012-yilgacha elektromobillar uchun almashtirish mumkin bo'lgan batareyalar va quvvatlash stansiyalarini qurishga 800 million dollar sarflagan. Kompaniya «yuqori ifloslantiruvchi transport texnologiyalariga bog'liqligimizni kamaytiradigan yashil muqobilni» yaratishga intildi. Undan keyin, u bankrotlik to'g'risida ariza berishdan oldin kamida mingta mashina sota oldi. Shuncha mahsulotni sotish ham muvaffaqiyat belgisi hisoblandi, chunki xaridorlarga ushbu mashinalarni sotib olish juda qimmatga tushardi. Yangi boshlaganlar uchun aslida nimani sotib olayotganingiz muhim emasdi. Batter Place Renault-dan sedanlar xarid qildi va ularni elektr batareyalari va elektr motorlari bilan qayta jihozladi. Xo'sh, endi siz elektromobil sotib olasizmi yoki Batter Place sotib oldingizmi? Har qaysi holatda ham, ulardan birini sotib olishga qaror qilsangiz, bir qancha qiyin bosqichlarni bosib o'tishingiz kerak.

Birinchidan, Batter R1ase dan ruxsat olishingiz kerak. Buni olish uchun siz Batter Place dagi batareya almashtirish stansiyasiga yetarli darajada yaqin yashaganligingizni isbotlashingiz va oldindan aytib o'tilgan yo'nalishlarga rioya qilishga va'da berishingiz kerak. Agar siz ushbu sinovdan o'tgan bo'lsangiz, mashinangizni quvvatlash uchun yoqilg'iga obunasini rasmiylashtirishingiz kerak. Shundagina siz yo'lning o'rtasida batareya almashtirishni to'xtatishning yangi xatti-harakatlarini o'rganishni boshlashingiz mumkin bo'ladi. Batter Place o'z texnologiyasini nuqsonlardan xoli deb o'yladi, shuning uchun mahsulotni sotishga jon kuydirmadi. Kompaniyaning muvaffaqiyatsizligini aks ettirib, bir g'azablangan mijoz: «Nega Tel-Avivda 160 000 shekelga sotiladigan Toyota Prius va to'rt yil davomida yonilg'i uchun

160.000 dan ko'proq pul sarflanadigan ushbu mashinaning rasmini ko'rsatuvchi reklama taxtasi yo'q edi?» deb Batter Place ni so'roqqa tutdi. U mashinalardan birini sotib olgan, ammo ko'pchilikdan farqli o'laroq, «uni minishni davom ettirish uchun hamma narsaga tayyor» havaskor edi. Afsuski, uning davom ettira olmasligi kundek ravshan bo'lgan: Batter Place direktorlar kengashi ta'kidlaganidek, 2013-yilda kompaniya o'z aktivlarini 12 million dollarga sotganda: «Biz texnik muammolarni muvaffaqiyatli yengib oldik, ammo boshqa to'siqlarni yengib o'tolmadik» deb ta'kidlab o'tgandi.

Har bir tadbirkor o'z bozoridagi so'nggi harakatlanuvchi bo'lishni rejalashtirishi kerak. Bu o'z-o'ziga savol berish bilan boshlanadi: 10 va 20 yildan keyin dunyo qanday ko'rinishga ega bo'ladi va mening biznesim unga qanday moslashadi? Kamdan kam toza texnologiya kompaniyalari bunga ijobiy javob bera olishdi. Natijada, ularning barcha «ta'zianomalari» bir-biriga o'xshab qoldi. Evergreyen Solar, 2011-yilda bankrotlik e'lon qilinganidan bir necha oy oldin, AQSHda o'z zavodlaridan birini yopishga qaror qilganini quyidagicha izohlagan edi: «Xitoyning quyosh energiyasi ishlab chiqaruvchilari davlatning ulkan moliyaviy yordamiga

ega bo'lishdi. Garchi bizning ishlab chiqarish xarajatlarimiz hozirda rejalashtirilgan darajadan past va ko'pgina g'arb ishlab chiqaruvchilariga nisbatan pastroq bo'lsa-da, ular hali ham Xitoydagi arzon narxdagi rag'batchilarimizga qaraganda ancha yuqori».

Ammo 2012-yilgacha «Xitoyni ayblagan»lar haqiqatan ham portladi. Bankrotlik to'g'risidagi arizasini muhokama qilar ekan, AQSH Energetika vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "Abound Solar" Xitoyning quyosh energiyasi ishlab chiqaradigan kompaniyalari tomonidan qilinadigan agressiv narx siyosatini" aybladi, bu «startup kompaniya uchun dastlabki bosqichda hozirgi bozor sharoitidagi ko'lamini kengaytirishni qiyinlashtirdi» 2012-yilning fevral oyida quyosh panellarini ishlab chiqaruvchi energiyani qayta ishlash moslamalari muvaffaqiyatsizlikka uchraganida, u nafaqat Xitoyni press-relizda aybladi, balki uchta taniqli Xitoy quyosh paneli ishlab chiqaruvchisiga qarshi 950 million dollarlik da'vo qo'zg'adi. Solyrand ni bankrotlikka uchraganiga ishongan kompaniyalar shu yil oxirida monopollashtirish, fitna va shafqatsiz narxlarni bahona qilib sudga murojaat qilishdi. Ammo xitoylik ishlab chiqaruvchilarning raqobatini oldindan bashorat qilish mumkinmidi? Toza texnologiya kompaniyasining tadbirkorlari bozorda uzoq vaqt qolish masalasini qayta ko'rib chiqishdi va savol berishdi: Xitoyga mening biznesimni yo'q qilishi uchun nima to'sqinlik qiladi? Ushbu savolga javob bermasdan turib, natijani tasodifan kelib qolishini kutishdan foyda yo'q edi.

Bir xil turdagi ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishdagi raqobatni oldindan ko'ra olmaganidan tashqari, toza texnologiyalar energiya bozori haqida butunlay noto'g'ri taxminlarni qabul qildi. Parchalanishning kuchayishi qazib olinadigan yoqilg'ining kutilayotgan alomatlariga asoslangan sanoatga katta zarar keltirdi. 2000-yilda parchalangan

slanesdan AQSH tabiiy gazining atigi 1,7% ishlab chiqarilardi. Besh yil o'tgach, bu ko'rsatkich 4,1 % ga ko'tarildi. Biroq, toza texnologiya kompaniyalaridan hech kim bu tendensiyani jiddiy qabul qilmadi. Oldinga siljishning yagona yo'li – qayta tiklanadigan energiya edi; kelajakda qazib olinadigan yoqilg'ini arzonroq bo'lishi yoki toza bo'lib qolishini kutish mantiqsiz. Ammo ular shunday qildilarki, 2013-yilga kelib, slanesli gaz AQSH tabiiy gazining 34 foizini tashkil etdi, va 2008-yildan beri gaz narxi 70 foizdan ko'proqqa pastladi, bu eng ko'p qayta tiklanadigan biznes modellarini yo'q qildi. Parchalanish uzoq muddatli energiyaning yechimi bo'lmasligi mumkin, ammo uning paydo bo'lishini kutmagan toza texnologiyalar bilan shug'ullanadigan kompaniyalar uchun yetarli edi.

TESLA: 7.7 modeli uchun

Tesla so'nggi o'n yil ichida gullab-yashnagan bir nechta toza texnologik kompaniyalardan biridir. Bu kompaniya toza texnologiyalar orasida ijtimoiy shov-shuvni boshqalarga qaraganda yaxshiroq ko'tardi. Tesla texnologiyasi juda foydali bo'lganidan, boshqa avtomobil kompaniyalari ham ularning ehtiyot qismlaridan foydalanadi. Daimler Tesla batareyalaridan; Mercedes-Benz kompaniyasi Tesla transmissiyasidan; Toyota esa Tesla dvigatelidan foydalanadi. General Motors kompaniyasi TESLA ning keyingi qadamlarini kuzatib borish uchun ishchi guruhini tuzgan. Ammo Tesla kompaniyasining eng katta texnologik yutug'i – bu yakka qism yoki tarkibiy qism emas, balki bir nechta qismlarni bitta ustun mahsulotga birlashtirish qobiliyatidir. TESLA Model S sedani boshidan oxirigacha chiroyli tarzda ishlab chiqilgan: Consumer Reports uni boshqa har qanday mashinalardan yuqori qo'ygan hamda Motop Brend va Automobile jurnallari

uni «yilning eng yaxshi avtomobili – 2013» deb nomlashgan. 2009-yilda hukumat ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi, deb o'ylash tabiiy holat edi: «yaxshilash o'rinlari» siyosatning ustuvor yo'nalishi edi, federal mablag'lar allaqachon ajratilgan va Kongress katta yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan qonunni qabul qilganday tuyuldi. Ammo boshqalar saxiy subsidiyalarni abadiy davom etadi deb o'ylaganida, Tesla bosh direktori Ilon Mask oqilona tarzda buning bir marta berilishini anglagan. 2010-yilning yanvar oyida Solindra Obamaning hukmronligi davrida subsidiyalar berish masalasini siyosiyashtirgandan bir yarim yil oldin Tesla AQSH Energetika vazirligidan 465 million dollar qarz oldi. 2000-yillarning o'rtalarida yarim milliard dollar mablag' aqlga sig'maydigan darajada katta miqdor edi. Qulay sharoit bir marotaba tug'iladi va Tesla undan mukammal darajada foydalandi. Tesla o'zi boshqarishi mumkin bo'lgan bozorning kichik bir qismidan boshladi. Ya'ni Kolori sifatli sport elektromobillari bozoridan. Birinchi ikki o'rinli usti ochiq avtomobil ishlab chiqarish liniyasi 2008-yilda ishga tushgandan beri, Tesla ulardan atigi 3000 tasini sotdi, ammo ularning har biri 109 ming dollar qiymatga ega edi. Kichik bozordan boshlash TESLA biroz arzonroq Model S ni yaratish uchun zarur tadqiqot loyihalarni amalga oshirishga imkon berdi va hozirda Tesla hashamatli elektr sedanlari bozoriga egalik qiladi. 2013-yilda ular 20.000 dan ortiq sedanni sotishdi va endi Tesla kelajakda yanada kengroq bozorlarga chiqish uchun a'lo darajadagi imkoniyatga ega. Tesla so'nggi o'n yil ichida gullab-yashnagan bir nechta toza texnologiya kompaniyalaridan biridir. Tesla kompaniyasining bosh direktori mohir muhandis va sotuvchidir, shuning uchun u ikkala vazifani ham juda yaxshi bajaradigan jamoani yig'ganligi ajablanarli hol emas. Ilon Mask o'z xodimlarini quyidagicha ta'riflaydi: «Agar siz TESLA

kompaniyasida faoliyat olib boradigan bo'lsangiz, maxsus kuchlar ekvivalentida bo'lishni tanlaysiz. Bizda doimiy armiya mavjud, bu juda yaxshi, agar siz TESLA da ishlasangiz, o'z o'y-fikrlaringizni kreativ tarzda faollashtirishga qaror qilasiz».

Energiya 2.0

TESLA ning muvaffaqiyati ekologik toza texnologiyada hech qanday yomon narsa mavjud emasligini amalda isbotladi. Uning ostida yotgan eng katta tamoyil dunyo haqiqatan ham yangi energiya manbalariga muhtojligidir.

Energiya – bu eng muhim manba. Biz u orqali ovqatlanamiz, uy-joy quramiz va farovon hayot uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlanamiz. Dunyoning aksariyati bugungi amerikaliklar kabi qulay hayotda yashashni xohlaydi va agar biz yangi texnologiyalarni yaratmasak, globallashuv tobora jiddiy energiya muammolarini keltirib chiqaradi. Dunyoda eski yondashuvlarni ko'paytirish yoki farovonlikka olib boradigan yo'limizni qayta taqsimlash uchun yetarli mablag' mavjud emas. Ekologik toza texnologiyalar energiya kelajagiga optimizm bilan qarash imkonini berdi. Ammo noaniq optimistik sarmoyadorlarning energiya rejalari bo'lmagan toza energiya bilan moliyalashtiriladigan ekologik toza kompaniyalarning umumiy g'oyasini qo'llab-quvvatlaganlarida, natija pufakka aylandi.

1990-yillarda ulkan g'oya bor edi. Internet keng miqyosda ommalashadi. Ammo juda ko'p internet kompaniyalari bitta fikrni qo'llab-quvvatladilar, sababi boshqa fikrning o'zi yo'q edi. Agar o'z rejalari kichik miqyosda boshlanmasa, tadbirkor katta miqyosda foyda ko'rish mumkin emas. Toza texnologiyalar sohasida ishlaydigan kompaniyalar bir xil muammoga duch kelishdi: dunyo qancha energiya talab

qilmasin, faqat ma'lum bir energiya muammosini yecha oladigan mukammal yechimni taklif qiladigan kompaniya pul ishlashi mumkin.


Texnologik pufak toza texnologiyalarga qaraganda ancha katta bo'lgan, o'z navbatida, «portlash» ham yanada og'riqli kechgan. Ammo 90-yillarning orzusi haqiqat bo'lib chiqdi: ko'pchilik internet tarmog'i davriy nashrlarni, chakana savdo yoki kundalik ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirishini shubha ostiga olgan, ammo bugungi kunda ularning shubhasi safsata ekanligi oydinlashdi. Muvaffaqiyatli energiya startaplarini toza texnologiya halokatidan keyin (xuddi Web 2.0 startaplari dot.com xarobalari orasida muvaffaqiyatli ishga tushirilganidek) yaratish mumkinmi? Katta energiya yechimlariga bo'lgan ehtiyoj hali ham o'z kuchida. Ammo qiymatli biznes kichik bozorni egallab, unda o'z o'rnini topish bilan boshlanishi kerak.

Facebook faqat bitta korpus uchun yo'lga qo'yilgan xizmat sifatida boshlanib, so'ngra boshqa maktablar va butun dunyoga tarqaldi. Energiya yechimlari uchun kichik bozorlarni topish oson bo'lmaydi – siz olis orollar uchun quvvat manbai sifatida dizelning o'rnini bosishni yoki dushman hududlardagi harbiy inshootlarga tezkor joylashtirish uchun moduli reaktorlarni qurishni maqsad qilib qo'yishingiz mumkin. Ajablanarli tomoni shundaki, tadbirkorlar Energiya 2.0 ni yaratishning ahamiyatini haligacha tushunishmayapti.

Farq mexanizmi

Kimdir kuchli bo'lsa, kimdir zaif bo'ladi, ba'zilar daho bo'lsa, ba'zilar ahmoq bo'ladi, lekin ko'pchilik odamlar oraliqda bo'lishadi.


Paydo bo'lish chastotasi



Shaxsiy fazilatlar tarqalishining o'rtacha statistik ko'rsatkichlari


Ko'pgina ta'sischi ekstremal xususiyatlarga ega ekanliklari sababli, taxmin qilish mumkinki, faqat ta'sischiarning xususiyatlarini ko'rsatadigan sujet ikkala uchida ham ko'p sonli odamlar bo'lgan qalinroq «dum»larga ega bo'ladi.

Paydo bo'lish chastotasi



Yanada aniqroq taqsimlanishi


Ammo bu ta'rischilardagi eng g'alati xususiyatlarni o'zida aks ettirmaydi. Odatda, biz qarama-qarshi xususiyatlar o'zaro bog'liq bo'ladi deb taxmin qilamiz. Oddiy odam, bir vaqtda boy ham, kambag'al ham bo'la olmaydi. Ammo bu qoida ta'rischilarga kelganda o'z ahamiyatini yo'qotadi. Startap bosh direktorlari kambag'al bo'lishi mumkin, ammo ular qog'ozda millioner hisoblanishadi. Ular xiralashgan jirkanch va jozibali xarizma o'rtasida o'zgarib turishi mumkin. Muvaffaqiyatli ishbilarmonlarning deyarli barchasi ham tanish, ham notanish odamlardir. Ular muvaffaqiyatga erishganlarida, shon-sharaf va sharmandalikni birgalikda ko'tarib yurishadi. Ta'rischilarning xususiyatlari teskari normal taqsimotga o'xshash bo'ladi:



Jadval: Shaxsiy xususiyatlarining kompaniya asoschilari o'rtasida taqsimlanish

Ushbu g'alati va ekstremal xususiyatlarning kombinatsiyasi qayerdan kelib chiqadi? Ular tug'ma yoki inson muhiti sabab yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, ta'rischilar tashqaridan qaragandagidek kuchli bo'lmasligi mumkin. Ular ma'lum xususiyatlarni strategik jihatdan bo'rttira oladimi? Yoki boshqa hammani bo'rttirib ko'rsatadimi? Ushbu effektlarning barchasi bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi mumkin va ular mavjud bo'lganda bir-birlarini sezilarli

darajada kuchaytiradi. Siklodatda g'ayrioddiy odamlardan boshlanadi va undan ham g'ayrioddiy ko'rinishda tugaydi:



Misol sifatida milliarder, Virgin Group asoschisi ser Richard Bransonning. Uni tabiiy tadbirkor deb atash mumkin. Branson o'zining birinchi biznesini 16 yoshida boshladi va 22 yoshida u «Virgin Records»ga asos soldi. Ammo uning mashhurligining boshqa jihatlari, masalan, savdo belgisi bilan sherga taqildan soch turmagi tabiiydir. Siz u aynan shu ko'rinishda tug'ilmagan deb shubha qilishingiz mumkin. Branson o'zining boshqa ekstremal xususiyatlarini rivojlantirar ekan, OAV unga toj kiygizib qo'ydi: Branson – «Bokira Qirol», «Mutlaq piar qirol», «Breeding qirol» va «Chull va koinot qirol». «Virgin Atlantic Airways» yo'lovchilarga Bransonning yuzi shaklidagi muz kubiklari bilan ichimliklarni berishni boshlaganida, u «Muz qirol»ga aylandi. Branson ommaviy yaxshi piar jamoasi bilan ommaviy axborot vositalari yulduziga aylangan oddiy ishbiarmonmi? Yoki uning tug'ma brend dahosi jurnalistlar tomonidan tan olinganmi? Bu haqida biror nima deyish qiyin – ehtimol u ikkalasi hamdir? Yana bir misol, Shon Parker, u «itning keyingi oyog'i statusi bilan hammasini boshlagan jinoyatchidir. Shon ehtiyotkor o'rta maktab xakerlaridan


edi. Ammo uning otasi 16 yoshli bola kompyuter oldida o'tirishi kerak bo'lgan me'yordan ko'proq vaqt sarflayapti degan qarorga keldi. Shunday qilib, bir kuni u Shonning klaviaturasidagi o'rta xaker tugmasini olib qo'ydi. Shon tizimdan chiqa olmadi; natijada, FKB uni payqadi va tez orada federal agentlar tomonidan hibsga olindi. Shon voyaga yetmagani sababli osongina ozodlikka chiqdi; har holda, bu voqea unga dalda berdi. Uch yildan so'ng u Napster ga asos soldi. «Foydalanuvchilararo» («peer-to-peer») fayl almashish xizmati 10 million foydalanuvchini o'zida jamladi va bu uni eng tez rivojlanayotgan kompaniyalardan biriga aylantirdi. Ammo ovoz yozish kompaniyalari sudga murojaat qilishdi va federal sud kompaniya ochilganidan 20-oy o'tgach yopishni buyurdi. Shonli davrdan so'ng Shon yana «autsayder»ga aylandi. Keyinchalik Facebook paydo bo'ldi.

Shon Mark Sukerberg bilan 2004-yilda tanishgan, Facebook ni birinchi moliyalashtirish to'g'risida kelishib olishga yordam bergan va kompaniyaning asoschilaridan bo'lgan. 2005-yilda u giyohvand moddalar bilan bog'liq ayblovlar tufayli iste'foga chiqishiga to'g'ri keldi, ammo bu uning shon-shuhratini yanada oshirishga xizmat qildi. Justin Timberleyk ijtimoiy tarmoqda uning rolini aks ettirganligi sababli, Shon Amerikadagi eng mashhur odamlardan biri hisoblanadi. Justin Timberleyk undan mashhurroq bo'lsa, ham, u Silikon vodiysiga tashrif buyurganida, odamlar «Siz Shon Parkermisiz?» deb so'rashar edi. Dunyodagi eng mashhur odamlar ham ta'sischilardir, kompaniya bo'lmasa ham, har bir mashhur kishi shaxsiy brendini yaratadi va rivojlantiradi. Masalan, Ledi Gaga eng nufuzli odamlardan biriga aylandi. Ammo u haqiqiy odammi? Uning haqiqiy ismi maxfiy emas, ammo deyarli hech kim uning asl ismini Ma ekanligini bilmaydi yoki bilishni xohlamaydi. U kostyumlarni shunchalik g'alati tarzda kiyib olardiki, uni ko'rgan har qanday odam ruhiy kasallikka duchor bo'lish xavfi ostida qolardi. Gaga «xuddi shunday tarzda tug'ilgan»ligiga ishonishingizga majbur qiladi. Ammo hech kim boshida

shoxi bo'lgan zombi kabi tug'ilmaydi: shuning uchun Gaga o'zi tomonidan yaratilgan afsonadir. Yana kim bu ishni o'zi uchun qila oladi? Albatta, hech kim. Shunday qilib, ehtimol Gaga haqiqatan ham shunday tug'ilgandir.

Amerika qirollari

Mashhurlar o'zlarini «Amerika qirollari»dek tutishadi. Biz hatto sevimli ijrochilarimizga unvonlar ham tuhfa etamiz: Elvis Presli rok qiroli edi. Maykl Jekson esa pop qiroli. Britni Spirs mashhur malika deb ataladi. Elvis 70-yillarda o'zini o'zi ado qildi va yolg'iz, ortiqcha vazn bilan, hojatxonada vafot etdi. Bugungi kunda uning taqlidchilari oriq va yoqimli ko'rinishda emas, balki semiz va beso'naqaydir. Maykl Jekson vitiligo kasalligi tufayli terisining rangi o'zgarishi bois hamma uni oq tanli inson bo'lishni xohlagani uchungina operatsiya qildirdi deb uni dunyo aybladi, yana bu kamlik qilganday, u bolalarga bo'lgan muhabbati tufayli yomon tushunchalarga duchor bo'ldi, dunyo uning boshiga tushgan tafsilotlaridan zavqlandi. Aslida Maykl Jekson haqida tarqalgan 100% ma'lumotlardan 96.7%i o'rinsiz edi, shunchaki uning erishgan yutuqlarini ko'pchilik ko'ra olmadi. Shu sababli uning ustidan noreal bo'xtonlar ag'darishdi. Britni Spirsning voqeasi ular orasida yanada dramatikligi bilan ajralib turadi. Biz uni noldan ulug'vor yulduz darajasiga ko'tarilgan afsona sifatida bilardik. Ammo keyin hammasi relsdan chiqib ketdi: taqir bosh, ovqatlanishdan oldingi va keyingi janjallar, shuningdek, bolalarini olib ketishlari uchun keng ommaga oshkor qilingan. U azaldan telba edimi? Yoki bu unga endi yetib kelganmidi? Yoki u bularning barchasini ko'proq mashhur bo'lish uchun qilganmidi? Ba'zi omma e'tiboridan chetga chiqqan yulduzlarni o'lim «tiriltiradi». 27 yoshida juda mashhur musiqachilar vafot etgan, masalan, Jenis Joplin, Jimi Xendriks, Jim Morrison va Kurt Kobeyn – bu to'plam «27-klub» sifatida abadiylashtirildi.



Elvis Presli
(rok qirol)



Maykl Jekson,
2008-yil, sud jarayonida
(Pop qirol, xerografiya, XX asrning
eng qudratli musiqachisi)

Ular o'lmas «Klub 27»ni yaratish uchun yetarli edilar. 2011-yili ushbu klubga qo'shilishdan oldin Emmi Uaynxaus shunday kuyladi: "Ular meni rehabilitatsiya markaziga tiqishga urinishdi, men: "Yo'q, yo'q, yo'q! Lekin o'lmaslik tomon qadam qo'yish imkoniyati, balki, shudir", – dedim". Ehtimol, tosh xudosiga aylanishning yagona imkoniyati yoshlikda o'lishdir. Biz ham kezi kelganda navbat-navbati bilan yangi texnologiya yaratuvchilarini maqtaymiz, ba'zida esa xo'rlaymiz. Bamosoli kino va estrada yulduzlari kabi. Shuhrat cho'qqisidan eng baxtsiz holda xandaqqa qulab tushgan Govard Xyuzning taqdiri XX asrning kashshof muhandislari orasida eng dramatik hodisalardan biridir. U boy oilada tug'ilgan, ammo uni hashamatli hayotdan ko'ra ko'proq muhandislik olami o'ziga jalb etdi. U 11 yoshida Xyustondagi birinchi radio uzatgichni yaratdi va oradan bir yil o'tib, shahardagi ilk mototsiklni yig'di. 30 yoshga kelib, Gollivud eng yangi texnologiyalarni amaliyotga faol tatbiq etayotgan bir davrda, u tijorat yo'nalishidagi to'qqizta omadli filmlarni ekranlarga chiqardi. Ammo Xyuz aviatsiya sohasida o'zining parallel ravishdagi faoliyati bilan yanada mashhur edi. U samolyotlar ishlab chiqardi, ularni yig'di va o'zi bu ishlarning boshida turdi. Xyuz parvoz tezligi bo'yicha ham jahon rekordini o'rnatdi.

O'sha paytda qit'alararo parvozni juda tez amalga oshirdi va butun dunyo bo'ylab eng tez parvoz qildi. U o'zini yunon xudosi deb emas, balki oddiy odam ekani haqida gapirishni yaxshi ko'rardi. U ana shunday bayonotlar orqali o'zini go'yoki xudolar bilan taqqoslashni so'raganga o'xshaydi. Bir vaqtlar uning advokati federal sudda aytganidek: "Xyuz shunday insonki, siz va meni cheklaydiganlar unga odatdagi qoliplarni qo'llay olmaydi!? Albatta, Xyuz bu so'zlar uchun advokatga yaxshi haq to'lagan, ammo "New York Times" qayd etganidek, «bu borada na sudya va na hakamlar hay'ati tomonidan hech qanday e'tiroz bildirib o'tilmagan". 1939-yili Xyuzga Kongressning "Aviatsiyada erishgan yutug'i uchun" oltin medali berilishi yuzasidan e'lon qilingan qarorga qaramay, u mukofotni olish uchun kelishni xayoliga ham keltirmagan. Oradan ko'p yillar o'tgach, Prezident Trumen Oq uyda medalni tasodifan topib olib, uni pochta orqali egasi, ya'ni Xyuzga yuborgan. Xyuz uchun intihoning boshlanishi 1946-yilda yuz bergan. Eng dahshatli aviahalokat uni hayotidagi uchinchi falokat ko'chasiga olib kirgan kundan hisoblanadi.

Agar u o'sha paytda vafot etganida edi, barcha zamonlarning eng jasur va omadli amerikalik insonlaridan biri sifatida abadiy eslanib yurardi. Ammo u ming mashaqqat evaziga bo'lsa-da, omon qoldi. U o'shandan beri obsessiv kompulsiv deb ataluvchi bemaza darddan aziyat chekadi, jamoat oldida ko'rinish bera olmaydi. Hayotining so'nggi 30 yilini ixtiyoriy ravishda yolg'iz kamerada o'tkazmoqda. Xyuz har doim biroq aqlsizroq bo'lgan, shu bois u: "Kim ham aqldan ozgan odamni bezovta etishga tavakkal qila oladi", – deb hisoblagan. Afsuski, «aqldan ozgan odam" bo'lishni to'xtatib, haqiqiy ahmoq inson hayotini yashay boshlaganida yon-atrofdagi kishilar unga hurmat bilan emas, balki ko'proq rahm-shafqat tuyg'ulari ila munosabatda bo'lishga kirishadilar.

Microsoft qilingan qonun hujumi Bill Geytsning hukmronligi bilan yakunlangani kabi, Stiv Jobsning Arr1e ga qaytishi

kompaniya asoschisining ajralmas qadriyatlarini namoyish etdi. Bir jihatdan Stiv Jobs va Bill Geyts bir-biriga raqib edilar. Jobs san'atkor edi, u yopiq tizimlarni afzal ko'rardi va vaqtini raqobatchilaridan ustun bo'lgan mahsulotlar yaratish to'g'risida o'y surish bilan o'tkazardi; Geyts esa tadbirkor edi, mahsulotlarini ochiq tutardi va dunyoni boshqarishni xohlardi. Ammo ikkalasi ham insayderlar autsayderlar edilar va ikkalasi ham o'zlari asos solgan kompaniyalarni hech kim bilan solishtirib bo'lmaydigan yutuqlarga undashdi. Yalangoyoq yurgan va dush qabul qilishdan bosh tortgan kollej bitiruvchisi Jobs ham shaxsga sig'inishning izdoshi bo'lgan. U ehtimol kayfiyatiga yoki hisob-kitoblariga ko'ra o'zini xarizmatik yoki aqldan ozgan holda tutishi mumkin edi; faqatgina olma parhezi kabi g'alati amaliyotlar katta strategiyaning bir qismi emasligiga ishonish qiyin edi. Ammo 1985-yilda bu g'alati kunga qarshi chiqdi: Apple boshqaruv kengashi rahbarlarni nazorat qilish uchun olib kelingan professional bosh direktor bilan ziddiyatga duch kelgan Jobsni o'z kompaniyasidan haydab yubordi.


12 yildan so'ng Jobsning Arr1e ga qaytishi shuni ko'rsatadiki, biznesdagi eng muhim vazifa yangi qadriyatlarni yaratish – bu esa o'z navbatida formulaga moslashishi va professionalar tomonidan qo'llanilishi mumkin emas. 1997-yilda Jobs Apple kompaniyasining vaqtinchalik bosh direktorii lavozimiga ishga qabul qilinganida, unga qadar ishlagan rahbarlar kompaniyani deyarli bankrotlikka olib kelgan edi. O'sha yili Maykl Dell Apple haqida shunday dedi: «Men nima qilgan bo'lardim? Men uni yopib, pulni aksiyadorlarga qaytarib berardim. Buning o'rniga Jobs 2011-yilda sog'lig'i yomonlashgani sababli iste'foga chiqishiga qadar, iPod (2001), iPhone (2007) va iPad (2010) ni taqdim etdi. Keyingi yilga kelib Apple dunyodagi eng qimmat kompaniyaga aylandi. Arr1e ning qiymati bir kishining tasavvuriga bog'liq. Bu yangi texnologiyalarni yarata-digan kompaniyalar, odatda zamonaviyroq bo'lgan tashki-

lotlarga emas, balki feodal monarxiyalarga o'xshab ketishiga ishora qiladi. Daho ta'asischi nufuzli qarorlar qabul qilishi, kuchli shaxsiy sadoqatni uyg'otishi va keyingi o'n yilliklarni rejalashtirishi mumkin. Ajablanarlisi shundaki, malakali mutaxassislar tomonidan olib boriladigan shaxsi noma'lum byurokratiya raqobatchilariga qaraganda ko'proq umr ko'rishini mumkin. Bizga ta'asischilar kerak. Qanday bo'lmasin, bizga g'alati yoki ekstremal bo'lib ko'rinadigan muassislarga nisbatan bag'ri kengroq bo'lishimiz zarur; oddiy kompaniyalardan ustun turadigan kompaniyalarni boshqarish uchun bizga favqulodda daho odamlar kerak.


Ta'asischilar uchun beriladigan qimmatli saboq shuki, individual obro'-e'tibor va mish-mishlar bilan hech qachon zavqlanib bo'lmaydi, faqat, har qanday vaqtda ularning ko'zini yog' bosganlik va iblislashuv almashtirishi bundan mustasno, shuning uchun ehtiyot bo'ling. Birinchidan, shaxs sifatida o'z kuchingizga yuqori baho bermang. Ishlari qiymatga ega bo'lganligi uchun emas, balki o'z kompaniyasida har bir kishidan eng yaxshi jihatlarni to'plab chiqib, mislsiz piyalarni amalga oshirgani sababli, muassislar ahamiyatga egadir. Bizga barcha xususiyatlarga ega alohida ta'asischilar kerakligi bu bizni ayni Randianni atrofdagi har bir kishidan mustaqil deb da'vo qiladigan «eng yaxshi harakat qiluvchilar»ga sig'inishga da'vat etilganligimizni anglatmaydi. Shu nuqtayi nazardan, Rand shunchaki o'rta miyona yozuvchi edi. Uning zolim personajlari hayotiy edi, ammo ijobiy qahramonlari soxta edi. Galt darasi mavjud emas. Jamiyatdan ajralish degan tushuncha yo'q. Sizga ilohiy o'zini o'zi taqdim etishiga ishonish bu kuchli odamning belgisi emas, balki ko'pchilikning ibodatini hatto qabul qilgan yoki masxara qilgan odamning belgisi. Ta'asischi oldida turgan yagona katta xavf uning o'z afsonasiga shunchalik ishonishi bo'lib, natijada aqldan ozishi hech gap emas. Ammo har bir biznes uchun bir xil darajadagi xavfli tug'diradigan narsa bu donishmandlik uchun afsona va xato umidsizligini yo'qotib qo'yish hissidir.

Turg'unlikmi yoki yakkalik?

Hattoki eng ko'zga ko'ringan ta'asischilar g'am keyingi 20-30 yilni rejalashtira olmasalar, juda uzoq kelajak haqida biron-bir gap deyish mumkinmi? Biz maxsus narsani bilmaymiz, ammo keng konturlarni ajrata olamiz. Faylasuf Nik Bostrom insoniyat kelajagi uchun turfa ehtimoliy namunani tasvirlaydi. Qadimgi odamlar butun boshli tarixni gullab-yashnash va vayronagarchilik o'rtasidagi o'zgarimas muqobil sifatida ko'rishgan. Yaqin o'tmishga kelibgina odamlar biz baxtsizlikdan abadiy xalos bo'lamiz deb umid qilishga jur'at etdilar va haligacha biz kutgan barqarorlik davom etadimi, deb hayron bo'lishingiz mumkin.




Biroq, biz odatda shubhalarimizga barham beramiz. Odatiy donolik, butun dunyo bugungi kunda eng boy mamlakatlar hayotiga o'xshash rivojlanish cho'qqisiga yaqinlashishini taxmin qiladi. Bunday holda, kelajak hozirgi holat bilan juda o'xshash bo'ladi.




Barqarorlik

Zamonaviy dunyoning o'zaro bog'langan geografiyasi va zamonaviy qurollarning misli ko'rilmagan buzg'unchi kuchini hisobga olgan holda, katta miqyosdagi ijtimoiy ofat sodir bo'lishi mumkinmi yoki yo'qmi deb savol berish juda qiyin. Uchinchi ssenariy haqidagi qo'rquvimizni qondiradigan narsa shundan iborat: inqiroz shu darajada tashvishlanarliki, biz omon qola olmaymiz.



Jadval. Yo'q bo'lib ketish.

Oxirgi mavjud to'rt ta imkoniyatdan eng qiyini tasavvur qilish: yaxshiroq kelajakka parvozni tezlashtirish. Bunday kashfiyotning yakuniy natijasi bir nechta shakllarni olishi mumkin, ammo ularning har biri hozirgi paytdan shunchalik farq qiladiki, buni tasvirlab bo'lmaydi.



Jadval. O'zgarish.

Davriy qulab tushish ehtimoldan uzoqdek tuyuladi. Sivilizatsiyaga asoslangan bilimlar bugungi kunda shunchalik keng tarqalganki, to'liq darajada qilish, tiklanish bilan davom etadigan uzoq vaqt qorong'ulikka qaraganda ko'proq ehtimollik bilan yuzaga keladi. Biroq, yo'q bo'lib ketish xavfi yuzaga kelsa ham, ular inson kelajagi haqida o'ylamaydilar. Agar biz kelajakni hozirgi vaqtdan farq qiladigan davr sifatida belgilasak, ko'pchilik kelajakni umuman kutmaydi; buning o'rniga ular kelgusi o'n yilliklarda ko'proq globallashuv, yaqinlashuv va bir xillik yuz berishini kutadilar. Ushbu ssenariyda kambag'al davlatlar boy mamlakatlar bilan to'qnash kelishadi va butun dunyo iqtisodiy cho'qqiga yetadi. Haqiqatan ham globallashgan, chunki mavjud bo'lsa, ham, oxirigacha

davom etaveradimi? Agar vaziyat yaxshi bo'lsa, iqtisodiy raqobat sayyoradagi har bir odam va kompaniya uchun har qachongidan ham qizg'inroq bo'ladi. Biroq, cheklangan resurslarni iste'mol qilish uchun raqobatga qo'shilsangiz, global cho'qqining abadiy davom etishini taxmin qilish qiyinlashadi.

Raqobat bosimini yengillashtiradigan yangi texnologiyalarsiz turg'unlik mojaroga sabab bo'lishi mumkin. Mabodo global miqyosdagi mojarolar kelib chiqsa, turg'unlik yo'qlik qa'riga singish uchun ham sabab bo'la oladi. Bu biz yangi texnologiyalarni yaratib, kelajakni yanada yaxshilashimiz mumkin bo'lgan to'rtinchi ssenariyni qoldiradi. Ushbu natijaning eng dramatik versiyasi «singularitarlik» deb nomlanadi, bu yangi texnologiyalarning xayoliy natijasini bizning tushunish chegaralarimizdan chiqib ketadigan darajada kuchli deb atashga urinishdir. Rey Kurzveil, eng mashhur singularitar, Mur qonunidan boshlab va o'nlab sohalarda ko'rsatkichli o'sish tendensiyalarini kuzatib, g'ayri tabiiy sun'iy intellektning kelajagini ishonch bilan bashorat qilmoqda.

Kurzveilning so'zlariga ko'ra, «Singularitarlik – yaqin, muqarrar va biz qilishimiz kerak bo'lgan narsa – uni qabul qilishga tayyorlanishdir». Ammo har qancha tendensiyaning kuzatish mumkin bo'lishidan qat'i nazar, kelajak o'z-o'zidan kelib qolmaydi. «Singularitarlik» bugungi kunda ikkita ehtimoliy ssenariy o'rtasidagi keskin tanlovdan muhim bo'lmagan narsalarga o'xshaydi: hech narsa yoki nimadir bu bizga bog'liq. Kelajak yaxshiroq bo'lishini biz oldindan ayta olmaymiz, demak, uni yaratish uchun bugun ishlashimiz kerak. Kosmik miqyosda singularitarlikka erisha olamizmi yoki yo'q, bu o'z shaxsiy hayotimizda yangi narsalarni qilishimiz kerak bo'lgan noyob imkoniyatlardan foydalanishimizdan ko'ra muhimroq emas. Biz uchun muhim bo'lgan hamma narsa – koinot, sayyora, mamlakat, kompaniya, hayot va ayni

daqiqa yagonadir. Bizning bugungi vazifamiz kelajakni nafaqat o'zgacha, balki yaxshiroq qilish uchun – A nuqtadan B nuqttagacha borish uchun – yangi narsalarni yaratishning original usullarini o'ylab topishdir. Eng muhim birinchi qadam – bu o'zingiz haqida o'ylashdir. Dunyomizni eng qadimgi odamlar kabi yangi va g'aroyib bo'lgan yangi dunyoni qurganimizda, biz uni qayta yaratib, kelajak uchun saqlab qolishimiz mumkin.

Baho

Dastlab, startap bu shunchaki qog'ozdagi rejadir. Unda kompaniya qancha mijozni jalb qilishni kutayotgani, qancha pul sarf qilishi, qancha daromad va qancha foyda keltirishi haqida bashoratlar mavjud. Ammo bu, odatda, startapning boshlang'ich yillarida o'zini topadigan haqiqiy vaziyatdan juda uzoqdir. Startapning vazifasi – bu hozir qayerda ekanligini aniq kuzatish, bu nimani anglatishini tushunish va real ko'rsatkichlarni biznes rejada aks etgan idealga qanday yaqinlashtirishni aniqlaydigan tajribalarni ishlab chiqish. Deyarli barcha mahsulotlar, hatto muvaffaqiyatsiz bo'lganlari ham kamida ba'zi foydalanuvchilarni jalb qilishadi. Ular kamida minimal o'sishga va ba'zi ijobiy natijalarga ega. Ammo startap uchun eng katta xavf-xatarlardan biri bu o'zini tirik o'liklarning yurtida topishdir. Startap asoschilari va xodimlari tabiatan optimistlardir. Biz nima bo'lishidan qat'i nazar o'z g'oyalarimizga ishonishni xohlaymiz. Shuning uchun qat'iyatlilikning afzalliklari haqidagi afsona juda xavflidir. Biz hammamiz g'alaba qozonishga muvaffaq bo'lgan tadbirkorlarning epik hikoyalari eshitdik, garchi butun dunyo ularga qarshi bo'lgan bo'lsa, ham. Afsuski, oxirigacha turib olgan va oxir-oqibat o'z kompaniyalarini yo'ldan ozdirgan son-sanoqsiz noma'lum qahramonlar haqida hech kim gapirmaydi.

Hammasini o'zgartiradigan raqamlar

Ko'pchilik statistika va hisobotlar asosan moliyaviy hisobotni tayyorlash va auditorlik tekshiruvidan omon qolish uchun zarur bo'lgan quruq va zerikarli narsa deb bilishadi. Bu muqarrar yovuzlikning bir turi. Ammo biz faqat shunday o'ylaymiz, chunki biz hisobotni oddiy narsa deb bilamiz. Tarixga ko'ra GM (General Motors) kompaniyasining Alfred Sloan singari odamlari rahbarligi ostida hisobdorlik katta bo'linmalarning markazlashtirilgan boshqaruvida markaziy elementga aylandi. GM har bir bo'lim uchun aniq maqsadlarni belgilashga imkon berdi va ushbu bo'limlarning rahbarlarini ularni bajarish uchun javobgar qildi. Barcha zamonaviy korporatsiyalar ushbu yondashuvning ba'zi bir versiyasidan foydalanadilar.

Hisobot bu ularning muvaffaqiyati garovidir. Afsuski, standart hisobot boshlang'ich muvaffaqiyatini o'lchash uchun juda ozlik qiladi. Uning faoliyatida rejalar tuzish va bashorat qilish, odat tusiga kirishi uchun hamma narsani oldindan aytib bo'lmaydi. Yaqinda Erik Ris fenomenal startap kompaniyasi bilan uchrashdi. Uning mablag'lari yetarli, mijozlari ham yetarli va tez o'sib bormoqda edi. Uning mahsuloti yirik kompaniyalar bilan iste'molchilarni marketing usullaridan foydalanadigan korxonalar uchun dasturiy ta'minotning yangi toifasida yetakchi hisoblanadi. Masalan, CIO yoki CIO ga yo'naltirilgan an'anaviy savdo jarayoni o'rniga virusni ko'paytirish usuli – xodimdan xodimga o'tishi. Natijada, ushbu startap zamonaviy tajriba usullaridan foydalanishi va o'z mahsulotini doimiy ravishda takomillashtirishi mumkin. Uchrashuv davomida Erik jamoa a'zolariga har doim startap asoschilari beradigan oddiy savolni berdi: «Sizning mahsulotingiz yaxshilanayaptimi?» Ular har doim «Ha» deb javob berishadi. Keyin Erik: «Siz bu haqda qayerdan bilasiz?» Har safar u bir xil javobni

oladi: «Xo'sh, biz rivojlanmoqdamiz va bu oyda juda ko'p o'zgarishlar qildik, bizning mijozlarimizga ular yoqadi deb o'ylaymiz va bu oyda umumiy ko'rsatkichlarimiz yaxshilandi. Biz to'g'ri yo'ldamiz deb o'ylaymiz». kabi javoblar. Bu odatda boshlang'ich kengash yig'ilishlarida eshitiladigan spekulatsiya.

Vaziyatni xuddi shu tarzda baholashni rejalashtiramiz, mahsulot ishlab chiqaramiz, ehtimol bir nechta foydalanuvchilar bilan suhbatlashamiz va mijozlar bazasi uchun raqamlar o'sib borayotganligini ko'rib chiqamiz. Afsuski, bu startap muvaffaqiyatining eng yaxshi ko'rsatkichidan yiroq. O'zgarishlarimiz natijalarimiz bilan qandaydir bog'liqligini qanday bilishimiz mumkin? Eng muhimi, biz ushbu o'zgarishlarni to'g'ri tushunganimizni va talqin qilayotganimizni qayerdan bilamiz? Ushbu savollarga javob berish uchun boshlang'ich tashkilotlarga innovatorlar uchun maxsus ishlab chiqilgan yangi turdagi hisoboti kerak. Bu innovatsion buxgalteriya hisobidir.

Miniaturadagi uncha katta bo'lmagan startap

Genri Ford – barcha zamonlarning eng muvaffaqiyatli va taniqli tadbirkorlaridan biri. Menejment g'oyasi avtomobilning birinchi kunlaridan boshlab tarixi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, Erik avtomobilni startap uchun metafora sifatida ishlatish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Ichki yonish dvigatelining ishlashida ikkita muhim va juda farqli teskari aloqa sikli mavjud. Birinchi qayta aloqa sikli dvigatelning chuqur ichida joylashgan. Genri Ford mashhur bosh direktor bo'lishidan oldin muhandis edi. U kecha-yu kunduz o'z garajida dvigatel silindrlarini harakatga keltiradigan aniq mexanik tuzilmani qidirib tajriba o'tkazadi. Silindr ichidagi har bir mikro portlash g'ildiraklarni aylantiradigan energiya hosil qiladi va shu bilan keyingi mikro portlash uchun uchqun hosil qiladi. Agar ushbu siklning fazalari aniq ishlamasa dvigatel

to'xtab qoladi. Startapda ham shunday dvigatel mavjud. Biz buni o'sish mexanizmi deb ataymiz. Startapda bozorlar va mijozlar o'zgacha bo'lishi mumkin. Bir qarashda, o'yinchoq ishlab chiqaradigan kompaniya, konsalting firmasi yoki yirik fabrikaning umumiy jihatlari unchalik ko'p emas, lekin ularning barchasi bir xil o'sish mexanizmiga ega. Mahsulotning har bir yangi versiyasi, har bir yangi xususiyati va har bir yangi marketing dasturi ushbu mexanizmni takomillashtirishga urinishdir.

Genri Fordning garajdagi tajribalari singari, bu urinishlar har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Yangi mahsulotning rivojlanishi bosqich va chegaralangan ravishda sodir bo'ladi. Startap hayotidagi ko'p vaqt mexanizmni o'rnatishga sarflanadi, ya'ni mahsulot marketingini yoki uning faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi. Avtoulodvagi ikkinchi teskari aloqa sikli haydovchi va rul o'rtasida sodir bo'ladi.

Ushbu mulohaza bir zumda va avtomatik tarzda amalga oshiriladi, biz bu haqda deyarli o'ylamaymiz. Ammo bu avtomashinani boshqa transport turlaridan ajratib turadigan boshqaruvning mavjudligini isbotlaydi. Agar siz har kuni o'zingizning mashinangizni ish joyiga haydasangiz, siz marshrut yo'nalishlarini shu qadar yaxshi o'rganasizki, sizning qo'llaringiz sizni o'zingizning idorangizga olib borib, rulni o'z-o'zidan «aylantirgandek» ko'rinadi. Ammo, sizdan ko'zingizni yumib, sizning ofisingizga yetib borguncha bo'lgan ko'cha belgilaridan tashqari, sizning har bir qo'llaringiz bilan ruldagi va oyoqlaringiz bilan pedaldagi harakatlaringizni aniq yozishingizni so'rashsa, siz buni imkonsiz deb aytasiz. O'ylab ko'rsangiz, avtoulovni boshqarish xoreografiyasi nihoyatda murakkab.

Ishga tushirish paytida aniq ko'rsatmalar talab qilinadi: har bir qadam, har bir kuchaytiruvchi operatsiya va yo'nalishdagi har bir o'zgarish oldindan rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Ishga tushirish paytida eng kichik xato halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Afsuski, startap

biznes-reja mualliflarining harakatlari mashinani haydash o'rniga raketani uchirishga o'xshaydi. Ular amalga oshiriladigan qadamlarni va kutilgan natijalarni aql bovar qilmaydigan darajada rejalashtiradi. Ular xuddi raketa uchirishga harakat qilayotgandek reja tuzadilar, bashorat qilishdagi kichik xatolar ham falokatga olib kelishi mumkin.

Erik bir vaqtlar kompaniyaning yangi mahsulotlaridan biri iste'molchilar orasida ommalashishini bashorat qilgan kompaniya bilan ishlagan, u yerda millionlab yangi mijozlar kutilayotgan edi. Kuchliishga tushishdan ruhlangan kompaniya o'z rejasini amalga oshirishni boshlaydi. Afsuski, ushbu mahsulot uchun navbatlar ketma-ketligining strukturasi qo'yilmagan edi. Bundan tashqari, mijozlar oqimiga dosh berish uchun kompaniya nomuvofiq infratuzilmani barpo etdi, natijada kompaniya qo'shimcha xodimlar yollashga majbur bo'ldi va texnik yordamga mablag' kiritdi. Iste'molchilar oqimi hali aniq bo'lmagan vaziyatda kompaniya o'z rejasini amalga oshirishga shunchalik berilib ketganki, vaziyatga o'z vaqtida moslasha olmadi.

Shunday qilib, kompaniya inqirozga yuz tutdi – aynan yuqoridagi rejalarga amal qilgan holda, u haqiqatan ham yashab qola olmadi. Erikning yondashuvi sizga startapingizni xuddi mashinaday boshqarishni o'rgatishdir. Taxminlarga asoslanib murakkab rejalar tuzish o'rniga, siz rulni ozgina burish bilan doimiy to'g'ri sozlash ishlarini amalga oshirishingiz mumkin. Bunga «yaratish-o'lchov-o'rganish» teskari aloqasi deyiladi. Ushbu «mashina haydash» jarayoni orqali siz keskin burilish kerakmi yoki tanlangan yo'nalishda haydashni davom ettirish yaxshiroqmi yoki yo'qligini bilib olasiz. Dvigatel tezlasha boshlaganda, siz o'z biznesingizni maksimal tezlashishda rivojlantirishga yordam beradigan usullardan foydalanishingiz mumkin. Mashinaning rulida o'tirib, qayerga ketayotganimizni aniq bilamiz. Biz ishlashga ketyapmiz, biz noto'g'ri burilish qilganimiz uchun yoki yo'l

to'silganligi sababli sayohatdan voz kechmasdan aylanib o'tish yo'lini qidirib topishimiz kerak. Biz belgilangan manzilga yetib borishga qat'iy qaror qilganmiz.

Shuningdek, startaperlar qayerga ketayotganlarini, maqsadlari nima ekanligini yaxshi bilishadi: dunyoni o'zgartirishi mumkin bo'lgan biznes.


Erik buni startapning tashqi ko'rinishi deb ataydi. Ushbu tasavvur haqiqatga aylanishi uchun biznes modeli mahsulotning xaritasi, sheriklar va raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda yangi mahsulotlar yoki xizmatlar kimga yo'naltirilganligi haqidagi takliflarni o'z ichiga olgan strategiya ishlab chiqilishi kerak. Mahsulot ushbu strategiyaning yakuniy natijasidir (7.1-jadvalga nazar soling).

Optimallashtirish jarayonida mahsulot doimiy ravishda o'zgarib turadi. Men buni dvigatelni sozlash deb atayman. Strategiyani o'zgartirish kerak bo'lishi mumkin (buni pivot deb atashadi). Ammo umumiy ko'rinish kamdan kam hollarda o'zgaradi. Nima bo'lishidan qat'i nazar, tadbirkor hech qachon o'z maqsadini ko'zdan qochirmaydi va har bir muvaffaqiyatsizlik unga kerakli joyga qanday yetib borishini tushunishga yordam beradi (7.2-jadvalga qarang). Real hayotda startap bu harakatlar to'plamidir. Ko'p narsa bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi: mexanizm ishlaydi, yangi mijozlarni jalb qiladi va mavjud mijozlariga esa xizmat ko'rsatadi; biz uning mahsulotini, marketingini va operatsiyalarini takomillashtirishga harakat qilamiz, shu bilan birga boshqaruvni ham qattiq ushlab turamiz. Tadbirkorning asosiy vazifasi bu harakatlarning barchasini muvozanatlashdir. Hatto eng kichik startap ham katta muammoga duch kelishi ehtimoldan xoli emas: yangilik yaratishga urinish paytida mavjud mijozlarni qanday saqlab qolish uning eng og'riqli nuqtasi hisoblanadi.

7.1-jadval



7.2-jadval



Shuni aytish mumkinki, hatto eng barqaror kompaniyalar ham yangiliklarsiz faoliyat olib bora olmaydi, aks holda ularning mahsulotlari va xizmatlari eskiradi. Kompaniya o'sishi bilan undagi turli xil vazifalar va harakatlar nisbati o'zgaradi.

Tadbirkorlik bu boshqaruvdir. Ammo yangi mahsulotni yaratish vazifasi yuklatilgan yirik kompaniya menejerini

tasavvur qiling. Bir yil o'tgach, u moliya direktoriga kelib: "Biz taxmin qilgan o'sish sur'atlariga erisha olmadik. Bizda juda kam mijoz bor, umuman daromad yo'q. Ammo biz shu bilan birga ko'p narsalarni bilib oldik, shu sababdan kashfiyot arafasida turibmiz. Bizga yana bir yil kerak" deyishi mumkin. Ehtimol, bu menejer va ish beruvchining so'nggi suhbat bo'ladi.

Axir menejment nazariyasida aytilganidek, menejer kerakli natijaga erisha olmasa, u yomon rejalashtirgan yoki rejani bajaraolmagan hisoblanadi. Natijaqanday bo'lishiga qaramay, ikkalasi ham faoliyatdan kelgan natijasiga mahkumdir. Ammo zamonaviy iqtisodiyotda yangi mahsulotni ishlab chiqish aynan shunday muvaffaqiyatsizliklarni talab qiladi. Axir, ular muvaffaqiyatga olib boradigan asosiy yo'llardan biridir. Tejamkor startap tizimi rivojlanib borishi bilan biz yirik kompaniyalardagi bunday innovatorlar ham tadbirkorlar ekanligini va ular uchun maxsus tadbirkorlik boshqaruvi zarurligini anglay boshladik. Bu haqda keyingi sahifada gaplashamiz.

Kimni TADBIRKOR deb atash mumkin?

Erik Ris butun dunyo bo'ylab «tejamkor startap» mavzusida ma'ruzalar o'qiydi va har doim har qanday sinfdan bo'lmasin u yerda bo'lmasligi kerak bo'lgan odamlar borligi, ularga bu mavzular umuman qiziq emasligiga qaramay, u yerda vaqtlarini sarf qilayotganlari uni ajablantirardi. «Oddiy» tadbirkorlardan tashqari, startaplar asoschilari, u zalda yangi korxonalar yoki innovatsion mahsulot yaratish bo'yicha ko'rsatma berilgan yirik kompaniyalar top-menejerlarini ko'radi. Ular tashkiliy siyosatning haqiqiy ustalari: ular foyda va zarar uchun to'liq javobgarlik bilan avtonom birliklarni qanday yaratishni biladilar. Ular o'zlarining eksperimental guruhlarini korporativ aralashuvdan himoya qilishlari mumkin. Lekin uni eng ajablantiradigan narsa shundaki,

ushbu odamlar dunyoqarashga ega. U ko'p yillar davomida ishlagan boshlang'ich asoschilar singari, ular o'z sohalarining kelajagini ko'rishadi va kompaniyalari duch keladigan muammolarga yangi, noan'anaviy yechimlarni qidirishda jiddiy tavakkal qilishga tayyor bo'lishadi. Masalan, Mark ma'ruzalarimdan biriga kelgan katta korporatsiya menejeri. U yangi tashkil etilgan bo'limga rahbarlik qilardi, unga kompaniyani XXI asrga olib borish, internetdan to'liq foydalanadigan yangi mahsulotlar to'plamini yaratish vazifasi qo'yildi.

Ma'ruzadan so'ng u Erikning oldiga keldi va Erik unga katta kompaniyada innovatsiyalarni rivojlantirish uchun jamoalarni yaratish bo'yicha odatiy maslahat bera boshladi. Ammo u Erikning nutqini to'xtatdi: "Ha, men Innovatorning dilemmasini o'qidim. Men bularning barchasini allaqachon qildim." U uzoq yillar o'z kompaniyasida ishlagan va muvaffaqiyatli menejer bo'lgan, shuning uchun ichki siyosat unga muammo tug'dirmagan. U uzoq vaqt oldin suvda harakat qilishni, jarayonlarda harakat qilishni va o'z maqsadlariga erishishni o'rgangan. Keyin Erik unga kelajak uchun innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishning so'nggi texnologiyalari to'g'risida bir nechta maslahat berishga harakat qildi. U yana Erikning gapini to'xtatdi: "Ha, ha. Men internet haqida hamma narsani bilaman va bizning kompaniyamiz bundan qanday foydalanishi kerakligi to'g'risida tasavvurga ega. Agar kompaniyamiz ushbu tajribalarga ega bo'lmasa u o'ladi." Mark tadbirkor bo'lish uchun barcha zarur ko'nikma va bilimlarga ega edi: tegishli jamoaviy tuzilma, yaxshi odamlar, kelajakka bo'lgan qarash va tavakkal qilishga tayyorlik. Nihoyat, Erik nega maslahat so'rab kelganligini so'radi. Va u shunday javob berdi: «Bizda barcha kerakli masalliqlar bor ekan: yog'och chiplari, yog'och, qog'oz, gugurt, ba'zan hatto uchqunlar ham. Ammo olov hech qanday tarzda yonmayapdi!» Gap shundaki, Mark o'rgangan menejment nazariyalari kompaniyalar ichki

startap guruhlarini shakllantirish uchun o'rnatishi kerak bo'lgan tuzilmalarga e'tibor qaratib, innovatsiyalarni «qora quti» kabi ko'rib chiqadi. Ammo Mark o'zini qora quti ichida ishlayotganini va yo'l-yo'riqqa muhtojligini ko'rdi.

Mark qaysi jarayon innovatsiyalarning xomashyolari kompaniyani muvaffaqiyatli amalga oshiradigan yutuqqa aylantirishini bilmas edi. Jamoa yaratilganda ular nima qilishlari kerak? U qanday jarayonni qo'llashi kerak? Qaysi oraliq natijalarga e'tibor qaratishimiz kerak? Bu Tejamkor startap metodologiyasi javob beradigan savollar.

Erik nimaga yetaklayapti? Mark – bu o'z garajida ishlaydigan Silikon vodiysi startapining asoschisi singari tadbirkor. U ham, xuddi Erik klassik tadbirkorlar deb atagani kabi, Tejamkor startap tamoyillariga muhtoj. Mark kabi yirik tashkilotlarda ishlaydiganlarni ba'zan «ichki tadbirkorlar» deb atashadi, chunki korporatsiya tarkibida startap yaratish uchun alohida shartlar talab etiladi. Erik Tejamkor startap tamoyillarini ko'plab kompaniyalar va sohalarda ishlatgan va shuni aniqladiki, uy ichidagi tadbirkorlar boshqa tadbirkorlar hamjamiyati bilan odatdagidan ko'ra ko'proq o'xshashliklarga ega. Shuning uchun, «tadbirkorlik» atamasi deganda kompaniyaning kattaligi, sektori yoki rivojlanish bosqichidan qat'i nazar, startapning butun «Ekotizimi»ni nazarda tutiladi.

Agar men TADBIRKOR bo'lsam, unda startap nima?

Tejamkor startap – bu tadbirkorga startapning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshirishda yordam beradigan metodlar to'plamidir. Ammo bu nimani anglatishini tushunish uchun dastlab startap nima ekanligini aniqlash muhimdir.

Startap – bu juda noaniqlik sharoitida yangi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqaradigan yangi tashkil etilgan tashkilot.

Kompaniyaning kattaligi, sanoat yoki iqtisodiyot sohasi haqida hech narsa aytilmagan. Haddan tashqari noaniqlik sharoitida yangi mahsulot yoki yangi biznesni yaratadigan kishi, u biladimi yoki yo'qmi, davlat tashkilotida, sho'ba korxonada, notijorat tashkilotida yoki investorlarga ega bo'lgan tijorat firmasida ishlaydimi, u tadbirkordir. Keling, ta'rifimizning har bir elementini birma-bir ko'rib chiqamiz. Ko'pchilik «tashkilot» so'zini byurokratiya bilan, jarayon bilan, noqulay va nopok narsalar bilan bog'lashadi. Ko'rinib turibdiki, bularning barchasi startap bilan aloqasi yo'q. Shunga qaramay, muvaffaqiyatli startaplar tashkilotni qurish bilan bog'liq bo'lgan narsalarni faol ravishda izlaydilar, bularga ijodiy odamlarni yollash, ularning harakatlarini muvofiqlashtirish va kerakli natijalarga erishishda yordam beradigan madaniyatni yaratish kiradi. Biz ko'pincha startap nafaqat mahsulot, texnologik yutuq yoki ajoyib g'oya ekanligini unutamiz.

Startap – bu uning qismlari yig'indisidan ko'proq va birinchi navbatda u inson tomonidan ishlab chiqarilgan korxonalar. Bizning ta'rifimizdagi yana bir muhim nuqta: startap mahsuloti – bu innovatsiya. Va bu yerda hamma narsa ko'ringan darajada oddiy emas. Erik mahsulotning eng keng ta'rifidan, shu jumladan kompaniyaning mijoziga aylanadigan odamlar uchun har qanday qiymat manbasini o'z ichiga oladi. Mijozlarning kompaniya bilan o'zaro munosabatlari natijasida boshdan kechiradigan har qanday narsa ushbu kompaniya mahsulotining bir qismi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Bunga chakana savdo do'konlari, internet-kompaniyalari, konsalting firmalari va notijorat ijtimoiy ta'minot agentliklari kiradi.

Har ikkala holatda ham tashkilot o'z mijozlari uchun yangi qiymat manbasini topishga intiladi va ular uchun uning mahsuloti bilan o'zaro aloqalari muhimdir. «Innovatsiya» so'zini keng ma'noda tushunish bir xil darajada muhimdir. Boshlang'ich korxonalar turli xil innovatsiyalar turlaridan

foydalanadilar: ilmiy kashfiyotlar, mavjud texnologiyalarning yangi versiyalari, ilgari yashiringan qiymatni ochib beradigan yangi biznes modellari yoki shunchaki yangi bozorlarda tovar yoki xizmatlarni taklif qilish yoki yangi mijozlarga taqdim etish. Ushbu holatlarning barchasida innovatsiyalar kompaniya muvaffaqiyatining asosidir.

Bizning ta'rifimizda yana bir muhim element mavjud: yangilik tug'iladigan kontekst. Hamma kompaniyalarni ham startap deb atash mumkin emas, chunki startaplar doimo o'ta noaniqlikka duch keladi. Mavjud biznesning aniq nusxasi bo'lgan yangi biznes – biznes modeli, narxlari, mijozlarning maqsadli guruhi va mahsulot jihatidan – iqtisodiy jihatdan foydali loyiha bo'lishi mumkin, ammo bu boshlang'ich emas, chunki uning muvaffaqiyati faqat qanchalik aniqligi bilan bog'liq mavjud biznesning muvaffaqiyatini namuna qiladi. (Shu sababli, bunday vaziyatda kichik bir kompaniya uchun muntazam kredit shaklida moliyalashtirish oson kechadi; agar tavakkalchilik va noaniqlik darajasi yaxshi ma'lum bo'lsa, u holda kredit berishga mas'ul bo'lgan bank xodimi biznesning istiqbollarni to'g'ri baholashi mumkin.) An'anaviy boshqaruv vositalari, odatda, startaplar faoliyat ko'rsatadigan o'ta noaniqlik sharoitlari uchun ishlab chiqilmagan. Kelajakni oldindan aytib bo'lmaydi, mijozlar borgan sari ko'proq alternatalarga ega va o'zgarishlar tezroq sodir bo'lmoqda. Shunga qaramay, startaplar – ham garaj, ham yirik korxonalar – hanuzgacha standart prognozlar va batafsil biznes-rejalar asosida boshqariladi.

7000 kishi uchun tejamkor startap

1983-yilda afsonaviy tadbirkor, Intuit kompaniyasining asoschisi Skot Kuk o'zining hamkasbi Tom Pryu bilan bir fikrni ilgari surgan edi: shaxsiy buxgalteriya hisobi kompyuter orqali amalga oshirilishi kerak. Ushbu g'oyaning muvaffaqiyat ehtimoli unchalik katta emas edi: yangi kompaniya ko'plab

raqobatchilar bilan to'qnashishi kerak, chunki uning bozori o'sha kunlarda gigant hisoblanmas edi. O'n yil o'tgach, ya'ni 1993-yilda kompaniya o'z aksiyalarini chiqarishga muvaffaq bo'ldi, natijada katta raqobatchilar, jumladan Microsoft dasturiy ta'minot giganti tomonidan keladigan hujumlarini oldini olishga muvaffaq bo'ldi. Mashhur venchur kapitalist Jon Doyerr yordamida Intuit kompaniyasi juda xilma-xil bo'lib, kompaniya AQSHning eng kuchli mingtalik kompaniyalari orasidan joy egalladi va hozirda uning asosiy bo'limlari o'nlab eng mashhur dasturlarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanadi. Aynan mana shunday muvaffaqiyat bizga doimo namuna bo'la oladi.

Bunga teskari ravishda, muvaffaqiyatga da'vogar yutqazuvchilar jamoasi tinim bilmay ishlaydi, oqibatda shon-sharaf, e'tirof va boylikdan bahramand bo'ladi. Ammo 2002-yilda Kuk baxtsizlikka yuz tutadi. U bunday og'ir vaziyatdanchiqibketishuchun Intuitkompaniyasigakeltirilgan barcha yangi takliflari bo'yicha 10 yillik ma'lumotlarni tahlil qilib chiqdi. Tahlil natijasi shu bo'ldiki, kompaniya sarmoyalari uchun mazkur takliflar "kam miqdorda daromad keltirmoqda" degan xulosaga keldi. Oddiy qilib aytganda, uning yangi mahsulotlari ko'p holatlarda sotilmay qolar edi. An'anaviy me'yorlar bilan o'lchaydigan bo'lsak, Intuit kompaniyasi tizimli boshqariladigan kompaniya hisoblanar edi, lekin mazkur muvaffaqiyatsizlikni yengish uchun yetarlicha sabab bo'la olmaydi. Skott bu muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablarini izlay boshlagach, u va uning kompaniyasi tutgan menejmentning asosiy paradigmasini zamonaviy sharoitda zarur bo'lgan doimiy innovatsion jarayoniga xalaqit beradi, degan xulosaga keldilar.

2009-yilning kuzida Kuk Intuit kompaniyasining boshqaruv tuzilmasini o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Bu urinishlar bir necha yil qattiq mehnat evaziga yuz berdi. Ushbu kompaniyaning rahbari Erikning Tejamkor startapdagi dastlabki ishi bilan tanish edi va Erikdan o'z kompaniyasida

ma'ruza o'qib berishini iltimos qildi. Silikon vodiysi bunday manfaatli takliflarni rad eta olmaydi. Erik Intuit ga tashrif buyurishga rozi bo'ldi. Ustiga-ustak ushbu kompaniya Erikni juda qiziqtirar edi, chunki u Tejamkor startapni joriy qilish uchun bir qancha tadqiqotlar boshlagan edi. O'sha damlarda Erik Fortune 1000 kompaniyalari qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini bilmas edi. Aynan shunday savollarga javob topish va tajriba isini his etish uchun ham Intuit kompaniyasiga ma'ruza qilish uchun qasd qilgan edi. Kuk va bosh direktor Bred Smit bilan suhbatlashish zamonaviy top-menejrlarning fikrlarini tushunishga yordam berdi. O'zlarining garajlarida shon-shuhratni orzu qiladigan kapitalistlar va startap asoschilariga qarshi bo'lgan tadbirkorlik faoliyatiga orzumand kapitalistlar uchun Intuit kompaniyasi ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun Skott va Bred Intuit kompaniyasining boshlang'ich faoliyatini tahlil qilishar edi.

Skott va Bred kompaniyaning barcha qismlarida faoliyat olib boradigan odamlar tadbirkorlik xislatlariga ega bo'lishlari va tavakkal qilishga rag'batlantirish kabi muhim fazilatlar bilan ish yurishini ta'minlashga intilishar edi. Masalan, Intuitning flagman mahsulotlaridan birini ko'rib chiqish mumkin. Qo'shma Shtatlarda soliq to'lash davrida TurboTax sotuvi eng yuqori darajaga ko'tarildi. Ushbu dasturni ishlab chiquvchi bo'lim juda konservativ madaniyatga ega. Yil davomida sotuvchilar va ishlab chiquvchilar soliq deklaratsiyasini topshirish uchun yuqori mavsumda bozorga olib chiqiladigan bitta asosiy taklifni yaratadilar. Undan keyin, soliq to'lash mavsumi davom etayotgan ikki yarim oy ichida TurboTax jamoasi 500 dan ortiq turli xil o'zgarishlarni sinovdan o'tkazadi. U haftasiga 70 tagacha turli xil testlarni o'tkazib ko'radi. Masalan, payshanba kuni mahsulotning veb-saytiga onlayn o'zgarish kiritiladi, hafta oxirida sinovdan o'tkaziladi, dushanba kuni tahlil qilinadi va seshanba kunigacha xulosalar chiqariladi. Keyingi payshanba kuni ishlab chiquvchilar yangi

testlarni yaratadilar va o'sha kuni kechqurun navbatdagi test sessiyasiga start beriladi. Skott buni quyidagicha ta'kidlaydi: *"Sir emaski, ular juda ko'p yangi bilimlarni o'rganmoqdalar! Albatta bu tadbirkorlik ruhini yanada rivojlantirishga yordam beradi, chunki, agar siz faqatgina bitta g'oyani sinab ko'rsangiz, bu tadbirkorlik emas, balki siyosat, chunki har kim o'z taklifini ilgari surishni xohlaydi. Yuzlab yaxshi g'oyalar orasidan o'zingiznikini tanlashingiz kerak. Siyosatchilar va «sotuvchilar» madaniyati shu tarzda paydo bo'ladi. Agar sizda g'oyalar uchun 500 ta test mavjud bo'lsa, unda sizda har bir g'oyaning imkoniyati bor. Mazkur o'tkaziladigan g'oyaviy test natijalaridan so'ng, odamlar tadbirkor bo'lishadi, ular tajriba o'tkazadilar va o'rganadilar, qayta-qayta sinovdan o'tkazishlari hamda qayta-qayta o'rganishlari mumkin. Bu «siyosatchilar madaniyati»ning to'liq qarama-qarshi versiyasidir. Shuning uchun biz yuqori texnologiyaga hech qanday aloqasi bo'lmagan misollardan foydalangan holda, bunday jarayonni barcha bo'limlar bo'ylab joriy qilmoqchimiz, masalan, mening veb-saytim misolida. Bugungi kunda har bir kompaniyaning shaxsiy veb-sayti mavjud. Tez sinov siklidan foydalanish uchun yuqori texnologiyalarga ega bo'lishingiz shart emas."*

Ammo bunday innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish oson ish ham emas. Axir, kompaniyada yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni talab qiladigan ko'plab doimiy mijozlar va o'z mablag'larini foyda bilan qaytarishni istagan investorlar mavjud. Skott o'z nutqini davom ettiradi:

"Bu biznes maktablarida o'qitiladigan narsalarga, korxonah rahbarlariga o'rgatiladigan narsalarga ziddir. Muammo jamoalarda yoki tadbirkorlarda emas. Bu odamlar o'zlarining mahsulotlarini tezda bozorga olib chiqishni orzu qiladilar. Ular xaridorlarning ba'zi bir funksionalliklarga emas, balki mahsulotlariga ovoz berishlarini xudbinlarcha xohlaydilar. Asl muammo rahbarlar va o'rta menejerlarda. Menejning faoliyati ko'pincha analitik ko'nikmalarga bog'liq. Menejerlar

o'zlarini tahlilchilar deb bilishadi, ularning vazifasi ambitsiyali rejalarni ishlab chiqish, tahlil qilish va rejalashtirishdan iborat deb o'ylaydilar".

Bugungi kunda har qanday kompaniya bozorda yetakchilik mavqeyini saqlab qolishi tobora qiyinlashmoqda va ilgari yaratilgan yangiliklardan foydalanish uchun yetarlicha vaqt mavjud emas. Shuning uchun, hatto eng barqaror va muvaffaqiyatli kompaniyalar ham doimiy yangilikka muhtoj. Erikning fikricha, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning yagona yo'li bu «Tejamkor startap» usullari qo'llaniladigan innovatsion fabrikani yaratishdir. Boshqacha qilib aytganda, tashkil etilgan kompaniyalar Skott Kuk 1983-yilda qilgan ishni qanday amalga oshirishni aniqlashlari kerak, ammo sanoat miqyosida va an'anaviy boshqaruv madaniyatiga singib ketgan menejerlar guruhi bilan.

Skot Kuk eksentrik odamlar sirasiga kiradi. Uning iltimosiga binoan Erik Intuit ning barcha 7000 xodimlariga bir vaqtning o'zida efirga uzatilgan ma'ruza o'qidi. Ushbu ma'ruzada men Tejamkor startap nazariyasini taqdim etdi va yana bir bor ta'rifni takrorladi:

Startap – bu o'ta noaniqlik sharoitida yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga intiluvchi tashkilotdir. Undan keyingi manzara uning xotirasida abadiy muhrlanib qolgan. U gaplashayotganida, kompaniyaning bosh direktori Bred Smit yoniga o'tirdi. Ma'ruza tugagach, Bred o'rnidan turdi va barcha xodimlarga murojaat qildi: *"O'rtoqlar, endi siz startap nima ekanligini bilasiz. Bu uchta asosiy tarkibiy qismni belgilaydi va Intuit ularning barchasiga mos keladi."*

Skott va Bredning boshqaruv nazariyasi yangi innovatsion g'oyalarga muhtojligini tushunadigan rahbarlardir. Intuit kompaniyasining tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning usullari eng barqaror kompaniyalarda samarali bo'lishi mumkin. Bred Erikka Intuit boshqaruvi muvaffaqiyatni qanday o'lchashini tushuntirdi. Ular ikkita ko'rsatkichga qiziqish bildirardilar: uch

yil oldin mavjud bo'lmagan mahsulotlardan foydalanadigan mijozlar soni va uch yil oldin mavjud bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqaradigan daromad foizi.

An'anaviy modelga ko'ra, muvaffaqiyatli yangi mahsulot besh yarim yildan so'ng yiliga o'rtacha 50 million dollar daromad keltira boshlashi kerak edi. Bred Erikka yuzlandi: *"Bir yil oldin xuddi hozirgi kabi mavjud bo'lmagan xizmatlar bizga 50 million dollar olib keldi. Bu faqat yagona xizmat turidan kelgan natija emas. Bu yangilikning barcha elementlarining birlashmasidir, ammo aynan shu narsalar bizga kuch beradi va biz mantiqsiz bo'lgan narsalarni tezda tashlab, birinchi o'ntalikka kirgan narsalarni bozorga olib chiqishimiz mumkin deb ishonamiz."* Intuit kabi yirik kompaniya uchun bu faqat boshlanishdir. Kompaniyada bir necha o'n yillar davomida qurilgan tizimlar hamda ularni hal qilish kerak bo'lgan an'anaviy madaniyat merosi mavjud. Biroq, tadbirkorlikni boshqarish usullarini boshqalardan oldin qabul qilishga tayyorligi allaqachon o'z samarasini bermoqda. Ushbu usullarga rioya qilish uchun siz xodimlar xuddi tadbirkorlar singari tajriba o'tkazadigan muhit yaratishingiz kerak. Masalan, TurboTax dasturiga kiritilgan o'zgartirishlar soliq to'lash davrida jamoaga 500 ta tajriba o'tkazishga imkon berdi.

Bungacha marketologlar o'zlarining barcha ajoyib g'oyalarini amalga oshirishni xohlasalar ham bunday sinovlarni o'tkaza olmas edilar, chunki veb-saytda ma'lumotni tezda o'zgartiradigan tizim mavjud emas edi. Intuit testlarni tezroq loyihalash, ishlatish va tahlil qilish tizimlariga sarmoya kiritdi. Kuk shunday deydi: *"Tajriba o'tkazish uchun bunday tizimlarni yaratish yuqori saviyadagi menejmentga bog'liq va u kompaniya rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Biz madaniyat va tizimlarni yaratishni boshlashimiz kerak, shunda jamoalarning tajriba asosidagi tizimlari imkon qadar tez rivojlanib, yangiliklarni taklif qilishlari mumkin bo'ladi."*

O'qitish

Tadbirkor sifatida, Erikka o'rinli savollar ichida berilishi mumkin bo'lgan eng muhim savol quyidagicha: Mening kompaniyam muvaffaqiyat sari ildamlayotganini qayerdan va qanday bilib olishim mumkin? Erik tadbirkor bo'lishidan oldin, dasturchi va menejer sifati ish yuritardi, ish rejaga muvofiq ravishda ishlarni sifatli bajarilganiga ishonch hosil qilish uning asosiy vazifalaridan edi, shu bilan birga, kompaniya xarajatlari budjetdan tashqariga chiqmasligini nazorat qilish ham asosiy ishlaridan hisoblanardi. Ammo oz muddat ichida u tadbirkorlik vazifasiga muvassar bo'ldi, tadbirkor bo'lganidan so'ng muvaffaqiyatni baholashning ushbu mezonlari uni qoniqtirmay qoldi.

Agar mahsulotimiz hech kimga kerak bo'lmasa-chi? Agar shunday bo'lsa, biz uni o'z vaqtida va budjet asosida yaratgan bo'lsak ham, bu yerda qanday foyda bor? Ish kunining oxirida Erik faqat bitta narsani aniq bildirdi: bugun u odamlarni ishlashga majbur qildi va pul sarfladi. Umid qiladiki, ularning ushbu harakatlari ular maqsadiga yaqinlashtiradi. Agar ular noto'g'ri ish yuritayotgan bo'lsak, hech bo'lmaganda tajribali bo'lib olganimizdan taskin topishlari mumkin.

Shu kabi fikrlar yordamida o'zini qo'lga olishga urinardi. Ish vaqti tamom bo'lib, hamma o'z uylariga ravona bo'lgan paytlarda, o'z stolida o'tirib shunday tafakkurlar to'lqinida qolib taskin topar edi.

Afsuski, xatolar orqali kompaniya taraqqiyotiga yetishish fikri – bu uning muvaffaqiyatsizlikni oldini olish uchun o'ylab topilgan bahona edi. Belgilangan natijalarga erisha olmasalar tabiiyki, menejerlar unga murojaat qilishadi. Agarda tadbirkorlar, o'rgangan bilimlarini bironvga ko'z-ko'z qilishi kerak bo'lib qolsa, misli ko'rilmagan natijalar ko'rsatishi mumkin. Biroq, bu kelajagi innovatsiyalar muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan katta va kichik tashkilotlar uchun kichik tasalli.

Yangi bilimlarni bankka olib bo'lmaydi, uni sarflab yoki investitsiya qilib bo'lmaydi. Siz ularni mijozlarga taklif qilmaysiz va ularni sheriklarga investitsiya sifatida qaytarmaysiz. Shunday qilib, «xatolardan saboq olish» tadbirkorlar va menejerlar orasida juda keng tarqalgan virus ekanligi ajablantirmasligi kerak. Ammo baribir, agar tadbirkorning asosiy maqsadi o'ta noaniqlik sharoitida tashkilot tuzish bo'lsa, unda uning asosiy vazifasi o'rganishdir. Biz strategiyaning qaysi elementlari ishlashini va dunyoqarashni shakllantirishga yordam berishini va aksincha, bizni maqsaddan uzoqlashtirishini aniqlashimiz kerak.

Biz mijozlar haqiqatan nimani xohlashlarini aniqlashimiz va ularning so'zlariga ishonmasligimiz va bizning fikrimizcha, ular nimani xohlashlari kerakligi haqida o'ylamasligimiz kerak. Siz tanlagan yo'l o'sib borayotgan, hayotiy biznesga olib boradimi yoxud yo'q bo'lib ketishini tushunishingiz kerak. Tejamkor startup tizimida biz ta'lim olish va berish kabi manfaatli ishlarni targ'ib qilamiz. Bu shunchaki sinov va xatolar orqali boshdan kechirilgan tajribalar yoki muvaffaqiyatsizlikni oqlash uchun hikoyalar emas. Bu startaplar odatda faoliyat ko'rsatadigan o'ta noaniqlikdagi muvaffaqiyatimizni o'lchashning qat'iy usuli. Faktlar bilan tasdiqlangan bilimlar amalda, tajribalar jarayonida vujudga keladi. Bu jamoaga startapning bugungi va kelajakdagi istiqbollari bilan bog'liq muhim ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bu bozorni prognozlash yoki klassik biznesni rejalashtirishdan ko'ra aniqroq va tezroq tizim hisoblanadi.

IMVU HAQIDAGI FAKTLAR

Faktlar bilan asosli ravishda tasdiqlash nima ekanligini tushuntirish uchun Erik o'z tajribasidagi bir nechta misollardan foydalanadi. Erik tez-tez tinglovchilarga IMVU kompaniyasi tashkil topayotgan jarayonda birinchi mahsulotni ishlab chiqishda yo'l qo'ygan xatolari haqida gapirib beradi. Ular, ya'ni IMVU kompaniyasining barcha asoschilari, o'zlarini

jiddiy strategik potensialga ega ishbilarmonlar guruhi deb bilishdi. Ularning har birida o'z bizneslarini yaratish jarayonida muvaffaqiyatsiz urinishlar bo'lgan, ammo ular bu qayg'uli tajribani yana takrorlashni xohlamadilar. Dastlabki yillarda ularni eng ko'p qiziqtirgan savollar: biz nimani yaratishimiz kerak va kim uchun? Qaysi bozorga kirishimiz mumkin? Unda qanday qilib ustun mavqega ega bo'lish kerak? Raqobatdan qo'rqmaydigan barqaror qiymatni qanday yaratish lozim?

G'ayrioddiy taraqqiyot strategiyasi

Ular IM (instant messaging – tezkor xabar almashish) bozoriga kirishga qaror qilishdi. 2004-yilda ushbu bozorda butun dunyodan yuz millionlab faol foydalanuvchilar mavjud edi. Biroq, IM xizmatidan foydalanganlarning aksariyati pul to'lamagan holda ishlatishardi. AOL, Microsoft va Yahoo! kabi yirik media-kompaniyalar va internet-portallar boshqa xizmatlar uchun IM tarmoqlarini «zarar yetkazadigan LIDER» (xaridorlarni jalb qilish uchun zarar bilan taklif qilinadigan mahsulot) sifatida yaratdilar va reklamadan pul ishlashni niyat qildilar. IM xizmatlari bozori kuchli tarmoq effektlariga ega. Ko'pgina aloqa tarmoqlari singari, IM xizmatlarini rivojlantirish ham Metkalf qonuniga amal qiladi deb ishoniladi: umuman tarmoq qiymati uning ishtirokchilari sonining kvadratining yarmiga teng.

Boshqacha qilib aytganda, tarmoqda qancha ko'p odam bo'lsa, u har bir foydalanuvchi uchun shunchalik qadrlidir. Buni tushunish oson: har bir ishtirokchi uchun qiymat, avvalambor, qancha odam bilan muloqot qilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Agar sizda telefon bo'lsa-chi? Bu hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi. Sizga telefon faqat boshqa odamlarda bo'lganida kerak bo'ladi.

2004-yilda IM xizmatlari bozorida bir nechta yirik o'yinchilar mavjud edi. Uchta yirik tarmoq barcha foydalanuvchilarning 80% dan ko'prog'ini boshqargan va bozor ulushlarini

ko'plab kichik o'yinchilar bilan birlashtirish maqsadi bor edi. Marketingga katta xarajatlarsiz, yangi IM tarmog'ini bozorga chiqarish juda qiyin bo'ladi, deb ishonishgan.

Ammo, bu fikr asosli edi. Tarmoq effektlari tufayli IM xizmatlari yuqori kommunikatsiya narxiga ega. Bir tarmoqdan ikkinchisiga o'tish uchun foydalanuvchilar do'stlari va hamkasblarini buni bajarishga ishontirishlari kerak. Bu yangi IM tarmoqlari bozoriga kirish uchun to'siq yaratadi: agar deyarli barcha mijozlar ma'lum bir tarmoq mahsulotlaridan foydalansalar, u holda boshqasiga ulanishni istagan odamlar ham mavjud bo'lmaydi.

IMVU kompaniyasida ular quyidagi strategiyani ishlab chiqishdi: an'anaviy video-tarmoqlarning afzalliklarini har bir mijoz uchun yuqori daromad bilan birlashtiradigan, 3D video o'yinlar va virtual olamlarga xos mahsulot yaratish. Lekin ular tez sur'atlarda mana shu yangi IM tarmog'ini bozorga chiqara olishmadi, shuning uchun mavjud tarmoqlar bilan o'zaro aloqada bo'ladigan qo'shimchani yaratishga qaror qilishdi. Mijozlar virtual xizmat va IMVU avatar aloqa texnologiyasini IM xizmat ko'rsatuvchi provayderini o'zgartirmasdan va yangi foydalanuvchi interfeysini o'rganmasdan sotib olishlari mumkin, eng muhimi, ular o'zlari bilan do'stlarini ergashtirib kelishadi.

Ushbu so'nggi nuqta eng muhimi deb o'ylashdi. Bunday qo'shimcha foydali bo'lishi uchun foydalanuvchilar undan foydalangan holda do'stlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Foydalanuvchilarning har bir aloqasi IMVU veb-saytiga tashrif buyurish taklifi bilan birga kelishi kerak degan xulosaga kelishdi. Ularning mahsuloti, xuddi virus kabi, mavjud bo'lgan barcha IM tarmoqlarida epidemiya tezligida tarqalishni boshladi. Bunday virusli o'sishga erishish uchun ularning qo'shimchalari va mavjud bo'lgan IM tarmoqlari va har qanday kompyuterlarga mos kelishi muhim ahamiyat kasb etar edi.

Ishga tushirilishidan olti oy oldin

Erik aytardi:

Shunday qilib, biz strategiyani rejalashtirdik va ishga kirishdik. Men texnik direktor vazifasida edim va boshqa narsalar qatori barcha IM tarmoqlariga mos keladigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga mas'ul edim. Bir necha oy davomida biz ertalabdan kechgacha birinchi mahsulotni iloji boricha tezroq yaratishga harakat qildik. Mahsulotni bozorga chiqarish va birinchi to'layotgan mijozlarimizni jalb qilish uchun biz o'zimizga qattiq muddat qo'ydik: olti oy yoki 180 kun. Jadvaldagi mehnat mashaqqatdan so'z ochar edi, ammo biz belgilangan muddatni bajarishga qat'iy qaror qildik. Bizning mahsulotimiz shunchalik murakkab ediki, unda juda ko'p dinamik elementlar bor edi, biz u yerga borishga shoshilishimiz kerak edi.

Yashirmayman: birinchi versiyasi dahshatli darajada edi. Qaysi xatolarni tuzatish kerak, qaysi xususiyatlarini yo'q qilish kerak va qaysilarini saqlash kerakligi haqida biz cheksiz tortishar edik. Ushbu damlar ajoyib va shu bilan birga qiyin vaqtlar edi: biz haqiqatan ham muvaffaqiyatga umid qilar edik va shu bilan parallel bizning mahsulotimiz hech kimga yoqmasligidan qo'rqardik. Shaxsan meni eng ko'p qo'rqitgan narsa shundaki, agar mahsulot ishlamay qolsa, bu mening professionallik obro'yimga putur yetkazishi mumkin. Odamlar meni sifatli mahsulotlar yaratishda no'noq deb o'ylaydilar. Rivojlanish va boy bo'lish yo'lidagi strategiyamiz IMVU kompaniyasi brendining obro'siga putur yetkazishdan qo'rqardik, chunki sifati unchalik yaxshi bo'lmasligi mumkin bo'lgan mahsulot uchun pul ishlamoqchi edi. Biz allaqachon matbuotda bizning faoliyatimizni kamsituvchi sarlavhalarni oldindan his qilgan edik: «Muvaffaqiyatsiz tadbirkorlar bozorga dahshatli mahsulotni chiqarmoqdalar». Biz kutgan o'sha noma'lum kun yaqinlashayotgani sari biz yomon

ahvolga tushardik. Bunday vaziyatda tadbirkorlar ishga tushirish sanasini keyinga qoldiradilar. Bunga qo'rquv sabab bo'ladi. Ularni tushunish mumkin, ammo biz qat'iyat bilan oldinga intildardik, chunki mahsulot chiqarilishini keyinga qoldirgan holda, startap mijozga kerakli fikr-mulohazalarini olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. O'tmishdagi muvaffaqiyatsizliklar bizga yomon mahsulot ishlab chiqarish unchalik qo'rqinchli narsa emasligini o'rgatdi. Eng yomoni, hech kimga kerak bo'lmagan mahsulotni yaratish. Shunday qilib, tishimizni tishimizga qo'ygan holda, o'z mahsulotimizni keng ommaga taqdim etishga muvaffaq bo'ldik.

Bozorga kirish jarayoni

Mana biz bozorga kirdik, ammo biz o'ylagan qo'rquvlarning hech biri sodir bo'lmadi! Ma'lum bo'lishicha, bizda qo'rqishga arziydigan hech narsa yo'q edi, chunki hech kim bizning mahsulotimizdan foydalanishga hali harakat qilib ko'rmagandi. Ammo oz muddatdan so'ng tushkunlikka tushib qoldim. Guruhimiz bilan qaysi variantlarni saqlash va qanday xatolarni tuzatish kerakligi haqida soatlab tortishar edik va mahsulotimiz shunchalik ahamiyatsiz bo'lib chiqdiki, xaridorlar bu mahsulot nima, qanday ishlashi haqida tushunishni ham xohlamadilar. Natijada, hech kim uni yuklab olmadi. Keyingi haftalar va oylar davomida biz mahsulotni takomillashtirishni davom ettirdik. Xaridorlarning onlayn ro'yxatdan o'tishi va mahsulotni onlayn yuklab olishlar tufayli biz doimiy mijozlar oqimiga erishdik.

Har bir mijoz biz yaxshi ishlayapmizmi yoki yo'qmi degan savolga javob topish uchun yana bir imkoniyat deb hisoblar edik. Oxir oqibat, biz mahsulotni foydalanuvchilar tomonidan yuklab olish jarayoni va fiksatsiya qanday bo'lishini bilib oldik. Biz har kuni xatolarni tuzatib, innovatsion o'zgarishlarni kiritishga urinar edik. Ammo shuncha urinishlarimizga qaramay, bizning mahsulotimizdan foydalanuvchilar deyarli

yo'q edi. O'sha damlarda shuni angladimki, bizning guruh hech bo'lmaganda bitta to'g'ri qaror qabul qilishi lozim: dastlabki davrda oldingi xatolarni takrorlamaslik uchun o'z oldimizga aniq moliyaviy maqsadlarni qo'ydik.

Mazkur rejalarga asoslanib, birinchi oyda biz 300 dollar daromad olishni rejalashtirdik, natijasi biz kutgandek bo'lib muvaffaqiyatga erishdik, albatta bir qancha tushuntirib bo'lmas qiyinchilik bilan. Do'stlarim va qarindoshlarimizdan mahsulotimizga obuna bo'lishlarini so'radik (aldab nima qildim, iltimos qildik). Oqibatda, har oyda moliyaviy to'siqlarni o'sish ko'rsatkichi bilan biroz bo'lsa, ham ko'tarib oldik, avval 350 dollarga, so'ngra 400 dollarga. Ammo keyinchalik bu jarayon yanada murakkablashib ketdi. Tez orada biz barcha tanishlarimizni qamrab oldi-gu, lekin bundan keyin nima qilishni bilmay qoldik. Biz har kuni qo'limizdan kelganicha harakat qildar edik, baxtga qarshi, mijozlarning xatti-harakatlarida o'zgarish kuzatilmadi: ular bizning mahsulotimizdan foydalanishni hali ham xohlamasdilar. Biz ularni jalb qila olmadik. Shuning uchun biz foydalanuvchilarni o'z ofisimizga taklif qila boshladik. Biz ular bilan suhbatlashdik va mahsulotning qulayligini sinab ko'rdik. Moliyaviy maqsadlar bizni so'rov o'tkazishga undadi va qanday savollar berishni o'rgatdi. Bu albatta yaxshi, ammo men xatolikni bartaraf etish va yechimini bera oldik deb ayta olmayman. Haqiqatan ham, men oxirigacha qarshilik ko'rsatdim. Bizning bozor strategik tahlilimiz tubdan noto'g'ri ekanligi aniq bo'ldi. Ushbu xatolarni mo'jizaviy guruhlar yoki bozor tadqiqotlari orqali emas, balki sinovlar va xatolarni tahlil qilish orqali aniqladik. Mijozlar bizga nimani xohlayotganini ayta olishmadi – shunda ularning deyarli hech biri uch o'lchovli «avatarlar» haqida hech qanday tushunchaga ega emas edilar. Ular o'zlari xohlagan narsani o'zlarining xatti-harakatlari yoki yetishmayotgan kamchiliklari bilan ko'rsatib berishdi. Agar katta bozorga chiqish uchun strategiyangiz bo'lmasa, kuyunmang, bizning bu xatolarimiz sizga shunday

bir ogohlantirish bo'lsing-ki, adashmaydigan darajaga chiqa oling. Strategiya bo'lmasa qo'yavering, xaridorlarning o'ziga qo'yib bering, ular o'zlariga o'zlari sharoit yarataman deb sizga mukammal strategiya yaratib berishadi.

Mijozlar bilan aloqa qilishning ahamiyati

Umidsizlik dardiga muhtalo bo'lgan vaqtimizda o'z auditoriyamiz vakillari bilan suhbatlashishga qaror qildik. Biz ularni ofisga taklif qildik va "Mana sizga yangi mahsulot, u IMVU deb nomlangan." Agar biz IM tarmoqlaridan foydalanuvchi o'spirinlar yoki texnologik yangiliklarni erta tatbiq etuvchilar bilan duch keladigan bo'lsak, ular mahsulotni yoqtirishlari va undan foydalanishni boshlashlariga ishonamiz. 17 yoshli qiz idoramizda bizning mahsulotimizga qarab o'tirar edi. Tabiiyki, u «avatar»ni tanlaydi va shunday deydi: «O'!, bu juda zo'r». Avatarni o'rnatish va uning ko'rinishini belgilaydi. Biz: «Yaxshi, keling, tezkor xabarlar qo'shimchasini hozir yuklab olaylik», deymiz. Qiz so'raydi: «Bu nima?» «Xo'sh, bu IM mijozlari bilan o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlaydigan qurilma». Qizcha bizga nazar solib: «Men bu haqda hech qachon eshitmaganman, do'stlarim ham bu haqda eshitmagan, nega odamlar bunday kashfiyotdan xabardor emaslar?» Mana endi u tushuntirishga muhtoj, u IM mijozlari uchun qo'shimcha nima ekanligini bilmaydi. Shunga qaramay, biz uning yonida o'tirib, mahsulotimizni yuklab olishga rag'bat berishga muvaffaq bo'ldik.

U mahsulotni yuklab olishi bilan biz: «Endi ba'zi do'stlaringizni suhbatga taklif qiling», deb aytamiz.

U javoban: «Bu ish bermaydi!»

Biz esa: «Nima uchun?»

U: «Xo'sh, men bu narsaning yetarlicha ajoyibligini bilmayman. Do'stlarimdan birini taklif qilish uchun tavakkal qilishimni xohlaysizmi? Ular men haqimda nima deb o'ylashadi? Agar bu qandaydir ahmoqlik bo'lsa, ular meni

ahmoq deb o'ylashadi!» Biz yana tushuntirishga harakat qilamiz: “Ammo hech kim bilan gaplashmasangiz, bu qiziq bo'lmaydi-ku. Bu narsa muloqot qilish uchun mo'ljallangan”. U bizning yuzimizga shubha bilan qaraydi. Albatta, bunday reaksiyani birinchi marta ko'rganimda: “Yaxshi, faqat bitta odamni yuboring», dedim. Birozdan so'ng, ikkinchi foydalanuvchi kelib, u ham xuddi shu narsani takrorladi. Uchinchisi keldi – tarix o'zini yana bir bor takrorladi.

Bunday vaziyatda, siz qanchalik o'jar bo'lishingizdan qat'i nazar, bu yerda nimadir noto'g'ri ketayotganini anglaysan kishi. Mijozlar “Men shaxsan o'zim bu mahsulotdan foydalanmoqchiman. Avval buni tekshirib ko'rmoqchiman va do'stlarni taklif qilish uchun arziydimi yoki yo'qligini bilishni istayman”. Dasturchilarimiz avval video o'yinlarni ishlab chiqishgan edi, shuning uchun xaridorlarga nima kerakligini aniqladik: yolg'izlik rejimi. Ushbu versiyani mustaqil o'ynash uchun yaratgan edik. Bu rejim to'liq o'zini oqlaganidan so'ng mijozlarni yana ofisga taklif qila boshladik. Ular avatarni o'zlariga mos ravishda moslashtirib oldilar va mahsulotni avvalgi kabi yuklab oldilar. Keyin tizim yolg'iz o'yinchi rejimiga o'tdi va ularga yordam tariqasida avataringiz yordamida o'ynang, maxsus kiyimini tanlang, qanday harakat qilayotganini kuzating, dedik. Mahsulotimizdan foydalanish jarayonida xaridorlar yuzida mamnunlikni his etganimizdan so'ng, ularga iltimos tariqasida: “Shunday qilib, siz o'zingiz avataringiz orqali mustaqil o'ynashingiz mumkin. Endi do'stlaringizdan birini ushbu platformaga taklif qiling”.

Ammo mijozlar bu iltimosni rad qilishgandi: “Hech qachon! Axir bu platforma taklif qilish uchun yetarli darajada ajoyib emas!”

Biz javoban: “Buni sizga ajoyib deb aytmadik! Aloqa uchun mo'ljallangan narsadan foydalanishda yolg'iz qolishdan qanday mantiq bor?”

Foydalanuvchilarni tinglaganimiz uchun mukofotga loyiq ekanligimizni his qildik. Ammo baribir bizning mahsulotimiz

ularga yoqmad. Biz ulardan faqat: "Eshitinglar, o'rtog'lar, tushunmayapsizlar" deb tushuntirmoqchi bo'ldik. Ammo ular baribir manfiy reaksiya berib: "Men ahmoqmanmi? Nega men uning yaxshiligiga ishonch hosil qilmasdan do'stlarimni taklif qilishim kerak?". Suhbat shu yerda tugadi.

Umidsizlik botqog'i bizni o'z domiga tortishga urinar edi, lekin biz taslim bo'lishni tasavvur ham qilolmas edik. Natijada, biz bir tugmani bosish orqali dunyoning istalgan nuqtasida tasodifiy odamni topishga imkon beruvchi Chat-Now nomli variantni taqdim etdik. Suhbatdoshlarning o'ziga xos jihati shundaki, ikkalangiz ham ushbu tugmani bir vaqtning o'zida bosganidir. Tugma shu yo'sinda bosilsa, ikki suhbatdosh bir-birini uchratadi, qarabsizki mijozlar: "O'!, bu juda zo'r!" kabi reaksiya sodir bo'ladi.

Shunday qilib, biz ularni ofisga taklif qildik, ular Chat-Now opsiyasidan foydalanishdi va biz ba'zida ular o'zlariga yoqadigan odam bilan uchrashishga yordam berdik. Ular: "Vau, bu ajoyib yigitni o'zimning aloqa ro'yxatimga qo'shmoqchiman. Mening kontaktlarim ro'yxati qayerda?" Biz javoban: "Sizga yangi kontaktlar ro'yxati kerak emas, siz odatdagi AOL kontaktlar ro'yxatidan foydalanishingiz mumkin" deymiz. Esingizda bo'lsa, biz o'z xizmatimizdan shu tarzda foydalanmoqchi edik, aynan shu maqsad tufayli bu tarmoq effektlarini yaratdik.

Ammo mijoz bizga yuzlanib so'radi: "Men nima qilishim kerak?"

Va biz shunday dedik: "Faqat yangi do'stingizga taxallusingizni ma'lum qiling, uni kontaktlar ro'yxatiga qo'shing".

Shunda u katta ko'zlarini bizga lo'q qilib: "Men bilan hazillashyapsizmi? Mening kontaktlarim ro'yxatida begona odam bo'lib qolishini xohlaysizmi?"

Bunga biz javoban: "Ha, aks holda siz yangi IM mijozni yuklab olishingiz va aloqalarning yangi ro'yxatini yaratishingiz kerak bo'ladi. Shunda u: "Menda qancha IM mijozlari

borligini bilasizmi? Yo'q". Har birimiz qancha IM mijozlaridan foydalanganmiz, bu noma'lum.

Ammo o'spirinlar boshqacha javob berishdi: "Menda ularning sakkiztasi bor!" Odatda, ular o'z dunyosida qancha IM mijozlaridan foydalanishi haqida tasavvurimiz yo'q edi. Odamlar uchun yangi dasturiy ta'minotni o'rganish qiyin edi va ular do'stlarini yangi kontaktlar ro'yxatiga ko'chirmaydi deb o'ylardik. Bu to'liq bema'nilik bo'lib chiqdi.

Biz diagrammalar chizishga va ularga bizning strategiyamiz qanday yaxshi ekanligini ko'rsatishga harakat qildik, ammo mijozlar tarmoq effektlari va kommunikatsiya xarajatlari nimaligini tushunmadilar. Nima uchun ular biz xohlaganча tutishlari kerakligini tushuntirishga harakat qilganimizda, ular shunchaki hayratdan boshlarini chayqashdi. Odamlarning dasturiy ta'minotdan qanday foydalanishi haqidagi nazariy tushunchamiz butunlay eskirgandi. Natijada, mijozlar bilan o'nlab uchrashuvlardan so'ng, IM xizmatlari uchun qo'shimcha tushunchasi befoyda ekanligini anglay boshlagan edik. Bizning mijozlarimiz IM xizmatlariga qo'shilishdan manfaatdor emas edilar – ular uchun alohida IM tarmog'i kerak edi. Ular yangi IM xizmatini o'zlashtirishga tayyor edilar. Ma'lum bo'lishicha, ular bir vaqtning o'zida juda ko'p turli xil IM tarmoqlaridan foydalanganlar va do'stlarini yangi tarmoqqa taklif qilishdan xijolat tortmaganlar. Ular hatto bunday texnik qiyinchiliklarni yengishdan zavqlanayotgandek tuyuldi. Bundan ham ajablanarlisi shundaki, mijozlar avatarlardan do'stlari bilan muloqot qilish uchun foydalanishni xohlashadi degan taxminimiz ham noto'g'ri edi. Ular yangi do'stlar orttirishni xohlashardi. Buning uchun uch o'lchovli «avatarlar» juda mos keldi. Shunday qilib, asta-sekin mijozlar bizning dastlabki ajoyib strategiyamizni barbod qilishdi.

Barqarorlik yoki qashshoqlik?

Boshqacha qilib aytganda bizning qanday harakatlarimiz boylik yaratadi-yu, qaysilari behuda xarajatlarga olib keladi?

Bu savolda tejamli ishlab-chiqarish revolutsiyasi asosi yotadi va bu konsepsiyani o'rganishga kirishgan har bir kishini uni berishga o'rgatishadi. Ortiqcha xarajatlarni ko'rish va doimiy tarzda ularni bartaraf qilish uquvi tejamli ishlab chiqarish konsepsiyasiga amal qiladigan kompaniyalarga, masalan, Toyota ga o'n yillar mobaynida o'z sohasida yetakchi bo'lib qolish imkonini berdi. Dasturiy ta'minot yaratish sohasidagi men ergashgan uslub ham tejamli ishlab-chiqarish tamoyillariga asoslangan. Ushbu uslub ortiqcha xarajatlarni bartaraf qilishga qaratilgan. Bizlar bu uslubga vijdonan amal qildik, ammo jamoamning barcha urinishlari ortiqcha xarajatlarga olib keldi. Nega? Kelgusi yillarda bu kabi savollarga javob topa boshladim. Tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasi qadriyatni mijoz uchun ustunlik yaratish, qolganlarini esa xarajat, deya aniqlab beradi. Agar gap ishlab chiqarish sohasi haqida borsa, mijozni mahsulot qanday yaratilgani emas, uning risola-dagidek ishlashi qiziqtiradi. Ammo startap hali mijozni kimligini va unga nima qadrli ekanini bilmaydi.

Startaplar hamisha to'qnash keladigan noma'lumlikning birgina namoyon bo'lishidir. Bilishimcha, qadriyatning yangi turini topishim zarur. IMVU ning keyingi muvaffaqiyatlari o'sha dastlabki oylarda bizning mijozlar uchun nima qadrli ekanini bilganimiz tufayli mumkin bo'lib qoldi. Bizning o'rganishimizga ko'maklashmagan barcha harakatlarimiz zararga olib keldi. Bunchalar ko'p kuch sarflamasdan ham o'qish-o'rganishning iloji bormidi? Albatta, bor edi! Hech bo'lmaganda, mijozlar ko'rib chiqishni ham xohlamagan u yoki bu opsiyalar ustida bahs yuritmasdan ham mumkin edi. Agar ko'proq ta'lim olganimizda edi, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'ymagan bo'lar edik. Men o'nlab IMVU mijozlar va tarmoqlar uchun o'zaro integratsiyaga imkon beruvchi dasturni yozib chiqdim. Taxminlarimizni test tarzida taqdim etishning iloji bormidi? Kuchimizning teng yarmini sarflagan

holda mijozlar bilan qayta aloqa qila olarmidik? Men bir necha tarmoq bilan cheklanishim mumkinmidi? Uchtasi bilan? Bittasi-chi? Bizning mahsulot barcha IM tarmoq mijozlariga yoqmadi, demak, o'qitish darajasi bu borada bir xil bo'lib qolar ekan, ammo biz kamroq kuch sarflagan bo'lar edik.

Menga tunlari uyqu bermagan g'oyalar bilan tanishing:

IM tarmoqlar yaratish uchun qo'shimcha vaqt va kuch sarflashning hojati bormidi? Mahsulotni yaratmasdan avvalroq o'z taxminlarimiz qanchalar o'ransiz ekani oydinlashganida nima bo'lardi? Masalan, mahsulotning to'liq versiyasini yaratmasdan oldinroq mavjud opsiyalardan kelib chiqqan holda mijozlarga sinab ko'rishni taklif qilganimizdachi? Eslasangiz, deyarli hech kim dastlabki mahsulot versiyamizdan foydalanishni istamadi, shunday ekan uning past sifati uchun uzr so'rashimizga to'g'ri kelmasdi. (E'tibor bering: bu degani mijozdan nimani xohlashini so'rashning o'zi emas. Odatda, mijozlarning o'zlari nima kerakligini bilishmaydi.) Bizlar mijozlarga mahsulot konsepsiyasi bilan tanishishni taklif qilgancha tajriba o'tkazishimiz, keyin esa ularning o'zini tutishini baholashimiz ham mumkin edi.

Meni qiynoqqa solgan bu fikrlarning lavozim vazifalarimga aslo aloqasi bo'lmagan. Men yaratuvchilik bo'limi rahbari edim va sifatli mahsulot hamda opsiyalarni o'z vaqtida yaratilishini ta'minlashim lozim edi. Agar bu opsiyalardan ko'pchiligi shunchaki quruq vaqt sarflash ekan, men nima ham qila olardim? Bu xarajatlardan qanday qochish mumkin? Demak, o'qitish – startap muvaffaqiyatining muhim garovi, degan xulosaga keldim. Shu bilan birga mijozlarning istagini anglashga olib kelmaydigan urinishlarning esa keragi yo'q. Mana shu holda startapning asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga olib boruvchi tasdiqlangan faktlar yuzaga keladi. Ko'rib o'tganimizdek, mijozlarga nimani xohlashlari haqida taklif kiritganda ko'pincha osongina adashish mumkin. Shuningdek, ahamiyatsiz narsani yaratib qo'yish

ham shu kabi oson. Shuning uchun ham, asoslangan bilimlar uchun asl foydalanuvchilardan olinadigan empirik amaldagi yoki tajriba mobaynida ma'lumotlar juda muhim.

Startapning har qanday asoschisi bu boradagi omadsizligi menga ko'p narsadan saboq berdi va bu mavzuda maroq bilan hikoya qilib berishim mumkin, deya ta'kidlaydi. Men bunga o'z tajribamdan kelib chiqqan holda amin bo'ldim. Sizlar IMVU tarixida nimadir yetishmasligini payqagan bo'lsangiz kerak. Biz dastlabki oylarda juda ko'p narsalarni o'rgandik va mehnatimiz muvaffaqiyatga olib keldi, deya ta'kidlaganimda, buning birorta isbotini keltira olmadim. Hozir bunday misollarni keltirishni hamma ham biladi. Ammo o'sha paytda biz vaqt va pullarni bejizga sarflamayapmiz, deya investorlar, xodimlar, oila a'zolarimiz, eng muhimi – o'z-o'zimizni ishontirishimiz zarur edi. Biz bularni qanday isbotlay olardik?

Albatta, mahsulotimiz muvaffaqiyatliroq chiqishi uchun, aslida qilishimiz kerak bo'lgan ishni o'xshata olmaganimiz haqidagi taxminlarimiz maroqli yangrashi mumkin edi. Biroq o'z g'oyalarimizni hayotga tatbiq qilgan va mahsulotning keyingi versiyalari mijozlarimizga yoqqan holdagina isboti paydo bo'lardi. IMVU ning haqiqiy tarixi bizlarning yorqin taxminlar-u strategiyalar va mulohazalardan emas, sal keyinroq, mijozlar aslida nimani xohlashlarini aniqlashga bo'lgan urinishlarimiz, ularning ehtiyojlarini qondirish strategiyamiz va mahsulotimizni moslashtirishdan boshlandi. Bizlar mijozlarga ular aslida nimani xohlashi kerakligini uqtirmasdan, o'z tasavvurlarimizni ularning istaklari haqida aytgan gaplari bilan birlashtirish kerak, degan qarorga keldik. Natijada biz mijozlarni durustgina anglaydigan bo'ldik va mahsulotni yaxshilashni uddaladik.

Biznesimizning asosiy ko'rsatkichlari yaxshilana boshladi. Dastlabki paytlarda biz qancha urinmaylik raqamlar sira o'sishni istamasdi. Bizlarga tashrif buyuradigan foydalanuvchilar uchun alohida blanka tayyorladik. Bizlar

ularning qanday ish tutishlarini, masalan, yuklab oluvchilar va xarid qiluvchilarni aniqlab beradigan foizlarga diqqatni qaratdik. Har kuni bir xil miqdordagi mijozlar foydalan-ganlari uchun haq to'lashardi va ular kun sari kamayib, mahsulotni qanchalar yaxshilashga urinmaylik, nolga yaqinlashib borardi. Ammo, biz dastlabki strategiyadan voz kechib, burilish yasaganimizdan keyingina barchasi o'zgarib boshladi. Mahsulotni yaratish bo'yicha qilgan urinishlarimiz mo'jizaviy tarzda yanada mahsuldorlik kasb etdi. Biz ko'p ishlash bilan emas, mijozlar ehtiyo-jini mo'ljallaganicha, oqilona ishlashga o'tgandik. Ko'rsat-kichlarning o'sishi biz haqiqatan ham nimanidir o'rganga-nimiz isboti edi.

Bu juda muhim, zero endi hamma xodimlar, investorlar va o'zimiz ham o'z-o'zimizni aldamayotganimiz vahaqiqatan ham muvaffaqiyat sari yo'l topganimizni ko'rib turardik. Bundan tashqari, bu startup samaradorligini baholashning to'g'ri usuli edi: muhimi biz qancha ishlayotganimiz emas, harakatlarimiz faktlarga asoslangan qancha bilimlar keltirayotgani muhim edi. Misol uchun, dastlabki tajribalarimizdan birida "avatarlar chatini onlayn uch o'lchamli xabarlar"ga almashtirganicha veb-sayt, uy sahifasi va qayd etish jarayonini yaratdik. Yangi mijozlar oqimi avtomatik tarzda saytning mana shu ikki versiyasiga bo'linardi: birinchi yarmi bir saytni, boshqasi ikkinchisini ko'rardi. Mana shu holda bu ikki guruhning o'zini tutishini baholay olardik.

Tajriba guruhi ishtirokchilari bajonidil ularni yuklab olibgina qolmay, ko'pincha haq to'lovchi doimiy mijozlarga aylanishardi. Bizning tajribalar ko'pincha omadsiz chiqardi. Mijozlar mahsulotimizning ustunligini anglamaganlari uchun ham undan foydalanmaydi, deya ishongan davrlarimizda, yangilarga virtual ekskursiyalar o'tkazishi uchun servis xizmati agentlariga haq ham to'laganmiz. Afsuslarki, bunchalar qirollarga xos mulozamatga qaramay, kishilar mahsulotdan foydalanishga, boz ustiga haq to'lashga shoshilmasdilar. IM mijozlari uchun qo'shimcha xususiyatlar

yaratish strategiyasidan voz kechdik, ammo oradan bir necha oy o'tganidan so'nggina u nima uchun ishlamaganini angladik. Keskin burilish va bir qator omadsiz tajribalardan so'nggina ongimiz yorishdi: odamlar yangi do'stlarni onlayn tarzda orttirish uchun IMVU ni qo'llamoqchi ekan. Mijozlarimiz bizlarning aqlimiz yetmayotgan narsani o'z ichki sezgilari bilan topgandilar.

O'sha paytlarda barcha onlayn-muloqotlar uchun servislar odamning asl shaxsini ko'rsatish asosiga yaratilgandi. "Avatarlar" texnologiyasi esa o'z xavfsizligini xatarga qo'ymasdan va o'zining asl ma'lumotlarini ochib o'tirmasdan ham tarmoqda tanishish uchun qo'l kelardi. Biz buni anglagan zahoti tajribalarimiz ijobiy natijalar olib kela boshladi. Har gal, opsiyalarni odamlarga yangi do'stlar topish va muloqotda bo'lishni jonlantiradigan tarzda o'zgartirganimizda, mijozlar qiziqish bilan mahsulotdan foydalana boshlardi. Startup uchun qanday opsiyalar kerak va qaysilari kerakmasligini doimiy tarzda aniqlab borish haqiqiy samaradorlik hisoblanadi. Bular qaysi mijozlarimiz mahsulotdan foydalanmoqchi va nima uchunligini oydinlashtirish yo'lida o'tkazgan sanoqsiz tajribalarimizdan bir tomchisi edi. Yangi bilimlarning har biri bitta yangi tajriba o'tkazishimizga imkon berardi, bu esa ko'rsatkichlarimizni yaxshilar va maqsadga yaqinlashtirardi.

Dastlabki muvaffaqiyatlarga qaramay, daromadimiz haliyam yuqori emasdi. Afsuslarki, biznesning an'anaviy baholash uslublariga ko'ra, bu ancha xavfli vaziyat. Paradoks shundaki, qandaydir kamroq bo'lsayam daromadga, mijozlarga ega va biznes bir amallab o'sib turgan vaqtingizdan farqli tarzda, daromadingiz nolga teng, nol jamoa va siz hech qayoqqa harakatlanmayotgan paytingizda, ko'pincha pul ishlash osonroq yoki boshqa zaxiralarni qo'lga kiritish yengilroq kechadi. Nol tasavvurni qitiqlaydi, kichik raqamlar esa bir kun kelib kattalari ham paydo bo'lishiga shubhalantiradi. Qandaydir mahsulot yoki servis bir kechada muvaffaqiyatga erishgani haqidagi gaplar hammaning

qulog'iga (hech bo'lmaganda, bizga shunday deb aytishadi) chalinadi. Toki mahsulot bozorga chiqarilmaguncha, to hech qanday ma'lumotlar to'planmaguncha, biznes oniy fursatda muvaffaqiyatli bo'lishini tasavvur qilish oson. Kichik raqamlar esa umidni o'ldiradi. Shuning uchun ham, toki muvaffaqiyatga ishonch uyg'onmagunicha har qanday ma'lumot yig'ishni ortga surishga moyillik paydo bo'lishi tushunarlidir. Albatta, buning natijasida keraksiz kuch sarflash, qayta aloqaning yo'qligi va startap hech kimga keragi bo'lmagan narsani yaratishi yuz berganining tezda guvohi bo'lamiz.

Biroq mahsulot chiqarish va yaxshilikka umid qilish ham yorqin reja emas. Kompaniyani yarata turib bu muammoni anglab turardik. Dastlabki investorlarimiz va maslahatchilar bizning ilk paytlarda oyiga bor-yo'g'i 300 dollar daromad olishni rejalashtirganimizdan ajablanishardi. Bir necha oylardan keyin daromadimiz oyiga 500 dollarni tashkil qilganida, ayrim investorlar, xodimlar, hatto yaqinlarimiz ham bizga bo'lgan ishonchlarini yo'qota boshladi. Investorlar mahsulotni bozordan qaytarib olish va ichki sinov ishlariga qaytishni tavsiya qila boshlashdi.

Baxtimizga, burilish yasaganimiz, tajribalar o'tkazib, o'rganishlarimizga muvofiq tarzda mahsulot va marketingni o'zgartira boshlaganimiz bilan ko'rsatkichlar ham yaxshilanib bordi. Ammo judayam ko'pga emas! Bir tarafdin xuddi xokkey klyushkasiga o'xshab ketadigan o'sishga erishgandik. Boshqa tarafdin esa daromadimiz oyiga bir necha ming dollargagina o'sdi, xolos. Ushbu dastlabki grafiklar umid bag'ishlardi, ammo ular o'z-o'zicha omadsizliklar qarshisida ishonchni saqlab turishimizga yordam bermasdi. Shu sababli faktlar bilan tasdiqlash nimaligini aytib berish va atrofida hammamiz jiplashadigan muqobil konsepsiyani tavsiya qilishni bilmasdik.

Bizning juda omadimiz kelgandi: ayrim investorlarimiz tadqiqotlar qanchalar muhimligini anglashdi va kamtarona raqamlar ortidagi asl muvaffaqiyatni ko'ra olishdi. Shu

tufayli, faktlar bilan tasdiqlash sharofati bilan va "startap"ning jasurligi oqibatida yuzaga keladigan xarajatlarni kamaytirish mumkin. Bizning mahsulotni yaratishga ketgan mehnat, albatta muvaffaqiyatga olib borishini ko'rsatish va boshqalar ko'zi oldida muvaffaqiyatli ko'rinish uchun qilinadigan narsalardan tiyilish kerak edi.

Ehtimol, biz marketing tryuklariga qo'l urishimiz, Super-kubok homiysiga aylanish yoki mijozlardan ko'proq pul ishlab topish uchun PRLar o'tkazishimiz mumkin edi. Unaqada investorlarda rivojlanayotganimiz haqida vaqtinchalik sarob tasavvur paydo bo'lar edi. Oxir-oqibatda, biznes tamoyillaridan baribir qochib qutulolmaysan, PR effektlari esa tutunday tarqab ketadi. Agar bebaho zaxiralarni biznesning rivojlanishimas, bunday "chiqishlarga" sarflanganimizda, haqiqiy muammolar eshigimizni tepganча kirib kelishi aniq edi.

Hammasi boshidan

Oxir oqibat, bu mening ko'p oylik ishimning natijasi bo'lishiga qaramay, o'z qadrini yo'qotmoqda edi. Bizning IM tizimimiz to'liqonli bo'lishi va boshqa tarmoqlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi uchun men tun-u kun dasturlar ishlab chiqdim – axir bu bizning asl strategiyamizning asosi edida. Keskin burilishni boshlash va undan voz kechish vaqti kelganida, bu ishlarning deyarli barchasi – minglab kod satrlarini tashlab yuborish kerak edi. Men o'zimni xiyonat qilgandek his qildim. Men keraksiz xarajatlardan qochadigan tezkor dasturiy ta'minotni ishlab chiqish metodologiyasiga sodiq edim. Biroq, mening bu ishim juda qimmatga tushdi: men mijozlar foydalanmaydigan mahsulot yaratgan edim. Bu meni qattiq tushkunlikka tushirdi. Men hayron bo'ldim: bu muvaffaqiyatsizlik vaqt va kuchni behuda sarflaganligim sababli bo'ldi, agar men o'sha olti oyni sohilda, soyabon ostida kokteyl iste'mol qilish bilan o'tkazgan bo'lgan

taqdirimda ham kompaniya hech narsa yo'qotmas edi. Balki umuman hech narsa qilmaganim yaxshiroqdir?

Ammo, ushbu bobning boshida aytganimdek, omadsizligini bartaraf etish payida bo'lganlar har doim navbatdagi choraga ega bo'ladilar.

Men o'zimga yana taskin bera boshladim, agar biz ushbu mahsulotni yaratmaganimizda – uning barcha kamchiliklari bilan mijozlarning muhim maslahat, xohishlarini bilmay qolar edik. Oqibatda yaxshi deb o'ylagan strategiyamiz yomonligini hech qachon bilmas edik. Ushbu taskinda ikki muhim haqiqat bor edi: birinchisi, qiyinchilik va depressiyaga boy bo'lgan oylarda o'rgangan ko'nikmalarimiz IMVU kompaniyasiga keyingi ulkan yutuqlarga olib boradigan yo'lni topishda yordam berdi. Birmuncha vaqt jamoamiz bilan “biz ko'p narsalarni o'rgandik” deb tasalli berishda davom etdik. Bu gaplarga jamoa a'zolari ishonmasa-da mening azoblarimni yengillashtirishga yordam berdi, ammo bu uzoqqa cho'zilmadi.

Bir savol meni hayratda qoldirdi: agar qiyinchiliklarning barchasi mijozlar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun boshdan kechirilgan bo'lsa, unda bu nega juda uzoq davom etdi? Bizga tajriba bergan ushbu sa'y-harakatlar oqlanadimi? Agar men mahsulotni takomillashtirish, yangi variantlarni ishlab chiqish va xatolarni tuzatish bilan shunchalik ovora bo'lmaganimda, buni tezroq qila olardim. Yana kim bilsin. Bozor mana shunday savollar va muhim bilimlar bilan insonni savdo qilishga o'rgatadi.

IMVU kompaniyasining va mahsulotining bergan saboqlari

Stenford universiteti biznes maktabi IMVU ning dastlabki yillari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan va shu vaqtdan beri men kompaniyamiz haqidagi (yuqorida keltirilgan voqea va hodisalar) voqeani ko'p marotaba biznes misolida aytib

berishga majbur bo'ldim. Bugungi kunda kompaniya qurish borasida biz ko'rgan qiyinchiliklar misol va amaliy ko'rsatma tariqasida bir nechta biznes maktablarida, shu jumladan Garvard biznes maktabida tadbirkorlikni o'rganish dasturiga kiritilgan. Shuningdek, men kompaniyamiz haqida seminarlar, ma'ruzalar va konferensiyalarda ma'lumot beradigan bo'ldim.

Har safar seminar vaqtida, tinglovchilarni birinchi navbatda men tasvirlagan taktika qiziqtirar edi. Bu birinchi navbatda, bozorga past sifatli prototipni olib kelish va realizatsiya qilingan kundanoq xizmat haqqini olish hamda mijoz pulni berish muddati uzoqlashib ketmasligi va siz o'zingizga juda yuqori baho berib moliyaviy maqsadlar qo'ymaslik uchun katta umidlarni yaratish edi. Bu foydali usullar, ammo ular hikoyaning axloqiy normasi emas. Bu yerda juda ko'p istisnolar mavjud. Masalan, sifatsiz prototip hamma mijozlarga ham yoqavermaydi. Agar mening tinglovchilarim mahsulotga nisbatan shubha bilan qarashsa, bunday usullar o'z sohalarida yoki ularning hayotlarida qo'llanilmasligini va IMVU mahsulotidan faqat kompaniyaning dasturiy ta'minotini va onlayn biznesda faoliyat olib borish uchun foydalangani haqida aytishadi. Biroq, Tejamkor startup bunday individual yondashadigan taktikalar to'plami emas.

Bu yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga prinsipial yondashuv desak mubolag'a bo'lmaydi. Mening tavsiyalarim faqat Tejamkor startupning asosiy tamoyillarini tushunsangiz foydali bo'ladi. Ko'rib turganimizdek, ushbu model turli sohalarda qo'llanilishi mumkin: ishlab chiqarishda, restoran biznesida va hatto kir yuvish tarmog'ida ham. Ehtimol, IMVU kompaniyasining tarixida tasvirlangan taktikalar sizning biznesingizda ham qo'llanilishi mumkin. Oldinga rivojlanish uchun har bir sohadagi va har bir startapni bitta katta tajriba sifatida ko'rish kerak.

Zamonaviy dunyoda siz tasavvur qila oladigan deyarli hamma narsani yaratishingiz mumkin. Ular quyidagi

savollar orqali birinchi qadamni qo'yadi: Mahsulotni qanday yaratish kerak?

Ushbu mahsulot va xizmatlar to'plami atrofida hayotiy biznesni qurishimiz mumkinmi?

Ushbu savollarga javob berish uchun sizga biznes rejani tarkibiy qismlari tizimli ravishda ajratish va bu qismlarning har birini empirik ravishda sinab ko'rishga imkon beradigan usul kerak. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy uslub zarur. Tejamkor startap tizimida har bir mahsulot, har bir variant, har bir marketing kompaniyasi ma'lumotli bilim olish uchun eksperiment deb hisoblanadi. Yuqorida ko'rib turganimizdek, ushbu eksperimental yondashuv turli xil sanoat va tarmoqlarda muvaffaqiyatli bo'lgan.

Katta maqsadlar sari kichik qadamlar bilan

Zappos dunyodagi eng katta poyabzal do'koni hisoblanadi. Uning yillik daromad aylanmasi bir milliard dollardan oshadi. Bu dunyodagi eng muvaffaqiyatli va foydalanuvchilarga qulay bo'lgan gigant onlayn do'konlardan biri hisoblanadi, ammo kompaniyaning hozirgi holati har doim ham boshida ta'rif etilganchalik bo'lmagan.

Hammasi Zappos asoschisi, Nik Suinmern poyabzallarning o'ziga xos va keng miqyosidagi tanlovini topa olmaganidan boshlandi. U xaridorlarga yangi va juda yaxshi alternativaga ega mahsulotni taklif qilishga qaror qildi. Suinmern yaxshi sifatli mahsulotni kutishi va birinchi navbatda, unga bo'lgan o'z qarashlarini sinab ko'rishga tayyor edi. Bunga omborlardagi to'liq hajm, mahsulotni tarqatish sikli va rejalashtirilgan sotuvlar orqali erishmoqchi bo'ldi.

Ko'pgincha elektron tijorat ishbilarmonlari o'z operatsiyalarini xuddi shu yo'sinda amalga oshiradilar, jumladan Webvan va Pets.com kabi taniqli dot-kom egalari ham shu strategiyadan foydalanadilar. Shunga monand, u bu

strategiyalar ustida tajriba qilishni boshladi. Uning taxminiga ko'ra, xaridorlar poyabzallarni internet orqali onlayn sotib olishga tayyor. Buni amalda qo'llash uchun birinchi bo'lib u mahalliy poyabzal do'konlarini birma-bir aylanib chiqdi va ularning assortimentini suratga olishga ruxsat so'radi.

Mahsulotlarni rasmga olish evaziga ularni veb-saytiga joylashtirishni va'da qildi. Agar xaridor mahsulotni sotib olish uchun buyurtma bergan bo'lsa, u do'konlardan odatdagi narxlarda poyabzal sotib olishi mumkin edi. Zappos biznesi oddiy va kamtarona xizmat ila boshlangan edi. Avvalo Suinmern bir narsani bilmoqchi bo'ldi: qulay onlayn poyabzal do'koniga talab bormi o'zi? Suinmern minglab gipotezalar ichidan ko'plab boshqa farazlarni ham sinab ko'rdi. Poyabzallarni sotish uchun kompaniya iste'molchilar bilan o'zaro aloqada bo'lishi kerak. Ular to'lovni qabul qilishi, mahsulotni qayta ishlashi va mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatini yaratishi kerak edi. Ushbu yondashuv an'anaviy marketing tadqiqotlaridan keskin farq qiladi. Agar Suinmern mavjud bozor tadqiqotlariga tayanadigan bo'lsa, yoki tadqiqotni o'zi olib boradigan bo'lsa, u mijozlar nimani xohlashlarini o'zlarining fikriga ko'ra aniqlab bergan bo'lar edi. Ammo buning o'rniga u juda sodda ko'rinishda bo'lsa, ham yangi mahsulot yaratishga muvaffaq bo'ldi va shu kashfiyot tufayli u ko'p narsalarni bilib oldi. Xo'sh! Suinmern nimalarni tajriba sifatida o'rgandi ekan deb o'ylayotgandirsiz. Keling, birma-bir ko'rib chiqaylik!

1. U kompaniya iste'molchilar talabi bo'yicha aniq ma'lumotlarni yig'di, chunki u iste'molchilarga nazariy savollar berishdan ko'ra ko'proq ularning real xatti-harakatlarini kuzatishni lozim topgandi.

2. U haqiqiy mijozlar bilan muloqot qilish va ularning ehtiyojlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, biznes-reja chegirmalarga bo'lgan ehtiyojni oqlashi mumkin, ammo diskontlash strategiyasi mahsulotni idrok etishga qanday ta'sir qiladi?

3. Mijozlar Suinmern kutmagan tarzda o'zini tuta boshladilar va shu orqali u, ehtimol, hatto so'rash orqali o'rganish kerak bo'lgan narsani so'ramay bilib olishga olib keldi. Misol uchun, agar xaridorlar sotib olingan poyabzallarni qaytarib berishni boshlashsa qanday yo'l tutishi kerak?

Zapposning birinchi tajribasi aniq natijalarni berdi: onlayn poyabzal do'koni xaridorlarni jalb qila oladimi yoki yo'qmi degan savolga javob berdi. Shuningdek, bu kompaniyaga mijozlar va sheriklarning xatti-harakatlarini kuzatish, ular bilan ishlash va ulardan o'rganish imkoniyatini berdi. Dastlab kompaniyaning xatti-harakatlari juda kichik tebranishlarni amalga oshirdi, ammo bu uning buyuk qarashlarini amalga oshirishga xalaqit bermadi. Uni 2009-yilda elektron tijorat giganti Amazon sotib olgan. Ba'zi taxminlarga ko'ra, bitim 1,2 milliard dollarni tashkil etgan.

TAJRIBA mahsulot demakdir

Tejamkor startap tizimida eksperiment (tajriba) nafaqat nazariy o'rganish, balki u startapning asosiy mahsulotidir. Agar bir necha tajribalar ichidan hech bo'lmasa birortasi muvaffaqiyatli chiqib qolsa, bu menejerga yangi loyihani qo'llab-quvvatlash uchun yangi kompaniyani ishga tushirishga imkon beradi, ya'ni mahsulot sotib oluvchilarni jalb qilish, ular yordamida keyingi tajribaga yangi mijozlarni taklif qilish va nihoyat mahsulot ishlab chiqarishga start berish. Mahsulot bozorga yetib borguncha allaqachon talabga ega bo'ladi, ba'zi muammolar hal qilinadi va kelajak uchun batafsil texnik tavsiflar ishlab chiqiladi. Ular ertaga nima bo'lishi mumkinligi haqidagi prognozlarga emas, balki bugungi kunda ish beradigan narsalar haqidagi bilimga asoslanadi.

Keling, bu amalda qanday sodir bo'lishini ko'rib chiqaylik. Kodak kameralar va plyonkalar ishlab chiqaruvchi katta kompaniyalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib esa

u Kodak galereyasining keng ko'lamli onlayn loyihasiga ham egalik qiladi. Mark Kuk Kodak galereyasining vitseprezidenti. Uning vazifasi Kodak galereyasi madaniyatiga asoslanib eksperimentlar o'tkazishdir. Mark: "Mahsulot menejeri odamlar mana bu narsalarga ehtiyoj sezadi" deb aytadi. Dasturchi esa:

"Yaxshi, men ushbu tajribalarni bajaraman" deb javob beradi. "Lekin avvalo odamlar mening to'rtta savolimga javob berishlarini istayman":

1. Iste'molchilar biz hal qilmoqchi bo'lgan muammolari borligini tan olishadimi?

2. Agar siz ularga ushbu muammoning yechimini taklif qilsangiz, ular buning uchun to'lashga tayyormi?

3. Ular aynan bizning mahsulotimiz uchun pul to'lay oladilarmi?

4. Agar yuqoridagi hamma savollarga ha deb javob bersangiz, ularning muammolariga yechimni taklif qilishga qurbimiz yetadimi?

Ko'pincha, mahsulot ishlab chiqaruvchilar mijozlar muammoga duch keladimi-yo'qligini aniqlamasdan to'rtinchi savolga to'g'ridan to'g'ri javob berishga kirishib ketishadi. Masalan, tez kunlarda Kodak Gallery foydalanuvchilarga yangi mahsulotni taqdim etdi: oltin bilan ishlangan matnli va grafikali to'yga taklifnomalar. Mazkur harakatlar muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi va guruh boshqa maxsus bayramlar va uchrashuvlar uchun taklifnomalar va kartalarni yaratishni boshladi. Bozorni o'rganish va ishlab chiqish jarayoni iste'molchilarga yangi mahsulotlar ma'qul kelishini isbotladi va shuning uchun ularni yaratish uchun juda ko'p ishlar qilgan.

Ammo bozorda yangi mahsulot chiqarilishidan bir necha kun oldin, ishlab chiquvchilar odamlar uchun postkartalarning ko'rinishini tasavvur qilish qiyinligini saytdagi tavsiflaridan bilib oldilar. Ushbu tavsiflar aslida qanchalik

go'zal ekanligi haqida tasavvur bermaydi. Bundan tashqari, yangi postkartalarni tayyorlash qiyin bo'lib chiqdi. Kuk uning jamoasi muammoga noto'g'ri tomondan yondashganini tushunib yetdilar. U shunday tushuntiradi: "Biz mahsulotni qanday sotishimiz va ishlab chiqarishimiz haqida avval o'ylamagan edik, shuning uchun uni loyihalashtirishga vaqt kerakemasedi". Kukxulosalar chiqarib, boshqachayondashuvni taklif qildi. U tadbirda yoki tadbir davomida olingan fotosuratlarni almashish xizmati uchun yangi variantlarni ishlab chiqishga rahbarlik qildi. Jamoa ushbu tadbirning onlayn albomi to'ylarda, konferensiyada va hokazolarda qatnashadigan odamlarga boshqa ishtirokchilar bilan fotosuratlar almashishda yordam beradi deb hisoblashgan. Boshqa onlayn fotosuratlar almashish xizmatlaridan farqli o'laroq, Kodak Gallery foydalanuvchilarning shaxsiy hayotini himoya qilishga alohida e'tibor qaratdi. Fotosuratlarni faqat o'sha tadbirda qatnashganlar almashishi mumkin edi. Kuk yangi usullarda ishlashga qat'iy qaror qildi va guruhga barcha xatarlarni aniqlashda va yangi variantlarni yaratishdan oldin gipotezalarni ishlab chiqishda yordam berdi. Keyin ushbu gipotezalar eksperimental ravishda sinovdan o'tkazildi. Faoliyat albomi ikkita asosiy taxminlarga asoslangan edi:

Foydalanuvchilar bunday albomlarni yaratishni xohlashadi.

Tadbir ishtirokchilari o'zlarining do'stlari yoki hamkasblari tomonidan yaratilgan albomga yangi fotosuratlarni yuklashadi.

Kodak Gallery jamoasi albomning oddiy prototipini yaratdi. Bunda ko'plab imkoniyatlar yo'q edi. Aslida bu prototip shunchalik xom ediki, jamoa uni mijozlarga ko'rsatishdan qo'rqardi. Biroq, ularga prototipdan foydalanishga ruxsat berish orqali, ishlab chiquvchilar dastlabki ishlarini shunday bosqichda sinab ko'rishdi, natijada ular tasdiqlandilar. Albom yaratish ishchilarga oson bo'lmadi: birinchi foydalanuvchilarning hech biri buni uddalashga muvaffaq bo'lmadi.

Shuningdek, foydalanuvchilar xizmatning birinchi versiyasida muhim variantlar yo'qligidan shikoyat qildilar. Bunday natijalarni jamoa kutmagan edi. Ishlab chiquvchilar komfort muammosi va mijozlarning yetishmayotgan variantlar haqida shikoyatlari haqida tashvishlandilar, ammo bu variantlarning aksariyati asl xizmat konsepsiyasiga mos edi. Shunday qilib, umuman olganda loyiha ancha muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi. Dastlabki kamchiliklar, aslida foydalanuvchilar voqealar va xotiralarga limmo-lim to'la albomlarini yaratishga urinishlar qilayotganini anglatar edi va bu juda qimmatli ma'lumotlar edi. Mijozlar yetishmayotgan variantlar haqida shikoyat qilganda esa, ushbu harakatchan jamoa to'g'ri yo'lda ekanligini anglatardi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ishlab chiquvchilar ham ushbu variantlar haqiqatan ham muhimligini isbotladilar. Ammo foydalanuvchilar shikoyat qilmagan variantlar haqida nima deyish mumkin? Ehtimol, ular avvalgidek ahamiyatli bo'lib chiqmagandir.

Beta-versiyani ishga tushirgandan so'ng jamoa tajribalarni o'rganishni va takrorlashni davom ettirdi. Dastlabki foydalanuvchilar bu borada g'ayrat ko'rsatdilar, ularning soni yetarlicha edi, tabiiyki, bu miqdor jamoani katta kashfiyotlar qilishga undaydi. Onlayn so'rovnoma Kiss Insinght vositasidan foydalangan holda ishlab chiquvchilar boshqalarning rasmlarni baham ko'rishga taklif qilishdan oldin, ularning joylashtirilish tartibini belgilashni istashlarini aniqladilar. Kuk bu xizmat hali bozorga chiqishga tayyor emasligini tushundi, shu haqiqatni bilib turib bo'linma bosh direktorini yana ozgina kutishga undasa adolatsizlik bo'lar edi. Kuk ularga marketing kompaniyasining faoliyatini boshlashdan oldin tajriba o'tkazish natijalarini keskin yaxshilaydi deb tushuntirdi. Marketing amaliyotini boshlash sanalari bir necha oy oldin rejalashtirilgan yirik korporatsiya, kichik jamoa o'z muammolarini hal qilishini kutish iltimosi, yumshoqroq qilib aytganda, g'alati edi. Ammo mazkur yondashuv Kodak Gallery loyihasini tubdan o'zgartirib yubordi. Xodimlar

ilgari o'zlarining ishlarini o'zlariga yuklatilgan vazifalari muvaffaqiyatli bajarganligiga qarab baholanib borishiga odatlangan edi. Kuk aytadiki: "Muvaffaqiyat bu yoki boshqa variantni taklif qilish emas, balki muvaffaqiyat bu mijozning muammosini qanday hal qilishni tushunishda".

Tejamkor startap hukumat nazdida

2010-yil 21-iyulda Prezident Barak Obama "Moliya sektorini tartibga soluvchi islohotlar to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Unga muvofiq yangi federal agentlik – Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish byurosi tashkil etilishi kerak edi. Uning vazifasi Amerika fuqarolarini vijdotsiz va o'z nafsi ravnaqi uchun ishlaydigan moliyaviy kompaniyalardan himoya qilishdir. Rejaga ko'ra, yangi agentlikda maxsus o'qitilgan xodimlar aholidan qo'ng'iroqlarni qabul qiladigan, axborot-chaqiriq markazi paydo bo'lishi kerak edi. Agar agentlik rahbarlari an'anaviy menejment amaliyotiga rioya qilishni tanlasalar, ular ko'p sonli ishchi kuchi xodimlarini va katta miqdorda budjet, vaqt va xarajatlarning qoplanishini talab qila oladigan reja ishlab chiqishlari kerak bo'lardi edi. Ammo ular boshqacha yo'l tutishga qaror qilishdi. 500 million dollarlik budjet va yuqori qismning qo'llab-quvvatlashiga qaramay, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish byurosi haqiqiy startap hisoblanar edi. Prezident Obama o'zining texnologiya bo'yicha maslahatchisi Anish Chopradan yangi startap agentligini tashkil qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar va g'oyalarni to'plashni talab qildi.

Meni ham ushbu loyihada ishtirok etishga taklif qilishdi. Silikon vodiysiga navbatdagi tashrifi chog'ida Chopra bir nechta tadbirkorlar bilan uchrashdi va ulardan yangi agentlikda startap madaniyatini qay tarzda yaratish bo'yicha fikr-mulohazalar almashishni so'radi. Xususan, Chopra startap agentligining faoliyatini samarali va tejamkor qilish uchun texnologiyalar va innovatsiyalardan qanday foydalanish

haqida qiziqish bildirdi. Agentlikning amaldagi rejasi asosida yotgan birinchi gipoteza shundan iboratki, amerikalik fuqarolar moliya kompaniyalari tomonidan firibgarliklarga duch kelsa, Byuroga buni xabar berishlari lozim edi. Bu amerikaliklarning har yili qancha firibgarlik holatlariga duch kelishi haqida bozor tadqiqotlariga asoslangan holda, oqilona prognoz kabi ko'rinadi.

Biroq, ushbu tadqiqotlarga qaramay, bu shunchaki gipoteza. Agar fuqarolarning murojaatlari haqiqiy hajmi maqsaddan sezilarli darajada farq qiladigan bo'lsa, rejalar jiddiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Agar moliyaviy zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan amerikaliklar o'zlarini qurbon deb bilmasa va shuning uchun yordam so'ramasa nima bo'ladi? Agar ular uchun qanday masalalar muhim bo'lganligi to'g'risida boshqacha fikrlar bo'lsa?, ammo agentlik to'liq ishga tushgach, budjeti 500 million dollarni tashkil etadigan mablag' hamda tegishli xodimlar soni bilan rejani o'zgartirish qiyin bo'ladi – bu pul va vaqt talab qiladi. Shuning uchun, iloji boricha tezroq fikr-mulohazalar darajasini ko'targan va boyitgan afzal.

Tajribani darhol boshlash uchun startup agentligi avvalo Twilio ga o'xshagan, arzon va samarali platformadan foydalangan holda, oddiy telefon kanallarini yaratishi kerak bo'ladi. Ishga kirishgandan bir necha soat o'tgach, abonentlar duch keladigan moliyaviy muammolar ro'yxatini taklif qiladigan oddiy ovozli ko'rsatmalarni qo'shish mumkin bo'ladi. Birinchi versiyada ushbu menyu elementlari to'g'ridan to'g'ri tajriba natijalariga asoslangan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, telefon operatorlarini jalb qilishning hojati qolmaydi: u yoki bu menyu bandini tanlab, abonent shunchaki o'z muammosini hal qilish bo'yicha ma'lumotni tinglashi mumkin. Bu kabi "telefon kanallari"ni butun mamlakat bo'ylab birdaniga joriy qilish yaxshi fikr emas edi.

Ushbu operatsiyalarni bitta mahallada, ehtimol hatto bir nechta shahar kesimida boshlashingiz mumkin, misol uchun,

radio va televizion reklamalar orqali amalga oshirishingiz ham mumkin. Ishni to'laqonli boshlash uchun reklama sahifalari, mahalliy gazetalardagi reklama yoki maxsus onlayn reklamalar yetarli bo'ladi. Shu bilan birga, agentlik tanlangan mintaqa aholisini o'z faoliyati to'g'risida xabardor qilish uchun yetarli mablag' sarflashga qodir bo'ladi, chunki bu operatsiyalar uncha katta mablag' talab qilmay u kichik miqyosda bo'ladi va umuman xarajatlar unchalik ahamiyatsiz bo'ladi desa ham bo'laveradi. Moliyaviy suiiste'mol qilishning oldini olish nuqtayi nazaridan, bu kabi kam xarajat talab qiladigan mahsulot uchun sarflanadigan mablag', katta budjetga ega agentliklarga taqqoslaganda uncha katta miqdorda pul talab qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu "loyiha" katta xarajatlarni talab qilmaydi.

Xizmatning birinchi versiyasi bir necha kun yoki haftada to'liq tuzilishi mumkin, quvonarlisi butun tajriba uchun sarflangan mablag' atigi bir necha ming dollarga tushishi mumkin. Agar birinchi abonentlar qanday muammolarni hal qilishayotganini tahlil qilishga muvaffaq bo'linsa, unda amerikaliklar ko'pincha qanday muammolarga duch kelishlari haqidagi ma'lumotlar to'plashni boshlashlari va ular qanday muammolarga duch kelishlari kerakligini taxmin qilishlari uchun yo'l ochiladi. Ana shundagina, agentlik o'zining marketing xabarlarini sinab ko'rishni boshlashi mumkin bo'ladi. Real tendensiyalarni ham bilib olish mumkin bo'ladi: mintaqa aholisining necha foizi agentliklarga qo'ng'iroq orqali murojaat qiladi? Bu kabi ma'lumotlar unchalik aniq bo'lmasa ham lekin iste'molchilarning asosiy xatti-harakatlarini ochib beradi, albatta bu bozor tadqiqotlariga qaraganda ancha aniqroq tusda bo'ladi. Eng muhimi, bunday kichik loyihalar o'z samarasini bera oladigan, oxir-oqibat to'laqonli va puxta o'ylangan xizmatga aylanishi mumkin.

Oddiy eksperimentlardan boshlash orqali agentlik uzluksiz takomillashtirish jarayonini yaratishi mumkin, asta-sekin, ammo yangi, aqlli yechimlarni qo'shishini taqdim etishi

mumkin. Oxir oqibat, u yetarli miqdordagi maslahatchilarni jalb qilishi mumkin, ehtimol ular birinchi navbatda abonentlarga faqat bitta toifadagi muammolar to'g'risida maslahat berishni boshlaydilar, shunda ularning ishlari samaraliroq bo'ladi. Loyiha rasmiy amalga oshirishga tayyor bo'lganda, ushbu boshlang'ich xizmat butun boshli kelasi loyiha uchun "qurish modeli" rolini o'ynashi ham mumkin. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish byurosi o'z faoliyatini endi boshlamoqda, biroq allaqachon bir nechta tajribalarni ishlab chiqdi. Masalan, kichik geografik mintaqada xizmatni ishga tushirish o'rniga, dastlabki mahsulotlarni har xil variantlar bo'yicha taqsimlashga qaror qildi. Agentlik moliyaviy xizmatlarning taxminiy ro'yxatini ishlab chiqdi, ular bo'yicha maslahat olishdi, bunda kredit kartalari bilan bog'liq muammolar markaziy o'rinda turardi.

Birinchi tajriba davomida agentlik mulohazalarni olish uchun abonentlarning reaksiyasini diqqat bilan kuzatib bordi. Ushbu ma'lumotlar quyidagi taxminlarni ishlab chiqishga yordam berdi. Byuroning texnologiyalar bo'yicha bosh direktori Devid Forrest shunday deydi:

"Bizning maqsadimiz – Amerika fuqarolariga moliyaviy xizmatlar bozorida duch keladigan muammolar to'g'risida bizga xabar qilish imkoniyatini berishdir. Biz odamlarning aytganlarini diqqat bilan kuzatib boramiz va yangi ma'lumotlarga javob beramiz. Bozor infratuzilmasi har doim o'zgarib turadi, bizning vazifamiz ham ular bilan birga ijobiy tomonga o'zgartirishdir".

Ushbu kitobda tilga olingan tadbirkorlar va menejerlar aqlli, bilimli va misli ko'rinmagan natijaga intiladigan ishbilirmonlardir. Ular ko'pincha tashkilotni qurish jarayonida zamonaviy menejmentning eng ilg'or uslublariga muvofiq ish olib borishmoqda. Ular davlat va xususiy sektorda, har qanday sohada bir xil muammolarga duch kelishadi. Ko'rib turganimizdek, hatto dunyoning eng yaxshi kompaniyalarining tajribali menejerlari va bosh direktorlari

ham ishlab chiqarish va bozorga innovatsion mahsulotlarni olib chiqishi qiyin kechmoqda. Buning uchun menejmentning an'anaviy rejalashtirish va nazariy yondashuvlaridan tashqariga chiqish talab etiladi. Yodingizda bo'lsin, rejalashtirish – bu kompaniyaning uzoq va barqaror ish tarixiga ega bo'lgan taqdirdagina foydali bo'ladigan vosita. Ammo atrofimizdagi dunyo har kuni barqaror va shiddatli bo'lib bormoqda. An'anaviy yondashuvlarni o'zgartirish qiyin, ammo boshlang'ich muvaffaqiyat uchun ushbu prinsiplar juda muhimdir. Umid qilamizki, ushbu kitob menejerlar va tadbirkorlarga yordam beradi.

VIII BOB

Qaytish

Ko'zga ko'rinmas, qo'l bilan ushlanmas qonuniyatlar

Muvaffaqiyatli mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida har bir tadbirkor ertami-kechmi muammoga duch keladi: keskin burilishmi yoki bir xil yo'nalishda harakat qilishmi, tadbirkor qanday qilib davom etishini hal qilishi kerak. Hozirgacha suhbatlashgan barcha narsalar, oddiygina ko'rinadigan savolning muqaddimasi: biz yetarlicha oldinga siljiyapmizmi? Bizning strategiyamiz to'g'ri ekanligiga aminmizmi yoki uni tubdan o'zgartirish kerakmi? Ushbu o'zgarish pivot deb ataladi: bu mahsulot, strategiya va o'sish dvigatellari haqidagi yangi asosiy gipotezani sinash uchun ishlab chiqilgan tarkibiy o'zgarish. Tejamkor startap tizimi ilmiy uslubga asoslangan. Shunday qilib, ba'zilar u burilish yoki tanlangan yo'nalishga rioya qilishni hisoblash uchun qat'iy ilmiy formulalarni taklif qiladi deb o'ylashadi. Ammo unday emas. Inson omilini tadbirkorlikdan chiqarib tashlashning iloji yo'q – ko'rish, sezgi (intuitsiya), hukm – bu hatto insonlar tomonidan istalmagan omildir!

Mening fikrimcha, bu holda ilmiy yondashuvning ahamiyati shundaki, u odamlarning ijodiy salohiyatini eng samarali tarzda tashkil etishga imkon beradi. Axir, nima bo'lishidan qat'i nazar, muvaffaqiyatsiz strategiyani ta'qib qilishga urinishlardan boshqa hech narsa ijodga zarar yetkazmaydi. Vaqt o'tishi bilan yo'nalishni o'zgartirish uchun olgan mulohazalariga ishona olmaydigan kompaniyalar tirik-o'liklar yurtida adashib qolish xavfini tug'diradi: ular o'sishi mumkin emas, lekin bu batamom o'lganligini anglatmaydi, resurslardan foydalanishda davom etishadi, xodimlarning fidoyiligi va boshqa manfaatdor tomonlar va shunchaki vaqtni belgilash. Biroq, o'zingizning chiqargan hukmlaringizga ishonish yomon narsa emas. Odam sifatida biz o'rganamiz, tabiatan ijodkormiz va atrofimizdagi shovqinli bo'lsa, ham aniq signallarni farqlay olamiz. Biz bularni shunchalik yaxshi bajaramizki, ba'zida signal bo'lmagan narsalarni ham his eta olamiz. Aslini olganda insoniyatning aksar fikri-mulohazalari noto'g'ri bo'lib chiqadi, ammo siz doimo o'z prinsiplaringizni sinab ko'rish orqali obyektivlikka erishishingiz mumkin. Bu ilmiy uslubning asl mohiyatidir. Mahsuldorlik bu yangi vidjetlar yoki variantlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq emas. Bu biznesni rivojlantirish va kompaniyaning o'sishini ta'minlash uchun qiymat yaratish va rivojlanishiga yordam beradigan mahsulot ishlab chiqarish faoliyati haqidadir. Boshqacha qilib aytganda, huquqni yo'naltirish bizni hayotiy biznesni qurishga yaqinlashtiradi.

YANGILIKLAR JARAYONNI TEZLATADI

Devid Binetti

Votizen kompaniyasining bosh direktori Devid Binetti bilan tanishamiz. Devid ko'p yillar davomida siyosatchi lavozimida faoliyat yuritib keldi. 1990-yillarning boshlarida Devid birinchi federal hukumat portali bo'lgan USA.gov ni yaratishda o'z hissasini qo'shishga muvaffaq bo'lgan.



Shuningdek, u yirik startap asoschilari duch kelgan klassik muvaffaqiyatsizliklarga ham uchragan. Ammo Votizen kompaniyasini barpo qilish vaqti kelganida, Devid muvaffaqiyatga erishishga qat'iy niyat qildi. Devidni fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish mavzusi qiziqtirar edi. Uning birinchi g'oyasi saylovchilarning ijtimoiy tarmog'ini joriy etish bo'lgan. U ma'lum bir ijtimoiy

muammolarga yechim topish uchun tashabbuskor bo'lgan odamlarning muloqot qilishi, fikr almashishi, yangi do'stlar va tarafdorlarni topishi uchun makon yaratmoqchi edi. Devid birinchi minimal ishlaydigan mahsulotni yaratish uchun 1200 dollardan ziyod mablag' va taxminan uch oy sarf qildi. Devid hech kim uchun kerak bo'lmagan loyihani bajarishga urinmadi. Dastlabki kunlardan oq Votizen kompaniyasi, o'zining asosiy konsepsiyasi ma'qul kelgan qabul qiluvchilarni jalb qila oldi. Hamma tadbirkor singari, Devid ham o'z mahsuloti va biznes modelini yaxshilashi kerak edi. Ammo eng qiyini, ma'lum yutuqlarga qaramay, u burilishga qaror qilishi kerak edi.

Devidning asosiy konsepsiyasi to'rtta dadil qadamlarga asoslangan edi:

1. Mijozlar ijtimoiy tarmoqdan ro'yxatdan o'tish uchun yetarli darajada qiziqishadi. (Ro'yxatdan o'tish.)
2. Votizen kompaniyasi foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tgan paytda saylovchi ekanligini tasdiqlashi mumkin. (Faollashtirish.)
3. Saylovchilar ro'yxatiga olingan mijozlar oxir-oqibat o'zlarining ijtimoiy loyihalarini ishlab chiqish uchun sayt vositalaridan foydalanadilar. (Ushlab turing.)

4. Faol foydalanuvchilar do'stlariga ushbu xizmat haqida aytib berishadi va ularni o'z loyihalariga jalb qilishadi. (Tavsiyalar.)

Uch oy o'tgach, Devidning birinchi MVPsi tayyor bo'ldi va bozorga kirdi. Dastlabki kohort (kohort – tajriba yoki amaliyotda ishtirok etgan insonlar guruhi) tahlilida, 5%i xizmatlardan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tgan va 17%i o'zlarining saylovchilik maqomlarini tasdiqladilar (8.1-jadvalda keltirilgan). Raqamlar shu qadar past ediki, Devid shunchaki qamrov darajasi yoki tavsiyalar soni qanday bo'lishi mumkinligini aniqlash uchun yetarli ma'lumotlarga ega emas edi. Sinovni boshlash vaqti keldi.

8.1-jadval

Birinchi MVP	
Ro'yxatdan o'tish	5%
Faollashtirish	17%
Ushlab qolish	Juda past
Tavsiya berish	Juda oz

Devid keyingi ikki oyni va yana 5000 dollarlik mablag'ni mahsulotning yangi variantlarini sinab ko'rishga, xabar almashish xizmatini yaratishga va dizaynni takomillashtirishga sarfladi. Ushbu testlar sezilarli o'sishni ko'rsatdi: ro'yxatdan o'tish parametri uchun 5 dan 17% gacha va faollashtirish parametri uchun 17 dan 90% gacha ko'tarildi. Split (split testi bu bir nechta variantlarni amaliyotda sinab ko'rish jarayoni) testning kuchi shunda! Ushbu optimallashtirish operatsiyalari Devidga juda muhim mijozlarni keltirdi. Endi u keyingi ikkinchi qadamlarini sinab ko'rishni mumkin edi. Biroq, 8.2-jadvalda ko'rsatilganidek, bu raqamlar yanada salbiy edi: tavsiya darajasi atigi 4%, saqlash darajasi esa 5% edi.

8.2-jadval

	Birinchi MVP	Optimallashtirishdan so'ng
Ro'yxatdan o'tish	5%	17%
Faollashtirish	17%	90%
Ushlab qolish	Juda past	5%
Tavsiya berish	Juda oz	4%

Devid rivojlanish uchun olib borilayotgan sinovlarni davom ettirish zarurligini ko'rdi. Keyingi uch oy ichida u mahsulotni optimallashtirishga muvaffaq bo'ldi, bunda Split testi sinovlari yaqindan yordam berdi. U mijozlar bilan suhbatlashib bir necha guruhlar tashkil qildi va ularda tajriba o'tkazdi. Yuqorida bilib olganimizdek, xaridorlarning turli xil guruhlaridan bir vaqtning o'zida sinovdan o'tkazish taktikasi mahsulotning turli xil versiyalari bir necha natijalarni taqdim etadi. Ushbu ikki guruhning xatti-harakatlarini kuzatib, turli xil o'zgarishlarning ta'siri to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. 8.3-jadvalda ko'rsatilganidek, tavsiyalar soni biroz oshdi – 6% atrofida, saqlash darajasi esa 8% ni tashkil etdi. Devidning havsalasi pir bo'lgan edi: u umid qilgan o'sish modeliga mos kelmaydigan mahsulot yaratish uchun sakkiz oy va 20 ming dollar sarflagan edi.

8.3-jadval

	Optimal- lashtirishga qadar	Optimal- lashtirishdan so'ng
Ro'yxatdan o'tish	17%	17%
Faollashtirish	90%	90%
Ushlab qolish	5%	8%
Tavsiya berish	4%	6%

Devid muammoga duch keldi. U boshqa yo'l tomon ketishi kerakmi yoki mo'ljallangan yo'lni davom ettirish kerakligi

to'g'risida qaror qabul qilishi kerakmi? Bu tadbirkorlar duch keladigan eng qiyin qarorlardan biridir. Tadqiqotlar va izlanuvlar jarayoni eng oson yechimni topish uchun emas, balki qaror qabul qilish vaqti kelganida sizda yetarli ma'lumot borligiga ishonch hosil qilish uchun. Bu vaqtga kelib, Devid ko'plab foydalanuvchilar bilan suhbatlar o'tkazib bo'lgan edi. U yaratilgan mahsulot variantlarini yaxshilashga imkon beradigan ko'plab ma'lumotlarni to'pladi. Tadbirkorlarning ko'pchiligi aynan shu narsani qilishadi. Silikon vodiysida biz buni "tirik o'liklar yurtida yopishib qolish" deb ataymiz. Bu kompaniya kichik muvaffaqiyatga erishgan vaqtida sodir bo'ladi – bu hayotni davom ettirish uchun yetarli, ya'ni tirik qolish uchun yetarli, lekin ta'sischi va investorlarning kutgan natijalariga to'g'ri kelmaydi. Bunday kompaniyalar inson energiyasini behuda sarflaydi. Xodimlar va ta'sischi muvaffaqiyatga ishonishda davom etadilar va taslim bo'lmaydilar.

Devidning bu achinarli taqdirdan qochishida yordam bergan ikkita afzalligi bor edi:

1. Ambitsial tuyulganiga qaramay, u mahsulotni iloji boricha tezroq ishlab chiqarish va turli xil variantlarni sinab ko'rishni boshlash uchun barcha sa'y-harakatlarini qildi. Natijada, u kompaniya tashkil etilganidan sakkiz oy o'tgach, "keskin burilish yoki davom etish" dilemmasiga duch keldi. G'oyaga qancha ko'p pul, vaqt va ijodiy energiya sarmoya kiritilsa, burilish qilish shunchalik qiyin bo'ladi. Devid bu tuzoqdan qochishga muvaffaq bo'ldi.

2. Devid boshidanoq o'zining keskin burilish pog'onalarini aniq shakllantirgan va eng muhimi, ularning har biri uchun miqdoriy bashoratni oldindan amalga oshirgan. Misol uchun aktivizatsiya kabi ba'zi bir ko'rsatkichlar juda yaxshi ko'rsatkichga ega bo'ldi. Umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha kompaniya yaxshi o'sishga erishdi. Ammo Devid o'zining har bir qadami uchun amaldagi ko'rsatkichlarga e'tibor

qaratdi va shu sababli uning kompaniyasi o'zi xohlagan tarzda rivojlanmayotganini ko'rdi. Bundan tashqari, u o'z kuchini vaqtdan oldin va foydasiz PR kompaniya (stansiya) lariga sarflamadi, shuning uchun u jamoat oldidagi sharmandagarchilikdan qo'rqmasligi kerak edi.

Muvaffaqiyatsizlikdan o'rnak olmagan inson unga duchor bo'lib o'rnak olishga mahkumdir. Agar biz shunchaki mahsulotni bozorga olib borib, nima bo'lishini kuzatadigan bo'lsak, ehtimol unda muvaffaqiyatga erishamiz. Ammo keyin nima bo'ladi? Agar bizda bir nechta mijozlar bo'lib, ehtimol nima qilish kerakligi haqida besh xil turlicha fikrlar mavjud bo'lsin deylik. Qaysi birini tinglash kerak?

Votizenning natijalari yomon emas edi, ammo baribir Devidni xursand qila olmadi. U optimallashtirish ish faoliyatini yaxshilaganiga amin bo'ldi, ammo ular hayotiy biznesni yaratish uchun yetarli darajada emas edi. Biroq, barcha muvaffaqiyatli tadbirkorlar singari, u ham taslim bo'lmadi. Devid yangi farazni sinab ko'rishga qaror qildi. Qaytish uchun siz bir oyog'ingiz bilan yerga mahkam o'rnashishingiz va biz o'rgatgan ko'nikmalarni hisobga olishingiz kerak, shu bilan birga zamonaviy bilimlarga ega bo'lish strategiyasini tubdan o'zgartirishingiz kerak. Devid uchun eng muhimi foydalanuvchilar bilan bevosita aloqada bo'lish edi. Sinov paytida foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarida doimiy ravishda uchta mavzu paydo bo'ldi:

1. Men har doim ijtimoiy loyihalarda faolroq bo'lishni xohlayman va bunda menga ushbu sayt yaqindan yordam beradi.

2. Meni saylovchi sifatida tasdiqlashingiz muhim ahamiyatga ega.

3. Bu yerda hech kim yo'q. Bu yerga yana bir bor kelishning nima keragi bor?

Devid o'z faoliyati masshtabini kengaytirishga qaror qildi. Bu mahsulotni qayta sozlash va ilgari katta hajm uchun faqat bitta variant deb hisoblangan variantlarga e'tibor

qaratish haqida. Iste'molchilarning yuqoridagi fikrlarini eslang: odamlar sayt konsepsiyasini ma'qul ko'rishdi, ularga saylovchilarni ro'yxatdan o'tkazish texnologiyasi yoqqan edi, ammo ular buni ijtimoiy tarmoq sifatida ko'rmadilar.

Devid amaldagi konsepsiyani o'zgartirishga qaror qildi va Votizenni @2gov nomli loyihaga aylantirdi. Bu ijtimoiy lobbi (maslahat, fikr almashish) platformasi edi. Bu @2gov ning maqsadi mijozlar o'rtasidagi faol ijtimoiy tarmoq tashkil etish emas, ulash emas, balki Twitter kabi mavjud ijtimoiy tarmoqlar orqali ular ovoz bergan shaxslar bilan tez va oson bog'lanishiga yordam berishdir. Mijoz so'rovni raqamli tarzda yuboradi va @2gov ni qog'oz formatga o'tkazadi. Natijada, Kongress a'zolari qog'ozga bosilgan odatdagi eskirgan xatlar va iltimosnomalarni qabul qilib oladilar. Boshqacha qilib aytganda, @2gov o'z foydalanuvchilarining yuqori texnologiyalar dunyosini an'anaviy siyosat dunyosi bilan bog'laydi.

@2gov portali biroz boshqacha interfeys va ishlash prinsipiga ega edi. Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, ularning saylovchilar maqomini tasdiqlash va do'stlariga tavsiya qilish qobiliyati saqlanib qoldi, ammo o'sish modeli o'zgardi. @2gov foydalanuvchini jalb qilishda emas, balki tranzaksiyalarga yo'naltirilgan edi. Devidning gipotezasi shundaki, haqiqiy faollar @2gov uchun o'z tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi saylovchilar nomidan siyosatchilarga murojaat qilishni osonlashtirishi uchun pul to'lashga tayyor.

Yangi MVP yaratish uchun to'rt oy va yana 30,000 \$ kerak bo'ldi. Shu vaqtgacha u atigi 50 ming dollar sarflagan va bir yilga yaqin qattiq mehnat qildi. Ammo keyingi test sinovlari natijalari diqqatga sazovor bo'ldi: ro'yxatdan o'tish darajasi 42%, faollashuv 83%, ushlab qolish 21% va tavsiyalar esa 54%. Biroq, mahsulotga to'lashni istagan foydalanuvchilar soni hali ham 1% dan kam edi. Devidning har qancha urinishlariga qaramay, har bir operatsiyaning qiymati foydali biznes yaratish uchun juda past edi.

Devidning navbatdagi faoliyatiga yetib borishdan oldin, u qanday qilib yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lganiga e'tibor bering. Buni bevosita 8.4-jadvalda ko'rishingiz mumkin.

8.4-jadval

	Burilishgacha	Burilishdan so'ng
O'sish mexanizmi	"yopishqoq"	"pullik o'sish"
Ro'yxatdan o'tish darajasi	17%	42%
Faollashtirish	90%	83%
Ushlab qolish	8%	21%
Tavsiya qilish	6%	54%
Kirim	Ma'lumot yo'q	1%
Talabgorning hayot sikli qiymati	Ma'lumot yo'q	minimal

U boshqalarga qaraganda ko'proq mehnat uchun emas, balki aqlli ishlagani uchun muvaffaqiyatga erishdi. U mahsulot ishlab chiqarish uchun yetarli resurslarni oldi va yangi loyihalarga jalb qildi. Dastlabki to'rt oylik optimallashtirish bilan taqqoslaganda, dilemmadan keyingi to'rt oy, investitsiya rentabelligi bo'yicha ancha yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatdi, ammo Devid hali ham tadbirkorlar tuzog'iga tushib qolgan edi. Ushbu tuzoq quyidagicha ko'rinishga ega: mehnat unumdorligi va mahsulot ijobiylashib borar edi, ammo biz xohlagan darajada tez emas. U foydalanuvchilar kontaktlar uchun pul to'lashga tayyor emasligini tushundi. Shuning uchun u ma'lum siyosiy kompaniyalar bilan bog'liq bo'lgan professional yoki ishbilarmonlik manfaatlariga ega bo'lgan yirik tashkilotlarga, professional tarzda jalb qiluvchi fondlarga va korporatsiyalarga murojaat qildi. Ushbu kompaniyalar Devidning xizmatiga katta qiziqish bildirishdi va uni undan foydalanish uchun to'lashga tayyor ekanliklariga

ishontirishdi. Devid darhol ular bilan shartnomalarni imzoladi. Ushbu burilishni xaridor segmentining egilishi deb atash mumkin.

Devid mahsulotning funksiyasini emas, balki maqsadli auditoriyani o'zgartirdi. U alohida iste'molchilardan kompaniyalarga va notijorat tashkilotlarga o'tib, uning xizmatiga kim to'layotganiga e'tibor qaratdi. Boshqacha qilib aytganda, Devid B2C modelidan (kompaniya iste'molchiga) B2B modeliga (kompaniyadan kompaniyaga) tizimiga o'tdi. Bu jarayonda u o'sish modelini o'zgartirdi va har bir B2B savdosidan olinadigan foyda hisobiga kompaniyaning rivojlanishini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishini birmuncha vaqt kutdi. Uch oy o'tgach, Devid o'z-o'ziga va'da qilgan funkcionallik darajasiga yetdi. U mablag' yig'ish maqsadida yana ushbu kompaniyalarga murojaat qildi, ammo yangi muammoga duch keldi. Kompaniyalar birin-ketin qarorni keyinga qoldirishga qaror qilishdi va yakunda hamkorlik qilishdan bosh tortishdi. Ular shartnomaga imzo chekish uchun yetarlicha turtki berishgan edi, ammo bitimlarni buzish uchun bu imzolar qo'yilmagan edi.

Ma'lum bo'lishicha, Devid ishongan tashkilotlar yangi xizmat turini qabul qilmagan edi. Ushbu shartnomalarga tayanib, Devid o'z xodimlari ko'lamini kengaytirib, ko'plab sotuvchilar va ishlab chiquvchilarni jalb qildi – u korporativ mijozlar uchun biznes hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishni niyat qilgan edi. Ushbu umidlar puchga chiqdi va butun jamoa boshqa manbalardan mablag' yig'ish uchun qo'shimcha kuch sarflashga majbur bo'ldi. Devid va uning jamoasi barcha harakatlariga qaramay, xususan, mahsulotni optimallashtirish bo'yicha bo'lgan ishlarga qaramay, model ish bermadi. O'zining "to'rtta dalil qadamlar"iga qaytib, Devid haqiqiy natijalar uning korporativ mijozlar uchun xizmatning jozibadorligi haqidagi farazini rad etish xulosasiga keldi hamda yana keskin burilishga qaror qildi.

Shu vaqtgacha Devid potensial mijozlardan o'rganishni va ularning fikrlarini olishni davom ettirgan edi, ammo vaziyat beqaror bo'lib qoldi. Siz xodimlar oyligini bilim bilan to'lay olmaysiz va bunday vaziyatda yangi sarmoyalarni jalb qilish muammoni yanada kuchaytiradi. Kompaniya kichik bo'lsa, ham uning o'sishsiz investitsiyalarni jalb qilish juda xavfli qaror hisoblanadi. Agar Devid mablag' to'play olganida edi, u kompaniyani ushlab turishi mumkin edi va pul o'sish dvigateliga ketgan bo'lar edi. U o'zini juda qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin: o'sish mexanizmining ishlashi uchun investorlarning mablag'laridan foydalanish yoki kompaniyani to'xtatish (yoki uni butunlay tark etish) xavfi yuzaga kelishi mumkin.

Devid shtatni qisqartirishga qaror qildi. Bir vaqtning o'zida bitta mijozga dastur berish o'rniga, Devid Google Adwords platformasidan ilhomlanib yangi o'sish modelini o'ylab topdi. U o'z-o'zini sotishga asoslangan platformani yaratdi, bu yerda har kim faqat kredit karta orqali mijozga aylanishi mumkin edi.

Shu tarzda, agar siz biron-bir ijtimoiy tashabbusga ishtiyoqmand bo'lsangiz, yangi tarafdorlarni topishda sizga yordam berish uchun @2gov ga tashrif buyurishingiz mumkin. Ilgari bo'lgani kabi, yangi tarafdorlar ro'yxatdan o'tgan saylovchilar edi va shuning uchun ularning fikri ular saylaganlarga muhim edi. Yangi mahsulotni yaratish uchun Devidga atigi bir oy vaqt ketdi va natijalar darhol paydo bo'ldi: 51% ro'yxatdan o'tishga, 92% faollashtirish, 28% saqlash darajasi va 64% tavsiya qilish darajasi (8.5-jadvalda ko'rsatilgan). Eng muhimi, yangi xaridorlarning 11% har bir xabar uchun 20 sent to'lashga tayyor edi. Shu bahonada, samarali bo'lishi mumkin bo'lgan o'sish modeli dunyoga keldi. Bu har bir xabar uchun 20 sentga o'xshab ketishi mumkin, ammo bu juda yuqori tavsiyanomalar @2gov trafikni deyarli hech qanday marketing mablag'lari sarflanmasdan boshqarishi mumkin edi (bu virusli o'sish vositasi deyiladi).

	Burilishgacha	Burilishdan so'ng
O'sish mexanizmi	"pullik o'sish"	"virusli"
Ro'yxatdan o'tish darajasi	42%	51%
Faollashtirish	83%	92%
Ushlab qolish	21%	28%
Tavsiya qilish	54%	64%
Kirim	1%	11%
Talabgorning hayot sikli qiymati	Minimal	0.2 \$ xabar uchun

Votizen hikoyasi ba'zi bir umumiy namunalarni namoyish etadi. Eng muhim kuzatuvlardan biri shundaki, har bir keyingi MVP oldingisiga nisbatan tezroq yaratilgan. Birinchisi sakkiz oyda, ikkinchisi to'rt oyda, uchinchisi uch oyda va oxirgisi atigi bir oyda yaratilgan. Har safar Devid keyingi farazni tezda tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin bo'lgan.

Buni qanday izohlash mumkin? Buni mahsulot ishlab chiqarish doimiy ravishda olib borilayotganligi bilan bog'lash mumkin. Ko'plab variantlar yaratilgan hamda u bilan parallel ravishda keng infratuzilma ham qurilgan. Shunday qilib, kompaniya har safar o'z yo'nalishini o'zgartirishga muvaffaq bo'lganda, uni yana qayta boshlash kerak bo'lmaydi. Ammo gap bunda emas. Birinchidan, har safar yangi mahsulot ommaga taqdim etilganda uning ko'plab variantlaridan voz kechishga to'g'ri kelar edi. Eng yomoni, mahsulotda ko'plab eski variantlari mavjud bo'lib, ular endi kompaniyaning maqsadlariga to'g'ri kelmas edi. Odatda, eski mahsulotni isloh qilish uchun zarur bo'lgan harakatlar qo'shimcha ishni talab qiladi. Devid mashg'ulotning har bir bosqichida bunga qarshi turish qanchalik qiyinligini tushundi. Avvalo, yangi mahsulot tez sur'atlarda ishlab chiqildi, chunki Devid

o'z mijozlari, bozori va strategiyasi haqida yangi narsalarni o'rganayotgan edi.

Bugungi kunda, Votizen yaxshi ish olib bormoqda. Yaqinda u Facebookning dastlabki sarmoyachisi Piter Tiyeldan 1,5 million dollar yig'di, garchi u so'nggi yillarda iste'molchilarning internet-loyihalariga kamdan kam sarmoya kiritgan bo'lsa, ham. Votizen hozirda, AQSH aholisining 94 foizini tashkil etuvchi 47 shtat uchun real vaqtda saylovchilarning kimligini tekshirishga qodir. U Kongressga o'n minglab xabarlar yubordi. Startup Visa kompaniyasi davomida Votizen vositalaridan foydalangan holda Startup Visa Act Kongressga kiritildi. Bu Senatga faqat ijtimoiy faollarning lobbi orqali kiritilgan birinchi qonun loyihasi bo'ldi. Ushbu harakatlar Vashingtonning taniqli maslahatchilarining e'tiborini tortdi va ular kelajakdagi siyosiy kompaniyalarda Votizen vositalaridan foydalanishga tayyor ekanliklarini ma'lum qildilar.

Devid Binetti Tejamkor startup tizimidagi tajribasini quyidagicha tavsiflaydi: *2003-yilda men hozir ishlayotgan hududda kompaniyani tashkil qildim. USA.gov loyihasing muvaffaqiyati tufayli men bu borada katta tajribaga ega bo'ldim hamda yaxshi obro'ga ega bo'ldim. Ammo keyinchalik mening loyiham muvaffaqiyatsiz yakun topdi (garchi bu loyihaga ko'p mablag' sarflangan bo'lsa, ham) va endi mening kompaniyam pul ishlab, o'z ishlarini muvaffaqiyatli tarzda olib bormoqda. Oz muddatdan so'ng men an'anaviy chiziqli mahsulot ishlab chiqarish modellarini kuzatib bordim, bir yil sarflab hayratlanarli (chindan ham ajoyib) mahsulotni chiqardim, lekin uni hech kim sotib olmadi, bu safar men uch oy ichida to'rtta versiyani yaratdim.*

Tajribali tadbirkorlar ko'pincha startapning "uchish-qo'nish yo'lagi" haqida gapirishadi, bu loyihaning ko'tarilishi yoki qulash vaqti. "Uchish-qo'nish yo'lagi" odatda bank hisobraqamida qolgan qoldiqning oylik sarf tezligiga bo'linishi sifatida aniqlanadi. Masalan, agar startap bankda bir million dollar bo'lsa, va oyiga 100.000 dollar sarf qilsa,

uning “uchish-qo'nish yo'lagi” 10 oyni tashkil qiladi.

Pul tugay boshlaganda, uchish-qo'nish yo'lagi ikki yo'l bilan uzaytirilishi mumkin: xarajatlarni kamaytirish yoki qo'shimcha mablag' jalb qilish orqali. Ammo tadbirkorlar xarajatlarni kamaytira boshlaganlarida, ular ba'zida shunchalik g'ayratli bo'lishadiki, ular kompaniyani yaratish-baholash-o'rganib chiqish va qayta ko'rib chiqish davridan o'tishga imkon beradigan narsalarga pul tejashadi. Agar tejash natijasida qayta aloqa davri sekinlashsa, demak, startap faqat bitta narsani kutmoqda – u baribir keyin bankrot bo'ladi.

Darhaqiqat, uchish-qo'nish yo'lagi vaqti startap qancha burilish qoldirganligi, uning biznes strategiyasida tub o'zgarishlarni amalga oshirish uchun yana qancha imkoniyatlar borligi bilan o'lchanadi. Agar siz “uchish-qo'nish yo'lagi”ni vaqt bo'yicha emas, balki egilish prizmasidan baholasangiz, uni kengaytirishning yana bir usuli bor: har bir burilishni tezroq amalga oshirish. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, startap bir turdagi bilimlarni olish yo'lini topishi kerak, ammo bu arzonroq narxda yoki qisqa vaqt ichida bo'lishi talab etiladi. Biz hozirgacha muhokama qilgan tejamkor startap yondashuvlarining barchasi ushbu ulkan maqsadga erishishga qaratilgan.

Rivojlanish jasorat talab qiladi

Burilish yasashga qat'iy qaror qilgan har qanday tadbirkordan so'rasangiz, u albatta bunga avvalroq qo'l urmaganidan afsuslanishini aytadi. Ammo bunday jur'atsizlikning sabablari mavjud.

Birinchidan, “yuqori manmanlik (bosiqlik) ko'rsatkichlari” tadbirkorlarni yangilishga olib keladi (ko'rsatkich qancha baland ko'rinsa tadbirkor shunchalik o'z ustida ishlashdan to'xtaydi, natijada u bankrot bo'ladi) va asl voqelikni ko'rishlariga imkon bermaydi. Bu, ayniqsa, burilish qilish zarur bo'lgan bir paytda juda xavfli, zero “yuqori manmanlik

ko'rsatkichlari" hammasi joyidaligi, o'zgartirishlarga hojat yo'qligidan dalolat berib turadi. Agar kishilarni o'z ixtiyorlariga qarshi o'zgartirishlarga majbur qilinsa, jarayon sekinlashadi, qiyinlashadi va kamdan kam hollarda kutilgan natijalarga olib keladi.

Ikkinchidan, tadbirkor aniq shakllanmagan farazdan kelib chiqib ish yuritsa, mag'lubiyatga uchraganini payqamay ham qoladi. Bu holda uning burilishlar uchun talab qilinadigan keskin o'zgarishlarga ishtiyoqi ham qolmaydi. Mana shulardan ham "bozorga kirish va nima bo'lishini ko'rish" yondashuvining besamar ekaniga guvoh bo'lishingiz mumkin: siz hamisha muvaffaqiyat qozonasiz va nima bo'lishini ko'rasiz. Ammo ko'pincha dastlabki natijalar bir ma'noli bo'lmaydi va siz burilish yasash kerakmi yoki ko'zlangan yo'lda davom etish kerak ekanligini tanlay olmay qolasiz.

Uchinchidan, tadbirkorlar shunchaki hadiksirashadi. Agar mag'lubiyat tan olinsa, bu jamoaning ijodiy ruhini cho'ktirib yuborishi mumkin. Ko'plab tadbirkorlar o'zlarining tasavvuri noto'g'ri chiqishidan qo'rqishmaydi. Ular tasavvurni xato deya, uni tekshirish imkonini bermasliklaridan qo'rqadilar. Aynan shu qo'rquv tufayli, ular MVP yaratish, split-testlar o'tkazish va o'z gipotezalarini tekshirish uchun boshqa uslublarga qarshi chiqadilar. Aynan mana shu qo'rquv omadsizlik xatarini kuchaytiradi, zero tekshiruv tasavvur to'liq tatbiq qilinganidan keyingina amalga oshirilishi kishini ajablantiradi. Biroq bu vaqtga kelib burilish yasashga kech bo'ladi, axir pullar ham tugab qolgan. Bunday taqdirdan qochish uchun tadbirkor o'z qo'rquvlari bilan yuzma-yuz kelishi va hamma bilgan taqdirda ham omadsizlikka tayyor turishi kerak.

Albatta, yaxshi obro'ga ega, u yoki bu doirada yaxshi tanishadigan va mashhur brendlar nomidan ish yuritadiganlar uchun bunday qo'rquvlar bilan yuzma-yuz kelish va ularni yengish murakkabroq kechadi. Path nomli yangi startapni

Silikon vodiysidagi uch tajribali tadbirkor yaratdi. Deyv Morin bungacha Facebook xodimi bo'lgan va bu ijtimoiy tarmoq uchun asosiy servislardan bo'lmish Facebook Platform va Facebook Connect ishlab chiqishda qatnashgan, Dastin Miro mahsulot yaratuvchisi va Macster portali yaratuvchilaridan biri va Shon Fenning – Napster sayti yaratilishi bilan mashhur. 2010-yili ular minimal ishchi mahsuloti chiqarishga ahd qilishdi. Asoschilarning mashhurligi tufayli bu MVP matbuotning, ayniqsa startaplar va texnologiyalarga bag'ishlangan bloglar e'tiborini o'ziga qaratdi. Ularning mahsulotlari dastlabki izdoshga mo'ljallanmagandi va shuning uchun blogerlarning ilk munosabati salbiy chiqdi. (Ko'plab tadbirkorlar mana shunday munosabatlar tufayli o'z ishini boshlashdan hayiqishadi. Ularning nazarida matbuotdagi salbiy fikrlar ularni mahv etadigandek. Bizning sohada ijobiy fikrlarni eshitishga bo'lgan moyillik hanuzgacha yuksak.) Yaxshiyam, Path jamoasida jasorat yetarlicha edi. Uning asoschilari qo'rquvga tushmadilar va mijozlarining gaplariga parvo qilishmadi. Natijada, ular boshidanoq muhim bo'lgan qayta aloqani yo'lga qo'ydilar. Path maqsadi – uzoq muddatli yuksak sifatga ega kontaktlarni tutib turuvchi personallashgan ijtimoiy tarmoqni yaratish edi. Ko'pchiligimizga u yoki bu ijtimoiy tarmoqdagi akkauntimizda ko'plab tasodifiy kontaktlar paydo bo'lib qolish holati tanish. Bizning barcha shaxsiy ma'lumotlarimiz har qanday odamga sobiq hamkorlarimiz, maktabdosh do'stlarimiz, qarindoshlarimiz va hamkasabalarimizga ko'rinib qoladi.

Bunday kontaktlar miqdori va bunday oshkoralik shaxsiy hayotimiz sirlarini bo'lishish istagini bermaydi. Path o'ziga xos yondashuvni taklif qildi. Masalan, u Oksford universiteti antropologi Robin Danbarning g'oyalariga amal qilgancha, ehtimolli kontaktlar miqdorini 50 ta qilib belgilashni taklif qildi. Uning tadqiqotlari ko'rsatishicha, inson hayotining har qanday onida ahamiyatli shaxsiy aloqalari 50 tadan ko'p bo'lmas ekan.

Yuksak texnologiyalar mavzusida yozadigan jurnalistlarda (va ko'plab dastlabki izdoshlarda) sun'iy cheklangan bunday kontaktlar miqdori norozilik uyg'otdi. Odatda, ijtimoiy aloqalar uchun yaratilgan mahsulotlar minglab kontaktlar uchun imkoniyat yaratadi. 50 raqami esa tahlilchilar uchun kulguli tuyuldi. Natijada, Path boshiga tanqidlar toshbo'roni yog'ildi. Ammo mijozlar yangi platformani sevib qolishdi va ulardan olingan qayta aloqalar matbuotdagi salbiy fikrlardan keskin farq qildi. Mijozlarga yangi tarmoqning "qafasli" ekani ma'qul tushdi va mahsulotning birinchi versiyasida bo'lmagan opsiyalar, masalan, sahifalarga joylangan do'stlar surati haqida taassurotlarni o'rtoqlashish va videotasvirlarni almashishga imkon beruvchi opsiyalarni qo'shishni iltimos qilishdi.

Deyv Morin hikoya qiladi.

"Jamoamiz obro'yivabizningsobiq muvaffaqiyatlarimiz ulkan umidlar tug'dirdi. Biz yaratadigan mahsulot aynan qanaqa bo'lishi birortani o'ylantirganiga kafolat bermayman, chunki ular bu narsa, albatta katta yangilik bo'ladi, deya umid qilganlari aniq. Ammo biz o'z mahsulotimiz va o'z tasavvurimizni, shunchaki bozorga chiqarish va qayta aloqani olishimiz, shular asosida integratsiyalarga kirishish kerakligini anglagandik, biz shoshmasdan, bafurja o'z nazariyalarimiz va yondashuvimizni tekshiramiz hamda mijozlar nimalarni o'ylashini oydinlashtirib olamiz. Biz qayta aloqalarga chinakamiga qiziqamiz. O'zimiz ma'qul ko'rgan yo'nalishlarga innovatsiyalarni joriy etamiz".

Path ning tarixi endi boshlanmoqda, ammo asoschilarning tanqidga sog'lom munosabatlari o'z mevalarini beradi. Agar ular burilish yasashga majbur bo'lishsa, hech qanday qo'rquv yo'llarini to'sa olmaydi. Yaqinda kompaniya 8,5 mln. dollar venchur kapitalni Kleyner Perkins homiyligidagi Caufield &

Byers kompaniyasi tomonidan o'ziga jalb qila oldi. Yana ular Google kompaniyasining yangi xizmatini 100 mln. dollarga sotib olish taklifini rad etganligi haqida mish-mishlar tarqaldi.

Keskin burilishlar qanday sodir bo'ladi?

Burilishlarning har xil turlari mavjud. «Burilish» so'zi ba'zan noto'g'ri ishlatiladi, xuddi o'zgarish uchun sinonim sifatida. Biroq, burilishlar – bu mahsulot, biznes modeli va o'sish dvigatellari haqidagi tub yangi gipotezani sinashga qaratilgan o'zgarishning o'ziga xos turidir.

Yo'nalishni o'zgartirish kerakmi yoki davom etish kerakmi?

Keskin ijobiy burilish to'g'risidagi qaror qabul qilinishi aniq va obyektiv hukmni talab qiladi. Aslida kompaniya faoliyati keskin burilishlarga arziydimi yoki yo'qligini qanday bilib olish kerakligi haqida yuqorida muhokama qilganmiz, bunga mahsulot eksperimentining tobora pasayib borayotgan samaradorligi va rivojlanish jarayoni mahsuldorlikni yo'qotayotganligi haqidagi umumiy fikrga dalolat beradi. Qachonki, siz shu kabi simptomlarni sezganingizda, darhol kompaniyangiz faoliyatida ijobiy o'zgarishlar (keskin burilish deyiladi) haqida o'ylab ko'ring. Biroq, bu oson yechim emas, yechim bo'lishi uchun tizimli yondashuv zarur. Qarorni yengillashtirish uchun siz mavzu bo'yicha oldindan jamoa bilan uchrashuvni belgilashingiz zarur. Har bir startap g'oyaga ega bo'lgan shaxslar o'z loyhasini amalga oshirishi yoki oshirmaslik to'g'risida muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazishi kerak. Tadqiqotchilarning tajribasiga ko'ra, agar bunday uchrashuvlar bir necha haftada bir marta o'tkazilsa, biz maqsad qilib qo'ygan vazifalar o'z-o'zidan amalga oshadi. Ammo har bir startap o'z progres ritmini topishi kerak. Bunday yig'ilishda mahsulot ishlab chiqaruvchilar

ham, kompaniyaning yuqori menejmentidagi ishtirokchilari ham ishtirok etishi shart.

IMVU da biz boshqa tarafkashliklardan xoli bo'lgan va olingan ma'lumotlarni yangicha talqin qilishga qodir tashqi maslahatchilarni taklif qilamiz. Ishlab chiquvchilar jamoasi mahsulotni uzoq muddatli (nafaqat o'tgan davrga nisbatan balki kelgusi davrga nisbatan ham) optimallashtirish bo'yicha ishlarining natijalari to'g'risida to'liq hisobot taqdim etishlari va shuningdek, ushbu natijalarni oldindan qilingan prognozlar bilan taqqoslashlari kerak. Amaldagi va potensial mijozlardan olingan ma'lumotlar to'g'risida menejment sohasi batafsil hisobot taqdim etishi shart.

Keling, bu amalda qanday ishlashini ko'rib chiqamiz va Wealthfront deb nomlangan kompaniya tomonidan olib borilgan yo'nalish kesimida tavsiflaymiz. Kompaniya 2007-yilda Den Kerrol tomonidan tashkil etilgan bo'lib, Endiy Redchliff tez orada bosh direktorga aylandi. Endiy Silikon vodiysida taniqli shaxs hisoblanadi, u Benchmark kapital, venchur kapitali



Endiy Ryedchliff

firmasining ham muassisi va asosiy hamkori hisoblanadi hamda Stenford biznes maktabining professori bo'lib, u yerda texnologik tadbirkorlik bo'yicha bir necha kurslarni o'qitadi. Men birinchi bo'lib Endiy bilan IMVU ning amaliy tadqiqidan foydalanib, o'z o'quvchilariga bizning kompaniyamizni tashkil etish jarayoni haqida gapirib berish uchun foydalana olasizmi, deb so'ragan savolim sababidan tanishgan edim. Wealthfront ning vazifasi o'zaro fondlar sanoatini o'zgartirish va uni yanada oshkora, ochiq va chakana investorlar uchun jozibador qilishdir. Biroq, Wealthfront ning hikoyasi bugungi kunda nimalar bilan ajralib turishi bilan emas, balki kompaniya faoliyatini qayerdan boshlanganligi bilan bog'liq; buni asosan "onlayn o'yin" deb atashadi.

Birinchi mujassamlanishida Wealthfront kompaniyasi KaChing deb nomlangan edi, va u havaskor investorlar uchun xayoliy almashinuv kompaniyasi sifatida tanilgan edi. Bu har qanday foydalanuvchiga virtual savdo hisobini ochish va real bozor ma'lumotlari asosida portfel yaratish imkoniyatini beradi. Biroq, unda real pulni sarmoya tariqasida kiritish shart bo'lmagan. G'oyaning asl mohiyati olmoslarni yerdan qazib olishni eslatar edi: mablag'larni professional boshqarish uchun resurslarga ega bo'lmagan havaskorlar fond bozorlarida muvaffaqiyatli biznesni olib borishi, agar inqirozga yuz tutsa yashab qolishga o'zida kuch topa olishi o'yinning asl mazmuni edi. Dastlab Wealthfront asoschilari bozorga onlayn o'yinlar orqali kirishni rejalashtirmagan edi; KaChing yanada murakkab strategiyaning kengroq tasavvurning bir qismi edi. Innovatsion yangilik tushunchasi bilan tanish bo'lgan har bir kishi bunday loyihani albatta, ma'qullaydi: kompaniya asoschilari ushbu konsepsiyaga qat'iy rioya qilishdi. Dastlab, ular asosiy bozorga kirish uchun resurslari yetishmayotganlarni jalb qilmoqchi edilar.

Vaqt o'tishi bilan ular mahsulot yanada takomillashib borishini va oxir-oqibat foydalanuvchilarga mablag'larni fond bozorida professional boshqarish imkoniyatini beradi, degan fikrga kelgan. Iqtidorli treyderlarni topish uchun Wealthfront kompaniyasi Amerikaning yetakchi universitetlarida izlanishlar olib bordilar, bunda ishlab chiqilgan usullardan foydalanish usuli yaqindan yordam berdi, kompaniyaning maqsadi fond menejerlari mahoratini baholash orqali zamonaviy texnologiyani yaratish edi. Shunday qilib, xavfli operatsiyalar orqali yuqori rentabellikka erishadigan (ya'ni o'z vakolatlaridan tashqariga sarmoyalar kiritadigan) fond menejerlari bozorda muvaffaqiyat qozonganlardan yuqorida turadilar, chunki ular nima qilayotganlarini aniq bilishadi. KaChing yordamida Wealthfront kompaniyasi tajribasining ikki tamoyilini sinab ko'rishga urinib ko'rdi.

1. O'yinchilarning katta qismi virtual mablag'larni boshqarish uchun yetarli qobiliyatni namoyish etadi va bu ularning haqiqiy aktivlarni muvaffaqiyatli boshqarish imkoniyatlarini namoyish etadi (qiymat gipotezasi).

2. O'yin virus kabi tarqalish (virusli o'sish) mexanizmi orqali mashhurlikka erishadi va Freemium biznes modeli yordamida qiymat yaratadi.

O'yin mutlaqo bepul edi, ammo jamoaning ba'zi treyderlari muvaffaqiyatli savdogar bo'la olmasliklarini anglab yetgandilar va shu sababli Wealthfront real aktivlarni boshqarish xizmatlarini taklif qilishni boshlashlari bilan oq pullik mijozlarga aylanishlarini umid qilishgandi (o'sish gipotezasi). KaChing o'yini tezda mashhurlikka erishdi va uning birinchi versiyasi 450 000 dan ortiq geymerlarni jalb qila oldi. Siz hozirda ushbu ko'rsatkichlaridan shubhalanishingiz mumkin, bu tabiiy, ichingizdan bir savol o'tishi mumkin; agar shunchalik ko'p geymerlarni jalb qila olgan ekan, unda nega men uni tanimayman yoki bir bora bo'lsa-da, eshitmaganman. Gap shundaki, mahsuloti dunyoning har bitta burchagida mavjud bo'lgan kompaniyalarning hammasi ham o'z nomi bilan mashhur bo'la olmaydilar. Ammo katta bozor maydonida unchalik mashhur bo'lmagan ko'plab kompaniyalar bu kabi muvaffaqiyatdan o'zlarini yo'qotib sarhush holatga tushib qolishadi, afsuski bundaylar uzoqqa bora olmaydi. Ular o'zlaridan katta bo'lgan muvaffaqiyatli kompaniyalar yutuqlaridan andaza olishadi, va shu sababdan ularning kelajagi xavfsiz ekanligiga ishonishadi. Biroq, Wealthfront o'z farazlarini aniq bayon qildi. Kompaniya o'zining pullik moliyaviy mahsulotini ishlab chiqarishga tayyor bo'lgan paytga qadar faqat yetti nafar epcil menejerlar boshqalarning pullarini boshqarish uchun yetarli darajada malakali deb topilgan edi. Bu prognoz qilingan model qaysidir ma'noda yetarli emas edi. Mahsulotning pullik versiyasini chiqargandan so'ng, kompaniya geymerlari to'lashga qodir bo'lgan mijozlarga aylanish tezligini baholashga muvaffaq bo'ldi. Ammo ko'rsatkichlar qoniqarli

darajada emas edi: pulli versiyaga o'tish darajasi nolga yaqin. Dastlab ushbu tuzilgan model yuzlab mijozlarni jalb qila olishi prognoz qilingan edi, ammo bu model 14 kishidan ko'p bo'lmagan miqdorda mijozlar jalb qilishdan u yog'iga o'ta olmad.

Jamoa vaziyatni yaxshilash uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi, ammo bu urinishlar hech qanday natijalar olib kelmadi. Endi ular uchun umumiy yig'ilish o'tkazib, keskin burilish yoki yo'nalishda davom etish to'g'risida qaror qabul qilish vaqti kelgan edi. Agar ushbu muhim yig'ilish vaqtida kompaniyada biz atroflicha o'rganmagan omillardan tashqari hozirgacha muhokama qilingan ma'lumotlargina mavjud bo'lsa, unda kompaniya katta muammoga duch kelgan bo'lar edi. Kompaniya a'zolari hozirda to'g'ri deb tanlangan strategiyasi ish bermasligini yaxshi anglagan bo'lar edi, ammo ushbu strategiya ustidan qanday ishlar olib borish kerakligini ham bilmas edilar. Shuning uchun kompaniya ishtirokchilari shu bobdagi ko'rsatmalarga rioya qilish va muqobil variantlarni o'rganish juda muhim edi.

Wealthfront kompaniyasi tadqiqotni ikki muhim usulda boshladi. Birinchidan, kompaniya asoschilari professional investitsiya menejerlari bilan shartnoma imzoladilar, xususan, Stenford universitetining vakili Jon Pauyersning kompaniyaga bo'lgan sharhlari kutilmaganda ijobiy bo'lib chiqdi. Wealthfront kompaniyasi strategiyasida professional sarmoyaviy menejerlari tizimda ro'yxatdan o'tmaydi, chunki bu darajadagi oshkoralik ularning obro'siga tahdid solishi mumkin edi-da. Ammo bu turdagi muammo muvaffaqiyatli va tajribali daho menejerlar borligi sababli kompaniyaga tahdid sola olmasligi ma'lum bo'ldi. Keyinchalik bosh direktor Endiy Rachlif boshqa professional investitsiya menejerlari bilan bir qator muzokaralar o'tkazdi va natijalarni kompaniyaning qolgan qismiga safarbar qildi. U quyidagi kashfiyotlarni joriy qilgan edi:

1. Muvaffaqiyatli investitsiyalar bo'yicha menejerlar shaffoflikdan aslo qo'rqishmaydi, chunki ular buni o'z

malakalarini tasdiqlashning yana bir imkoniyati deb bilishadi.

2. Investitsiya menejerlari uchun o'z biznesini boshqarish va rivojlantirish juda qiyin. Ular o'zlarining hisob raqamlarini yuritishda murakkablikka duch kelishadi va shuning uchun ular eng istiqbollilarini tanlash uchun mijozlardan eng katta miqdordagi sarmoyani talab qilishga majbur bo'ladilar.

Ikkinchi nuqta boshqalarga qaraganda ancha ahamiyatliroq hisoblanadi. To'satdan, professional menejerlar Wealthfront kompaniyasi bilan aloqa qilishni istab qolishdi. Ular kompaniya a'zolaridan tizimda ro'yxatdan o'tish mumkinmi, deb so'rashdi. Bunga asosiy sabab ular mahsulotning imkoniyatlarini boshqalardan ko'ra ko'proq sezgan va raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lish uchun ularni ishlatishni istagan klassik o'zlashtiruvchi ishbilarmon shaxslar edi. Iste'molchilar bilan aloqaning mavjudligi muhim ma'lumotlar oqimining yana bir debochasi hisoblanadi. Ma'lum bo'lishicha, kaChing veb-saytida virtual va real portfelni boshqarish usullarining kombinatsiyasi qiziqib qolgan ishbilarmonlar uchun umuman tushunarsiz bo'lib tuyulgan. Freemium strategiyasi nafaqat yordam bera olmadi, balki xaridorlarni sotib olishga to'sqinlik qildi, chunki kompaniyaning pozitsiyasi mavhum bo'lib qoldi. Ushbu ma'lumotlar kompaniyaning muhim rol o'ynashi kerakligi to'g'risida fikr yig'ilishda taqdim etildi.

Uchrashuv davomida Wealthfront kompaniyasining kelajagi qanday bo'lishi kerakligi haqida muhokama qilindi. Uning amaldagi strategiyasi ish bermayotgan edi, ammo Wealthfront kompaniyasi olib borayotgan onlayn o'yinlar to'xtatilishini hech kim xohlamas edi. Ushbu xohish, kompaniya ishida muhim voqea bo'ldi. Xodimlar uni yaratish va geymerlarni qo'llab-quvvatlash uchun ko'p vaqt va kuch sarfladilar. Bu harakatlarning barchasi behuda ekanligini bilish juda qiyin va yoqimsiz. Ammo Wealthfront rahbarlari bu tarzda davom eta olmasligini tushunib yetishdi. Kompaniya rahbarlari ushbu satrlarda berilgan ma'lumotlardan namuna

olgan holda kompaniyaning intensivligini oshirish uchun qaror qabul qilishdi. Kompaniyaning bosh rahbaridan biri Endiy shunday deydi: "Biz, albatta, eng iqtidorli menejerlarga platformaga kirish imkoniyatini o'zgartirishni xohladik.

Dastlab biz professionallarni jalb qilish uchun havaskor menejerlar bilan jiddiy biznes yaratishimiz kerak deb o'ylardik. Ammo, ming shukrlar bo'lsinki, bu ish unchalik zarur emas ekan». Kompaniya navbatdagi keskin burilishga qo'l urdi, (geymer) mijozlardan butunlay voz kechdilar va odamlarga professional menejerlar yordamida mablag' qo'yish imkoniyatini beradigan xizmat turini yaratishni boshladi. Bir qarashda, ushbu yo'nalish juda ajoyib tuyilardi, chunki kompaniya o'z pozitsiyasini, nomini va sherikchilik strategiyasini o'zgartirgandi. U hattoki yaratilgan variantlarning muhim qismini bekor qilishgacha bordi. Lekin, unchalik ko'p narsa o'zgarmadi. Kompaniyaning eng muhim loyihasi menejerlar samaradorligini baholash texnologiyasini yaratish edi va ushbu texnologiya yangi biznes yaratilishining asosiy qismiga aylandi.

Bu ko'pincha amaldagi strategiyaning samaradorligi haqida o'ylagan paytida sodir bo'ladi: har doim ham oldin bajarilgan ishlarni bekor qilish va hammasini qayta boshlash fikri ijobiy natija keltirishi aniq degani emas. Kompaniyada, avvallari allaqachon yaratilgan yoki qon-qoniga singib ketgan an'analar pozitsiyasini o'zgartirish, kompaniyani boshidan kechirgan qiyinchiliklardan qanchalik dars olganini tahlil qilish va istiqbolli yo'nalishni topish kifoya qiladi. Bugungi kunda ushbu keskin burilishlar (istiqbolli strategiyaning ba'zi bir sust nuqtalariga rotatsiya qilish) tufayli Wealthfront kompaniyasi gullab-yashnamoqda. O'zining platformasi orqali foydalanuvchilar 40 dan ortiq professional menejerlar yordamida 180 million dollardan ko'proq mablag' investitsiya kiritishmoqda, shuningdek, uning o'sish tendensiyasi oy sayin, ta'bir joiz bo'lsa, kun sayin o'sib bormoqda. Wealthfront yaqinda Fast Company jurnali tomonidan moliya sohasida

eng yaxshi 10 ta innovatsion kompaniyalar qatoriga kirdi. Kompaniya yuqorida muhokama qilingan o'sish tamoyillariga muvofiq ravishda oldinga siljishni davom ettirmoqda. Bundan tashqari, Wealthfront virusli yuqtirish deb nomlanuvchi rivojlanish uslubining asosiy himoyachilaridan biridir.

Keskin burilish oldidan qo'rquv

Keskin burilish deganda aslida nima tushuniladi? Har bir kompaniya yoki umuman har bir inson hayotida taqdir charxpalagini butunlay o'zgartirib yuboradigan qarorlar, vaziyatlar va bir ish qilishga majbur bo'lish holatlari sodir bo'ladi. Shunday ekan, bu kabi voqealar ma'lum bir kompaniya hayotida ham mavjud. Keskin burilish kompaniyaning amaldagi faoliyatidan voz kechib, yanada samaraliroq, zamon talablariga javob beradigan, bozordagi ijtimoiy qadriyatiga o'sishiga olib keladigan va eskilik sarqitidan voz kechib yangilik yaratishga intilish harakatiga aytiladi. Burilish bo'sag'asida to'g'ri qaror qabul qilish qiyin, shuning uchun kompaniyalar ko'p holatlarda bu borada ko'plab xatolarga yo'l qo'yadi. Lekin har safar vaziyat keskin burilishni taqozo qilgan paytlarda men buni munosib ravishda bajara oldim, deb ayta olmayman. Ushbu mavzuga doir bir voqeani yaxshi eslayman. IMVU tizimi ulkan yutuqlarga erishayotgan damlar edi. Bizning biznesimiz oyiga bir million dollardan ortiq daromad keltirar edi; biz 20 milliondan ortiq foydalanuvchi avatarlarini yaratdik hamda moliyalashtirishga yordam beradigan investorlarni jalb qildik, natijada rivojlanish sikli har doimgidan tezlashib ketdi. Ammo atrofda xavf-xatar mavjud edi. Biz klassik startap tuzog'iga tushib qolgan edik, ammo buni sezmagani edik.

Bizning birinchi qadamlarimiz shu qadar muvaffaqiyatli ediki, undan havolanib shunday muvaffaqiyatga olib kelgan tamoyillarni batamom unutib qo'ygan edik. Oqibatda, kompaniya ravnaqi uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan

keskin burilishi kerak bo'lgan paytni o'tkazib yubordik. Biz jamoamiz bilan birgalikda yuqoridagi boblarda aytilgan barcha tavsiyalar, ta'bir joiz bo'lsa, berilgan takliflarni amaliy tarzda ko'rsata oladigan tashkilot yaratdik: bozorda kam sonda sotiladigan hashamatli mahsulotlarni yaratish, yangi g'oyalarni sinab ko'rish va o'sish mexanizmlarini sozlash kabilar bizning shaxsiy obyektivimiz bo'ldi. Dastlab, muvaffaqiyatning kelishi uzoq bo'lgan damlarda, ko'pchilik bizni "past sifatli" minimal ishlaydigan mahsulotni yaratish g'oyasidan va tajribamizdan qaytarib, biroz sekinlashish haqida maslahat bergandilar. Bizni "to'g'ri" ishni qilishga, sifat haqida o'ylashga va shoshilmaslikka undashdi. Biz bunday maslahatlarga ahamiyat bermadik, sababi asosiy ishlarni tez sur'atlarda bajarishning bozorda qanchalik ahamiyatligini ko'rsatishni istaganimiz uchun edi. Oradan birmuncha vaqt o'tdi, bizning yondashuvlarimiz mutlaq to'g'ri va muvaffaqiyatli ekanligi barcha maslahat beruvchilarga ravshan bo'lganda, ular bizga boshqacha maslahatlarni berishni boshladilar. Endi odamlar "Siz muvaffaqiyat bilan bahslasha olmay-siz» deb ayta boshlashdi va biz tanlagan yo'ldan yurishda davom ettirishga qarshilik ko'rsatishdi. Bizga bunday maslahatlar ma'qul kela boshladi, lekin bu fikr noto'g'ri edi. Yodingizda bo'lsa, past sifatli MVP ni yaratishning maqsadi – mahsulot sotib oluvchilarning ehtiyojlaridan tashqarida bo'lgan har qanday variantlarni ishlab chiqish jarayonida chiqindilarni, ya'ni keraksiz bo'lgan qismining paydo bo'lishini oldini olish edi. Ammo bunday mantiq bizni uzoqqa olib bormaydi. Siz yoki sizning kompaniyangiz mahsulotingizni birinchi sotib oluvchi xaridorlar bilan muvaffaqiyat qozonadigan bo'lsangiz, siz o'z-o'zidan asosiy bozorga kirishni xohlab qolasiz. Biroq, ushbu bozorda mijozlar har xil ehtiyojlarga ega va bu mijozlar ancha talabchanligini yodingizda saqlashingiz, sizning keyingi muvaffaqiyatga erishishingizga omil bo'ladi.

Biz intilayotgan yuqori daraja, mijozlar segmentining yuqori darajasigacha ko'tarish bilan bo'ladi. Bu navbatda,

kompaniya yaratayotgan mahsuloti mavjud mijozlar muammosini hal qilishi hammaga ayon. Boshqacha qilib aytganda, mahsulot gipotezasi faqat qisman tasdiqlangan. (Ushbu bobda biz VOTIZEN kompaniyasining hikoyasidan foydalangan holda, siz o'quvchiga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun bu kabi burilishlarni amaliy tarzda tasvirlab berishga harakat qildik.) Iste'molchilar segmentini bir oqim bo'ylab yo'naltirish juda qiyin operatsiya hisoblanadi. Bizning kompaniya bunday operatsiyalarni amalga oshirish uchun o'zida yetarlicha kuch topa olmadi. Bizning o'sish dvigatelimiz qanday ishlashini yaxshi tushunmagan edik. Shu sababdan, behuda ko'rsatkichlarga tayanishni boshladik. Biz atrofda sodir bo'layotgan vaziyatni kuzatib borish uchun izlanishni to'xtatgan edik, to'g'risini aytganda, taslim bo'lish haqida o'ylar edik, chunki tobora o'sib borayotgan ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish bozorga chiqib kurashgandan ko'ra ancha oson edi: obunachilar soni bo'yicha yangi rekordlar o'rnatish, mijozlarga va faol foydalanuvchilarga pul to'lash, saqlash darajasini kuzatib borish va h.k. Masalan, bir necha oy davomida o'sishni xohlamagan aktivizatsiya stavkasini oshirishga harakat qildik (yangi xaridorlar mahsulotdan foydalanishni boshlash darajasi). Biz son-sanoqsiz tadqiqotlar o'tkazdik: qulaylik va foydalanish qulayligini oshirish, yondashuvning yangi usullarini izlash, rag'batlantirish dasturlari, kvestlar va boshqa innovatsion variantlari bilan chiqish kabilar bunga yaxshi misol bo'la oladi. Oxir-oqibat, ushbu ko'plab yangi variantlar va marketing vositalari juda muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi.

Biz ushbu variantlarni A/B tajribalari yordamida ilmiy baholash tizimi bilan baholadik. Ammo bu variantlar ko'p oylar davomida bizning o'sish mexanizmimizning asosiy omillarini sezilarli darajada ijobiy o'zgartirishiga olib kelmagan edi. Hatto biz uchun eng muhim bo'lgan faollashtirish darajasi atigi bir necha foizgina ko'tarilsa ham biz bu o'sish tendensiyasini jiddiy qabul qilmadik. Ushbu

signallarga ahamiyat bermadik, chunki kompaniya rivojlanib borayotgan, uning ko'rsatkichlari har oy o'sib borayotgan edi. Shunday bo'lsa, ham, biz bozordan tez sur'atlarda chiqib ketdik. Mijozlarni topish tobora qiyinlashib bordi. Biz marketologlarni asosiy foydalanuvchilarni yanada faolroq bo'lishga targ'ib etish orqali yangi xaridorlarni qidirishga undadik, ammo bu foydalanuvchilar dastlabki mahsulotning kamchiliklarini kechirishni istamadilar.

To'lovni amalga oshirishni istagan yangi mijozlar uchun faollashtirish darajasi pasayishni boshladi va ularni sotib olish narxi ko'tarila boshladi. Tez orada bizning o'sish tendensiyamiz to'xtashni boshladi va nihoyat butunlay o'sish tezligi tamom bo'ldi. Bizning faoliyatimiz yana oldingidek bo'lishi uchun har qanday keskin burilishlar, muammoning asl negiziga qaytishimiz va innovatsion yechimlarni hisobga olish siklini qayta boshlashimiz kerak. Bunday o'zgarishlar kompaniyaning qayta tug'ilishiga o'xshaydi. Biz qanday qilib optimallashtirish, sozlash va kompaniyaning gipotezalarini yana bir bor tekshirish kerakligi haqida yetarlicha o'rgangan edik, ammo ushbu harakatlarning barchasining maqsadini unutdik: kompaniyaning rejalarini hayotga tatbiq etish uchun gipotezani sinab ko'rish. Buning o'rniga biz o'sish, daromad va daromadni oshirish kabi masalalar ortidan quvib yurdik. Biz asosiy xaridorlar (asosiy xaridorlar bozorning asosi hisoblanadi) bilan tanishishimiz kerak edi. Bu ishlarni bizning loyihadoshlarimiz birinchilardan bo'lib amalga oshirdilar: ko'plab intervyular va kuzatuvlar asosida ular iste'molchi arxetipini yaratdilar.

Undan so'ng, mahsulotdan foydalanishni osonlashtirish uchun uni qayta tiklashga katta mablag' sarflashimiz kerak bo'ldi. Bungacha biz kompaniyani yurgizish dvigatelinini sozlash bilan band edik va katta miqdordagi investitsiyalarni to'xtatib, uning o'rniga unchalik xavfli bo'lmagan va kam xarajatli sinov tajribalariga mablag' sarflashni boshladik. Biroq, sifat, rivojlanish va kengroq loyihalarga sarmoyalar eksperimental

yondashuvdan voz kechishni anglatmaydi. Aksincha, biz o'z xatoyimizni anglab, keskin burilish yasashimiz bilan ushbu usullar bizga yaxshi xizmat qila boshladi. Biz tajriba o'tkazish uchun SandBox kompaniyasini yaratdik hamda o'z faoliyatini modernizatsiyaga bag'ishlangan funksional guruhlarni birlashtirdik. Mahsulotning yangi versiyasi yaratilganligi sababli, u eskisi bilan birga doimiy ravishda sinovdan o'tkazildi. Dastlab, odatdagidek yangi versiya eskisidan sifat darajasi pastligi bilan farqlanar edi. Unda ko'plab xatoliklarga ega imkoniyatlar va funksiyalar ro'yxati mavjud emas edi. Ammo jamoa yangi versiyani tinimsiz ravishda takomillashtirishda bardavom bo'ldi. Bir necha oy o'tgach, u eskisidan yaxshiroq bo'lgan versiyani taqdim etdi. Ushbu yangi versiya kelajakdagi o'sishimizning boshlanishini ham belgilab berdi. Bu sa'y-harakatlarning barchasi o'z samarasini berdi. 2009-yilga kelib kompaniyaning daromadi ikki barobardan ziyod oshdi va yiliga 25 million dollardan daromad keltirdi.

O'suvchi keskin burilish

Bunday holda, u yoki bu mahsulot operatsiyasi alohida mahsulotga aylanadi. Ushbu pivot Votizen tomonidan ijtimoiy tarmoqni yaratishdan voz kechganda va qabul qiluvchilar bilan bog'lanish uchun oddiy xizmatni ishlab chiqishda amalga oshirildi.

Pasayuvchi burilish

Bu boshqalar bilan qarama-qarshi holat hisoblanadi. Ba'zan alohida mahsulot yaratish uchun bitta variant yetarli emas. Ushbu turdagi egilishda alohida va to'liq deb hisoblangan mahsulot ko'p funksional mahsulot uchun variantlardan biriga aylanadi.

Mijozlar segmentining yo'nalishi

Bunday navbatda, kompaniya mahsuloti haqiqatan ham haqiqiy mijozlarning muammosini hal qilishini ko'radi, ammo bu dastlab xizmat ko'rsatishni rejalashtirgan mijozlar degani emas (ular tajriba o'tkazish uchun ko'ngillilar va qurbonlar). Boshqacha qilib aytganda, mahsulot gipotezasi qisman bo'lsa, ham tasdiqlanadi: bu talabga javob beradi, lekin kompaniya maqsad qilgan auditoriya tomonidan emas.

Mijozlar talab qiladigan burilishlar

Mijozlar haqida yetarli ma'lumot to'planganda, ba'zida biz ular uchun hal qilmoqchi bo'lgan muammo unchalik muhim emas ekan degan fikrga kelib qolamiz. Mijoz sizning mahsulotingizning eski versiyasi haqida shikoyat qilsa, ular bilan kurashish uchun mavjud mahsulotni qayta joylashtirish mijoz talabi uchun to'g'ri yo'l bo'lmaydi. Shunday qilib, siz butunlay yangi mahsulotni ishlab chiqishingiz kerak bo'ladi. Bunday burilishni, bugungi kunda 200 dan ortiq savdo shoxobchalariga ega bo'lgan taniqli Potbelly Sandwich Shop tarmog'i amalga oshirdi. 1977-yilda asoschilar antiqa do'kon ochib, ko'proq xaridorlarni jalb qilish uchun sendvichlarni yangicha ko'rinishda sotishni boshladilar. Natijada, ular keskin burilishni boshladilar va butunlay boshqa biznes sohasiga o'tib ketdilar.

Biznes arxitektura burilishi

Ushbu yo'nalish Jefri Murning kompaniyalar odatda ikkita asosiy biznes me'morchiligidan biriga rioya qilishlari kerakligi haqidagi g'oyasini eslatadi: yuqori foyda darajasi va past sotuvlar (murakkab tizim modeli) yoki foyda darajasi past va yuqori sotuvlar hajmi (operatsiyalar hajmi). Birinchi model odatda tovar va xizmatlarni korxonalariga sotish (B2B) yoki

korxonaning savdo siklini ilgari suradi, ikkinchisi – iste'mol tovarlarini sotishni o'z ichiga oladi (istisnolar mavjud bo'lsa, ham). Biznes arxitekturasi egiluvchan bo'lgan vaqtda, startap arxitekturasi ham o'zgartiriladi. Ba'zi kompaniyalar yuqori markali, yakka tartibdagi savdo modelidan voz kechib, ommaviy bozorga kirishmoqda (masalan, Google qidiruv tizimi).

Burilish – bu strategik gipoteza

Yuqorida tavsiflangan strategik burilish turlari, ehtimol, biznes strategiyasini o'rnatishga majbur bo'lganlarga tanish bo'lishi mumkin. Keskin burilish hech qachon to'g'ri strategik tahlilning o'rnini bosa olmaydi. Ammo biz faqat muvaffaqiyatli strategiyani yaratishga olib kelgan pivotlarning misollarini bilamiz va ko'pincha bu misollar taniqli kompaniyalar bilan bog'liq. Deyarli hamma biladiki, SouthWest Airlines yoki Walmart – bu arzon narxlardagi savdo strategiyasi bilan bozorning kushandasi misolida, Microsoft platformalar monopoliyasiga, Starbucks esa premium brenddan foydalanish namunasidir. Shu bilan birga, deyarli hech kim ushbu strategiyalarni kashf etish uchun zarur bo'lgan burilishlar haqida gapirmaydi. PR bu – odamlar o'z kompaniyalarining asoschilari bo'lgan qahramonlar haqida hikoya qilishni yaxshi ko'radilar va ularning muvaffaqiyati yaxshi g'oyadan kelib chiqqanligiga ishontirish deganidir.

Shunday qilib, startaplar tez-tez navbatma-navbat har xil turlarga o'zgarib turadi va muvaffaqiyatli kompaniyalardan qarz olgan strategiyalarga rioya qilishni boshlaydilar, ammo bu o'xshashliklarga jiddiy e'tibor bermaslik kerak. Bunday o'xshashlikning qay darajada asosli ekanligini aniqlash juda qiyin. Biz eng muhim variantlarni yoki shunchaki yuzaki nusxalarni ko'chirib oldikmi? Boshqa sohada ishlagan strategiya bizning sohamizda ham ishlay oladimi? O'tmishda kerakli natijani bera olgan bugungi kunda samarali bo'la

oladimi? Buriilish eng yaxshi ishlaydigan, yangi mahsulot bilan sinovdan o'tishni talab qiladigan yangi strategik gipoteza sifatida qaraladi

Adaptatsiya

IMVU kompaniyasida rahbar bo'lganimda, ba'zi istisnolardan tashqari, men o'z ishimni yaxshi bajarayotgandek tuyular edim. Men tez xizmat ko'rsatadigan va tez moslasha oladigan (flexable company – moslashuvchan kompaniya) tashkilot yaratdim va biz (Lean Startup) Tejamkor startap tizimiga kiritilgan usullar bilan muvaffaqiyatli tajriba o'tkazdik. Ammo bir necha bor o'z ishimni qoniqarli bajarmayotganimni birdan tushunib yetgan vaziyatlarim ham bo'lgan. Natija, har qanday odam uchun juda yoqimsiz bo'lgan xabar keldi. Eng yomoni, men hech qanday qarshi fikr qabul qilmayotgan edim.

Agar natija oladigan bo'lsam shunday bo'lishi mumkin:

Hurmatli Erik! Tabriklaymiz! Siz hozirgacha egallab turgan lavozimingiz endi yo'q. Siz bizning kompaniyamizda yangi lavozimga o'tkazildingiz. Aslida, bu endi oldingi kompaniya emas, garchi u bir xil nomga ega bo'lsa, ham, lekin u uchun bir xil turdagi odamlar ishlaydi. Sizning lavozimingiz ham avvalgidek bir xil deb nomlanadi va siz avvalgi vazifalaringizni yaxshi bajargan edingiz, ammo yangi lavozimingizda yaxshi ishlamayapsiz. Siz olti oy oldin ko'chirildingiz va ushbu xatingiz bilan sizning yangi lavozimdagi faoliyatingiz anchadan beri kerakli natijalarni bermaganligi to'g'risida sizga xabar bermoqchimiz. Barcha ezgu tilaklarni tilayman!

Har safar bunday vaziyatda nima qilishim kerakligi haqida o'ylay boshladim. Men shuni bilardimki, kompaniya o'sib bormoqda va biz har bir rivojlanish hajmini koordinatsiyalash uchun qo'shimcha jarayonlar va tizimlarga muhtojmiz. Axir, men moslashuvchanlikni yo'qotgan va professionalizmga qaytarib bo'lmaydigan istak tufayli byurokratiyaga bo'yni bilan botib ketgan startaplarni ko'p ko'rganman.

IMVU kompaniyasi hech qanday tizimsiz ishlashga qodir emas edi va shu o'rinda aytish kerakki, sizning kompaniyangiz ham bunga qodir emas. Startap g'oyasi himoyasiz chaqaloqqa o'xshaydi. Uni bir og'izli inkor so'zi bilan o'ldirish yoki bir og'iz rozilik bilan unib o'stirish mumkin. Men yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun kompaniyaga ortiqcha byurokratik vaziyatni boshdan kechirdim va aynan shu vaziyat mahsulot yaratishga to'sqinlik qildi. Mahsulotning mashhurligi eng yuqori cho'qqisiga chiqqan paytda juda katta texnik qiyinchiliklarga duch kelgan kompaniyalarni ko'rdim. Bu bo'lim boshlig'i uchun falokatdir, chunki hamma insonlar muammolarning sababi bo'limning yomon ishlashida deb hisoblaydi. Ya'ni uning bo'limi tufayli kompaniya muammoga duch kelmoqda deyishadi, aksincha bu sizning aybingiz. Ushbu mavzu bo'yicha men eshitgan deyarli barcha tavsiyalar qandaydir murosaga kelishni taklif qiladi (masalan, "biron narsani rejalashtirish, lekin ortiqcha narsani emas"). Ammo bunday selektiv yondashuv bilan o'zimizga va atrofimizdagilarga qandaydir sabablarga asoslanib nima uchun ba'zi muammolarga e'tibor berishimiz va boshqalarni e'tiborsiz qoldirishimiz kerakligini tushuntirish qiyin. Bu vaziyat hammaning o'z qarorlari qandaydir nopok niyatlarga bog'liq deb o'ylay boshlaganda yoxud xuddiki injiq boshliqning ko'rsatmasi bilan ishlashga o'xshaydi. Agar kompaniya rahbari murosaga kelishga moyil bo'lsa, unga ta'sir o'tkazish va xohlagan narsangizga erishishning eng yaxshi usuli bu mumkin bo'lgan pozitsiyani egallashdir. Masalan, agar bir guruh bozorga chiqish sikli vaqtini ko'paytirishni taklif qilsa hamda qo'shimcha ravishda bozorga yangi mahsulotni yiliga bir martadan ko'p bo'lmagan miqdorda olib kelishni taklif qilsa – bu juda qisqa sikl uchun bahslashishi mumkin bo'ladi. Natijada, bu ikki fikr o'rtasida bir narsa paydo bo'ladi. Agar kelishuvga erishilsa, siz haqiqatan ham xohlagan narsangizga erishishingiz mumkin. Ammo o'xshamasa, boshlig'ingiz va sizning o'rtangizda nizolar keltirib chiqaradi.

Ammo bunday “qurollanish poygasi” eskalatsiyaga olib keladi. Narigi tomondagi raqiblaringiz ham, shubhasiz, shu bilan band bo'lishadi. Vaqti kelib, har ikki tomon eng chekka pozitsiyalarni egallashadi va endi murosaga kelish juda qiyin bo'lib qoladi. Bu holatda, rahbar o'zi istab-istamay, bilib-bilmay yaratib qo'ygan vaziyatdan chiqib ketishni o'z qo'liga olishi lozim. Ehtimol, u bunday vaziyatning sodir bo'lishini istamagandir, ammo buni aynan u rag'batlantirgani aniq. Bu tuzoqdan chiqib ketish uchun boshqacha yondashuv zarur.

Moslasha oladigan tashkilot barpo etish

Startup uchun yangi xodimlarni o'qitishning dasturiga mablag' kiritish kerakmi? Agar siz menga bir necha yil oldin bu savolni berganingizda edi, men kulib aytgan bo'lardim: “Albatta yo'q. O'quv dasturlari bunga qodir bo'lgan yirik kompaniyalar uchun mo'ljallangan”. Shunga qaramay, biz IMVU kompaniyasida o'quv dasturini yaratdik, bu dastur shu qadar yaxshi bo'lib chiqdiki, yangi xodimlar ishning birinchi kunidanoq ish jarayoniga to'liq qo'shilib ketdilar. Bir necha hafta o'tgach, ular kerak bo'lsa, boshliq bilan birga tengma-teng ishlashni boshladilar. Ish jarayonlarini standartlashtirish va yangi xodimlar tahsil olishi uchun dastur tayyorlashga ko'p kuch sarflashimiz kerak edi. IMVU kompaniyasi samarali ishlash uchun zarur bo'lgan tizimlar, tushunchalar va usullar bilan tanishgan murabbiyga ega edi. Murabbiy va uning shogirdi ishining natijalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq deb ta'kidlar edi, shuning uchun murabbiylar yangi kelganlarga dars berishga jiddiy kirishar edilar. Qizig'i shundaki, endi men o'quv dasturini yaratish zarurligi to'g'risida oldin alohida qaror qabul qilmaganimizni ming afsuslar bilan ko'rib turibman. Ushbu dastur o'z-o'zidan, tabiiy ravishda, bizning umumiy eksperimental yondashuvimizga muvofiq ravishda paydo bo'ldi. Yangi xodimlarni moslashtirish jarayoni doimiy eksperiment

mavzusi bo'lib, doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilib, asta-sekin samarali tusga kirib bordi va shu bilan birga uni yaratish katta kuch talab qilmadi, men uni o'z jarayonlarini avtomatik ravishda sozlaydigan adaptiv tashkilotni yaratish deb atayman va amaldagi sharoitga muvofiq harakatlar strategiyasini tuzib chiqishni taklif etaman.

Biz juda tez harakatlanmayapmizmi?

Hozirgi sahifagacha biz kompaniya faoliyatida tezlik qanchalik muhimligi haqida gaplashmadik. Qanday qilib hayotiy biznesni yaratishni boshlash uchun startap o'lim bilan kurashmoqda, agar uning resurslari tugab qolsa, u o'ladi-ku. Lekin siz nafaqat tezlik haqida o'ylashingiz kerak, balki samarali bo'lishi uchun startapga optimal tezlikni topishga yordam bera oladigan, tezlikni boshqarish richaklari kerak. Biz yuqorida insonlarning mushkulini yengil qilish g'oyasini doimiy tarqatish kabi tizimlarda qanday ishlatish mumkinligi to'g'risida so'z yuritgan damlarda tezlikni qisqartirish haqidagi misolga ko'zimiz tushgan edi. Ushbu konsepsiya Toyota da paydo bo'lgan paradoksdan juda yaxshi ifodalangan: "Ishlab chiqarishni vaqtida to'xtating, shunda ishlab chiqarish hech qachon to'xtamaydi". Andon g'oyasining mohiyati shundaki, agar unda jiddiy sifat muammosi yuzaga kelsa, ishni to'xtatishga imkon beradi va u tizimni tuzatishga majbur qiladi.

Bu tejamkor startap tizimidagi eng muhim tushunchalardan biri: tezlik uchun sifatni qurbon qila olmaysiz. Agar bugun sifat bilan bog'liq muammolar yuzaga kelsa (yoki siz ularni sezmasangiz), keyinchalik ular sizning o'sishingizga to'sqinlik qila boshlaydi. Oqibatda esa, keraksiz ishlar amaliyoti hajmi oshishiga olib keladi, odamlarning ruhiy tushkunligini ko'taradi, mijozlar ustidan shikoyat qilishgacha olib keladi, bularning barchasi kompaniyaning rivojlanish tendensiyasini sekinlashtiradi va qimmatli resurslarni yo'q qiladi. Hozircha

sifat muammolarini tavsiflar ekanman, jismoniy tovarlar haqida gapirdim, bu qanchalik og'ir bo'lsa, ham qulaylik uchun muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar deyarli hammada uchraydigan bir turdagi muammolarga duch kelishmoqda. O'quv shirkati, rekrutning agentligi yoki mehmonxonaning menejeri va xodimlardan har xil sharoitda va har qanday xizmat ko'rsatishi kerakligini tavsiflovchi qoidalar kitobini ko'rsatishni so'rang. Oddiy qo'llanma sifatida boshlangan narsa ko'pincha vaqt o'tishi bilan murakkablashadi. Yaqin kelajakda qoidalar nihoyatda chalkash bo'lib qoladi va xodimlar ularni o'rganish uchun ko'p vaqt va kuch sarflashlariga to'g'ri keladi. Endi tasavvur qiling, bunday kompaniyada tadbirkor menejer yangi qoidalar yoki protseduralar bilan tajriba o'tkazishga harakat qilmoqda. Yangi qoidalar qanchalik yaxshi bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ularni takomillashtirish shunchalik osonroq bo'ladi. Agar aksincha bo'lsa, tushunarsiz qoidalar qarama-qarshi va noaniq fikrlarga duch kelish holatlari va tartibsizlik boshlanishiga olib keladi. Men tejamkor startapni texnik ma'lumotga ega bo'lmagan tadbirkorlarga tanishtirsam, ular uchun konsepsiyani tushuntirish juda qiyin hisoblanadi. Bir tomondan, faktlarga asoslangan yondashuvning mantiqiyligi va eng kam ishlaydigan mahsulot, mahsulotni foydalanuvchilarning qo'lga iloji boricha tezroq topshirish zarurligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan, yaratish-baholash-o'rganishga oid mulohazalar davri doimiy jarayondir. Biz birinchi minimal ishlaydigan mahsulotda to'xtamaymiz, ammo o'rgangan narsalarimizdan foydalanib darhol keyingi versiya ustida ishlashni boshlaymiz. Shunday qilib, biz bugun muhim narsani – mahsulot sifati, rivojlanishi yoki infratuzilmasini tezlikdan oldingi ustuvor vazifa sifatida qo'ysak, bu bizning o'sishimizga xalaqit berishi mumkin. Ushbu paradoks IMVU da qanday namoyon bo'lganini ko'rishingiz mumkin. Mahsulotning birinchi versiyasini "takomillashtirish"ga ko'p vaqt sarf qilmaganimiz yaxshi. Yangi

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

bilimlar foydalanuvchilarga kerakli mahsulotlarni yaratishga imkon beradi, ammo birmuncha vaqt o'sish sekinlasha boshlashi mumkin. Sifatsiz mahsulot, agar uning nuqsonlari xaridorlarga uning afzalliklarini tushunishiga va bizga fikr-mulohazalarini bildirishiga to'sqinlik qilsa, o'rganishga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

IX BOB


Guruh a'zolarining donoligi

Tez sur'atlarda o'sish uchun startap jarayoniga tabiiy teskari aloqa tizimini boshqaradigan jarayon kerak. Agar siz faoliyatingizda juda tez harakat qilsangiz, siz faqat yangi muammolarni yaratasiz. Moslashuv jarayonlari, muammolarni hal qilish uchun sarflanayotgan behuda vaqt sarfingizni sekinlashtirish va uni qisqa muddatlarda isloh qilishga majbur qiladi. Bunday profilaktika ishlari samara berganda, siz tabiiy ravishda yana tezlikni oshirishni xohlab qolasiz. Xodimlarni tayyorlash bo'yicha yangi dasturimizga qaytamiz. Bunday dastursiz yangi xodimlar kompaniya faoliyatida xatolarga yo'l qo'yishadi, ularning o'qitilishi boshqa guruh a'zolarining yordami va ishtirokini talab qiladi hamda bu jarayon ishning umumiy sur'atini pasaytirishga sabab bo'ladi. O'quv dasturi sarmoya kiritishga arziydimi yoki yo'qligini qanday aniqlaysiz? Buni nazariy mulohazalar orqali aniqlash juda qiyin, chunki bir paytda ikkita noma'lum ko'rsatkichni baholash kerak bo'ladi: o'quv dasturini yaratish qancha turadi va u qanday foyda keltiradi. Bundan tashqari, bunday yechimlarga an'anaviy yondashish katta partiyaviy modelga asoslanadi: kompaniyada puxta o'qitish dasturi mavjud, yoki umuman dastur mavjud bo'lmasligi mumkin. Agar siz bunday dasturlarga mablag' kiritish uchun jiddiy sabab topa olmasangiz, sarmoya kiritmagan ma'qul.

The 5 Whys

Buning alternativ yechimi esa, «Five Whys?» ya'ni «5 marotaba nima uchun?» deb nomlangan uslub sizga asta-sekin o'quv dasturini yaratishga va boshlang'ich jarayonlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga imkon beradi. «Five Whys?»ning asosiy g'oyasi sarmoyani bevosita og'riqli alomatlarining oldini olish bilan bog'lashdir. Ushbu usulning nomi politsiya tergov usullarini eslatadi, bu yerda tergovchi nima uchun sodir bo'lganligini aniqlash uchun «Nima uchun?» deb naqd besh marotaba savol beradi (sababi nima? mazmunida). Agar osmon nima uchun ko'k ekanligini bilishni istagan va «nega?» deb so'rab turadigan bolaning savollariga javob bergan bo'lsangiz, har bir javobdan keyin siz u bilan yana ham yaqinroq tanishishga imkoningiz bo'ladi. Ushbu usul Toyota ishlab chiqarish tizimining yaratuvchisi Taichi Ohno tomonidan muammoni hal qilishning tizimli vositasi sifatida ishlab chiqilgan. Men uni "Tejamkor" startap tizimiga moslashtirdim va startaplar uchun bir nechta o'zgartirishlar kiritdim. Dunyodagi jamiki borliq, bir qarashda, insonning muammosiga asoslangan. «5 marotaba nima uchun?» usuli bu nima ekanligini aniqlashga imkon beradi. Taichi Ohno

quyidagi misolni keltiradi. U yoki bu muammoga duch kelganingizda, siz to'xtab, «Nega?» deb besh marotaba o'zingizga o'zingiz savol berishingiz mumkin. Bu oson emas. Mashina ishlashni to'xtatdi deylik.



Quyidagi usuldan foydalanib 5 marotaba savol berish kerak:


1. Nega stanok to'xtab qoldi? (Balki, haddan tashqari ortiqcha yuk paydo bo'lgandir yoki motori ishlamay qolgandir.)
2. Nega ortiqcha yuk paydo bo'ldi? (balki stanok kam yog'langandir.)
3. Nega u kam yog'langan? (Bosim haydovchi nasosda kuchlanish yetarli emas edi.)
4. Nega u yerda nasosdagi bosim yetarli emas? (Nasos karteri eskirgan.)
5. Nega karter eskirgan? (U anchadan buyon yangisiga almashtirilmagan edi.)

«Nega?» degan savolni besh marta takrorlash orqali siz asosiy muammoni topishingiz va uni hal qilishingiz mumkin.

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

Agar biz buni qilmasak, unda stanok yog'lanishi yoki nasos valini almashtirish bilan cheklanib qolamiz. Ammo baribir, birmuncha vaqtdan keyin, muammo yana paydo bo'ladi. Toyota ishlab chiqargan tizimi ushbu yondashuvdan foydalanish va rivojlantirishga asoslangan. Besh marotaba «nega» deb so'rab, ushbu savollarga javob berib, muammoning asl sababini topishingiz mumkin.

Iltimos, diqqat qiling: hatto bunday oddiy misolda ham asosiy sabab texnik muammoda emas, asl muammo uskunaning anchadan buyon yangilanmaganida, faoliyatda inson omili aralashsa, tabiiy ravishda xatoliklarga yo'l qo'yiladi, balki o'sha stanokka mas'ul odam karterning ishlash muddati o'tib ketganidan bexabardir. Bu kabi hodisalar ma'lum bir korxonalar qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar duch kelishi mumkin bo'lgan muammodir. Xizmat ko'rsatish sohasida esa, bir qarashda, shaxslarning xatosi bo'lib tuyiladigan deyarli barcha muammolarni o'rganish muammolari yoki kompaniyaning qoidalarning qarama-qarshi to'plami bilan bog'lash mumkin. Men sizga «Five Whys?» usuli biz yuqorida aytib o'tgan xodimlarni o'qitish tizimini yaratishda qanday yordam berganini ko'rsatmoqchiman. Tasavvur qiling, IMVU to'satdan yangi chiqqan mahsulotning yangi versiyasi to'g'risida mijozlardan shikoyatlarni eshita boshladi.



1. Yangi versiyada variantlardan biri o'chirib qo'yildi. Nima uchun? Serverlardan birida muammo yuzaga kelganligi sababli.

2. Nima uchun serverda muammo yuzaga keldi? Chunki ba'zi tizimlar noto'g'ri ishlatilgan.

3. Nima uchun u noto'g'ri ishlatilgan? Bir vaqtlar uni ishlatgan ishchi buni qanday qilishni bilmas edi.

4. Nega u buni bilmagan? Chunki u o'qitilmagan.

5. Nega u o'qitilmagan? Uning rahbari yangi ishchilarni tayyorlashni zarur deb hisoblamaydi, chunki u va uning guruh a'zolari juda band.

Dastlab texnik xatoga o'xshagan kichik detallar boshqaruv va tashkiliy muammoga aylandi.

Mo'l-ko'l investitsiya oqimi

Five Whys usuli sizga moslashuvchan tashkilot yaratishda qanday yordam beradi? Siz besh savollar ichidan birortasiga yoki har biriga izchil sarmoyalar kiritishingiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, biz jiddiy muammolarni hal qilmagunimizcha, profilaktika uchun katta mablag' sarflamaymiz. Yuqoridagi misolda muammoni hal qilish uchun serverdagi muammolarni bartaraf etish, kichik tizimda xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun o'zgartirish, yangi xodimni o'qitish va albatta menejer bilan suhbatlashish kiradi. Bu oxirgi vazifa, xo'jayin bilan suhbatlashishning o'ziga yarasha mashaqqati va qiyinchiligi bor, ayniqsa startap muhitida. Men startapda bosh direktor bo'lganimda, agar menga xodimlarim tahsil olishi kerakligi haqida aytishsa, men bunday bema'nilik bilan shug'ullanmayman deb javob berar edim. Chunki menda juda ko'p boshqa vazifalar bo'lgan. Ehtimol, men xushmuomalalik bilan boshqacha yondashgan bo'lar edim, masalan: "Albatta, men bu ishni qilishdan boshim ko'kka yetadi! Agar menga bir-ikki oy bo'sh vaqt bersangiz, men bu ish bilan albatta

shug'ullanaman». Boshqacha qilib aytganda: «boshqa yo'l yo'q!»

Shuning uchun ham investitsiyalar juda muhim hisoblanadi. Agar elektr quvvati kichik bir uzilish natijasida o'chib qolsa, uni tuzatish uchun bir soat vaqt sarflash kifoya. Agar muammo yana takrorlansa, yuqorida misollar keltirilgani kabi «5 marotaba nima uchun?» uslubiga amal qilgan holda, sababini bilib olamiz. Agarda muammo yana yuzaga kelmasa, uni hal qilish uchun sarflangan bir soat vaqt juda katta yo'qotish emasligini anglatadi, chunki «5 marotaba nima uchun?» uslubini qo'llashga hojat qolmaydi-da. Men misol tariqasida yangi ishchilarni o'qitishni misol qilib keltirgan edim.

5Why



Axir, men IMVU da unga e'tibor berishdan bosh tortgan edim-da. Birinchi marta startapimizni boshlaganimizda, men faqat mahsulotni yaratish va sotishga e'tibor qaratishimiz kerakligiga chin dildan ishonardim. Ammo qisqa vaqt ichida ko'plab yangi xodimlarni jalb qilishimiz kerak bo'lganida, «5 marotaba nima uchun?» usuli qayta-qayta o'qitishning tizimi yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar mahsulotning rivojlanish siklini sekinlashtirishini isbotlay boshladi. Albatta, biz yangi ishchi xodimlarga ta'lim berishni boshlash uchun boshqa hamma faoliyatdan voz kechmadik. Ammo biz o'quv dasturini doimiy ravishda takomillashtirib turdik, natijasi uzoq kuttirmadi, u har safar e'tibor qaratilgan vaqtda biroz bo'lsa, ham yaxshilanib borardi.

Avtomatik tezlikni boshqarish

«5 marotaba nima uchun?» usuli tezlikning tabiiy regulatoriga aylanishi mumkin. Muammolar qancha ko'p bo'lsa, ularni hal qilish uchun ham shunchalik ko'p vaqt va kuch sarflanadi. Infratuzilma yoki jarayonga qo'yilgan sarmoyalar o'z samarasini bera boshlagach, inqirozlar soni kamayib boradi. Paytdan unumli foydalanib qolish uchun jamoa yana tezlikni oshiradi. Startaplar, ayniqsa, jamoalarining juda tez ishlashi, vaqt sifatini qurbon qilishi, beparvolik va xatolarga olib kelish xavfi bor. «5 marotaba nima uchun?» usuli bunga jamoaning optimal tezligini topishiga imkon beradi. Ushbu usul nafaqat samaradorlik, balki rivojlanish tezligini o'rganish bilan bog'lashga yordam beradi. Texnik xatolar, kutilgan moliyaviy natijalarning yetishmasligi yoki iste'molchilarning xulq-atvoridagi kutilmagan o'zgarishlar kabi har qanday muammoga duch kelganda startap jamoasi «Five Whys?» yondashuvidan foydalanishi kerak. «5 marotaba nima uchun?» usuli kuchli tashkiliy usul hisoblanadi. Men uni ishlatishni o'rgatgan ba'zi ishlab chiquvchilar, tejamkor startapning barcha boshqa usullari undan kelib chiqishi mumkin deb hisoblashadi.

Muammolarni hal qilish uchun jamoalar «5 marotaba nima uchun?» usulidan foydalanishni boshlaganlarida, ko'pincha ular bir xil qiyinchiliklarga duch kelishadi. Odatda, o'zimiz bilan hozirgi paytda nima sodir bo'layotganiga haddan tashqari ko'proq ta'sir o'tkazishga moyil bo'lamiz. Va shu bilan birga biz kutgan natija o'z yuzini ko'rsatmasa juda xafa bo'lamiz. Qachonki «5 marotaba nima uchun?» usuli noo'rin ishlatilsa men uni «5 ayblov» deb atayman. Muammolarni aniqlash va hal qilish uchun «Five Whys?»dan foydalanish o'rniga, menejerlar va xodimlar ba'zan o'zlarining salbiy his-tuyg'ularini boshqara olmay «5 ayblov» tuzog'iga tushadilar. Ammo aybdorni bunday izlash tizimdagi kamchiliklarni ko'rishimizga imkon bermaydi. Sodir bo'lgan

muvaffaqiyatsizlik sababi barchamizning xatolarimiz, boshqa bo'limning sust ishlashi, boshqalarning johilligi yoki yomon xulq-atvorining natijasi deb ishonamiz. Ammo "5 marotaba nima uchun?" usuli obyektiv haqiqatni ko'rishga yordam berish uchun yaratilgan. Muammo takrorlansa, bu shaxslarning harakatlari emas, balki samarasiz jarayonlarning natijasidir. Agar biz bu haqiqatni tushuna olsak, juda ko'plab adekvat jarayonlarni yaratish imkoniyatiga egamiz.

"5 ayblov"ga aralashmaslik uchun men bir nechta taktikalarni taklif qilaman. Birinchidan, har bir kishi "5 marotaba nima uchun?" uchrashuvida ishtirok etishi kerak. Unga muammoni aniqlagan yoki tashxis qo'ygan har bir kishi, shu jumladan, mijozlarga xizmat ko'rsatish xodimlari kirishi kerak. Bunda simptomni tuzatishga harakat qilganlarning hammasi, shuningdek, muammo bilan bog'liq bo'lgan kichik tizimlar yoki variantlar bilan ishlaganlarning hammasi kirishi kerak. Agar muammo yuqori darajadagi menejment darajasiga yetgan bo'lsa, unday bo'lsa, muammolarni o'z vaqtida hal qilmagan rahbarlar ham uchrashuvga kelishlari shart.

Natijada, yig'ilishda odamlar soni ko'p bo'ladi, bu esa yaxshilik uchun harakatlar strategiyasini tuzishga yana bir imkoniyat. Mening tajribamga ko'ra, agar kimdir munozarada qatnashmasa, oxir-oqibat u ayblovlar obyektiga aylanadi. Bu yerda har kim o'zi uchun o'zi harakat qiladi, xoh u past darajadagi xodim bo'lsin, xoh bosh direktor bo'lsin. Agar u oddiy xodim bo'ladigan bo'lsa, ularni almashtirish oson bo'lib tuyilishi mumkin. Agar bosh direktor yig'ilishda ishtirok etmasa, boshqalar uning harakatlariga ta'sir o'tkaza olmaydi. Lekin ayblovlar kim bo'lishidan qat'i nazar, o'z ta'siri o'tkazmay qo'ymaydi.

Nimadan boshlash kerak?

"5 marotaba nima uchun?" usulidan foydalanishni boshlash bo'yicha ba'zi boshlang'ich maslahatlar. Ular mening

shaxsiy tajribamga asoslangan, chunki men ushbu usulni ko'plab kompaniyalarda joriy etishga yordam berganman. "Five Whys?" ya'ni "5 marotaba nima uchun?" uslubining to'g'ri ishlashi uchun ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak. Masalan, bu o'zaro ishonch va mas'uliyat muhitini talab qiladi. Agar talab etilgan muhit mavjud bo'lmasa, uni qo'llash juda qiyin kechadi. Bunday vaziyatlarda men jamoalarga muammoning asl sababini tahlil qilishga va shu bilan birga ushbu yondashuvni qo'llashni o'rganishga imkon beradigan soddalashtirilgan versiyasini taklif qilaman.

Men barchadan ikkita oddiy qoidaga amal qilishlarini so'rayman:

1. Birinchi (siz oldin uchratmagan) marta paydo bo'lgan xatolarga bardoshli bo'ling.
2. Xuddi shu xatoning ikki marta takrorlanishiga yo'l qo'ymang.

Birinchi qoida, ayniqsa, boshqa odamlar tomonidan qilingan xatolarni xotirjamlik bilan qabul qilishni o'rganishga yordam beradi. Esingizda bo'lsa, deyarli barcha xatolar shaxslarning xatti-harakatlari emas, balki nuqsonli tizimlar tufayli yuzaga keladi.

Ikkinchi qoida kelajakdagi xatolarning oldini olish uchun mutanosib sarmoya kiritishga yordam beradi.

Ushbu soddalashtirilgan tizim juda samarali hisoblanadi. Darhaqiqat, uni IMVU kompaniyasida qo'llagan edim, lekin undan oldin «5 marotaba nima uchun?» usulini uchratmagan edim va Toyota ishlab chiqqan tizimi haqida hech narsa bilmas edim. Ammo usulning soddalashtirilgan versiyasi vaqt o'tishi bilan o'z samaradorligini yo'qotadi, bunga men o'z tajribamdan amin bo'ldim. Usulning soddalashtirilgan versiyasining afzalliklari va kamchiliklari shundaki, u ba'zi savollarga oydinlik kiritadi: bu muammo qanchalik muhim? Qaysi turdagi xatolarga e'tibor qaratish kerak? Ushbu aniq muammoni hal qilish kerakmi yoki bu bilan bog'liq

muammolarning butun toifasini oldini olishga harakat qilish yaxshiroqmi? Endigina ish boshlayotgan jamoa a'zolari bu kabi savollar haqida o'ylashga majbur bo'lmoqdalar. Bu batafsilroq ishlab chiqilgan usullar uchun asos bo'lishi mumkin. Ammo, ularga qaysi yo'l bilan bo'lmasin javob berish kerak bo'ladi.

Qadamlarni kichigidan boshlang va aniq nima xohlayotganingizni biling

Men muammoni aniqlash uchun uning bir nechta simptomlaridan boshlashni maslahat beraman. Masalan, men birinchi marta ichki sinov vositamiz bilan bog'liq muammoning asosiy sababini tahlil qilish uchun «Five Whys?» usulidan muvaffaqiyatli foydalandim. Jamoani ushbu usuldan foydalanishga o'rgatish uchun ularga "unchalik muhim bo'lmagan masalalardan boshlaganingiz ma'qul va shundan keyingina uni stavkalar yuqori bo'lgan joyda qo'llashingiz maqbul yechim bo'ladi" deb tushuntirishga urindim.

Aytaylik, mijozlar shikoyatlarining sabablarini o'rganish uchun "Five Whys?" usulidan foydalanmoqchisiz. Bunday holda, barcha shikoyatlar uchrashuvni o'tkazish vaqti kelganligi to'g'risida avtomatik signalga aylanadigan sanani belgilang. Ammo shikoyatlar hajmi juda katta bo'lmasligi kerak. Agar shikoyatlar ko'p bo'lsa, e'tiboringizni bir nuqtaga qaratish uchun alohida shikoyatchilar sinfini tanlang.

Shikoyatlarning turlarini aniqlovchi va «Five Whys?» uchra-shuvini vaqti kelganlik haqida ishora beruvchi qoidalar sodda va izchil bo'lishi kerak. Masalan, kredit karta to'lovlari bilan bog'liq barcha shikoyatlarni ko'rib chiqish mumkin. Bu oddiy va tushunarli qoida. Turli xil talqin qilinishi mumkin bo'lgan qoidalarni tanlamang.

Dastlab, barcha hisob-kitob tizimlarida va barcha jarayonlarda birdaniga tub o'zgarishlarni kiritish istagi paydo bo'lishi mumkin. Bunday qilmang. Vaqt o'tishi bilan, jamoa

«Five Whys?» usuli haqida yaxshiroq tushunchaga ega bo'lganda, o'zgarishlar jiddiylashishi mumkin, shu sababdan mahsulotga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarni turlicha shakliga duch kelib uni bartaraf etish yo'llarini izlagan holda boshqa masalalarning yechimini topish mumkin.

«Five Whys?» uslubi endi amaliyotda

IGN Entertainment, News Corporation bo'limi, onlayn video o'yinlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Uning o'yinlari dunyodagi eng katta geymer auditoriyasiga ega, unda 45 milliondan ortiq foydalanuvchi mavjud. IGN 1990-yilning oxirida, 2005-yilda uni News Corporation sotib oldi. Bugungi kunda bu yerda bir necha yuz kishi ishlaydi. Yaqinda IGN ni rivojlantirish guruhi bilan suhbatlashish imkoniga ega bo'ldim. Kompaniya so'nggi yillarda juda yaxshi ishlarni amalga oshirdi, ammo biz ushbu kitobda tanishgan barcha yirik kompaniyalar singari, u ham mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirishni va innovatsiyalarni rivojlantirishni xohlar edi. U "Tejamkor" startap tamoyilidan qanday foydalanish usullarini namoyish qilish uchun mahsulot va dizayn guruhlarini birlashtirdi.

Ushbu tashabbus IGN rahbarlari, shu jumladan bosh direktor va mahsulot ishlab chiqarish rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Avvalroq kompaniyada "Five Whys?" usulidan foydalanishga urinishlar unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan. Yechilishi kerak bo'lgan muammolar veb-analitikadagi nomuvofiqliklardan, samarasiz sheriklar ma'lumotlar bazalariga qadar bo'lgan. «Five Whys?» tahliliga bag'ishlangan birinchi yig'ilish taxminan bir soat davom etdi. Unda bir nechta qiziqarli g'oyalar ilgari surildi, ammo u muvaffaqiyat qozona olmadi. O'sha yig'ilishda muammoga daxldor bo'lganlarning va muammolar haqida biladiganlarning hech biri bo'lmagan. Kompaniya ilgari hech qachon bunday uchrashuvlar o'tkazmagan, shuning uchun

ishtirokchilar formatga rioya qilishda no'noqlik qilishgan va doimiy ravishda mavzudan chetga chiqishgan.

"Five Whys?" bilan surunkali muammolarni hal qilishga urinmang. IGN bu muammolarning barchasini hal qilishga urindi. Ammo ko'p yillar sarf qilishiga qaramay, muvaffaqiyatga erisha olmadi. Agar tahlil paytida bunday muammolar o'z-o'zidan paydo bo'lmasa, ko'ringanicha muhim bo'lmasligi mumkin.

«Five Whys?» usulidan foydalanishda IGN kompaniyasi uchta muhim imkoniyatni o'tkazdi:

1. Ushbu usulni tashkilotga joriy etish uchun har safar yangi muammo yuzaga kelganda jamoaviy uchrashuv o'tkazish kerak.

2. Beshta tahlil sessiyalarida «Five Whys?» muammoga aloqador har bir kishi hozir bo'lishi kerak. Ko'pgina tashkilotlar odamlar bunday yig'ilishlarga borishning o'rniga vaqtni tejashga intilishadi, ammo bu umuman vaqt tejash emas.

3. Har bir uchrashuvning boshida bir necha daqiqa vaqt ajrating, buning «Five Whys?»ni tahlil qilishning afzalliklari nimaga kerakligini hali tanish bo'lmaganlarga tushuntiring. Iloji bo'lsa, o'tmishdagi bunday muvaffaqiyatli uchrashuvlarga misol keltiring. IGN jamoa a'zolari uchun muhim bo'lgan misollardan foydalanish yaxshiroq ekanligini o'z tajribasidan kelib chiqib aniqlagan.

Birinchi uchrashuvdan so'ng IGN «Five Whys?» usuliga yana bir imkoniyat berishga qaror qildi. Ushbu bobdagi tavsiyalarga binoan, ular "Five Whys?" mutaxassisini tayinladilar. Bu Toni Ford, rivojlanish bo'yicha direktor edi. Toni tadbirkor bo'lgan va IGN ga o'zining kichik kompaniyasini sotib olayotganda kelgan. U o'zining internet texnologiyasini 1990-yillarning oxirlarida boshlagan. O'sha yillarda u video

o'yinlariga bag'ishlangan veb-saytlarni yaratishni boshladi. Toni dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchi yetakchi bo'lgan Xbox guruhi startapi shu tarzda tug'ildi. 2003-yilda Team Xbox IGN Entertainmentning bir qismiga aylandi va Toni ishlab chiquvchi, shuningdek, Agile va Linning innovatsion yetakchisi va himoyachisi bo'ldi.

Afsuski, Toni boshidanoq hamma diqqat markazida bo'lishi mumkin bo'lgan tor muammo maydonini seza olmadi. Bu chalkashlik va tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi. Toni o'zi bu vaziyatni quyidagicha ta'riflaydi: «Men yaqinda «Five Whys?» mutaxassisiga aylandim, lekin jamoaviy uchrashuvni yaxshi o'tkaza olmadim. Bundan tashqari, biz juda murakkab muammoga duch keldik. Shuning uchun birinchi uchrashuvlar katta foyda keltirmadi. Shunda men tushkunlikka tusha boshladim va juda xafa bo'ldim». Bu holat, odatda, birdaniga ko'p ish qilishga harakat qilgan paytlarimizda sodir bo'ladi. Ammo yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun vaqt kerak. Yaxshiyamki, Toni qarorida qat'iy turib oldi: «Menimcha, «Five Whys?» usulini qo'llash juda muhim?» Ushbu usul nazariy jihatdan sodda, ammo amalda qo'llash qiyin, shuning uchun yig'ilishda unga tanish bo'lgan va hozirgacha bu haqda kam ma'lumotga ega bo'lganlarga rahbarlik qila oladigan kishi bo'lishi kerak.

Toni o'z vaqtida yakunlanmagan loyiha uchun yig'ilish o'tkazganidan so'ng hammasi o'zgarib ketdi. Uchrashuv hayajonli o'tdi, ko'plab yangi g'oyalar tug'ildi va to'g'ri qarorlar qabul qilindi. Toni shunday deydi: «Yaxshi o'tdi, chunki men va boshqa a'zolar ko'proq tajribaga ega edik. Bu usul nima ekanligini hamma allaqachon bilar edi. Uchrashuvni muvaffaqiyatli olib bordim va ishtirokchilarning mavzudan chetlashishiga yo'l qo'ymadim. Bu eng muhim narsa edi. Bu burilish nuqtasi edi. Shunda men shuni angladimki, «Five Whys?» bizni yanada yaxshiroq qilishga yordam beradigan yangi vosita». Sirtidan, «Five Whys?» usuli texnik muammolarni hal qilishda optimal yechim bo'lib ko'rinadi.

STARTAP G'OYASIDAN MILLIONLIK AMALIYOTGACHA

Ammo jamoa o'z zimmasidagi keraksiz mas'uliyatlardan xalos bo'lgach, ular jamoaviy ishni qayta jiddiy yondashuv bilan qilishni boshlaydilar. Toni shunday deydi: "Men shuni aytishga jur'at etamanki, bu usul nafaqat muammolarning sabablarini tahlil qilish, balki ma'lumotlar va fikrlar bilan bo'lishish imkonini beradi. U umumiy tushuncha va umumiy nuqtayi nazar orqali jamoani bir-biriga yaqinlashtiradi. Ko'pincha muammolar odamlarni ajratib turadi, lekin "Five Whys?", aksincha, ularni birlashtiradi».

X BOB

Innovatsiya yaratish


Innovatsion kompaniyani qanday barpo qilish mumkin?

Innovatsion kashfiyotlar qiluvchi guruh muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u to'g'ri tuzilgan bo'lishi lozim. Agar startap loyihaning ichki kapitalini qo'llab-quvvatlash uchun venchur kapitali mavjud bo'lsa – bu kichik, ammo mustaqil kompaniya bo'lib qolaveradi. Yirik kompaniyalarning ichki startap jamoalari ham bunday tuzilishga muhtoj va bu yerda yuqori menejmentning ko'magi muhim ahamiyatga ega. Mening tajribamga ko'ra, startap jamoalari muvaffaqiyatli rivojlanish uchun uchta asosiy shartni talab qiladilar: oddiy, ammo arzon resurslar, o'z g'oyalarini mustaqil ravishda rivojlantirish, sinab ko'rish qobiliyati hamda natijaga shaxsiy qiziqish. Miqyosi katta bo'lgan barqaror kompaniyalarning bo'linmalarida odatda bunday shartlar mavjud bo'lmaydi. Shuni yodda tutingki, bu tuzilish shunchaki zaruriy shart, bu muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Ammo noto'g'ri tuzilishi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Oddiy, ammo mavjud bo'lgan resurslar

Katta va barqaror tashkilotlarda biznes rahbarlari, odatda, budjetini ko'paytirish uchun siyosiy o'yinlardan foydalanadilar va shu bilan birga budjetni qisqartirish mumkinligidan ham xabardorlar. Shuning uchun, ular o'z budjetini iloji boricha ko'paytirishga harakat qilishadi va uni tashqi ta'sirlardan va tajovuzlaridan himoya qilish uchun har qanday usulni qo'llashadi. Ushbu siyosiy o'yinlarda menejer ba'zida yutadi, ba'zida yutqazadi:

agar tashkilotda inqiroz yuzaga kelsa, bu hodisa to'satdan kompaniya budjetini keskin qisqartirishi mumkin, ammo bu esa falokat degani emas: shunchaki jamoa kamroq resurslar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Startap uchun bu boshqacha ko'rinishda ishlaydi: ortiqcha katta miqdordagi budjet zararli – bu dotkom tijorat kompaniyalarining muvafqiyatsizliklari misolida tasdiqlangan va startaplar budjet o'zgarishi jarayonida bu kabi hodisalarga sezgir bo'lib qoladi. Juda kamdan kam hollarda startap kutilmaganda o'z budjetini 10 foizga qisqartirishi mumkin. Bunday zarba uning uchun halokatli bo'lishi mumkin. Mustaqil startaplarning foydasi juda past, shu sababdan ular xatolarga yo'l qo'yishga haqqi yo'q. Shunday qilib, startapni boshqarish katta kompaniyaning bo'linishidan ko'ra osonroq: unga kapital ko'p bo'lishi shart emas, ammo bu kapital har qanday tajovuzlardan himoyalangan bo'lishi kerak.



Mustaqil rivojlanish imkoniyati

Startapning imkoniyatlari har doim cheklangan bo'lib, yangi mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarish uchun maxsus jamoalarga to'liq mustaqillik kerak. Ular ko'plab xo'jayinlarning roziligini olgan holda tajribalarni ishlab chiqishlari va o'tkazishlari kerak. Men doimiy ravishda birinchi mahsulotlarni yaratish yoki sotish bilan shug'ullanadigan kompaniyaning barcha qismlaridan odamlar bilan o'zaro faoliyati funksional guruhlarni yaratishni maslahat beraman. Bunday jamoalarning vazifasi nafaqat prototiplarni, balki haqiqiy ishlaydigan mahsulotlarni ishlab chiqish va xaridorlarga taqdim etishdir. Rahbariyat bilan munozaralar va ularning roziligini olish zarurati, qurish-baholash-o'rganishga oid mulohazalarni pasaytiradi, o'rganishga to'sqinlik qiladi va startap loyihaga ega jamoalardan mas'uliyatni olib tashlaydi. Shuning uchun, ishga tushirishni tasdiqlash bilan bog'liq har qanday kechikishlar ishga tushirish jarayonida yo'q qilinishi kerak. Albatta, bu darajadagi erkinlik ko'pincha katta tashkilotlarni qo'rqitadi. Ammo quyidagi tavsiflangan usul uning qo'rquvini yo'qotishga yordam beradi.

Natijaga bo'lgan shaxsiy qiziqish

Tadbirkor o'zining ijodiy izlanishlari natijasi bilan shaxsan qiziqishi kerak. Mustaqil boshlang'ich tashkilotlar odatda o'z xodimlariga aksiyalarning qandaydir shaklini taklif qilishadi. Agar buning o'rniga bonus tizimidan foydalanilsa, u holda xodimlar yaratgan yangiliklarining uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun bonuslar va imtiyozlarni olishlari kerak. Ammo shaxsiy qiziqish faqat moliyaviy bo'lishi kerak deb o'ylamayman. Masalan, innovatsiya moliyaviy maqsadlar bilan bog'liq bo'lmagan notijorat va davlat tashkilotlari mavjud. Ammo bunday holatlarda ham shaxsiy manfaat

mavjud bo'lishi mumkin. Bosh tashkilotdan innovatsiyani rivojlantirish uchun kim javobgarligini aniq belgilashi talab qilinadi. Agar u yangi mahsulot yaratgan bo'lsa, mahsuloti esa muvaffaqiyatli bo'lsa, u shaxsni e'tirof etish kerak. Yirik mediakompaniya bo'limini boshqaradigan bir tadbirkor aytgan edi: "Moddiy rag'batlantirishni chetga olib tursak, agar mening ismim eshikka ehtirom ila, qilgan ishlarimni qadrlash bilan yozilgan bo'lsa, menda yo'qotish uchun nimadir bor bo'ladi. Shuning uchun, men hammadan ko'proq ijobiy natijalarga erishishga harakat qilaman. Bu kabi mas'uliyat hissi muvaffaqiyat qozonishda juda muhim omildir." Ushbu formula tijorat tashkilotlari uchun ham samarali. Toyota kompaniyasida boshidan oxirigacha yangi modelni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan menejer bosh muhandis yoki susa deb nomlanadi.

«Susa ko'pincha Amerika biznes adabiyotlarida loyiha menejerlari deb nomlanadi, ammo bu nom ularning loyihalarni boshqarishda haqiqiy rolini aks ettirmaydi. Toyota xodimlari ushbu atamani «bosh muhandis» deb talqin qilishadi va rivojlanishdagi model bu yerda «avtosusa» deb nomlanadi. Bizga Susa rivojlanishning har bir jabhasi uchun to'la va to'liq javobgarligini anglatadi».

Aksincha, men juda muvaffaqiyatli va taniqli texnologik kompaniyalarni bilaman, u o'zining innovatsion madaniyati bilan alohida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan, ammo yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish tajribasi unchalik yuqori darajada emas. Kompaniya bir qator ajoyib yutuqlarga erishgan jamoa a'zolari uchun katta bonuslar va maqom mukofotlari asosida rag'batlantirish tizimi bilan faxrlanadi, ammo noma'lum sabablarga ko'ra mukofotlar yuqori rahbariyat tomonidan taqsimlab beriladi. Jamoa ushbu lotereyada yutib chiqadimi yoki yo'qligini aniqlaydigan

obyektiv mezon mavjud emas. Jamoa oldiga o'zi yaratgan yangiliklarni yanada rivojlantirish vazifasi yuklanadimi yoki yo'qmi, amin emas. Shu sababli, odamlar tavakkal qilishga undamaydilar va buning o'rniga faqat yuqori darajadagi rahbariyat tomonidan ma'qullanadigan loyihalarni amalga oshirishni tanlaydilar.

Tajriba uchun platforma yaratish

Erkin faoliyat olib boradigan startap jamoasi faoliyat ko'rsatadigan asosiy qoidalarni belgilash muhimdir. Ushbu qoidalar quyidagilarni tashkil qiladi: tashkilotni qanday qilib tashqi va ichki ta'sirlardan himoya qilish kerak, rahbarlar qanday vazifalarga va qanday qilib javobgar bo'ladi va nihoyat, agar tashkilot muvaffaqiyatli ishlarni amalga oshirsa, unda tashkilotga qanday qilib innovatsiyalarni joriy qilish kerak.

Qo'rquv tushunchasi

Kompaniya iste'molchilarning ikki qismiga xizmat ko'rsatdi: korporativ mijozlar va jismoniy shaxslar. Bir segmentda kompaniyada boshqa kompaniyalarga murakkab tizimlarni taklif qiladigan sotuvchilar bor edi, boshqalarida esa asosan bir martalik xaridlar bo'ldi. Kompaniyaning joriy daromadlarining asosiy qismi B2B sotishidan tushdi, ammo ushbu segmentdagi o'sish sekinlashdi. Hamma xususiy mijozlar segmentida o'sish uchun katta imkoniyatlar mavjudligiga ishongan, ammo bu hech qachon amalga oshirilmagan. Narxlar tarkibi o'sishni qisman pasaytirdi. Katta mijozlarga ega bo'lgan ko'plab sotuvchilar singari, ushbu kompaniya dastlab yuqori narxlarni o'rnatdi va keyin «imtiyozli» korporativ mijozlarga katta chegirmalar taqdim etdi. Tabiiyki, har bir sotuvchi o'z mijozlarini o'ziga xos shartlar taklif qilinganligiga ishontirdi. Ammo xususiy

xaridorlarga narxlar ro'yxatidagi narxlar shunchaki haddan tashqari tuyuldi.

B2C segmentining o'sishi uchun mas'ul bo'lgan guruh tajriba o'tkazmoqchi edi: narxlarni pasaytirib, nima bo'lishini ko'ring. B2B segmenti uchun mas'ul bo'lgan guruh bu korporativ mijozlarni qo'rqitishidan qo'rqardi. Oddiy odamlarni mahsulotni o'zlaridan past narxlarda sotib olishlarini ko'rishsa-chi? Ko'p segmentli kompaniyada ishlagan har bir kishi, ushbu muammoni hal qilishning ko'plab usullari mavjudligiga rozi bo'ladi. Masalan, siz turli xil mijozlar mahsulotni har xil «darajalarda» (masalan, aviakompaniyalarning turli xil «sinflari») sotib olishlari yoki hatto turli tovar belgilari ostida mahsulot sotishlari uchun alohida variantlar to'plamini yaratishingiz mumkin. Biroq, kompaniya ushbu qarorlarning birortasini qabul qila olmadi. Nima uchun? Amaldagi biznesni xavf ostiga qo'yishdan qo'rqib, har bir taklif qilingan tajriba kechiktirildi, sabotaj qilindi va murakkablashdi. Shuni ta'kidlash kerakki, kompaniyaning qo'rquvlari asosli edi. Sabotaj agar kimdir uning hududiga bostirib kirsas, menejerning yetarli javobidir. Ushbu kompaniya hali hech narsaga ega bo'lmagan kamtarona kichik startap emas. Katta kompaniya doimo yo'qotadigan narsaga ega. Agar asosiy biznesdan tushadigan daromad pasayishni boshlasa, boshlar uchib ketadi. Va bunga beparvo qarash mumkin emas.

Qora idishda innovatsiyalarni yashirish nega bunchalik xavfli?

Agar ushbu kompaniya faol ravishda tajriba o'tkazmagan bo'lsa, u oxir-oqibat achinarli taqdirga duchor bo'lar edi: yildan yilga katta foyda, so'ngra to'satdan o'lim. Ichki innovatsion jamoalarni tuzishda biz tez-tez so'raydigan savolimiz bu: ichki startapni bosh tashkilotdan qanday himoya qilish kerak?, ammo men qarama-qarshi savolni

bermoqchiman: bosh tashkilotni startapdan qanday himoya qilish kerak? Odamlar o'zlariga tahdid sezilganda o'zlarini himoya qila boshlaydilar va bunday vaziyatda hech qanday yangilik mumkin emas. Shuning uchun yirik kompaniyalarga ko'pincha innovatsion jamoani «yashirish» tavsiya etiladi. Ammo bu fikr xato. Ushbu yondashuv ba'zida muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Masalan, birinchi IBM PC Florida shtatining Boka-Raton shahrida, IBM ning qolgan qismidan butunlay mustaqil ravishda qurilgan. Ammo bunday strategiya kamdan kam hollarda barqaror innovatsiyalarga olib keladi. Uzoq vaqt davomida bosh tashkilot sirlari jiddiy muammolarga to'la. Ushbu vaziyatni innovatsiyalarni rivojlantirish vazifasini olgan menejerlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqing. Ular xiyonat qilishni his qilishadi va talvasaga tushgan odamga aylanishadi. Axir, agar juda muhim narsani muvaffaqiyatli yashirish mumkin bo'lsa, ularni zulmatda yana nima kutmoqda? Vaqt o'tishi bilan bu siyosiy o'yinlarga olib keladi, chunki menejerlar har narsada o'zlarining kuchlari, ta'siri va martabalariga tahdidlarni qidira boshlaydilar. Lekin yangilikning muvaffaqiyati bunday vijdotsiz xatti-harakatlar uchun bahona emas.

Tajribali menejer nuqtayi nazaridan vaziyat shunday ko'rinadi: agar sizda ma'lumot bo'lmasa, bu sirlarning barchasi sizning orqangizga pichoq bilan urilib ketishiga olib keladi. Ushbu menejerlarni tanqid qilish nohaqlikdir – bu yerda mas'uliyat ularni «yashirishga» urinmasdan ochiq harakat qilish va innovatsiyalarni yaratishga imkon beradigan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishga qodir bo'lmagan yuqori menejmentga tegishli. Aynan shu sababli, menimcha, IBM dan o'rnak olgan kompaniyalar qora qutidagi yangiliklarni qo'lga kiritgan holda yangi bozorlarda yetakchilik mavqeyini tezda yo'qotmoqda. Axir ular ushbu yangiliklarni yaratishga imkon bergan madaniyatni mustahkamlay olmaydilar va qo'llab-quvvatlay olmaydilar.

Innovatsiya qutichasi

Jamoaga quvvat beradigan va innovatsiyalarni ochiq tarzda yaratishga imkon beradigan mexanizm yaratilishi mumkin. Bu kompaniyalar uchun mavjud bo'lishiga xavf soladigan tahdidlarga qayta-qayta duch kelganida yashab qolishiga imkon beruvchi hayotiy chidamli innovatsiyalar madaniyati sari yo'ldir. Yangi g'oyalarni hech qanday cheklovlarsiz, har qanday uslublar bilan tekshirish mumkin bo'lgan innovatsiyalar "o'yin maydonchasi"ni tavsiya qilishi mumkin. Bunga quyidagicha amal qilinadi: har qanday jamoa tovar yoki xizmatlarni (agar ular bir necha unsurlardan tashkil topgan bo'lsa) "maydoncha"ga joylangan, iste'molchilar yoki hududlarning faqat ma'lum bir segmentiga ixtisoslashgan (yangi mahsulot) unsurlari uchungina tegishli split-testlar ishlab chiqishi mumkin. Shu bilan birga:

1. Tajribani boshidan oxirigacha bir jamoa amalga oshirishi shart.

2. Tajriba aniq belgilangan muddatlarda (odatda oddiy opsiyalar uchun bir necha hafta, agar gap olamshumul innovatsiyalar haqida borsa, uzoqroq) o'tkaziladi.

3. Tajriba mijozlarning ma'lum bir qismiga tegishli bo'lishi kerak (odatda, bu kompaniyaning asosiy mijozlar bazasining foiziga ko'ra belgilanadi).

4. Har bir tajriba besh-o'n (undan ko'p bo'lishi mumkin emas) ta'sirchan ko'rsatkichlardan iborat yagona namunaviy hisobot asosida baholanishi kerak.

5. "Maydoncha"da ishlayotgan har bir jamoa va u yaratgan har bir mahsulot muvaffaqiyatini baholash uchun yagona ko'rsatkichlarni qo'llash kerak.

6. Tajriba o'tkazayotgan jamoa mazkur ish mobaynida ko'rsatkichlar va iste'molchilar munosabatini (qo'llash guruhiga qo'ng'iroqlar, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlar, forumlardagi mavzular) kuzatib borishlari lozim.

Agar munosabat keskin salbiylashib ketadigan bo'lsa, tajribani vaqtincha to'xtatib, sababini tahlil qilish kerak. Dastavval sinov "maydoncha"si kichikroq bo'lishi kerak. Yuqorida ta'riflangan kompaniyaning maydonchasi faqat qiymat ro'yxatidan (price list) iborat edi. Kompaniya yaratayotgan mahsulot toifasiga bog'liq ravishda "maydoncha" o'lchami har xil qilib belgilanishi mumkin. Masalan, onlayn-servis uni saytning ma'lum sahifalaricha yoki foydalanuvchilar oqimi bo'yicha cheklashi mumkin. Chakana savdo kompaniyasi bir necha do'konlari yoki geografik hududlar bilan cheklanishi mumkin. Agar kompaniya mutlaqo yangi mahsulotni bozorga olib chiqmoqchi bo'lsa, cheklov iste'molchilarning alohida segmentiga tegishli bo'ladi.

"Maydoncha"da o'tkazilayotgan tajribalarda real mijozlar ham ishtirok etishi mumkin. Qaytanga innovatsiyalar bilan ishlovchi jamoa mijozlar bilan uzoq muddatli shartnoma yoki munosabatlar o'rnatish uchun imkoniyatga ega bo'lishi mumkin. Alal-oqibatda, jamoa mazkur dastlabki izdoshlar bilan toki o'qish-o'rganish natijalariga erishgunga qadar bo'lgan uzoq muddat mobaynida tajribalar olib borishi mumkin. Innovatsiyalar bilan faoliyat olib boruvchi jamoa imkoni boricha kross funksional bo'lishlari va ularning rahbari Toyota kompaniyasidagi susa (sarkor) kabi vakolatlariga ega bo'lishi zarur. U yuqori rahbariyatning oldindan ma'qullashlarisiz ham sinov "maydoncha" qamrovida mahsulot yoki opsiyani yaratish, bozorga chiqarish, olg'a surishni boshqarish imkoniga ega bo'ladi. Uning loyiha bo'yicha muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik haqidagi hisobotlari ko'rsatkichlar va innovatsiyalar hisobiga asoslangan bo'lishi lozim.

Bunday yondashuvlar avval kompaniyada kross funksional jamoalar mavjud bo'lmagan vaziyatlarda ham samarali bo'lishi mumkin. Dastlabki bir qancha o'zgarishlar, masalan, narxlarni o'zgartirish katta texnik

kuch sarflashni talab qilmasligi ehtimoli mavjud, ammo turli bo'linmalar ishi: kreativlik, marketing, mijozlarga xizmat ko'rsatishni koordinatsiyalashga olib keladi. Agar samaradorlik shunchaki doimiy bandlik emasligini, iste'molchilar uchun qadriyat yaratishni anglatrsa, bunday harakatlanadigan jamoalar birmuncha mahsuldor hisoblanadi. Tajriba muvaffaqiyati yoki omadsizligini boshidanoq aniq mezonlar va ko'rsatkichlar belgilangani uchun baholash oson kechadi. Nima bo'lgan taqdirda ham, jamoa mijozlarning xulq-atvori borasida taxminlari to'g'rimi yoki yo'qligini tez aniqlay oladilar. Jamoa ikkinchi bo'limda bayon qilingan innovatsiyalar hisobini qo'llaganicha, tanho o'zi muvaffaqiyat sari olg'a borish haqida ma'lum qilishi mumkin. Bu hisobotni kim ko'radigan bo'lsa, ko'rsatkichlar qanchalar samarali ekanini ko'rishini mumkin.

Bunday yondashuv juda mahsuldor bo'lib, hattoki kimdir innovatsiyalar jamoasi jonbozligini inkor qilmoqchi bo'lsa, ham, u hech bo'lmaganda, birinchi ko'rsatkichlar va o'qitish bosqichlari nima ekanini tushunib olishi kerak. Bunda "Sinov maydonchasi", shuningdek, tezkor iteratsiyalarga qo'l keladi. Xodimlar loyihani boshidan oxirigacha amalga oshira olsa, oz miqdordagi partiyalar tamoyili bo'yicha ishlasa va aniq yechimlar qabul qilsa, u qayta aloqaning barcha afzalliklariga ega bo'ladi. Agar u ko'rsatkichlarni yaxshilay olmasa, zudlik bilan olingan natijalarga ko'ra biror chorasini topa oladi. Shuning uchun ham, bunday jamoalar eng yaxshi g'oyalardan ish boshlamagan bo'lsada, optimal qarorlar qabul qilishga moyildir. Ko'rib o'tganimizdek, bu ham kichik partiyalar yondashuvi aspektlaridan biridir. U tufayli sinov "maydoncha" jamoaga sezilarli xarajatlarsiz ham xato qilish va shu bilan birga o'qish-o'rganishga tez imkon beradi. Bunday kichik startap tajribalar jamoaning bosh tashkilotda ham tatbiq qilsa bo'ladigan yangi o'suvchan biznesi paydo bo'lganini ko'rsatadi.

Jamoa ichidagi mas'uliyat

Biz o'qitish bosqichlarini yuqoridagi sahifalarda batafsil muhokama qildik. Ichki innovatsiyalar jamoasi uchun ketma-ketlik shu ko'rinishda namoyon bo'ladi: iste'molchilar arketipiga asoslanib, olamshumul innovatsiyalar uchun ideal modelni yaratish, minimal ish mahsulotini ishlab chiqish, asosiy yo'nalishni aniqlash hamda harakatlar strategiyasi ularni idealizmga yaqinlashtiradigan mexanizmni sozlashi kerak. Ushbu model asosida ichki innovatsion jamoalar asosan startaplar kabi harakat qilishadi. Agar ular muvaffaqiyatli bo'lsa, yangi mahsulotlar kompaniyaning umumiy tovar va xizmatlar portfeliga qo'shilishi kerak.

Boshqaruvda vazifalar portfeli

Har qanday kompaniya o'z rivojlanish jarayonida turli xil bosqichlarni bosib o'tadi. Startapning birinchi bosqichida asl g'oyani yaratgan tadbirkorlar ko'lamdorlik muammosini hal qilishi kerak bo'ladi. Kompaniyaning asosiy bozorda yangi mijozlari paydo bo'ladi, u yangi hududlarni zabt etadi, ma'lum obro'ga ega chiqadi. Bu uning PR kompaniyalarida, marketing, sotish va biznesni rivojlantirishda aks etadi. Ular ko'p hollarda mahsulot raqobatchilarni jalb qiladi: taqlidchilar, tezkor izdoshlar va barcha chiziqning taqlidchilari. Yangi mahsulotning bozori ozmi-ko'pmi o'rnatilgandan so'ng protseduralar va jarayonlar barqaror hamda odatiy holga aylanadi.

Maqsadli bozorda mahsulotning ommaviy mahsulotga aylanishiga yo'l qo'ymaslik uchun assortimentni kengaytirish, bosqichma-bosqich yangilanishlar va marketingning yangi shakllarini joriy etish zarur. Ushbu bosqichda operatsiyalarni takomillashtirish muhimdir, chunki bu foyda ulushini ko'paytirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu jarayonlarni boshqarish uchun menejerning maxsus turi kerak: optimallashtirish, vakolatlarni berish va rejaning

bajarilishini nazorat qilishni yaxshi biladigan. Kompaniyaning aksiyalari uning barqarorligi va o'sishini bashorat qilish qobiliyatiga bog'liq. Keyinchalik kompaniya eski mahsulotlar va operatsion xarajatlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan bosqichga o'tadi. Bu bosqich autsorsing, avtomatlashtirish va xarajatlarni pasaytirish sohasidir. Shunga qaramay, hatto ushbu bosqichda ham resurslar, infratuzilma bilan bog'liq muammolar yoki sodiq mijozlarni yo'qotish kompaniyani yo'q qilishi mumkin. Birinchi bosqichlardan farqli o'laroq, hozir investitsiyalar unga tez o'sishga yordam bermaydi. Ushbu bosqichda menejerlar ko'pincha beysbol hakamlariga o'xshaydilar: biron-bir narsa noto'g'ri bo'lsa, ular tanqid qilinadi, ammo aksi bo'lsa, ularga e'tibor bermaydilar. Ushbu bosqichlardan faqat yirik kompaniyalar o'tishi odatiy holdek qabul qilinadi, ular butun bo'limlarga va yuzlab, hatto minglab xodimlarga ta'sir o'tkazishi mumkin. Bu mantiqan to'g'ri keladi, chunki bunday indikativ vaziyatlarda biznesni rivojlantirish jarayonini kuzatish eng oson ishlardan. Aslida, har qanday kompaniya, qanchalik katta bo'lmasin, rivojlanishning ushbu bosqichlaridan o'tadi. Mahsulot bozorga chiqqandan so'ng, jamoa biznesni keyingi bosqichga o'tkazish uchun astoydil harakat qiladi. R&D kompaniyasida yaratilgan va kompaniya strategiyasiga kiritilgan har bir muvaffaqiyatli mahsulot yoki variant vaqt o'tishi bilan optimallashtirilgan va eskirgan edi. Boshlang'ich korxonalar va yirik kompaniyalar uchun ham muammo shundaki, xodimlar ishbilarmonlik bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarni tez-tez "kuzatib boradi". Odatda, yangi mahsulot yoki variantni yaratuvchilarga uni bozorga chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarni, guruhni yoki bo'limni boshqarish vazifasi yuklatilgan. Natijada, yangi narsalarni yaratishda eng yaxshi bo'lgan ijodiy menejerlar mahsulotni ishlab chiqarish va optimallashtirish bilan bog'liq dunyoviy vazifalar bilan shug'ullanishlari kerak. Bu barqaror kompaniyalarga innovatsion jarayonni boshqarishi mumkin bo'lgan ijodiy menejerlarni topishni qiyinlashtiradigan

sabablardan biridir. Har bir innovatsion loyiha barqaror loyihalar bilan resurslar uchun raqobatlashadi va eng qimmat va noyob manbalardan biri iste'dodli odamlardir.

Tadbirkorlik – bu og'ir yuk

Bunday vaziyatda nima qilish kerak? Yechim – har xil vazifalarni boshqacha tarzda boshqarish, har bir sohada individual faoliyat guruhlarini yaratish. Yangi mahsulot ishlab chiqarish loyihasi bir bosqichdan ikkinchisiga o'tsa, u jamoadan jamoaga o'tkaziladi. Xodimlar mahsulot bilan jamoadan jamoaga o'tishlari yoki o'sha joyda qolishlari va yangi narsalar ustida ishlashni boshlashlari mumkin. Bu vaziyatda ikkala tanlov ham afzal emas, barchasi har bir insonning xarakteriga va o'z mahoratiga bog'liq. Ayrim odamlar – tug'ma ixtirochi, ular yaratuvchilikning oxirgi bosqichlariga xos bosim, kutishlar nimaligini bilmasdan ishlashni yaxshi ko'rishadi. Ayrimlar kalondumog'li odamlar innovatsiyalarni rahbarlikka yuksalish uchun narvon o'rnida ko'rishadi. Ayrimlar esa istiqbolli biznes, autsorsingni boshqarish, samaradorlikni tutib turish va xarajatlarni qisqartirishga usta bo'ladi. Odamlarga o'zlarining qo'lidan keladigan ishni qilish imkoniyatini berish kerak. Tadbirkorlik novatorlar uchun yirik tashkilotlarda lavozim pillapoyalaridan ko'tarilish uchun eng yaxshi yo'l bo'lishi mumkin. Shunda jamoalarni boshqarish va "tejamkor startup" tizimi bo'yicha ishlash layoqatiga ega menejerlarga, o'zligini namoyish qilish maqsadida kompaniyani tark etish yoki an'anaviy funksional bo'linmalarning metin iyerarxiyasiga moslashish uchun harakat qilishiga to'g'ri kelmaydi. Bularning o'rniga vizit kartochkalarida: "Falonchi. Tadbirkor" deb yoziladi. Bori shu. Bunday menejerlar innovatsiyalar hisobining tizimidan foydalanganicha boshliqqa hisobot berishi va qo'lga kiritgan natijalariga loyiq taqdirlanishi lozim. Mahsulot "innovatsiyalar maydonchasida" paydo bo'lganidan keyin yana uni bosh

tashkilotgaintegratsiyaqilishkerak. Buyerda yangi mahsulotni chiqarish, bozorga realizatsiya qilish va iste'molchilarni jalb qilish uchun ko'psonli jamoa zarur. Bu vazifalarni bajaruvchi jamoa uchun avvalo "maydoncha"da mahsulotni tajribadan o'tkazgan novatorlar yordami amalga oshiriladi. Bu esa yaxshi imkoniyat demakdir, novatorlar o'zlari "maydoncha"da amal qilgan yangicha ishlash usuliga jamoa a'zolarini ham o'rgatishi mumkin. G'oyaning mohiyatiga ko'ra, vaqt o'tgan sayin eksperiment maydonchasi o'sa boradi: innovatsiyalar jamoasini "eksperiment maydoncha"dan kompaniyaning andazaviy ish sharoitlariga o'tkazish uchun, "maydoncha" hajmini oshirish kerak. Masalan, "maydoncha"dagi tajribalar mahsulotning ayrim aspektlariga daxldor edi, endi uning yoniga Yangi tanlovlarni ham qo'shsa bo'ladi.

Yuqorida ta'riflangan vaziyatda, buni oldin "maydoncha"ga faqat narx paydo qilishni joylashtirish bilan amalga oshirish mumkin. Bu tajribalarning natijalariga ko'ra, kompaniya "maydoncha"ga veb-saytning rasmiy sahifasini qo'shishi maqsadga muvofiq. So'ng qidiruv funksionalini yoki umumiy veb-dizayni. Agar boshlanishida maqsadli guruhga alohida foydalanuvchilar yoki ularning ma'lum bir qismi qo'shilgan bo'lsa, endi navbat yangilarini jalb qilishni o'ylashga keladi. Bu o'rinda kompaniya rahbarlari bosh tashkilot tomonidan "eksperiment maydoncha"da ishlayotganlarga bosim o'tkazmasligi uchun qayg'urishi kerak. "Maydoncha" ularning va bosh kompaniyaning muhofazasi uchun zarur va maydonchani kengaytirish g'oyasi tug'ilsa, bu haqda unutmash kerak. Innovatsiyalar maydonchasida ishlash muskullarni chiniqtirishdek gap. Bir maqsad yo'lida birlashgan jamoa dastavval kichik tajribalarni o'tkazib ko'radi. Ehtimol, dastlabkilari unchalar muvaffaqiyatli chiqmasligi va hech qanday foyda bermasligi mumkin. Ammo, vaqt o'tishi bilan yaxshi, kerak bo'lsa, mukammal ishlashi, oxir natijada, kichik partiyalar bilan ishlashi hamda ta'sirchan ko'rsatkichlar sharofati bilan doimiy tarzda qayta aloqalarni ola boshlaydi.

Shu bilan birga o'qish-o'rganish ham tobora samarali bo'la boradi. Albatta, har turdagi innovatsiyalar tizimi yakunda o'z muvaffaqiyati qurboniga aylanadi. "Maydon" kengayadi, unda yaratilgan innovatsiyalar tufayli kompaniya daromadlari barqarorlashadi va shu tarzda sikl yana boshidan boshlanadi. Sobiq novatorlar status-kvo tarafdorlariga aylanishadi. "Maydoncha"da, shak-shubhasiz, kompaniya missiyasi uchun zarur bo'lgan qarorlarni hal qilish maqsadida qo'shimcha qoidalar va nazorat vositalari yuzaga keladi. Yangi innovatsiyalar jamoasiga esa erkin tajribalar o'tkazish uchun yangi "maydoncha" majburiyati tug'iladi.

KVO statusiga o'tish

